



YOSH MAQOMSHUNOSLAR MINBARI

28/03/2024

Respublika talabalar ilmiy-amaliy
konferensiyasi



MAQOLALAR TO'PLAMI

Toshkent-2024

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
YUNUS RAJABIY NOMIDAGI
O‘ZBEK MILLIY MUSIQA SAN‘ATI INSTITUTI**



“YOSH MAQOMSHUNOSLAR MINBARI”
Respublika talabalar ilmiy-amaliy konferensiyasi



MAQOLALAR TO‘PLAMI

TOSHKENT – 2024

UO‘K: 78.071.1(575.1) (092)

BBK: 85.31g(5O‘zb)

A 40

“Yosh maqomshunoslar minbari” [Matn] mavzusidagi Respublika talabalar ilmiy-amaliy konferensiya // Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti. – Toshkent - 2024. 222-bet.

Tahrir hay’ati a’zolari:

A.Abdurashidov - O‘zMMSI “O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi” kafedrası dotsenti.

A.Sunnatillayev - O‘zMMSI Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i.

X.Xaydarov - O‘zMMSI “O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi” kafedrası katta o‘qituvchisi.

N.Haydarova - O‘zMMSI “O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi” kafedrası o‘qituvchisi.

G.Abdusamatova - O‘zMMSI “O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi” kafedrası o‘qituvchisi.

J.Sherimmatov - O‘zMMSI “O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi” kafedrası katta o‘qituvchisi.

Z.Shukurov - O‘zMMSI “O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi” kafedrası o‘qituvchisi.

B.Shamshiyeva - O‘zMMSI “O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi” kafedrası o‘qituvchisi.

S.Tojiboyev - “O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi” kafedrası katta o‘qituvchisi.

Taqrizchilar:

A.Zokirov – O‘zMMSI O‘quv ishlari bo‘yicha prorektori.

Ch.Ergasheva – O‘zDK “O‘zbek musiqa tarixi” kafedrası mudiri, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Ushbu to‘plamda **“Yosh maqomshunoslar minbari”** mavzusidagi Respublika talabalar ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari joy olgan bo‘lib, unda maqom san’atining ilmiy-nazariy masalalari, maqom san’atining ijrochilik an’analarini, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat, sharqona musiqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash borasidagi masalalarga bag‘ishlangan iqtidorli talaba yoshlarning ilmiy maqolalari o‘rin olgan.

Mazkur to‘plam materiallari O‘zMMSI Badiiy, o‘quv-uslubiy kengashining 2024-yil “29” - fevraldagi 7-son qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.



“Agar biz asl, haqiqiy san’atni bilmoqchi, o’rganmoqchi bo’lsak, avvalo mumtoz maqom san’atini bilishimiz, o’rganishimiz kerak. Agar biz san’atni, madaniyatni ko’tarmoqchi bo’lsak, avvalo mumtoz maqom san’atini ko’tarishimiz kerak. Maqom ohanglari, maqom ruhi va falsafasi har bir inson qalbidan, avvalo, unib-o’sib kelayotgan yosh avlodimizning ongi va yuragidan chuqur joy olishi uchun bor imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur”.

SHAVKAT MIRZIYOYEV
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

TABRIK SO‘ZI



Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Ma'lumki, so'nggi yillar Yangi O'zbekistonni barpo etish va Uchinchi Renessans poydevorini yaratish, degan ezgu g'oya asosida barcha sohada juda katta amaliy ishlarga qo'l urilmoqda. Xususan, bebaho madaniy merosimizni asrab-avaylash, qadimiy yodgorliklarni keng miqyosda tiklash, uni dunyo ahliga tanitish, madaniyat va san'at, turizm sohasini rivojlantirish hamda xalqaro mezonlar darajasiga olib chiqish bo'yicha ulkan qadamlar tashlandi.

Ta'bir joiz bo'lsa, millatimiz taqdirida yangi, buyuk ma'rifiy bosqich boshlandi desak mubolag'a bo'lmaydi. Buni madaniyat va san'atimiz rivoji yo'lida qilinayotgan ezgu sa'y-harakatlar misolida ham ko'rish mumkin.

Bugungi kunda barkamol shaxslarni tarbiyalash, yosh iste'dod egalarining qobiliyati va salohiyatini ro'yobga chiqarish, ustoz-shogird an'anasini davom ettirish masalalari davlatimizning ustuvor vazifalariga aylanib bormoqda. Davlatimiz tomonidan yoshlarning har tomonlama

barkamol va yetuk, Vatan taraqqiyotiga munosib hissa qo'sha oladigan insonlar bo'lib, yetishishlari uchun barcha sharoitlar yaratilib, katta e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatilmoqda. Zero, yoshlar – har qanday jamiyatning ertasidir.

So'nggi yillarda davlatimiz rahbari tomonidan madaniyat va san'at, ilm-fan sohasini yanada rivojlantirish maqsadida qator Farmon va qarorlar qabul qilinmoqdaki, bu amalda keng imkoniyatlar eshigini ochib, ijodiy yutuqlar, xalqaro miqyosdagi e'tiroflarga zamin yaratmoqda. Jumladan, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3391-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil, 30-avgustdagi "Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4433-sonli qarori, 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-son farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni, 2022-yil 2-fevraldagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-112-son qarori, 2023-yil 27-iyuldagi "Ma'muriy islohotlar doirasida madaniyat va turizm sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-114-son farmoni, 2023-yil 30-avgustdagi "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish va soha vakillari faoliyatini qo'llab-quvvatlash choralari to'g'risida"gi PQ-289-son qarorlari hamda 2024-yil "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" Davlat dasturidagi vazifalar ayniqsa, yoshlarni ilm-fanga qiziqtirish, ilmiy-innovatsion faoliyatga keng jalb etish, yoshlarning ijodiy, ta'lim sifatini oshirishga erishish, intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, iqtidorli talabalar, yosh olimlarning innovatsion faoliyatini rag'batlantirish, ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish, oliy ta'lim muassasalariga investitsiyalarni keng jalb qilish, pullik xizmatlar ko'lamini kengaytirish va boshqa budjetdan tashqari

mablag‘lar hisobiga oliy ta‘lim muassasalarida biznes inkubator, startup, ilmiy-tadqiqot markazlarini tashkil etish hamda ularni tegishli tarmoq, soha va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tadqiq qiluvchi va prognozlashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy markazlar tashkil etish, ilmiy salohiyatni yuksaltirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va smart-texnologiyalarni joriy etish orqali ta‘lim muassasalarida o‘qitish innovatsion sifatini yanada yaxshilash, elektron modullar tashkil etish vazifalari yuklatilgan. Ushbu vazifalar ijrosini ta‘minlash bo‘yicha respublikamizda bir qator ishlar, jumladan, Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san‘ati institutida ham yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, ta‘lim jarayoniga o‘qitishning innovatsion shakl va metodlari hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini keng joriy etish, soha mutaxassislarining ilmiy salohiyatini yanada oshirish, ta‘lim tizimida malakali mutaxassislar tayyorlash, iqtidorli talaba yoshlarni ilm-fanga keng jalb etish, OTMning jozibadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy-innovatsion ishlanmalari, starap loyihalarini amaliyotga keng joriy qilish, ilmiy-innovatsion ishlanmalarini tijratlashtirish borasida jadal ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 18-yanvardagi “2024-yilga mo‘ljallangan xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 16-son buyrug‘i va ushbu buyruq bilan tasdiqlangan 2024-yilda respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy texnik tadbirlar rejasi 26/9 bandiga muvofiq o‘tkazilayotgan “Yosh maqomshunoslar minbari” Respublika talabalar ilmiy-amaliy konferensiyasi ana shu ishlarning amaliy davomi sifatida e‘tirof etish mumkin. Konferensiyaning bunday nomlanishi bejiz emas. Shu kunga qadar musiqashunoslik sohasining nazariy, tarixiy, etnomusiqashunoslik, musiqiy-manbashunoslik yo‘nalishlari singari maqomshunoslik atamasi yangi davr ya‘ni 2020-yil Yunus Rajabiy nomidagi o‘zbek milliy musiqa san‘ati instituti tashkil topgandan so‘ng keng qo‘llanila boshlandi.

Ishonamizki, mazkur anjuman doirasida maqom san‘atiga oid alohida mavzular bo‘yicha tashkil qilinayotgan munozara maydonlari bu yo‘nalishlarda o‘zaro tajriba almashish, istiqboldagi o‘zaro manfaatli hamkorlik imkoniyatlarini belgilash, yangi g‘oya va loyihalarning

boshlanishiga, maqomshunoslik yoʻnalishining rivojlanishiga turtki beradi.

Ushbu anjumandan koʻzlangan asosiy maqsad, yosh iqtidorli talabalarni ilm-fanga keng jalb etish, maqom sanʼatining ilmiy-nazariy masalalari hamda azaliy ijro anʼanalarini tadqiq etish, yosh avlodni Vatanga muhabbat, sadoqat va maqom ohanglari ruhida tarbiyalash borasidagi masalalarni oʻrganish konferensiya mavzularining asosiy yoʻnalishlaridan biridir.

Men yana bir bor tashkilotchilar va barcha ishtirokchilarni bugungi anjuman bilan chin dildan tabriklayman va konferensiya ishiga muvaffaqiyatlar tilayman.

Eʼtiboringiz uchun rahmat.

Zokirov Azizjon Rayimjonovich,
Yunus Rajabiy nomidagi
Oʻzbek milliy musiqa sanʼati instituti
Oʻquv ishlari boʻyicha prorektori.

MUMTOZ MUSIQA TARIXI YOSHLAR NIGOHIDA



XORAZM MUMTOZ MUSIQA SAN'ATIDA XARRATOVLAR SULOLASI

Go'zal RAXIMBOYEVA,

O'zDK, San'atshunoslik: (musiqashunoslik)

ta'lim yo'nalishi 4 kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Ravshanoy TURSUNOVA,

O'zDK, dosenti (v.b.), san'atshunoslik fanlari bo'yicha

falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Maqolada Xorazm musiqa san'atining yorqin sulolalaridan biri bo'lgan Xarratovlarning ijodiy me'rosi va o'zbek mumtoz musiqa san'ati rivojiga qo'shgan hissalarini yoritilgan.

Kalitli so'zlar: Xorazm, maqom, Xarratovlar, sulola, sozanda, musiqiy sozlar, musiqiy me'ros.

San'atimizning gultoji bo'lmish mumtoz musiqa tarixi va an'alarini o'rganish jarayonida sozanda va hofizlarning o'rnini alohida e'tirof etishimiz tabiiy, chunki ularning yaratgan kuy qo'shiqlari va o'ziga hos aytim yo'llari mumtoz san'atimizning poydevoriga tamal toshini qo'ygan desak mubolag'a bo'lmaydi. XIX asrdan e'tiboran mamlakatimizning qadimiy vohasi Xorazm mumtoz musiqa san'atini ham musiqiyshunos ilmi tomonidan o'rganilib bu borada tadqiqot ishlari baholi qudrat amalga oshirildi.

Xorazm mumtoz musiqasi haqidagi ilk ma'lumotlar XII asrga taaluqli bo'lib bugungi kunda yaxlit va shakllangan qarashlar tizimidan tashkil topgan. San'atkorlarning yorqin va betakror ijodiy faoliyati bu borada alohida e'tiborga sazovor. Xarratovlar sulolasi shular jumlasidan. Mazkur san'atkorlarning nomlari hurmat va iftihor bilan tilga olinishi bejiz emas, zero sulolaning alohida vakillari Xorazm musiqa san'ati taraqqiy etishida o'z o'rnini va mavqein egalladilar, ularning ijrosi va talqinidagi benazir ijodiy na'munalar buning yorqin isbotidir.

Sulola vakillari qoldirgan boy musiqiy me'ros san'at shina vandalari, hofizlar va sozandalar tomonidan ijro etilib, musiqiyshunoslar tomonidan ham tadqiq qilingan.

Xarratovlar sulolasining eng birinchi vakili- sulolaboshi Muhammad Yoqub Xarrat (Matyoqub Xarratov)¹ (1867-1939)dan boshlanib, uning o'g'li Matyusuf Xarratov (Chokar)² (1889-1952) va so'nggi avlod vakili Fozil Xarratovlar (1924-1971) shuningdek, san'at olamiga qadam qo'yib nom chiqarishga ulgurgan to'rtinchi avlod vakili misolida ko'z o'ngimizda gavdalanadi.

Xarratovlar sulolasi vakillari haqidagi ma'lumot Xorazm musiqa san'atidagi tadqiqotlarning eng asosiy sarlavhalaridan o'rin egallagan. Jumladan, Matyoqub Xarratovning Xorazm maqom chertim (mansur) yo'llarida ijro etgani va o'z vaqtida musiqashunoslar Y.Y.Romanovskaya va I.Akbarov tomonidan yozib olinganligi, Matyusuf Xarratov esa "Xorazm musiqiy tarixchasi nomli" kitobchani yaratilishida samarali mehnat qilgani va milliy ijrochilik borasida Fozil Xarratov, jumladan sozandaning chang sozida ijro etgan bir-biridan go'zal kuylari ham bunga asos bo'ladi.

Xorazm musiqa maktabida sulolaviylik an'alariga e'tiborimizni qaratar ekanmiz sulolani ularni birlashtirib turuvchi oilaviy omillar va sulola faoliyatida ustun bo'lgan jihatlarni belgilash joiz. Eng avvalo sozandalik an'analari bu avlodda katta bir maktabni tashkil qilgan. Sulolaboshi Matyoqub Xarratovdan tortib to uchinchi avlod vakili Fozil Xarratov, yosh avlod vakili Abror Xarratov ijodiy izlanishlarida an'ana rivoj topib davom ettirildi. Chang cholg'usi bilan birga sulola vakillari turli milliy sozlarda mohir ijro qilganlar bu esa, ular tomonidan yozilgan milliy sozlar uchun asarlar yaratilishida namoyon bo'ldi.

Milliy sozlarimiz haqida gap ketganida sulolaning birinchi vakili Matyoqub Xarratovning mohirona ijro qiladigan sozlari: tanbur, g'ijjak, dutor, doira bo'lgan, ya'ni, Xorazm maqom ijrochilik san'atida bilish lozim bo'lgan cho'gulardan tashkil topgan. Xorazm maqom san'atida ikkita asosiy yo'nalish dutor va tanbur maqomlari mavjud bo'lib Matyoqub Xarratov maqomdon sozanda sifatida mumtoz musiqa

¹ Muhammad Yoqub Xarratning ismi amaliyotda Matyoqub Xarratov bo'lib, Xarrat bu Xorazm vohasida yog'och buyumlar yasab, shu hunar bilan shug'ullanuvchilarga nisbatan aytilgan.

² Chokar – Matyusuf Xarratovning adabiy tahallusi

san'atini yaxshi bilgan. O'z vaqtida uning iqtidori xon e'tiborini tortib ma'lum muddat davomida, u saroyda faoliyat olib borgan. Keyinchalik 1923- yilda Xivada tashkil etilgan bolalar musiqa maktabida ish faoliyatini davom ettiradi.

Matyoqub Xarratov maqom yo'llarida yaxshi ijro qilishi bilan birgalikda Xorazm tanbur chizig'ining nodir nusxalarini yaratishda boshqosh bo'lgan va ikki jildlik hashamatli qo'lyozma holiga keltirdi. Hozigi kunda ushbu qo'lyozma O'zbekiston davlat arxivida saqlanmoqda.

Bu davr ichida sulolaning ikkinchi vakili Matyusuf Xarratov ham sozanda va betakror xattot sifatida xalqqa taniladi. Sozandalik faoliyatida ko'plab sozlarni yaxshi ijro qilib bilgan, jumladan, tanbur, g'ijjak, santur, dutor, garmon, chang kabilar shular jumlasidan.

Sulola vakillarining bastakorlik faoliyatida ham e'tiborga sazovor. Matyoqub Xarratov ko'plab kuy qo'shiqlar muallifi-"Kolxozga boraylik", "Komsomol marshi", "Paxtachilik yashnasin", "Sayil va kolxoz to'yi", "Mustahzod uforisi", "Sevikli vatan" (1941-yil, she'ri va muzikasi M.Xarratov), "Farhod ufori"(1943-yil, Matyusuf Xarratov she'ri va muzikasi), Xorazm lapar va yallalarini aks ettiruvchi "O'zing", "O'lmag'aysiz", "Ey mehribonim", "Mustahzod" kabi milliy ruhdagi asarlarni shu jumladan.

Matyusuf Xarratov sozandalik bilan bir qatorda Chokar tahallusi ostida adabiy janrda ham ijod qiladi va shoir sifatida yaratigan bisoti ichida uchta devon yozib qoldirgan: "G'azaliyoti chokar" devonida 4288 misradan iborat 283 g'azali, ikkinchi devonida 5044 misradan iborat 389 g'azali, va uchinchi devonida 856 misradan iborat 100 dan ortiq g'azallari o'rin olgan.

1937-yilda O'zbek san'atining Moskvada o'tkazilgan Butunittifoq dekadasida Xarratov qatnashib chang sozining serjilo ohanglari bilan tomoshabinlarni hushnud qiladi, shu yilning o'zida Xorazm ashulalaridan 47 tasini notaga olib ularni 1939-yili nashr qildirgan. Muallifning asarlari "O'zbek xalq qo'shiqlari" to'plamining birinchi jildidan munosib o'rin oldi.

Matyusuf Xarratov xarrotlik kasbini bilganligi uchun chang sozini ham takomillashtirish maqsadida, yarim xrommatik tovushqatorga ega chang sozini yaratdi. Ushbu an'ana shunday tuzilishda chang asbobi sozandalari tomonidan qo'llanilib kelinmoqda. Chang sozini mohirona

ijro qilish qobiliyati Matyusuf Xarratovning og‘li Fozil Xarratovga o‘tadi va u ham tez orada el orasida sozanda sifatida taniladi.

Fozil Xarratov yoshligidan boshlab otasidan turli sozlarni chalish mahoratini o‘rganadi. Xususan, doira, g‘ijjak, tanbur, nay, tor, rubob, garmon va chang kabi asboblarda astoydil chalishni o‘zlashtiradi, ammo, chang soziga alohida mehr qo‘ydi.

Kasbiy mahoratini oshirish maqsadida u 1947-yili Hamza nomidagi musiqa bilim yurtiga o‘qishga kiradi. Ijod davrida bir qator O‘zbek xalq kuylarini mukammal ijro etishni o‘rganadi, “Sayqal”, “Segoh”, “Mirzadavlat”, “Duchava” kabilar shular jumlasidandir.

1944-yilda O‘zbek davlat filarmoniyasi qoshida A.I.Petrosyans rahbarligida “O‘zbek xalq cholg‘ulari” orkestri ochiladi va Fozil Xarratovni changchi sozanda sifatida jamoaga taklif qilinadi. Ushbu davrda sozandaning ijro repetuari kengayib boradi va xalq bastakorlarimiz asarlari “Gulbahor va Tanovar”, “Eshvoy qal‘abandi”, “Aliqambar”, “Norim-norim” bilan birga jahon xalqlari musiqasi, xususan, J.Bizening “Karmen” operasidan uvertyura, F.Shopenning mashhur valslari, F.Listning “2-Vengercha rapsodiyasi”, A.Xachaturyanning “Gayane” kabilar tashkil qildi.

Fozil Xarratov ko‘plab jahon sahnalarida chang sozini ijro qilib milliy ohanglarimiz tarovatini namoyish qilishga muvaffaq bo‘ldi. Moskva (1941-y), Xitoy Respublikasi (1950-y), Ukraina (1952), Belorussiya bo‘ylab gastrol safarlarida bo‘lgan.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida ildiz solgan sulola vakillarining Xorazm san‘atidagi o‘rni hozirgi kungacha ilmiy, ijodiy jarayonlarda tilga olinadi. Buning sababi ularning san‘atining yuqori kasbiy kuchi, ishiga bo‘lgan mehri va sadoqati bilan ajralib turgan.

Izohli lug‘atda “sulola” atamasi (lotin tilidan – “dinastia”) – hokimlik, kuch-qudrat ma’nosini bildirib, oila tushunchasiga nisbatan dastlab siyosiy ma’noda, so‘ng esa, insonlarning kasbiy faoliyatiga, kasblariga nisbatan qo‘llanilgan” [1] – bundan ko‘rinib turibdiki Xarratovlar sulolasi vakillarini ham birlashtirib turuvchi omillar mavjud.

Xususan, Matyoqub Xarratovning otasi Qurbon Xarrotan boshlangan xarrotlik (yo‘nuvchi, yog‘och usta) san‘ati sulolaning ikkinchi vakili Matyusuf Xarratovga kelib o‘zining samarasini ko‘rsatdi va chang sozining mohir ijrochisi bo‘lgan M.Xarratov uni

takomillashtirib dilrabo kuylar yangrashi uchun imkoniyatlar darajasini ochib berdi. Yana boshqa tomondan sozandalik kasbi, sulola vakillarining ko‘plab sozlarda ijro qila olishi ham e‘tiborga molikdir. Bundan kelib chiqadiki, ularning xarrotlik san‘atini bilishi va ohangni yaxshi his qilishi ularga soz chalishda yordam bergan.

Sulola vakillarining yetuk sozanda bo‘lganligi haqidagi ma‘lumotlarni ular ijrosida mumtoz musiqamizning yuqori na‘munalari tasma va plastinkalarga yozib olinishi, kitob holda chiqarilgani belgilaydi. Xarratovlar sulolasining uchta vakili ham kuylarni ijro etish orqali maqom yo‘llarining saqlanib qolinishiga o‘z hissasini qo‘shdilar.

Shunday ekan Xarratovlar sulolasining davomchilari, sulolaboshi va avlod vakillari boshlagan ishlarni davom ettiradi va musiqa san‘atida ularning nomlari mangu barhayot yashaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Tursunova G. Musiqiy sulolaviylik fenomeni. //Musiqqa ilmiy-uslubiy jurnal. 4/2018. 61-62 b.

2. Xorazm maqomlari: 3-tomlik /To‘plovchi va notaga oluvchi M.Yusupov; I. A. Akbarov tahriri ostida. – T.:Adabiyot va san‘at nashr., 1980 (1-jild); 1982.(2-jld).

3. Xorazm musiqiy tarixchasi / Mulla Bekjon Rahmon O‘g‘li, Muhammad Yusuf Devonzoda. Nashrga tayyorlovchi Botir Matyoqubov; mas‘ul muharrir Hamidulla Boltaboev. – Toshkent: MUMTOZ SO‘Z, 2014. – 64 b.

4. Shukurova F. Cholg‘u ijrochiligi tarixidan. /Toshkent – 2005. – 120 b.

5. Olimboeva K., Ahmedov M. O‘zbekiston xalq sozandalari. /O‘z dav badiiy adabiyot nashiriyoti, 1959.

ТРАДИЦИОННАЯ МУЗЫКА В ВОСПРИЯТИИ МОЛОДЕЖИ

Лейла ХАН,

Государственная консерватория Узбекистана,

«Музыковедение» - 4 курс

Научный руководитель: Элнора МАМАДЖАНОВА,

Кандидат искусствоведения, профессор

***Аннотация:** В статье рассмотрена роль традиционной музыки в восприятии и воспитании молодежи и предложены различные методы в популяризации и прививанию любви к данному направлению музыки в кругу не музыкальной общественности. Мы, будучи социумом XX – XXI веков являемся свидетелями и непосредственными участниками масштабного прогрессивно – развивающегося процесса музыкального сознания. Рамки нашего сознания раздвигают стены, углубляя свои познания в данной области, возрождая искусство различных далеких исторических эпох не только как предмет научного интереса, но и как один из составляющих элементов в современной художественной жизни XXI века.*

***Ключивые слова:** традиционная музыка, маком, искусства.*

В музыкальной культуре Узбекистана с каждым днем увеличивается весомая значимость традиционного национального искусства, что привело к актуализации этической и эстетической стороны познания ценностных особенностей макомов, отвечающие художественным и духовным тяготам современного слушателя. Макомы как жанр профессионального искусства устной традиции уходит корнями в народное творчество и является его художественным выражением, что непосредственно является весомой причиной для познания традиционной музыки не только представителям и деятелям музыкальной культуры, но и, репрезентантам других видов деятельности.

В мировом музыкознании все большее внимание уделяется теоретическим основам и многовековым традициям макомов, сложившихся на мусульманском средневековом Востоке. Ибо в этих классических традициях нашли свое отражение

жизнеутверждающие художественные закономерности, которые сложились благодаря творческому гению великих предков. В данный период времени, именуемым как «Третий ренессанс», возрождаются национальные ценности, обретающие устойчивое место в духовной составляющей народа, что способствовало возникновению благоприятных условий для широкой популяризации бесценного наследия наших предков.

Стимулом к тому, что маком стал актуальной проблемой и развивался уже в другом измерении явилось постановление главы государства «О мерах по дальнейшему развитию узбекского национального искусства маком» от 17 ноября 2017 года и последовавшая за ним Концепция дальнейшего развития национальной культуры в Республике Узбекистан, утвержденная постановлением Президента 28 ноября 2018 года.

Растущая популярность жанров музыкальной классики Востока свидетельствует о их актуальности, способности транслировать мысли и эмоциональные состояния современного индивидуума. Это объясняет возникновение острой потребности в организации серьезных научно-практических и научно-теоретических дискуссий с целью поиска средств, которые позволят удовлетворить требования современности, часто предъявляемые многонациональной аудиторией, не нарушая при этом глубины, строгости и цельности музыкальных образов классического восточного искусства.

Вне сомнений, без углубленного проникновения в суть искусства макома будет весьма трудно осознать природную эссенцию данной музыки. Исходя из вышеуказанного следует понять, что развитию макомного искусства следует уделять непрерывное внимание. Нам, представителям музыкальной культуры следует задействовать все необходимые возможности для того, чтобы музыка макома, его философия заняли прочное место в сердцах наших современников и, младшего поколения.

Воспитание молодого поколения в духовной философии высоких традиций макомного искусства представляет собой значимый аспект формирования индивидуальных качеств личности. В древности ученые и философы Востока также придерживались

мнения о том, что музыка является божественным даром. Они считали, что музыка служит пищей для души и разума человека, способствуя созданию благоприятного настроения и оздоровления.

Традиционная музыка прежде всего обладает духовным началом. При обсуждении этого вопроса необходимо разобраться в этимологической составляющей термина «маком». Широко известно, что термин «маком» имеет арабское происхождение и переводится как «место» или «стоянка». Однако стоит обратить внимание на некоторое различие в суфийской лексике касающееся этого же термина. В суфийской лексике термин «маком» употребляется обычно с понятием «хал», что буквально переводится как «состояние». Единственная разница заключается в том, что если термин «хал» обозначает не устойчивое, подвижное состояние души в постижении истины (хак), то маком как определенная ступень, стоянка на пути к Богу[1]. Из чего можно сделать вывод, что сама музыка макома, ее философская и духовная сущность, также представляют собой дополнительный метод постижения истины через познание и изучения музыкальных аспектов звучания, а также через понимание ее глубоко смысла. Макомное искусство будучи музыкальной культурой медитативного характера является непосредственно отличительным способом успокоения души, о чем говорили еще древние мыслители и философы, из этого следует, что, слушая и погружаясь в звучание макома, мы прежде всего обогащаемся духовно и морально.

Сама практика обучения макомному искусству, как было упомянуто ранее, является изустной. Данная традиция известна как «устоз – щогирд». Особенность этой традиции заключается в том, что музыкальный репертуар педагога передавался ученику исключительно изустным путем. Однако следует отметить, что вместе с восприятием учебного процесса, педагог занимался также воспитанием своего ученика. Учитель передает ценности, традиции и знания своему ученику. Макомное искусство также непосредственно способствует и воспитывает развитию у молодежи уважения, нравственности и других положительных личностных качеств.

В настоящее время, в эпоху XXI века, молодое поколение сохраняет важность и ценность наследия наших предков. Однако, значительный интерес к макомному наследию проявляется преимущественно с академической точки зрения представителей музыкальной культуры. Почему же происходит таковой исход, несмотря на создание оптимальных условий для популяризации и прогрессивного развития искусства макома. Необходимо отметить, что молодое поколение в первую очередь утонуло в богатом разнообразии музыкальных направлений. Это академическая музыка, традиционная, джаз, а также многочисленные современные музыкальные направления, и многие другие жанры. Для того, чтобы молодое поколение лучше воспринимало традиционную музыку, необходимо с детских лет прививать любовь к национальным традициям. Ведь одна из основных причин незаинтересованности или же непонимания традиционной музыки является недостаточная осведомленность слушателя, его недостаточное знание данного жанра или полное отсутствие знакомства с ним.

Музыкальное звучание макомного искусства, обладающее глубоким содержанием, представляет собой жанр с высокой степенью сложности в разностороннем плане. Следовательно, если молодое поколение будет малоознакомлено с традиционной музыкой, то им будет затруднительно осмыслить и усвоить данное музыкальное направление.

Изучение традиционной музыки с раннего детства через информативные, исполнительские, творческие методы, а также анализа приведет к возникновению интереса и более глубокой музыкальной подготовки. Обучение традиционной музыке через использование методики «устоз – шогирд» способствует возрождению древних традиций и значительно улучшает восприятие музыки данного жанра. Несмотря на важность практических занятий, необходимо помнить о теоретической и в целом информативной базе, которая позволяет ознакомить начинающего ценителя музыки с историческими особенностями и музыкальными тонкостями традиционной музыки.

Искусство макомов является классическим образцом музыкального творчества народов Востока. Это замечательное

высокохудожественное творение. Плод многовековых традиций народно-профессионального искусства, которое передавалось из поколения в поколение и с течением времени приобрело совершенную форму. Нам как молодому поколению следует не только активно приобщаться к традиционной музыке, но и стараться ее развивать, пропагандировать и приложить все усилия для ее сохранения.

Список литературы:

1. Матякубов О. «Феномен узбекской классической музыки – маком», «Янги аср авлоди», Т., 2018.
2. Международный музыковедческий симпозиум, «Профессиональная музыка устной традиции народов Ближнего и Среднего Востока и современность». Издательство им. Г. Гуляма, Ташкент, 1981.
3. Эргашева Ч. Диссертация «Ўзбек касбий мусиқасида назира анъаналари». Ташкент – 2018.

KARIMA OLIMBOYEVA (AXMEDOVA) VA O‘ZBEK FOLKLORSHUNOSLIGI.

Mahmuda O‘RALOVA,
*O‘zDK, San’atshunoslik: (musiqashunoslik)
ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi.*
Ilmiy rahbar: Munajat A’ZAMOVA,
*O‘zDK, “O‘zbek musiqasi tarixi”
kafedrasida katta o‘qituvchisi.*

Annotatsiya. Mazkur maqola birinchi o‘zbek ayol musiqashunosi, folklorshunos Karima Olimboyeva (Axmedova) hayoti va ijodiy faoliyatiga bag‘ishlangan bo‘lib, olimaning o‘zbek folklorshunosligidagi ayrim qirralari xususida to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: folklor, folklorshunoslik, alla, yalla, musiqashunos, musiqali drama, ayol musiqashunos, xonanda, sozanda.

XX asr o‘zbek musiqashunosligining ilmiy yo‘nalishlaridan biri, aynan xalq musiqa merosini o‘rganish, ijrochilik amaliyotidagi mavjud mumtoz va xalq musiqiy merosni to‘plash va ayni paytda shu davr nota yozuviga olishda O‘zbekiston musiqiy folklorshunosligining yetakchi vakillaridan biri Karima Olimboyeva (Axmedova)dir. O‘zbekiston musiqa madaniyati rivojida K.Olimboyeva o‘z o‘rniga ega olimalardan biri desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Xalq og‘zaki ijodini o‘rganishda Viktor Uspenskiy, Yelena Romanovskaya, Nikolay Mironov, Ilyos Akbarov, Yunus Rajabiyning izdoshi bo‘lgan Karima Olimboyeva o‘zbek folklorshunoslik sohasida shaxsiy dastxatiga ega birinchi o‘zbek folklorshunos ayolidir.



Musiqashunoslik tarixida birinchi o‘zbek ayol musiqashunosi, o‘zbek folklorshunosligi sohasida o‘zining mehnatsevarligi, sermahsul

ijodi hamda ayol san'atkorlar repertuarlariga bo'lgan alohida e'tibori sababli ajralib turuvchi folklorshunos olimi Karima Olimboyeva (Ahmedova) 1926 yil 5 – avgustda Qo'qon shahrida tavallud topdi. Bolaligidan musiqaga bo'lgan ulkan muhabbati sabab, butun umrini o'zbek san'atkorlari hayoti, tarixi va kelajagi, o'z davridagi ba'zi musiqiy kamchiliklarni chuqur tahlil qilib, nazariy hamda amaliy o'rganishga bag'ishladi. Karima Olimboyeva dastlabki musiqiy bilimlarini Qo'qon shahridagi yetti yillik musiqa maktabida olgach, keyingi bosqichni Toshkent musiqa bilim yurtida davom ettirib, muvaffaqiyatli yakunlaydi, so'ng 1945 yili Toshkent davlat konservatoriyasining musiqashunoslik fakultetiga qabul qilinadi. Xalq musiqasini o'rganishga bo'lgan qiziqishlari ham aynan shu dargohda uchqunlanadi. Konservatoriyada o'qish bilan birga olimi Hamza Hakimzoda Niyoziy nomidagi San'atshunoslik ilmiy tadqiqot institutida ham ilmiy-ijodiy faoliyatini olib boradi. Boshlang'ich faoliyati davomida u folklorshunoslikning yetuk namoyandalari: Viktor Uspenskiy, Ilyos Akbarov, Yelena Romanovskaya va Hafiyahonim Muhammedovalar bilan tanishadi hamda ularga shogird tushib, folklorshunoslikning sir-asrorlarini puhta egallay boshlaydi.



1948 йил. Карима Олимбоева бастакорлар И. Акбаров, Т. Вьенго ҳамда ҳам-
касбалари дарсига.

Viktor Uspenskiy boshchiligidagi folklor ekspeditsiyasida qatnashib, Farg'ona vodiysida bir qator kuy qo'shiqlarni notaga tushirishga muvaffaq bo'ladi. Keyingi faoliyati davomida Xorazm viloyatiga Yelena Romanovskaya bilan borib Xorazm maqomlarining cholg'u yo'lini notaga tushiradi. 1937 yilda Karima Olimboyeva respublikamizning bir qancha hududlarida folklor ekspeditsiyalarini amalga oshirib, asosan

ayollar ijrosidagi kuy qo‘shiqlarni notalashtiradi, shu bilan birga musiqali dramaning asl hususiyatlarini o‘rganib, muammolarini yuzaga chiqarib beradi. Karima Olimboyevaning folklorshunoslikdagi bilim va tajribalaridagi eng katta ustoz Ilyos Akbarov ekanligini alohida ta’kidlab o‘tish lozim. 1950 yilda Xorazm xalq dostoni “Shoxsanam va G‘arib” haqidagi diplom ishi bilan o‘qishni tugatadi. “...Konservatoriyani tugatgandan so‘ng Karima Olimboyeva o‘z davri xonanda va sozandalari bilan bir qator suhbatlar olib boradi, bundan ko‘zlangan asosiy maqsad unitilib ketilayotgan kuy qo‘shiqlarni qayta tiklash, davr musiqasini kelajak avlodga yaxlit yetkazib berish, musiqa sohasidagi muammolarni bartaraf etish, ilmiy o‘rganib tahlil qilishdan iborat edi” [1, 130-b]. Keyinchalik ana shu sozanda, xonanda, musiqachi, san’atkorlarning ijodiy faoliyati, repertuarlaridagi qo‘shiqlari haqida ma’lumot beruvchi M.Ahmedov bilan hamkorlikda “O‘zbekiston xalq sozandalari” nomli 3-jildlik kitob yozadi. Mazkur kitobda O‘zbekiston xalq hofizi Akbar Haydarov, Hojixon Boltayev, Mirzajon Tillayev, Muhtorjon Murtozoyev, Turg‘un Alimatov, Orifxon Xotamov, Raxima Mazohidova kabi ko‘plab xonandayu sozandalarning ijro repertuarlari, o‘zlari ijod etgan kuy qo‘shiqlar va unitilib ketilayotgan ba’zi ashulalar haqida ham kerakli ma’lumotlarni keltirib, biz yosh avlodga meros qilib qoldirganlar.

Karima Olimboyeva 66 yillik musiqashunoslik va folklorshunoslik borasida olib borgan ilmiy tadqiqot va ekspaditsiya ishlarida juda katta jonbozlik ko‘rsatib, ko‘plab musiqiy nazariy meros qoldirdi. Karima Olimboyeva o‘zi ayol bo‘lganligi hamda ayollarning ichki kechinmalari-yu hoyu havaslarini yaxshi tushingani bois, ijodining asosiy qismi ayollar ijodi va ular ijro etgan musiqiy namunalarni zamonaviy besh chiziqli nota yo‘liga tushirishdan iborat bo‘ldi. Ma’lumki qadimda to‘y tomoshalar, azayu marakalar ayol xonanda va sozandalarisiz kechmagan. Har qanday tadbir yoki biron uy yumishi va mehnat jarayonida ayollar o‘zlarini ovutish, turmush qiyinchiliklaridan biroz bo‘lsada chalg‘ish maqsadida ko‘plab sodda va murakkab janrlarda kuy-qo‘shiqlar ijod etishgan. Ularning mavzusi asosan bola tarbiyasi, ro‘zg‘or ishlaridan iborat, shu sababdan ular alla, yalla, o‘lan, yor – yorlarni ijro etishadi. Ular ijodidagi qo‘shiqlar ko‘p mavzuiyligi, shaklining sodda va murakkabligi, ichki his tuyg‘ularining yashirin ifodaviyligi bilan erkak xonandalar ijodidan farq qiladi. Folklorshunos olim ana shunday turli tuman kuy qo‘shiqlarni ayol

xonandalari ijrosidan eshitib, notaga tushirib oldi. Ushbu qo‘shiqlarning ayrimlari musiqashunos olim Fayzulla Karomatov bilan birgalikda yozilgan “O‘zbek xalq qo‘shiqlari” (T., 1996) kitiobida nashr ettirilgan. Bundan tashqari olim yana bir qator ilmiy ishlar muallifidir: “Музыкальные драмы созданные в период с 1945 по 1967 гг.” (История узбекской советской музыки, II), “O‘zbekiston xalq sozandalari (Maxmud Ahmedov bilan hamkorlikda, “Doira zarblari” (Plyos Akbarov bilan hamkorlikda), “Уйгурские народные песни”, “Вечно юная Нурхон”, “25 узбекских народных песен” , “Музыкальная драма”, “Рождение узбекского музыкального театра”, “Vatan ishqı musiqali dramasi”[1, 3-b].

Yuqorida sanab o‘tilgan ilmiy ishlar olim ilmiy merosining hammasi emas. Bundan tashqari XX asr o‘zbek musiqqa madaniyati rivojining to‘liq va batafsil bayonini beruvchi 3jilddan iborat “История узбекской советской музыки” [4] to‘plamidan olimaning quyidagi maqolalari o‘rin olgan: “Мастера народного искусства – носители художественных традиций” (биринчи жилдда), “Рождение узбекского музыкального театра”, “Музыкальная драма” (1941-1945).

XX asrning 70 yillarga qadar o‘zbek musiqali dramalari bo‘yicha ilmiy tadqiqot doirasida alohida ilmiy izlanishlar olib borilmagan edi. 1971 yili Qozog‘iston fanlar akademiyasiga qarashli ilmiy kengashda bo‘lajak olim Aziza Saidxo‘jayeva ilmiy rahbarligida “O‘zbek milliy musiqali dramasi” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qiladi. Keyinchalik mazkur mavzuga aloqador maqolalari bir qator shu yo‘nalishga aloqador qo‘llanmalar, adabiyotlarda nashr ettirildi. Xususan, Tamara Vizgoning “Музыкальная культура советского Узбекистана” ocherkida, Yan Pekkning “Узбекская опера” qo‘llanmasida va ko‘plab ilmiy jurnallarda. Yuqorida ta’kidlanganidek, olimaning o‘zbek musiqali dramalari yuzasidan olib borilgan tadqiqotida musiqali drama kuylarining tuzilishi, shakli, qo‘llanilgan ladlar chuqur ilmiy tahlil etiladi. Bundan tashqari uning ko‘plab ishlari o‘sha davr musiqali dramalarini tahlil qilish, kamchiliklarini to‘g‘irlash hamda mukammallashtirishdan iborat edi.

Bundan ko‘rinib turibdiki Karimaxonim Olimboyeva nafaqat folklorshunoslik sohasida, balki yetuk musiqashunoslik darajasiga ham

erishgan olimalardandir. U o‘z davrining birgina folklor sohasi bilan chegaralanib qolmay, davr musiqa hayotidagi kamchiliklarni ham ko‘ra olgan va tadqiq etgan.

Qolaversa Karima Olimboyeva nafaqat musiqashunos olim, balki chinakam sabr toqatli, ilmi va ma‘rifatli ayol, mehribon ona, yaxshi turmush o‘rtoq hamda soddadil maslahatgo‘y bo‘lganliklarini o‘z zamondoshlarining xotiralari orqali guvohi bo‘lamiz. Karima Olimboyeva musiqaga shu qadar mehr qo‘yganki ularning bu muhabbati turmush o‘rtoqlariga ham o‘tgan. Bunga dalil tariqasida Karima opa Ahmedovaning turmush o‘rtoqlarining quyidagi so‘zlarini qayd etib o‘tish mumkin, “Karimaxon men uchun bir dunyo – ilmi, madaniyatli ayol, milliy urf – odatlarimizning qadri uchun kuyunadigan ajoyib ayol edi. Karimaxon, aytishim mumkinki, til masalasida, madaniyat masalasida rassom kishi – meni ham tarbiyalaganlar. Karimaxon orqali mening qalbimda musiqaga mehr makon topgan”[1, 147-b].

Karima Olimboyevani ayol, ustoz, hamkasb, ona va maslahatgo‘y sifatida ularning yaqinlari juda ham ko‘plab ta‘riflar berishgan. Jumladan, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi professori, otaxon musiqashunos To‘xtasin G‘ofurbekov Karima Olimboyevaning shogirdi sifatida quyidagi so‘zlarni ta‘kidlaydi: “Karima opa juda mehribon ayol, ustoz edilar, doim biz yoshlarga nasihatlar qilar, sabr va bardoshli bo‘lishga undar, san‘at ahlini benihoya hurmat qilardilar. Turmush o‘rtoqlari atoqli rassom Rahim aka Ahmedov ijod bilan band bo‘lsalar ularga sira halal bermas, yonlariga doim issiq choy damlab sekingina chiqib ketar, choy sovib qolsa uni darrov yangilab kelar edilar. Kezi kelsa umr yo‘ldoshlarini ham ishga solib o‘z hamkasblari xolidan xabar olib turar edilar³”. Ustozimiz To‘xtasin G‘ofurbekov Karima opa Ahmedova haqida gapirar ekanlar, ularga nisbatan ulkan hurmat, mehr va muruvvatni hayajon ila so‘zlayotgan gaplaridan anglab olish mumkin. Ayol kishining sabru bardoshi qanchalik kuchli ekanini, ayollar ham zehnli, mehnatkash, ilimli va bilimga chanqoq bo‘lishi biz Karima opa Olimboyeva timsolida ko‘rishimiz mumkin. Tabiiyki “Nega endi bunday so‘zlarni

³ San‘atshunoslik fanlari doktori, professor To‘htasin Batirovich G‘ofurbekovning Yosh musiqashunos Mahmuda O‘ralova bilan qilgan suhbatlarning biridan

yozayapsiz? Ahir hozirgi zamon zayli bilan har qanday ayol ilmi, ma'rifatli bo'lib davlat tashkilotlarida ishlashmoqda" degan savol tug'ilishi tabiiy hol. Bunga javob sifatida shuni aytmoqchimanki, sho'ro davrida ayollarning ilm olishiga yetarli e'tibor qaratilmagan. Ayollar to'rt devor ichida uy yumushlari, farzand tarbiyasi bilan shug'ullanishi lozim degan be'mani aqidalar mavjud edi. Karima opa yashagan davrda ayol kishiga hozirgidek hurmat, e'tibor, ehtirom, ularning o'qishlari - ishlashlariga yetarlicha imkon va sharoit bo'lmaganini ko'ramiz. Bunday vaziyatlarning asosiy sababi esa, o'sha davr odamlari islom dinining asl mohiyatini tushinmagan holda, "Ayol kishi uyda faqat va faqat farzand tarbiyasida bo'lmog'i lozim" degan noto'g'ri tushunchaga amal qilganliklaridandir. Aslini olganda farzandni yetuk shaxs sifatida tarbiyalashda ona yetarli ilmga, chuqur tafakkurga ega bo'lmog'i kerak. Mabodo ona ilmsiz bo'lar ekan, unga hamma narsa ta'qiqlangan bo'lar ekan u qanday tafakkur qilsin? Qanday shaxsiy fikrini bildirsin?. Ayol o'z huquqini bilmas ekan, ilmdan behabar bo'lar ekan yetuk farzandni qanday voyaga yetkazsin. Ammo, olimo o'sha zamon ruhiyati hamda qiyinchiliklarga qaramasdan o'zbek musiqasi rivojiga o'zining beminnat, salmoqli hissasini qo'shdi. Xalq kuylarini notaga tushirishga harakat qildi hamda milliy, o'zbekona ruhda yozilgan kuy qo'shiqlarni bizgacha yetib kelishida jonbozlik ko'rsatdi. Biz yosh avlod sifatida o'zimizning milliyligimizni yo'qotmasdan, mumtoz musiqamizni yanada chuqur o'rganib uni dunyo miqyosida birinchilar qatoriga qo'yishimiz lozim. Va albatta, eng muhimi hozirgi yosh avlodning ruhiyatini egallab olgan ba'zi bir be'mano, shariatimizga hilof qo'shiqlardan ularni halos etishimiz darkor. Buning uchun unib-o'sib kelayotgan yosh avlodga purma'no qo'shiqlarni o'rgatmog'imiz lozim. Bejizdan buyuk bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino ushbu fikrlarni aytmaganlar: "Bolaning jismonan kamolotga yetishida badan tarbiyaning ahamiyati katta bo'lsa, uning ruhiyatini tarbiyalovchi ona allasi bo'ladi".

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karima Olimboyeva "O'zbek ayoli hayotida musiqa" T.: 1996
2. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T.: 2007. 9-j.
3. Rustam Abdullayev "O'zbek mumtoz musiqasi" T.: 2008
4. История узбекской советской музыки. T.: 1972, 1973.

ZAYNIDDIN VOSIFIY “BADOYE’UL VAQOE” (NODIR VOQEALAR) ASARIDAN MUSIQIY LAVHALAR

Sadoqat ZAYNIDDINOVA,

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSSI,

*San’atshunoslik:(musiqashunoslik) ta’lim yo‘nalishi
4-kurs talabasi.*

Ilmiy rahbar: Chinora ERGASHEVA,

*O‘zDK, “O‘zbek musiqasi tarixi” kafedrasi dotsenti,
san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Zayniddin Vosifiyning “Badoye’ul vaqoe’” asaridan musiqaga oid bo‘lgan atamalar, hamda milliy musiqamizning qadimiy merosi hisoblangan maqomga doir tushunchalarni izlab, ularni tahlil qilishga harakat qildik. Undan tashqari ushbu tazkirada turli hil musiqiy cholg‘ular, rivoyatlar, musiqiy o‘yinlar hamda bir qancha musiqa ilmi, sozandalik, hofizlik san’ati bilan shug‘ullangan shahslarni uchratishimiz mumkin.*

Kalit so‘zlar: *advor, arg‘anun, karnay, musiqa ilmi, maqom, Iroq, Binoiy, Pahlavon Muhammad, ustoz-shogird.*

1485 yil Zayniddin ibn Abdujalil Vosifiy Hirotda dunyoga keldi. U turk, arab, fors tillari va adabiyot, fiqh kabi fanlarni Shohruhmirzo madrasasida katta qiziqish bilan o‘rganadi. Zayniddin Vosifiy maktub, ariza, hikoya kabi nasriy ijod turlarida benazir bo‘lib yetishadi. Yoshligidayoq Navoiy bilan yaxshi tanish bo‘lganligi sababli Hirot adabiy muhitida faol ishtirok etgan. U zo‘r iqtidori va yetuk ilmi tufayli ijtimoiy hayotda yuqori maqomlarga ko‘tariladi, Husayn Boyqaro xonadoniga yaqinlashadi, kotiblik vazifasida xizmat qiladi.

Tarixdan ma’lumki XVI asr boshlarida Shayboniylar hokimiyatni qo‘lga kiritadi, shu tariqa siyosiy kurashlar kuchayib, Shoh Ismoil ta’qibidan panoh topish maqsadida Zayniddin Vosifiy Turonga ketadi. 1512 yillarda Samarqand, Buxoro, Farkat, Toshkentda yashaydi va 1518 yilda Sulton Muhammad Shohruxiya mamlakatiga chaqirib oladi. Vosifiy 1525 yili Toshkentga kelib, muqim yashaydi va uni Shayboniylar hukmdorlar juda hurmat qilard va o‘z davralariga tez - tez chorlab turardi. Zayniddin Vosifiy 1566 yil Toshkentda vafot etadi va Imom Qaffol

Shoshiy maqbarasiga kirishda, eshikning o'ng tarafiga dafn qilinadi. Bu fayzli dargoh hozir ham ziyoratchilar bilan gavjumdir [4, 4].

“Badoye’ul-vaqoe” asari XX asrga qadar juda mashhur bo‘lgan bo‘lib dunyoning bir qancha kutubxonalarida uning o‘nlab nusxalari saqlanayotgani shundan darak beradi. “Badoe’ ul vaqoe” asari tazkira janrida yozilgandir. Tazkira bu o‘rta asr forsiy va turkiy tillaridagi adabiyotshunoslik janrlaridan biri. Keng ma’noda tarix, tasavvuf, san’at sohasidagi voqea va shahslar haqidagi esdalik asardir [2, 277]. “Badoye’ul-vaqoe” da Turon va Eron hududida 1532 yilga qadar mavjud bo‘lgan madaniy-ma’rifiy, ilmiy, adabiy hayot, tarixiy hodisalar qiziqarli tarzda hikoya qilinadi. Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Abdurahmon Jomiy singari ulug‘lar hayotiga oid g‘aroyib hikoyalar keltiriladi. Bu asarga o‘ziga xos badiiy tus bergan. Satrlarda muallif erkinligi va albatta, mahorati aks etib turadi, bu xususiyatlar o‘quvchiga ham ko‘chib o‘tadi. Bunday o‘rinlarda “Nodir voqealar” o‘zini aniq ko‘rsatadi [4, 4].

Asarda Ustod Hasan Udiy, Qosim Ali Qonuniy, Chaqar, Changiy kabi musiqashunoslar keltiriladi. “Badoye’ul-vaqoe” ko‘plab tadqiqotchilar e’tiborini tortgan. A.Boldirev 1961 yili Moskvada uning ikki jilddan iborat tanqidiy matnini nashr ettiradi. Naim Norqulov bu asarni o‘zbek tiliga tarjima qilib, 1979 yili “Nodir voqealar” nomi bilan nashr ettirgan.

Zayniddin Vosifiyning “Badoye’ul vaqoe” asarining ilk satrlaridayoq ushbu jumla keltirilgandir:

Yana Jigariy Changiy Mug‘anniya bo‘lib, changni og‘ushiga olgan on falak bazmidagi Zuhro o‘z sozini yerga urardi; Osmondan yerga tushib sochi torlaridan uning changi uchun tutardi.

Dilbariy changikiy sozi dilbari ohang soht,

Rishtai joni man az ham kandu tori chang soht [4, 11].

Bu yerda qiyosiy tarzda Jigariy Changiy Mug‘anniyga ta’rif beriladi. Misol uchun chang sozini sozanda chalayotganda Zuhro yulduzi o‘z sochini changning torlariga tutishi ta’riflanadi.

Sozandalar peshvosi ustod Saidahmad G‘ijjakiy ediki, falak Sharq quyoshining zarrin jomini uning g‘ijjagi tosi uchun munosib ko‘rardi; Jannat hurlari g‘ijjak kamonchasining tori uchun o‘z anbarin soch tolalarini keltiradi [4, 11].

Ushbu keltirilgan jumлага qisqacha ta’rif bersak, bu yerda, o’sha davrda g’ijjak sozinining mohir ustasi Saidahmad G’ijjakiy bo’lgani aytiladi. Hamda keltirilishicha Sharq quyoshi osmondan pastga tushib g’ijjak sozi torlari uchun sochini tutar edi.

Mavlonο Muhammad Xorazmiy dedi: “Ruhiy tanburchiga bir maktub yozib yo’llasangiz, bu majlisga kelib, majlis ahlining ko’nglini olardi...”

Ushbu jumla orqali biz Ruhiy ismli tanburchi yashab ijod qilganini bilishimiz mumkin. Hamda Mavlonο Muhammad Xorazmiyning Ruhiyga yo’llagan maktubi ham keltirilgandır.

Asarning 40-41 betlarida shoir-u olimlar o’rtasidagi o’yin haqida so’z boradi. Bu o’yin amalga oshirilishi uchun esa, musiqiy cholg’ulardan foydalanilgan.

Mo’iziddin xoja Abdurazzoq haqida quyidagicha fikr boradi: “Soz va navoz arbοblaridan janobi davron yagonasi, “Tarkibotul – nag’mot val alhon” asarining muallifi, og’zaki va amaldagi dostonlar munaqqidi, hajaz va ramal qonunlarining nozimi, shunday bir hushnavozki, xar goh benavo oshiqqlar bazmida ruhafzo nag’malari, dilcash va g’amni yoqotuvchi ovozi bilan amal qilardiki, Iroqu Arabu Ajam katta kichigidan zanguladek faryodu nola ko’tarilardi. Har goh nodirakorlik qoidasi yuzasidan Hunarvarlik arg’anuniga qo’l urganda axli safo majlisi qizitardi” [4, 60].

Keltirilgan jumla orqali biz Mo’iziddin xoja Abdurazzoq musiqa bo’yicha har taraflama mukammal shahs bo’lganligini bilishimiz mumkin. Unda musiqashunosning “Tarkibot – nag’mot val alhon” ya’ni “nag’ma va alhonlar tarkibi” deb nomlangan asar muallifi, hamda chiroyli ovoz sohibi, mohir sozanda sifatida tanilgandır. Quyida undan tashqari nag’ma degan so’zni uchratamiz, bu so’zning ma’nosi yakka musiqa tovushi, ton, ba’zan musiqa asarlarini ham bildiradi [3, 378]. Iroq bu mamlakat nomi bo’lib, Duvozdah maqom, Shashmaqom tizimlariga kiruvchi ma’lum maqom nomi [3, 377] sifatida qo’llanilgan. Keltirilgan jumlada Ajam so’zini ham ko’rishimiz mumkin bu so’zning ma’nosi quyidagicha ta’rifga ega bo’ladi. Ajam- arablardan tashqari xalqlarning musiqa asarlari, mashhur maqom uslubidagi cholg’u yo’llari [3, 375] hisoblangan. Undan so’ng esa arg’anun nomli cholg’u ham keltirilgandır. Arg’anun bu mahsus meshlar yo’naltirilgan havo yordamida tovush chiqaruvchi yirik musiqa cholg’usidir. Qomusiy olimlarda Banu Muso

bin Shokir va Abu Abdulloh al-Xorazmiylarning ma'lumotiga ko'ra bu cholg'u bir necha qora mol terisidan tayyorlangan uchta mesh va ularga birlashtiriluvchi 12 tadan 40 tagacha bo'lgan yo'g'on-ingichka mis naylardan tarkib topgan [1, 441].

Sulton Navro'z Ahmad mavlono Nuriddin Jomiy – kech kirishi bilan saboq va varaqlarda mashq qilishdan forig' bo'lib, sozandalar sozini chalish va navozanda mutriblar ijrosiga ergashishga harakat qiladi. Toki musiqiy ilmida va advor fanida shunday joyga yetdilarki, nishot qo'zg'atuvchi zamzamasini hushovoz Nohidning qulog'ini chang go'shasidek burab qoya olardi. Turkona kuylaganda rudning quruq torlari dastidan aysh bulog'iga suv ochilardi, chashmining bir imosi bilan ming chashmani ochib yubordi [4,69].

Sulton Navro'z mavlono Nuriddin Jomiy bo'sh vaqtlarida musiqa bilan shug'ullangan. Musiqiy cholg'ulardan qonunda chalishni o'rganadi. Qonun bu musiqiy cholg'u bo'lib, chang turidagi qadimiy musiqa cholg'usidir. Uni barmoqlarga angishvona kiyib tirnab chalingan [3, 380].

Nuriddin Jomiy turk tilida, turk nolalari bilan rud sozida ham mahorat bilan chala olardi.

Purza Bog'ida fozillarning mavlono Abulvasoye munshiga hazil mutoyiba qilgani zikrida. U yerga tashrif buyurgan Xonandalardan Hofiz Basir, Hofiz Mir, Hofiz Hasanali, Hofiz Xoji, Hofiz Sulton, Mahmud Ayshiy, Shohmahmud xonanda, Siyaxcha xonanda, Hofiz Ubahiy, Hofiz Turbatiy, Hofiz Charog'don, sozandalardan ustod Hasan Noiy, Ustod Qulmuhammad Udiy, ustod Hasan Balaboniy, ustod Ali Xonaqohiy, Ustod Muhammadi, Ustod Hoji Ko'hastiy Noiy, ustod Sayidahmad G'ijjakiy, ustod Ali Ko'chak Tanburiy, ... [4,97]. Quyida Purza Bog'ida mavlono Abulvasoye majlisiga yig'ilgan sozanda va xonandalar nomlari keltirilgandir.

Mavlono Binoiy – musiqiy faniga mayl ko'rguzdi. Bot o'rganib hiyli ishlar tasnif qilib risoladog'i advorda bitdi. Uni o'rganib ko'p asarlar yozdi; advor-musiqa nazariyasi va nota haqida risola yozdi. G'alati yozilgani va qusurlari bo'lganidan el ko'ngliga maqbul bo'lmadi [4,107].

Mavlono Binoiyga ko'plab tazkiralarda tanqidiy ta'rif beriladi, ammo Zayniddin Vosifiy shoirga nisbatan iliq ta'rif keltiradi. Hamda ko'plab soha bo'yicha shug'ullanganligini aytib o'tadi, shu bilan bir qatorda musiqaga doir risola bitgani haqida ham so'z boradi. Bu risola

yaratilishi haqida ham ko‘plab hikoyalar keltirilgandir. Risola Alisher Navoiy risolalar tanlovini e‘lon qilgan vaqtda yaratilib Alisher Navoiyga ma‘zur kelmaydi.

Ulug‘ amir Alisher Pahlavon Muhammad Abusaidni o‘z tazkiralarda shunday ta‘riflaydi. “..., va musiqiy va advor ilmining benaziridir. Chun kamoloti “Azhari munashshams” dir” [4, 119].

Pahlavon Muhammad haqida Alisher Navoiy o‘z tazkiralarda so‘z yuritadi, hamda musiqa, maqom ilmi bilan shug‘ullanganligi hususida ta‘rif beradi. Alisher Navoiy Pahlavon Muhammad haqida “Holoti Pahlavon Mahmud” asarini yozadi va u yerda ham Pahlavon Muhammadni musiqa va advor ilmi bilan shug‘ullanganligini alohida ta‘riflab o‘tadi.

Sulton Husayn Mirzo zamonida Mirza bayram degan bir hushqomat yigit bo‘lardi... Yozuvining 7 turini yaxshi bitardi. Qonunni qonun bo‘yicha shunday chalar ediki, changchi Zuhro rashq qilib o‘z changini yerga uradi [4,142].

Husayn Mirzo davrida Mirza ismli yigit qonun sozini mohirlik bilan chalar edi va changchi Zuhro bundan g‘azablanib changini yerga urgan deyiladi tazkirada.

Mir shonatarosh degan mashhur rofiziylar bo‘lardi Sahobalar la‘natiga atab Iroq ohangida kuy bastalagan edi. Mingga yaqin kishi to‘planib, shu kuyni kuylagancha Hiyobon boshi tomon ketardi. Har kim ularga ergashar, ularni qaytarishga mador yo‘q edi [4, 149].

Mir Shonatarosh degan mashhur shia mazhabilik kishi bo‘lar edi. Ko‘plab olimu fozillar lanatiga atab Iroq ohangida kuy yozadi va bu kuyni minglab odamlar eshitishi hamda o‘rganishiga sababchi bo‘ldi. Tazkirada ta‘rif berilishicha ko‘plab insonlar Mir shonataroshning ketidan boradilar va ularni ortga qaytarishni yo‘li yo‘q edi deyiladi. Mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy tirikligi davrida insonlar bu darajada ergashmagan edi deya yoziladi tazkirada. Ushbu ta‘rif ketidan ajoyib hikoya ham keltirilgandir. Mir shonatarosh haqidagi hikoya Mirxondning “Ravzatus safo” asarida ham keltirilgandir.

Umumiy qilib Zayniddin Vosifiyning “Badoye‘ul-vaqoye” asariga hulosa yasasak, bu yerda musiqaga oid bo‘lgan ko‘plab qimmatli ma‘lumotlar hamda hikoyalarni olishimiz mumkin. Ushbu manba musiqashunoslik olamida juda be‘nazir hissa qo‘shishi va undan ko‘plab

malumotlarga ega bo‘lishimiz mumkin. Misol uchun ushbu tazkirada xush ovoz honandalardan Mo‘iziddin xoja Abdurazzoq, Mavlono Voiz, sozandalardan esa Saidahmad G‘ijjakiy, naychi Husayin Ko‘chak, Ruhiy tanburchi, Navro‘z Ahmad, Qonunchi Mirza, musiqashunoslardan Uston Hasan Udiy, Qosim Ali Qonuniy, Chaqar, Changiy, Mavlono Vosifiy kabi buyuk shahslar ismi keltirilgandir. Ularning har biriga Zayniddin Vosifiy ta’riflar keltiradi. Undan tashqari ushbu tazkirada musiqiy cholg‘ular ishtirok etuvchi o‘yin ham keltirilgandir. Umuman olganda ushbu tazkira juda ma’lumotlarga boy hamda sermazmundir. Bizning maqolamizda musiqiy ma’lumotlardan ayrim parchalari kiritildi, ularni o‘qish va chuqur tahlil qilish kelasi ishlarga qo‘yilgan maqsadlarimizdan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T1. Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent- 2000.
2. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T8. Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent- 2004.
3. Is’hoq Rajabov. “Maqomlar” San’at, Toshkent. 2006 yil.
4. Zayniddin Vosifiy. “Badoye’ul-vaqoe’”. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, Toshkent-1979 yil.

XXI ASR MAQOMSHUNOSLIGIDA YANGI QADAMLAR

Durdona EGAMBERDIYEVA,

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI,

San’atshunoslik: (musiqashunoslik) ta’lim yo’nalishi

3-kurs talabasi.

Ilmiy rahbar: Laylo DJO‘RAYEVA,

O‘zDK, “O‘zbek musiqasi tarixi” kafedrası katta o‘qituvchisi,

san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Annotasiya: *Ma’lumki, o‘zbek milliy musiqasi janr jihatidan rang-barang va mukammaldir. Janrlar orasida maqom san’ati o‘zining murakkabligi, yetuk hamda ulug‘vorligi jihatidan ajralib turadi. Shu kunga qadar maqomlarning ijrochiligiga doir muammo va rivojlanishlanishlarga alohida e’tibor qaratib kelingan. Mazkur maqolada esa maqomlarning nazariy taraqqiyoti jarayoni davr kesimida yoritilgan. Zamondosh olimlarimizning yangi ilmiy tadqiqot izlanishlari haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *maqom, maqomshunoslik, musiqa, tarona, ushshoq, nazira.*

So‘nggi yillarda maqomshunoslik, ya’ni o‘zbek milliy maqom san’atini nazariy va amaliy jihatlarini ilmiy tadqiq etish musiqashunosligimizning asosiy tarmoqlaridan biri sifatida rivojlanmoqda. Buni Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilgan ulug‘ harakatlardan bo‘lgan Prezidentimiz Sh.Mirziyoevning 2017 yilgi PQ-3391-sonli “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, yaqindagina 2023 yil 5-sentabrda qabul qilingan PQ-289-sonli “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish va soha vakillari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash choralari to‘g‘risida”gi qarorlaridan isbotini ko‘rish mumkin. Aslida o‘lmas durdonalarimiz bo‘lgan maqomlarimizni ilmiy o‘rganish O‘rta asr Sharq allomalarining, xususan, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Ibn Zayla, Abu Abdulloh Xorazmiy, Kindiy, Omuliy, Safiuddin Urmaviy, Mahmud Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zaynulobiddin Husayniy, Najmiddin Kavkabiy, Darveshali Changiy va boshqa mutafakkirlarning

asarlaridan boshlanib, taraqqiy etib kelgan edi. Afsuski, o'tgan asrdagi sho'ro hukumati ta'siridagi ayrim yo'qotishlar, maqomlarga oid manbalarning ham yo'q qilinishi, shuningdek, milliy musiqamizni kamsitilishi unga bo'lgan munosabatni sustlashtirgani rost. Ammo, birinchi o'zbek professori Abdurauf Fitrat, musiqa san'ati sohasida yagona akademigimiz Yunus Rajabiy, maqomdon alloma Is'hoq Rajabov, musiqashunos olim Fayzulla Karomatov, atoqli sozanda Faxriddin Sodiqovlarning sa'y-harakatlari o'laroq maqomlarimiz yashab qoldi. Ayniqsa, 1972 yil Toshkent davlat konservatoriyasida "Sharq musiqasi" kafedrasining tashkil etilishidek muhim tarixiy sanani ta'kidlamay iloj yo'q. 2022 yil 50 yilligi keng tantana qilingan mazkur sana hozirda Oliy dargohga aylangan – Yunus Rajabiy nomi berilgan muqaddas go'shamiz jonajon institutimiz faoliyati bilan bog'lanadi. Xalqaro miqyosida nishonlangan ushbu anjumanning maqolalar to'plamidagi aksar xotiralar va esdaliklardan [4; 8, 21, 139] o'sha og'ir yillarni tasavvur etish mumkin. O'sha yillarda San'atshunoslik fanlari nomzodlari Otanazar Matyoqubov, Ravshan Yunusov, Oqilxon Ibrohimov, Soibjon Begmatovlar nomzodlik dissertatsiyalarini bevosita maqom san'ati bilan bog'lab, uning ilmiy yo'nalishlarini belgilab berdilar.

Istiqlolga erishganimizdan so'ng birmuncha berilgan e'tibor tufayli maqomlarning ijro amaliyati bilan bir qatorda nazariy o'rganish ishlari yana ham jadallashdi. San'atshunoslik fanlari doktori Oqilxon Ibrohimovning maqomlar semantikasiga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyasi maqomlarni yangi jihatlarini – tasavvuf bilan bog'liq ma'nolarini anglashga qaratilgan yo'nalishini ochib berdi. 2001 yil kirib kelgan XXI asrda ham maqomlarni o'rganishga e'tibor kuchaydi. Ayniqsa, Is'hoq Rajabovning "Maqomlar" monografiyasini [qarang: 1] to'liq holda nashr etilishi maqomlarimizni nazariy o'rganishda muhim qadamlardan bo'ldi, desak adashmaymiz. Shu kunga qadar bevosita maqomlar bilan bog'langan Shaxnoza Oyxo'jayevaning maqomlar taronalariga bag'ishlangan nomzodlik ishini, Chinora Ergashevaning Ushshoq maqomlarida nazira an'analari to'g'risidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarini, bilvosita yoxud qisman in'ikos etgan ishlardan Laylo Jo'raevaning "Alisher Navoiy va musiqa san'ati" falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi hamda Azizjon Zokirov, Abror Zufarov, Gulzira Abulatlarning yangi tadqiqotlarini keltirish mumkin. Bundan tashqari

o‘nlab magistrlik dissertatsiyalar va bitiruv malakaviy ishlarning maqomlar bilan bog‘lagan holda yozilishi, Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy maqom san’ati institutida endilikdan yosh maqomshunoslarni tarbiyalashga alohida e‘tibor qaratilayotgani, doktorantura bosqichiga qabul qilinayotgan izlanuvchilarning dissertatsiya mavzularini aynan maqomlarimiz bilan bevosita bog‘lanishiga ahamiyat qaratiliniyotgani Yangi O‘zbekistonda bu sohada haqiqatdan Uchinchi ilmiy ishlarni bir oz sharhlashga e‘tibor qaratsak.

Shahnoza Imomxo‘jayevna Oyxo‘jayeva dissertatsiyasining asosiy matni sifatida 2011 yil nashr ettirilgan “Maqom taronalari” nomli monografiyasi olimaning ilmiy rahbari san’atshunoslik fanlari nomzodi, professor R.Yunusov mas’ul muharrirligida, san’atshunoslik fanlari doktori, professor T.G‘ofurbekov va san’atshunoslik fanlari nomzodi, professor F.Muxtarova taqrizchiligida taqdim etilgan. Mazkur kitob o‘zbek xalqining ko‘hna va boy musiqa madaniyatini qudratli ma’naviyat manbai bo‘lib kelayotgan, milliy qadryatlarimizni ajoyib an’analar ila o‘zida mujassam etgan mumtoz musiqa xazinasidan maqomlarning eng jo‘shqin va yorqin qismlari – taronalarga qaratilgan. Dastlabki bob “Taronalar tarixidan” deb nomlangan. Bunda taronalar yuzasidan ma’lumot beruvchi qimmatli manbalardagi taronalarga oid fikrlar sharhlangan. Shu manbalardan biri – XI asrda yaratilgan mashhur “Qobusnoma” ekanligi, ushbu asarning 36-bobidan taronalar bundan ming yillar avval ham mashhur xalqchil aytimlar sifatida tinglovchilarning ma’naviy ehtiyojlarini qondiruvchi ruhiy ozuqa ekani ma’lum bo‘ladi. 1-bobning “maqom taronalarida so‘z va kuy munosabatlari” bo‘limida shashmaqom she’riy to‘plami bo‘lmish XIX asr boshlarida tuzilgan bayozda keltirilishicha, sho‘balardan so‘ng keluvchi taronalar, asosan fors-tojik tilidagi xalq so‘zlariga bog‘lanib, ayrim hollardagina mumtoz shoirlar she’rlari bilan aytilagan ekan. Shuningdek manbadan, taronalarda muallifi ma’lum bo‘lgan she’rlarning o‘zgartirib berilganligi yohud ko‘pgina ashulalarni she’riy matnlari noma’lum shoirlar baytlarini tashkil etishi va bu baytlar ham ko‘pincha noto‘liq berilganligini kuzatish mumkinligi qayd etiladi. Asarning “Taronalarning qadimiy shakllari” qismida XV asrda yozilgan musiqiy risolada shakllar xususidagi barcha ma’lumotlar Sohibqiron Amir Temur va temuriylar davrining mashhur musiqachisi, o‘z zamonasining atoqli olimi Xo‘ja

Abdulqodir Marog'iy ko'rsatmalariga asoslanib keltirilgani muallif tomonidan takidlangan. O'sha davrda tarona, qavl, savt, amal singari shakllardan "tarona" va "qavl" Navba nomli to'rt qisimli turkumning tarkibiy qismi sanalgan. Asarda ta'riflanishicha, Tarona Navba turkumining uchinchi qismi bo'lib, u ruboiy vaznidagi arabcha yoki forscha she'rlarga bog'lab qo'yilgan. Usuli esa shartli ravishda saqil-ul-avval, saqil-us-soniy yoki qo'sh ramalda bo'lgan. Taronada muqaddima (tariqa) va bozgo'y (tashiya) majburiy bo'lib, nola va qochirmalar (savt-al-vasat) qo'llash ixtiyoriy bo'lgan. Shuningdek, Navba tarkibiga "g'azal", "frudasht" kabi tuzulmalar ham kiritilib, ularning har biriga alohida ta'rif berilgan. II bobning ilk paragrafi Buhoro maqomlarining ashula bo'limidagi taronalar xususida yozilgan. Muallifning bayon qilishicha, "Taronalarning Shashmaqom tarkibida o'ziga xos, alohida o'rni mavjuddir. Chunki ular bir sho'badan ikkinchisiga o'tishda bog'lovchi, yangilanish (kontrast) va dam berish kabi uchta asosiy vazifani amalga oshirish uchun xizmat qiladi" [2: 26] deya taronalarning funksiyasini ochiqlab beradi. mazkur bobning navbatdagi faslida esa Xorazm maqom taronalari haqida, ularning Buxoro Shashmaqomi taronalari bilan umumiylik va farqli jihatlari qiyosiy o'rganiladi. "Xorazm maqomlar Buxoro Shashmaqomi bilan tub umumiylik jihatlari namoyon etsa-da, uning mustaqil musiqiy turkumligidan dalolat beruvchi omillar yetarlidir. Jumladan, o'zga maqomlarda umuman uchramaydigan Suvora, Naqsh, Faryod kabi ashulla qismlarining o'zi bunga yorqin misollardandir. Xorazm maqom taronalari xos jihatlardan biri, ularning Shashmaqom taronalari kabi hajman ixcham, oddiy tuzilmaga ega ko'rinishida emas, balki ko'proq nisbatan rivojlangan ashula ko'rinishida ekanligidandir. Shuningdek, mazkur turkum taronalari Shashmaqomdan farqli o'laroq aksar misollarda mumtoz shoirlarning she'rlariga bog'langan" [2; 35-36]. II bobning 3-paragrafida yurtimizda o'zgacha rivojlanib yetib kelgan Farg'ona-Toshkent maqom yo'llarining taronalari xususida fikr yurgizilgan. Dastlabki qismlardan keyin keluvchi ashulalarning ayrimlari esa musiqiy uslubi, shakl tuzilishi, vazni doira usuli jihatdan Shashmaqom va Xorazm maqomlari tarkibidagi taronalarni eslatadi. Darhaqiqat, maqomlarning xar ikkinchi qismi taronaga xos usulda beriladi. Demakki, Farg'ona-Toshkent maqom ashulalari yirik

turkumlarining har biri bittadan taronaga ega. Yolg'iz Dugoh-Xusayniyda taronalar soni ikkitadir, deb ma'lumot beradi Sh.Oyxo'jaeva.

Tadqiqotning III bobi esa an'anaviy tarzda tahliliy bo'lim bo'lib, unda Taronalarning shakl xususiyatlariga to'xtalangan. Taronalar o'zining ichki tuzilishi bilan nazariy taxlillari davomida umumovro'pa mumtoz shakli va maqom shakllariga birdek murojat qilishni taqozo qilar ekan. "Maqom taronalari o'zlaridan avval kelgan bosh yoxud asosiy sho'ba bilan muayyan umumiylikka ega bo'lib, uning unsurlarini o'zida aks ettiradi. Taronalarning ham muhim shakillantiruvchi vositalaridan biri avj tuzulmasidir. Ularning o'ziga xos yana bir xususiyatlaridan maqomlar tarkibida turkumiylikni xosil qilishidir. Ular nafaqat bosh yohud asosiy sho'balalar bilan birgalikda, balki o'zaro mustaqil tarzda ham muayyan turkumga jamlanadi, deyish mumkin. Tarona kuy mavzusining tuzilishi u qadar murakkab bo'lmasa-da, shaklan muayyan o'ziga xoslikni tashkil etadi" [2; 63] Tadqiqot bo'lgani uchun ifodalash tili sof ilmiy bo'lgan ushbu kitobning mana shu tahliliy qismi ko'pchilik musiqashunos-maqomshunoslarga foydali bo'lishi tabiiydir. Kitobning oxirgi bobi ijrochilik an'analari bag'ishlanib, maqomlarning so'nggi yillardagi ijro amaliyotiga doir shaxsiy mulohalar aks etgan. "So'nggi paytlarda maqomlarni, xoh katta xoh kichik shaklda bo'lsin, turkum tarzida ijro etish an'anasiga doim ham rioya qilinmayotganligi va aksincha, uning tarkibiy qismlarini konsert sahnalarida alohida yakka ko'rishda ijro etish tamoyili tobora odatiy tus olayotganligi ko'zga tashlanmoqda.

Malumki, bu salobatli san'atning teran mazmun-ma'nolari turkum darajasidagina o'zining barcha bosqichlarini to'la ifoda eta oladi. Shu bois ustozlar maqomlarni imkon boricha turkum xolda ijro etib kelganlar" deya bugungi ijrolardagi kamchiliklardan ayrimlarini keltirib o'tgan. Chinora Ergashevaning "O'zbek mumtoz musiqasida nazira an'analari" nomli O'zbekiston davlat konservatoriyasida hamda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi San'atshunoslik instituti tavsiyasiga ko'ra 2022 yilda nashr qilingan. Kitobda kirish, III bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, notalar ilovasidan iborat. I bobda an'anaviy musiqamizda nazira estetikasi masalalari, umuman avvalo "nazira" atamasining istilohiy ma'nosi sharhlangan. Arabcha "nazira" so'zi aynan "o'xshash", shuningdek, "ergashish, taqlid qilishga munosib yuksak namuna va unga o'xshatma" kabi ma'nolarni anglatadi. Nazira

asosida ish tutganlar ayni paytda namuna sifatida olingan asarga ijodiy yondoshib, tanlangan mavzuni boyitish va rivojlantirish yo‘lidan borganlar, zarur hollarda esa, yangi muammo va g‘oyalarni ko‘rsatish asnosida o‘z iste‘dodlarini namoyish qilganlar. Muallif maqom turkumlaridan eng serjilosi bo‘lgan Ushshoq turkumini tanlab, 2-bobda bastakorlar tomonidan Ushshoqlarga bog‘langan ijodiy naziralarni keltiradi. “I.R.Rajabovning “Maqomlar” kitobida Ushshoq” maqomi lirik tuyg‘ularni ifodalaganligi hamda shunga monand she‘rlar asosida oshiqilar tilidan aytilgani uchun unga “Ushshoq” nomi berilganligi taxmin qilinadi. Kitobning 3-bobida maqom uslubida yaratilgan Ushshoqlarda tavr ijodiy tamoyili yoritilgan. “XIX asr so‘nggi choragi – XX asr mobaynida bastakorlik ijodiyotida an‘anaviy ustuvor bo‘lgan nazira uslubi asosida Shashmaqomning yangicha tizimlangan ikkinchi guruh sho‘balar turkumi (Savt, Mo‘g‘ulcha kabi) yuzaga keldi. Shuningdek, bu turkumlardan tashqari yana maqom aytim yo‘llari (sho‘balari)ning shakli shamoyiliga o‘xshash ishlangan alohida noyob asarlar ham ijod qilingan edi. Hoji Abdulaziz Rasulovning “Guluzorim”, “Samarqand Ushshog‘i”, Mulla To‘ychi Toshmuhammedovning “Ushshoqlari”, Sodirxon Bobosharifovning “Ushshoq” yo‘llari, Imomjon Ikromovning “Munjo‘t” (ashula yoli), Komiljon Jabborovning “Etmasmidim”, Saidjon Kalonovning “Topmadim”, Yunus Rajabiyning “Koshki”, Doni Zokirovning “Ey Sabo”, Umurzoq Polvon Saydaliyevning “Ushshoq” kabi asarlari shular jumlasidandir”. [3; 38]

Yosh olimlardan Laylo Jo‘rayevaning dissertatsiyasida ham birgina fasl maqomlarga doir bo‘lib, unda tadqiqotning ob‘ektidan kelib chiqqan holda Alisher Navoiy va maqom san‘ati bilan bog‘langan. Dissertatsiya ishi hali monografiya sifatida nashr ettirilmagan bo‘lsada, tadqiqotning asosiy mazmuni aks etgan ilmiy maqolalardan ayrim mulohazalarni o‘qish mumkin. [5, 6]

Xulosa sifatida aytish mumkinki, bugungi kunimizda maqomlarni ilmiy o‘rganish tobora kuchayib, rivojlanib bormoqda. Oldimizda qilinadigan ishlar, yoziladigan ilmiy ishlar, maqomlarga oid tuziladigan qomuslaru lug‘atlar bisyor. Kelgusida yetishib chiqayotgan biz kabi yosh maqomshunoslar zimmamizga yuklatilinayotgan mas‘uliyatli vazifalarni imkon qadar to‘liq bajarishga bel bog‘laymiz. Zero, maqomlarimizni

nafaqat ijrochilikda, balki, ilmiy yoʻnalishda ham teran oʻrganmogʻimiz, oʻzimizdan keyingi avlodga foydali kitoblar bilan qoldirmogʻimiz darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Rajabov I. “Maqomlar”. – T. 2006.
2. Oyxoʻjaeva Sh. “Maqom taronalari”. – T. 2011.
3. Ergasheva Ch. “Oʻzbek mumtoz musiqasida nazira anʼanalari”. – T. 2022.
4. Mumtoz musiqaning Sharqona anʼanalari: ilm-fan va taʼlim. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya maqolalar toʻplami. – T. 2023.
5. Joʻrayeva L. “Maqomlarda Alisher Navoiy gʻazallarining qoʻllanilishi”. // “Alisher Navoiy va XXI asr” Xalqaro konferensiya maqolalar toʻplami. – T. 2022. 267-272 b.
6. Joʻrayeva L. “Alisher Navoiy va maqom sanʼati”. // “Musiqas sanʼatining dolzarb masalalari: yondoshuvlar, muammolar, istiqbollari” Respublika anjumani materiallari toʻplami. – T. 2019. 7-11 b.

XORAZM MAQOMLARI NOTA YOZUVI XUSUSIDA (Xorazm klassik muzikasi, Xorazm maqomlari to‘plamlari misolida)

Shohruxbek G‘ULOMOV,
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI
San’atshunoslik: (musiqashunoslik) ta’lim yo‘nalishi
3-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: **Ravshan YUNUSOV**
San’atshunoslik fanlari nomzodi, professor

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm maqomlarining notalashtirilishi bilan bog‘liq ma’lum bir masalalar yoritilgan. Xorazm tanbur chizig‘ining kashf qilinishi va buning natijasida Xorazm maqomlari yozuvda kitob shaklida aks ettirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar ham qisqacha keltirib o‘tilgan. Y.Romanovskaya hamda M.Yusupovlarning sa’y-harakatlari haqida fikr-mulohaalar yuritilgan. Umumiy jarayon borasidagi qisqa tadqiqod natijasida paydo bo‘lgan fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Xorazm maqomlari, Xorazm tanbur chizig‘i, tabulatura, nota to‘plami, notalashtirish, maqom, doyra usuli.

Bizga ma’lumki, o‘zbek xalqi maqomot san’atida uch maqom turi asosiy o‘rin tutadi. Bular Buxoro Shashmaqomi, Xorazm maqomlari va Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari. Ushbu turkumli namunalar bir necha bor to‘plab notalashtirilgan. Xorazm maqomlarining nota yozuvlari bilan tanishish jarayonida ko‘p savollar paydo bo‘lgan ediki, bularning ayrimlariga javob izlashga kirishdik.

Xorazm maqomlarining nota yozuvlari xususida fikr yuritar ekanmiz, nota yozuvi shakllanishini Sharq tomondan ko‘rib chiqish o‘rinli.

Sharqda musiqa san’atining og‘zaki an’anada davr surishi G‘arbga nisbatan yanada yaqinroq vaqtlargacha davom etdi. To‘g‘ri, tabulatura⁴ shaklidagi nota yozuvlari Sharqda X-asrdan buyon ma’lum edi. Farobiy, Safiuddin Urmaviy va ash-Sheroziylar ud cholg‘u sozi asosida tabulaturalarni ixtiro qilishgan, lekin ular amalda unchalik faol emas edi. Maqomlarni yozib olish borasida O‘rta Osiyodagi ilk (nisbatan takomil)

⁴ Tabulatura (lotincha tabula – taxta, jadval) – nota yozuvining ilk shakllaridandir.

nota yozuvlaridan biri deb Xorazm tanbur chizig'ini hech ikkilanmasdan ta'kidlashimiz mumkin.

Ushbu tabulatura XIX-asrning oxirlarida Xorazmning so'nggi xoni bo'lmish Muhammad Rahimxon Soniy topshirig'i hamda Pahlavon Niyoz Mirzaboshi (Xorazm musiqiyshunoslari orasida Komil taxallusi bilan tanilgan hamda Komil Xorazmiy nomi bilan mashxur bo'lgan.) sa'y-harakatlari natijasida yuzaga kelgan. Aslida xonning topshirig'i ham Pahlavon Niyoz Mirzaboshining tashabbuslari mahsuli edi. "Muhammad Rahimxon Soniyning mirzaboshisi xonni doimo musiqiy ishlariga qiziqtirmoq yo'lida tirishgani oqibatida xonning musiqiyga ishtiyoqi va orzusi ortib, shu darajaga yetadiki, uning fikri-zikri butun Shashmaqomni, unga bog'langan qo'shimchalar hamda milliy nag'malarni barchaga tushunarli tarzda, qulay va yengil chalmoq, o'rganmoq yo'llarini izlash, topish bilan band bo'ldi"[1.20]. Shu tariqa Komil Xorazmiyga o'zining mazkur istaklarini ro'yobga chiqarishni buyuradi. Bundan tashqari xonning yana bir xohishi tanbur kuylarini barcha qiziquvchilar chala olishini ta'minlovchi tadbirni ham o'ylab topish edi. Komil Xorazmiy o'z mohirligini ishga solib, tanbur sozining tuzilishi hamda pardalar joylashuvini asos qilib olgan holda Xorazm tanbur chizig'ini ixtiro qildi.

Ushbu tabulatura o'zida tovush balandliklari, nag'maning doyra usuli, noxun urish ko'rsatkichlari kabi xususiyatlarni namoyon eta olar edi. Bu yerda musiqani ifodalash uchun chiziq hamda nuqta kabi belgilardan foydalanilgan. Nuqtalar noxunning torga urilishini ifodalasa, chiziqlar bevosita ohang yo'nalishini o'zida namoyon etardi. Tabulaturadagi gorizontaal chiziqlar orasidagi masofa ham tanbur sozidagi parda oraliq masofasining keng va torligiga asoslangan.

Komil Xorazmiy Xorazm tanbur chizig'i asosida dastlab "Maqomi Rost"ni chizib, xonga topshiradi. Muhammad Rahimxon Soniy esa, "Mirzo" taxallusi bilan mashxur bo'lgan Pahlavon Niyoz Mirzaboshining o'g'li hamda o'zining musiqiy muallimi Muhammad Rasul Mirzaboshiga "Xorazm maqomlari" ni to'liq holicha mazkur tanbur chizig'i asosida kitob holiga keltirishni buyuradi. Mirzo o'z otasining ixtirosiga tayangan holda Xorazm maqomlarini 2 kitob shaklida chiziqqa tushiradi. Birinchi kitob Xorazm maqomlarining mansur (chertim yo'lidagi nag'malar), ikkinchisi esa, manzum (aytim yo'lidagi namunalar) qismini qamrab oldi. Mazkur kitoblar so'ngra saroy kotiblaridan bo'lmish Xudoybergan

Muhrkan, Mulla Ismoil, Muhammad Yusufbek kabilar tomonidan ko‘chirib ko‘paytirildi. Aynan ushbu namuna Xorazm maqomlarining notalashtirilishi borasidagi ilk namunadir.

Davr o‘laroq undan so‘ng XX asrning birinchi yarmida (aniq qilib aytganda 1934-yilda) E.E.Romanovskaya hamda I.A.Akbarovlar maqomlarni yozib olish maqsadida Xorazmga uyushtirilgan ekspeditsiyada qatnashishadi. Romanovskaya tomonidan Xorazm maqomlari yozib olinib notaga tushirilishi ham aynan shu ekspeditsiya bilan bog‘liq. “E.Romanovskaya va I.Akbarovlar Tanbur maqomlarini Matyoqub Xarratovdan mum rolikli gramofonga yozib olishgan”[2.107].

Mazkur ekspeditsiya natijasi o‘laroq 1939-yili “Xorazm klassik muzikasi” nomli to‘plam nashrdan chiqadi. Ushbu to‘plamda Xorazm maqomlarining chertim yo‘llari aks etgan. To‘plamda nota misollaridan oldin o‘zbek hamda rus tillarida Xorazm maqomlari haqida tushinchalar beriladi. U yerda E. Romanovskaya Xorazm maqomlari borasidagi o‘zining fikrlarini bayon etgan. To‘plamning shu qismida bir jadval borki, bu jadvalda Shashmaqom tarkibi 4 xil variantda keltiriladi. Bular Buxoro varianti, Xorazm qo‘lyozmasi (Xorazm tanbur chizig‘i asosidagi variant), “Xorazm musiqiy tarixchasi” risolasidagi variant, 1934-yilda Xivada yozilgan variant. Ushbu jadval orqali juda ham ko‘plab qiziqarli ma‘lumotlarni olish mumkin. Masalan, mazkur jadvalda maqomlarning ketma-ketligi Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Buzruk, Iroq hamda Panjgoh tarzida keladi. Bu tartib Buxoro Shashmaqomida Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq tarzida bo‘lsa, Muhammad Rasul Mirzaboshi tayyorlagan chiziqli kitobda hamda Xorazm musiqiy tarixchasi risolasida Rost, Navo, Segoh, Dugoh, Buzruk, Iroq hamda Pandjgoh ko‘rinishda keladi.

Mazkur to‘plamdagi jadvalda maqomlarning tartibi nega aynan bunday ko‘rinishda keltirilganligi yuzasidan izohlarni topishning imkoni bo‘lmadi. To‘plamning nota misollari qismida esa maqomlarning ketma-ketlik tartibi Rost, Buzruk, Dugoh, Segoh, Navo, Iroq, Panjgoh ko‘rinishiga ega.

Ye.Romanovskaya tomonidan 1934-yilda yozib olinib 1939-yilda to‘plam sifatida “Xorazm klassik muzikasi” nomi bilan nashr ettirilgan kitob bo‘yicha Xorazm maqomlarining chertim yo‘li tarkibi quyidagichadir:

- 1. Rost maqomi**
 - 1.1. Rost maqomi
 - 1.2. Tarji
 - 1.3. Peshrav
 - 1.4. Saqil
 - 1.5. Muhammad
 - 1.6. Muhammad Buxoriy
 - 1.7. Upar
- 2. Buzruk maqomi**
 - 2.1. Buzruk maqomi
 - 2.2. I Peshrav
 - 2.3. II Peshrav
 - 2.4. III Peshrav
 - 2.5. Sausul
 - 2.6. Muhammad
 - 2.7. Saqil Islam Xani
 - 2.8. Saqil Niyozjon Xo'ja
 - 2.9. Saqil Sulton
 - 2.10. Upar
- 3. Dugoh maqomi**
 - 3.1. Dugoh maqomi
 - 3.2. Tarji'
 - 3.3. Peshrav I
 - 3.4. Peshrav II
 - 3.5. Peshrav III
 - 3.6. Zarbul Fatx
 - 3.7. Saqil Ishqullo
 - 3.8. Muhammad I
 - 3.9. Muhammad Dugoh II
 - 3.10. Muhammad Chorgoh
 - 3.11. Muhammad Dugoh IV
 - 3.12. Samoiy Dugoh
 - 3.13. Paxta Zarb
 - 3.14. Ufar
- 4. Segoh maqomi**
 - 4.1. Segoh maqomi

- 4.2. *Peshrav I*
- 4.3. *Peshrav II*
- 4.4. *Saqil Bastaniyor*
- 4.5. *Muhammas Segoh*
- 4.6. *Muhammas Segoh II*
- 4.7. *Xafif Segoh*
- 4.8. *Ufar Segoh*
- 5. *Navo maqomi***
- 5.1. *Navo maqomi*
- 5.2. *Peshrav I*
- 5.3. *Peshrav II*
- 5.4. *Peshrav Zanjiri*
- 5.5. *Saqil*
- 5.6. *Muhammas*
- 5.7. *Muhammas Bayot*
- 5.8. *Nimsaqil*
- 5.9. *Upar*
- 6. *Iroq maqomi***
- 6.1. *Iroq maqomi*
- 6.2. *Tarji*
- 6.3. *Peshrav III*
- 6.4. *Muhammas*
- 6.5. *Sausul*
- 6.6. *Saqil I*
- 6.7. *Saqil II*
- 6.8. *Naqshi Nafurdam*
- 6.9. *Upar*
- 7. *Panjgoh maqomi***
- 7.1. *Panjgoh maqomi*
- 7.2. *Saqil vazmin*
- 7.3. *Muhammas*
- 7.4. *Muhammas Ushshoq*

Bu to‘plam lotin imlosiga asoslangan eski o‘zbek alifbosida yozilganligi uchun ko‘plab kuy nomlari o‘zgachaday tuyiladi, biroq

hozirgi paytdagi nomlanish bilan taqqoslaganda, bu ikkisining o'rtasida unchalik tafovut sezilmaydi.

Bevosita nota misollari qismiga o'tar ekanmiz dastlab ko'zga yaqqol tashlanuvchi narsa misollarda kuyning doyra usuli keltirilmaganligidir. Buning sababini izlash chog'ida "Xorazm klassik muzikasi" dan bir jumлага ko'zimiz tushdi. "Bizning cholg'uchimiz maqomning birinchi bo'larlarida usul yo'q degan edi. O'zining ijro etishida ular (bo'laklar) haqiqatdan juda notekis harakat va aralash ritm bilan ajralib turadilar".[3.7] Bundan shuni tushuniladiki doyra usullarini ijro etish va notalashtirish qiyinchilik tug'dirgan bo'lishi mumkin.

Ammo yuqoridagi iqtibosdan biroz ilgari E.Romanovskaya shunday fikrlarni bayon qilgan edi – "Har bir maqom bo'lagining o'ziga yarasha usuli bor..."[3.7]. Demak, Ye.Romanovskaya maqomlarda doyra usuli muhim ahamiyat kasb etishini juda yaxshi anglagan, ammo nimadur sabab bo'lib, u (doyra usullari)ni nota misollarida aks ettirmagan.

O'zida maqom namunalarini mujassamlashtirgan boshqa ko'plab nota to'plamlarida uchramagan bir jihatni aynan "Xorazm klassik muzikasi"da uchratishimiz mumkin. Bu hamki, ushbu nota to'plamida har bir maqomdan avval unga mos ravishda tanbur cholg'usining sozlanishi ham ifoda etilgan. Nega tanbur? Chunki, o'zbek maqomlarining ijrosida asosiy cholg'u deya tanbur sozi tan olingan va E.Romanovskaya ham Matyoqub Xarratovning aynan tanburdagi ijrosidan Xorazm maqomlarini yozib olgan.

Xorazm klassik muzikasi to'plamida Xorazm maqomlarining faqat chertim yo'llari aks etganini hisobga oladigan bo'lsak, besh chizikli nota yozuviga Xorazm maqomlarining to'liqligicha notalashtirilishiga zaruriyat bor edi. Ushbu ishni xorazmlik kompozitor, g'ijjak cholg'usining mohir ijrochisi hamda xonanda Matniyoz Yusupov amalga oshirdi. Mazkur notalashtirish jarayonining mevasi bo'lmish nota to'plami "Xorazm maqomlari" nomi ostida 1958-yili O'zbek xalq muzikasi to'plamlar turkumining 5-jildi o'laroq Toshkentda nashr ettirildi. Ushbu to'plam tayyorlanayotgan paytda Matniyoz Yusupov Toshkent davlat Konservatoriyasining talabasi edi. Shunga qaramay u bu ishga o'ta puxtalik bilan yondoshgan. O'zining ustozlari bo'lgan Matpon Ota Xudoyberganovning ijrosidan Xorazm maqomlarini yozib olib, notalashtirgan va ushbu nota to'plamiga joylashtirgan. "Xotirasi kuchli

bo‘lgan Matpano ota barcha xorazm maqomlarining muzika tekstini yodida saqlab qolgan. Bu narsa uning sobiq shogirdi, yosh kompozitor Matniyoz Yusupovga kuylarni yozib olish imkonini bergan”. [4.XXIX]

Mazkur nota to‘plamida Xorazm maqomlari xuddi Shashmaqom kabi oltita maqomlardan iborat holda keladi. Bular: Rost, Buzruk, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq. Xorazmda yettinchi va yarimta maqom deya tilga olinadigan Panjgoh maqomi esa, bu to‘plamda aks etmagan.

Xorazm klassik muzikasidan farqli ravishda Xorazm maqomlari to‘plamida maqomlarning tarkibi anchagina boydir. Masalan birgina Rost maqomining aytim yo‘llaridan namunalar Xorazm klassik muzikasi to‘plamida 6 dona bo‘lsa, Xorazm maqomlar VI da esa, bu miqdor 8 tani tashkil etadi.

Ushbu Xorazm maqomlari to‘plamini o‘zining nazariy ahamiyati bilan anchagina qadrligi deya hisoblash mumkin. Chunki mazkur kitobning avvalida “Xorazm maqomlari” nomli maqola mavjud bo‘lib u yerda Xorazm maqomlarining kelib chiqishi, tarkibi hamda nazariy asoslari bayon etilgan. Mazkur maqolani kitob tahrirchisi I.Akbarov hamda Yu.Konlar hammualliflikda yozishgan. Ushbu maqolada o‘rta asrlarda tovushqatorlarning takomillashuvi haqida ham qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Bu to‘plam tom ma’noda Matpano ota Xudoyberganovning xotirasidagi Xorazm maqomlaridan iborat.

Quyida Xorazm maqomlari chertim yo‘llarining tarkibiy miqdori o‘laroq “Xorazm klassik muzikasi” va “Xorazm maqomlari VI” to‘plamlaridagi o‘zaro farqni kuzatishimiz mumkin.

Xorazm klassik muzikasi		Xorazm maqomlari VI
Rost maqomi		
chertim kuylari	7	8
Buzruk maqomi		
chertim kuylari	10	7
Navo maqomi		
chertim kuylari	9	11
Dugoh maqomi		
chertim kuylari	14	8
Segoh maqomi		

chertim yo‘llari 8 7

Iroq maqomi
chertim yo‘llari 9 7

Panjgoh maqomi esa, mazkur jadvalda mavjud emas.

Demakki Matniyoz Yusupovning sa’y-harakatlari natijasida unitilish ehtimoli yuqori bo‘lgan ko‘plab Xorazm maqomlari namunalari yozib olindi va notalashirildi. Yuqoridagi qiyoslashga nazar solsak namunalarning Xorazm maqomlari VI to‘plamiga kelib kamayganini ko‘rishimiz mumkin. Bular esa, o‘z o‘rnida unitilgan, yoki ko‘zdan qochirilgandir. Agar Matniyoz Yusupovning ushbu ishni amalga oshirmaganda Xorazm maqomlari namunalarning yana qanchasi unitilib ketardi? Degan savolga javob izlashning o‘zi ham havotirlidir.

Dastlab Komil Xorazmiy va Mirzo Xorazmiy keyinchalik Yelena Romanovskaya hamda Matniyoz Yusupovlarning ko‘rsatgan mehnatlari Xorazm maqomlarining davriy qiyofasini shakllantirishga asos bo‘lib xizmat qildi. Salkam 2 asrdan ko‘proq vaqt mobaynidagi Xorazm maqomlari tarkibidagi o‘zgarishlarni kuzatish imkoniyatini berdi. Xorazm maqomlari bilan nazariy shug‘illanish, uning tarixini o‘rganish, lad hamda tovushqator asoslarini tahlil qilish va, eng asosiysi, Shashmaqom bilan farqli jihatlarini o‘rganishda yuqoridagi nota to‘plamlarining ahamiyati beqiyos.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li, Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musiqiy tarixchasi. Nashrga tayorlovchi Botir Matyoqubov. “Mumtoz so‘z”, T., 2014.

2. Абдуллаев Л.Т., “Елена Романовская и ее экспедиция в Хиву” статья, Проблемы современной науки и образования, 2019 № 12 (145). Часть 1.

3. Е.Романовская. Хоразм классик музыкаси. М., 1939.

4. М.Юсупов, Хоразм мақомлари VI, Т., 1958

5. Исҳоқ Ражабов. "Мақомлар". "San'at" нашриёти. Тошкент, 2006.

BASTAKORLIK SAN'ATI, O'ZBEK MILLIY MUSIQA SAN'ATIDA SAID XO'JA XOLDOR XO'JAYEVNI TUTGAN O'RNI

Toxirjon SAID XO'JAYEV

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMMSI,
"Professional" ta'lim: (ana'naviy cholg'u
ijrochiligi) ta'lim yo'nalishi
3-kurs talabasi.*

*Ilmiy rahbar: **Rano ORIPOVA,**
Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMMSI,
"Tillar, ijtimoiy fanlar va lismoniy
madaniyat" kafedراس dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi.*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada bastakorlik ijodiga nazarsolib, bastakorlik nima uning mohiyati va O'zbek milliy musiqasida o'ziga hos maktabini yaratgan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Saidxo'ja Xoldorxo'jayev to'g'risida fikr yuritilgan. Bu uslublarga Saidxo'ja Xoldorxo'jayev qanday ijod qilgan?*

***Kalit so'zlari:** Mahalliy uslublar Buxoro, Xorazm, Farg'ona, Toshkent.*

O'zbek xalq mumtoz musiqa ijodiyoti xalqimiz ma'naviy merosining negizlaridan hisoblanadi. Moddiy-ma'naviy boyliklar asosida yuzaga kelgan ulkan merosning zaminida xalqimizning milliy an'analari, qadriyatlari mujassam topgan. Ma'naviy merosni o'rganish, zamonga mos rivojlantirish har bir davr taraqqiyotining asosiy omillaridandir. Xalqimizning milliy-ma'naviy merosini musiqa san'atisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Azal-azaldan ajdodlarimiz tomonidan yaratilib, qadriyatlar sifatida shakllanib kelinayotgan milliy urf-odatlarimiz, an'anaviy tarzda avlodlardan avlodlarga o'tib, xalqimizning buyuk ma'naviy dunyosini namoyon etib kelmoqda. Xalq musiqa ijodiyoti, musiqa sohasidagi yozma manbalar, bastakorlik san'ati, kasbiy musiqa ijodiyoti bunga yorqin misoldir. Musiqa san'ati o'zining qadimiyligi, janrlarga boyligi, mazmun-

mohiyatan keng qamrovliligi, ommabopligi bilan jamiyat turmush hayotining ajralmas qismiga aylanib ulgurgan.

Bastakor soʻzining lugʻaviy manosi: “Bastakor” iborasi fors-tojik soʻzlar birikmasidan hosil boʻlgan boʻlib, “basta” – bogʻlash, “kor” – ish, mashgʻulot degan maʼnolarni bildiradi.

Sanʼat millatning maʼnaviy boyligi, hayotining koʻzgusidir. Sanʼatlar ichida musiqa xalqqa tez yetib boradigan, keng ommalashgan turi hisoblanadi. Bastakorlik sanʼati juda keng tushunchadir. Oddiy qilib aytganda, xalq musiqasi ham xalq tomonidan ommaviy tarzda yaratiladi va ijro etilib kelinadi. Demak, bu ham bastakorlik sanʼatining bir koʻrinishidir. Faqat ular xalqimizning hayoti, voqelik, marosim va udumlariga bogʻliqligi bilan ajralib turadi. Ana shu jarayonning ravnaqi, yaʼni milliylikning rivoji, xalqimizning tafakkuri, maʼnaviyati, maʼrifiy kamoli, jamiyat rivoji va buyukligini musiqiy ohanglarda muayyan shakllarga solib tasvirlab berish bastakorlik amallari desak toʻgʻri boʻladi. Bastakorlik ijodi va umuman, musiqa sanʼatining turli yoʻnalishlari bilan bogʻliq masalalar, IX–XVII asrlarda yashab ijod etgan Al Kindiy, Abu Abdulloh Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Safiuddin Urmaviy, Abdulqodir Marogʻiy, Abdurahmon Jomiy, Zaynulobiddin Husayniy, Najmiddin Kavkabiy, Darvish ali Changiy kabi allomalarning musiqa ilmiga bagʻishlangan risolalarida musiqa zamonasi kesimida bayon etilgan. Risolalarda qayd etilishicha, musiqaning nazariyasi va amaliyoti azaldan oʻzaro bogʻliq holda shakllanib kelgan.

Bastakorlik amaliyotining oʻzi bir qator tabiiy, hayotiy va ijodiy qoidalarga asoslanib shakllangandir. Ushbu qoidalar, avvalo, milliy qadriyatga, makon va zamonga, shakli shamoyilga, xarakterga va qolaversa, bir qator musiqiy unsurlarni oʻzida mujassam etishi bilan xarakterlanadi. Chunki musiqa nazariyasi bilan bogʻliq jihatlar, yaratilgan har qanday bastakorlik asarlarini shakliy, lad-tonallik, oʻlchov-ritmik, mavzuiy, ohang rivoji, funkcionallik kabi xususiyatlari asar tarkibini tashkil etuvchi unsurlar bilan bogʻliqdir.

Oʻzbek bastakorligida mahalliy uslublar ham qoʻllaniladi. Bastakor iborasi negizida musiqa yaratuvchilik bilan bogʻliq bir qator amallarni oʻzida mujassam etgan turlar mavjud. Musiqa ijrochiligida mohirlikka erishib, faqat oʻz ijrosi va uslubida musiqa ijod etganlar ham uchraydi, ayniqsa, hozirgi davrga kelib bu yoʻnalish ancha ommalashgan.

Bastakorlik ijodiyotida kuy bastalash bilan birga ushbu kasbning xususiyati bilan bog‘liq yana bir qator jihatlarni aks etuvchi amallarni qamrab oluvchilar ham mavjud. Azaldan ushbu kasb egalari ham xalq musiqa ijodiyotida o‘z o‘rniga ega ekanligi musiqiy risolalarda bayon etilgan. Jumladan, Alisher Navoiy asarlarida zikr etilgan “Lahnpardozi”, “nag‘mapardozi” so‘zlaridir. Bastakorlikning turli an‘analari asrlar osha ustoz-shogird an‘analari negizida kamol topib kelgan. Asarlarning turli so‘zlar bilan aytilishi yoki aksincha, cholg‘u yo‘llarining aytim yo‘llariga moslanishi, aytim yo‘llarini cholg‘u ijrochiligida talqin qilish an‘analarining barchasi ijrochilik amaliyoti va ustozlarning an‘anasiga aylanganligini e‘tirof etish mumkin. Faqat har bir davr o‘z zamonasi va bastakorlik ijodiyotining rivojlanish bosqichlari darajasida bo‘lganligi muqarrardir.

Buxoro bastakorlik ijodi musiqa an‘analarida yuzaga kelgan namunalar, ya‘ni “Shashmaqom”, o‘zining mukammalligi, shaklan, tarkiban muayyan tizimga asoslanganligi bilan o‘zbek bastakorlik san‘atida yetakchi o‘rinni egallaydi. “Shashmaqom”, – deb yozadi maqomdon olim I. Rajabov, – maqom janrining taraqqiy etilgan eng so‘nggi shakli sifatida, bastakorlik san‘atining musiqa risolalarida ko‘rsatilgan kuy turi va shakllarining rivojlantirilishi natijasida yaratildi.

Xorazm mahalliy uslubi, avvalo, o‘zining qadimiyligi bilan ahamiyat kasb etsa, mumtoz musiqa ijodiyotida yuzaga kelgan Xorazm maqomlari, dutor maqomlari, suvorolari bastakorlik ijodining yorqin namunalari sifatida o‘zining vohaga xosligi va mukammalligini ko‘rsatib turadi.

Surxondaryo-Qashqadaryo vohalarining mahalliy musiqiy an‘analarida doston va termalar ijrochilik an‘analari alohida o‘rin egallagan.

Farg‘ona-Toshkent vohasining musiqiy an‘analari ham boy va keng qamrovlidir. Ushbu vohaga maqomlarga xos bo‘lgan turkumlardan ashula va cholg‘u turkumlari xosdir. “Toshkent-Farg‘ona maqom shakllariga Bayot, dugoh husayniy, Chorgoh va Shahnozi gulyor kiradi” – deb bayon etgan I.Rajabov. Shu bilan birga I.Rajabov, “Shashmaqom” tarkibidagi maqomlar asosida yaratilgan “Nasrulloiy”, “Ajam”, “Miskin” kabi Farg‘ona-Toshkent ijro an‘analarida mavjud. Ko‘plab asarlar maqomlarga xosligini e‘tirof etib o‘tgan. Bu borada O‘zbekistonda

xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Saidxo'ja Xoldarxo'jayev ham samarali ijod qilganla. Bu kishi 1934-yil 11-dekabr Namangan viloyati Namangan tumani xo'ja qishlog'ida san'at shaydoshi bo'lgan oddiy dehqon oilasida tavallud topgan. U hayoti davomida 400 ga yaqin ashulalarga kuy bastaladi.

Saidxo'ja Xoldarxo'jayev o'zbek bastakorlik san'atida alohida o'ziga xos maktab yaratgan zabardast bastakor, mohir sozanda va xonanda hamda betakror ustoz sifatida samarali ijod etgan yorqin namoyandalardan biridir. Saidxo'ja Xoldarxo'jayev musiqa xususidagi bilimining o'ziga xosligi uning ijodida mujassamlangan. O'zbek musiqa merosining qaysi janri yoki qaysi mahalliy uslubidan ta'sirlansa, ularga xos holda yoki shu uslubga mosroq etib, asarlar yaratishga erishgan. Uning "Junun vodiysi" asari Farg'ona vodiysining maqom yo'llariga xos bo'lsa, "Bo'lmas" asari Xorazmcha ohangu sayqallarga boy, "Topolmasman" "Qaydasan" "G'uboringa" "Yor keldi" kabi ko'plab asarlari Farg'ona Toshkent ijro maktabining namunasi sifatida an'anaviy ijrochilik tarixida muhrlangan. "O'xshaydiku" qo'shig'ini Tavakkal Qodirov maromiga yetgazib ijro qilganlar. "Men sevaman sen sevasanmu" asari xalq orasida mashhur bo'lgan asarlardan biri. Amaliyotda "Bo'lmas" ashulasi Xorazm ijro uslubida ham mavjuddir. "Topolmasman" "Nixonu nixon", "Yorim", "G'am kelur", "G'uboring'a" "Ajab janonasan" "Vafo qilmading" "Jamoling" "Demasman" "Qarorimni" "Kelsamgiz" "Mushtifaron" "O'ltirur" "Aslikam" "Ahdu vafoqani" "Ichdim sharob" "kabi asarlari lirik jihatlari maqom yollarida yaratilganligi bilan xarakterlanadi. Saidxo'ja Xoldarxo'jayev bastalagan asarlarining maqom ko'rinishida bastalagan.

"Junun vodiysi" asarni yaralishiga to'xtalib o'tish lozimkiy. Bu asar bastakor tomonidan 14 yoshida xazrat Alisher Navoiyning g'azaliga bastalangan. Ushbu ashula xonandadan shahd bilan ijro etishni talab qiladi. Chunki, asarning xususiyatlari qatorida, xonanda o'z imkoniyatlarini namoyish etishi mumkin bo'lgan yashirish xususiyat bor bo'lib ularni namoyish etish imkoniyatlarini yaratib beradi. Buning zaminida xonandaning bilimi, ijro mahorati va tajribasi yotadi.

Saidxo'ja Xoldarxo'jayevning san'at yo'nalishida ta'lim olmaganligi bizning hayratga soladi. U 1955-yili (TOSHMI) xozirgi Toshket tibbiyot institute bilim yurtiga o'qishga kiradi. Talabalik davrida

jismoniy tarbiya fanidan kursdan kursga o'tish mobaynida talabalar granata uloqtirishadi va ustoz talabalar ichida eng uzoq uloqtirgan bo'lib hakamlar hay'ati yana bir marotaba uloqtirishini so'rashdi. Saidxo'ja granatani uloqtirish vaqtida noto'g'ri harakat tufayli qo'li yelkasidan chiqib ketdi, og'ir jarohat oldi. Keyinchalik san'atga bo'lgan mehri, muhabbati so'ngmaganligi sababli o'qishini davom ettira olmaydi. 1959-yili Namangan viloyati Mingbuloq tumanidagi tibbiyot punktida feldsherlik faoliyatini boshlaydi. Meditsina yo'nalishda ta'lim olgan inson mana shunday asarlar yaratganligi beqiyosdir.

“Men sevaman sen sevasanmi” asari yaralish tarixiga qisqacha ma'lumot bekarekanman. Saidxo'ja Xoldarxo'jayev meditsina sohasida faoliyat yurutyotgan mahalda bu asar yaralgan, ustoz honasida rubob sozining birdona kori, yani simi qolgan ekan, bir kechada “Men sevaman sen sevasanmu” asari rubobning bir dona simida yaratilgan. Ustoz Namangan tumanidagi kasalxonalarda “Kichik tibbiyot xodimi” sifatida ishlab yurdi. Yuragining mahbubasi san'at edi, undan aslo ko'ngil uzaolgani yo'q. Tibbiyot xodimi bo'lib har ikki yo'lni ham teng olib bordi va bastakor sifatida tanildi. 1975-yildan boshlab esa madaniyat uylarida ishlay boshladi, va ansambl rahbari etib tayinlandi ko'p yil o'tmay “Olvalizor gullari” deb nomlangan bu ansamblga “Xalq ansambli” unvoni berildi.

Hozirgi davrga kelib, o'zbek an'anaviy musiqa ijrochiligi har tomonlama mukammal, teran mazmunli, an'ana va zamonga mos sayqal topayotganiga guvoh bo'lamiz. Bu, albatta, mustaqillik davrida milliy musiqa ijodiyoti va ijrochiligiga bo'lgan e'tiborning yuksakligidir. An'anani saqlab, davom ettirish uchun davr yoshlari mohir ijrochi bo'lishlari barobarida, kelgusida shu sohaning yetuk mutaxassisi, kamolotga yetaklovchi o'qituvchisi, ya'ni har tomonlama bilimdon ustoz sifatida kamolga yetishishlari lozim.

Ma'lumki, XX asr musiqa ijodiyoti yangi oqimlar bilan boyidi. O'zbekiston musiqa madaniyati tarkibida Yevropadan ko'p ovozli kompozitorlik ijodi va ijrochiligi kirib keldi, musiqa ta'limida va ijodda ustuvor yo'nalish sifatida unga katta e'tibor qaratildi. Bastakorlik ijodiyoti o'ziga xos tarzda davom ettirilganligi hamda zamonga mos yaratilgan asarlar o'zining shakl-u shamoyilini asragan holda, ammo uslub jihatidan davrga moslashganligini kuzatish mumkin.

Bastakorlarning yangi avlodi, o‘tmish ijodkorlar an’analarini davom ettirgan holda o‘ziga xos uslublarni yaratdilar. Ijod etilgan asarlar ham xalqonaligi, an’anaviyligi va zamonaviyligi bilan ijro amaliyotida ommalashib, rivojlandi. Ijodiyotda janrlik xususiyat kengaydi. Qolaversa, bastakorlik ijodiyoti an’anasi zamonaviy musiqa ijodiyoti bilan boyiganligini e’tirof etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. I. Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T. “Ma’naviyat”, 2008.
2. T. G‘ofurbekov. Bastakorlik ijodiyoti tarixidan. Saylanma. – T. 2009. b.
3. I. Rajabov. Maqomlar. T. 2006. 150-b
4. Soyib Begmatov. Bastakorlar ijodi. T. “NISO POLIGRAF” – 2017

GENJEBAY TILEUMURATOVNING QORAQALPOQ BAXSHICHILIGIDA TUTGAN O‘RNI

Amangul DAVLETMURATOVA,

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSSI

Xalq ijodiyoti: (baxshichilik va dostonchilik)

ta’lim yo’nalishi 2-kurs talabasi.

Ilmiy rahbar: Nodira HAYDAROVA,

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSSI,

“O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi” kafedrasida o‘qituvchisi.

Annotatsiya. Qoraqalpoq baxshichiligi haqida qisqacha ma’lumot, Genjebay Tileumuratovning bolaligi, hayoti va ijodi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Qoraqalpoq baxshichiligi, qoraqalpoq dostonlari, qoraqalpoq nomalari.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 26.04.2018 yildagi 304-sonli “Baxshichilik va dostonchilik san’atini yanada rivojlantirish hamda takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida aytilganidek “Ayni paytda baxshichilik va dostonchilik san’atining tarixi, baxshilar va dostonchilar ijodini mukammal o‘rganish, bu borada fundamental tadqiqotlar olib borish, xalq og‘zaki ijodi yodgorliklarini to‘plash, nashr etish yuzasidan yana ko‘pgina chora-tadbirlarni amalga oshirishga ehtiyoj sezilmoqda” [5]. Ushbu qarorda baxshi-doston ijrochilari ijodini mukammal o‘rganish hamda baxshichilik san’atini ommaga targ‘ib qilish vazifasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli maqolada san’ati kam o‘rganilgan mahoratli ustazoda baxshi Genjebay Tileumuratovning ijodiy faoliyatiga to‘xtalib o‘tiladi.

O‘zbekistondagi baxshichilik maktablarining biri bo‘lgan Qoraqalpoq baxshichilik maktabi dutor chalib qo‘shiqlar aytadigan va ko‘pincha ishqiy-romantik dostonlarni kuylaydiganlarga “baqsi” deb aytamiz. Qoraqalpoq baxshilar asbobining nomi “Alamoynaq duwtar”i bo‘lib hisoblanadi. Xalqimiz maroq bilan tinglaydigan nomalar dostonlari va qo‘shiqlarini Xalq baqshilari o‘z maromiga yetkazib ijro etishgan. Shulardan atoqli Qoraqalpoq Xalq baxshisi va Qoraqalpoq

baxshichiligining yirik vakili bo'lgan ustozimiz Genjebay Tileumuratovning ijodi bizga juda qiziq. Genjebay Tileumuratov o'zi baxshilar oilasida voyaga yetgan bo'lib, uning ustozlari otasi Atamurat og'li Tilewmurat baxshi. U 1881-yili Qoraqalpog'istonning Mo'ynoq tumanidagi Qiysiq Madeli degan joyda dunyoga kelgan va 59 yil o'tgach Qanliko'lga ko'chib kelgan. Genjebay Tileumuratov oilada uchta og'il bo'lib, katta akasi Tileumuratov Qazaqbay (1913-1944) iqtidorli, yetuk sozanda bo'lgan. U 1941-1945 yillar ikkinchi jahon urushida Polshada vafot etgan. Kichkina akasi Tileumuratov Dauletbay(1915-1980 27-iyul) o'rta maktabda o'qituvchi, keyinchalik qurilishda ishlagan. Shu bilan birga baxshichilik faoliyati bilan xalqqa xizmat qilgan. Tileumurat baxshining kichik og'li Genjebay ovozi harqanday tinglovchining ko'ngliga yoqgan.

Genjebay Tileumuratov 1929-yili Mo'ynaq tumanining 7-qishloq kengashining "Birlik" kolxozida tug'ilgan. U yoshligidan qo'shiq aytishga va dutor chalishga juda qiziqgan. Uning bu qiziqishiga otasi Tileumurat baxshi va akalari Qazaqbay, Dauletbaylar, oiladagi muhit sababchi bo'lgan. Uning bolaligi urush yillariga tog'ri kelganligi va ikki akasi frontga ketganligi sababli u o'qishini davom ettira olmaydi chunki ishlashga majbur bo'lgan. 1944-1945 yillarda Mo'ynaq tumanidagi A.S. Makarenko nomidagi boshlang'ich maktabda o'qituvchi bo'lgan va 1945-1948 yillarda Xojelidagi Pedagogika bilim yurtida taxsil olgan.



QR KOD baxshi Genjebay Tilewmuratov ijrosida "Ariwxan" nomasiga "G'arip-Ashiq" dostonidan

Genjebay Tileumuratov o'z kasbini tashlamay, otasidan "G'arip-Ashiq", "Sayatxan-Hamra", "Yusup-Axmet", "Qirmandali" dostonlarini xalq qo'shiqlarini o'rgangan.

Respublikamiz bo'ylab va Turkmanstonning bizga yaqin tumanlaridagi to'y-marosimlar va katta anjumanlarda qo'shiq aytib, baxshichilik sirlarini o'zlashtirishni davom ettirgan. O'z otasidan o'rgangan hunari umrining mazmuniga aylandi. Bu hunarini yanada boyitish maqsadida qoraqalpoq baxshichilik maktabining atoqli vakillari Juman To're og'li (Juman Solaqay), Esjan Qospolatov, Japaq Shamuratov, Qong'iroqlik O'rinboy baxshilardan baxshichilikning turli sirlarini qunt bilan o'rganib,

qo‘shiqlarni maromiga yetkazib ijro etishga erishdi. Qoraqalpoq klassik shoirlari Kunxoja, Ajiniyaz, Berdaq, Ayapbergenning, Turkman klassik shoirlari Kemiya, Maxtumqulilarning qo‘shiqlarini nomaga solib, repertuarini boyitgan.

Genjebay Tileumuratov 1960-yilning mart oyida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog‘iston filiali N.Dovqorayev nomidagi til va adabiyot institutining san‘at sektoriga ilmiy ishchi bo‘lib ishga kiradi. Bunday katta ilm dargohiga kelishi, uning ijodiga yangicha kuch berib, har tomonlama ijobiy ta‘siri sezildi. Bu maskanda 30 yildan ziyod davrida, yurtimizning birqancha qobiliyatli san‘at, madaniyat va ilm fidoyilari (S.Kamalov, Q.Maqsetov, S.Bahadirova, T.Allanazarov, T.Adambayeva, M. Nizamatdinov, Alimov va h. z.) bilan birga ishlab, milliy musiqa meroslarini yig‘ishda, ularni har taraflama rivojlantirishda va kelajak avlodga inom etib qoldirishda tinmay mehnat qildi. U Respublikamiz bo‘ylab tashkillangan ekspeditsiyalarda qishloqmaqishloq yurib, nomalarni magnet tasmaga yozdirib, qanchadan-qancha bebaho materiallar yig‘di va ular oltin fondga kiritildi.

1976-yili Qoraqalpog‘iston Mamlakat televidenye va radioeshittirish komiteti yonidan “Muxalles” milliy dutorchilar ansambli ochilib, Genjebay Tileumuratov birinchi musiqa rahbari bo‘ldi. Bu tashabbuslar milliy musiqamizga yangidan jon kiritdi va katta ijobiy o‘zgarishga yo‘l ochib berdi.

Albatta, ulkan ijobiy yangiliklar osonlik bilan amalga oshirilmadi. Sababi azaldan atoqli baxshi-sozandalar tomonidan yakka ijro etib kelingan, professional darajadagi milliy Alamoynaq dutor sozlarini va xalq qo‘shiqlarini zamon talabiga munosib ansamblga solib ijro qilganini o‘zi yangi tashabbus edi. Shuning uchun ham, buni ishga oshirishda ko‘p qiyinchiliklar bo‘ldi. Shu o‘rinda Genjebay Tileumuratov professional darajadagi birinchi milliy alamoynaq dutorchilar ansamblini qo‘llab-quvatlab, tiklab, keng jamoatchilikning e‘tiboriga olib chiqishni o‘z oldiga ulkan maqsad qilgan edi.

Chebar sozandaning o‘zini topib, yig‘ish qiyin bo‘ldi. Sababi, u davrda, o‘qish joylarida baxshichilik ta‘lim yo‘nalishlari bo‘lmagan edi. Izlab topilgan sozandalar kuyni har biri har xil chalardi, yoki chala o‘rgangan holda keldi. Endi ularga kuyning chalinishini, unga tushadigan nolalarini, zarblarini, boshqa musiqiy elementlarni to‘liq va toza chalishni

o'rgatdi, shu bilan birga, hamma unison, bir odamdek bo'lib ijro qilishni yo'lga qo'yish kerak bo'ldi. Bu mashaqqatli ish- o'z o'rnida ko'p mehnat va ma'suliyat talab qiladi. Shu yerda aytib o'tish joizki, 1976-yili o'zining asosiy ish o'rni bilan birga, u Nukus mamlakat san'at kollejida Alamoynaq dutoridan yoshlarga dars berdi.

Bulardan tashqari, endi ansambl a'zolarini yaxshi Alamoynaq dutor bilan taminlash kerak bo'ldi. Shu yillari ansamblning dastlabki dutorini Kegeylich Seytniyaz usta Jarimbetov (1905-1983) yasab chiqqan. Bu ansamblning birinchi o'rgangan nomalari "G'ulpaq", "Nazli", "Siy perde", "Kenes" kabi asarlar edi. Bu nomalar bilan 1977-yili Boshqirdistonda o'tkazilgan "Qoraqalpoq adabiyodi va san'ati" haftaligida ishtirok etdi. [1]

Bugungi kunda Genjebay Tileumuratovning shogirdi, O'zbekiston xalq baxshisi G'ayrat O'temuratov "Muxalles" milliy dutorchilar ansambliga badiy rahbarlik qilib, ustozining yo'lini davom etmoqta.

Genjebay Tileumuratov ko'p shogirdlar tayyorladi, ularning ichida yurtimizga keng tanilgan Qoraqalpoq xalq artisti Turg'anbay Qurbanov, O'zbekiston xalq baxshilari G'ayrat O'temuratov va Ten'el Qalliyev, Begzada Asqarova va boshqalarni aytib o'tsak bo'ladi.

Genjebay Tileumuratovning 1991-yili filologiya ilimlari doktori, professor Oraqbay Dospanov va san'at fanlari kandidati Ag'inbay Allamuratovlar bilan birgalikda "Qoraqalpoq ko'rkem o'ner atamalarinin' so'zligi", 1992-yili filologiya fanlarining doktori, professor Srajatdin Axmetovlar va filologiya fanlarining doktori Sarigul Baxadirova bilan birgalikda "Folklorliq terminlerdin' qisqasha so'zligi" nomli kitoblari nashr qilindi. U 1950-yili sentyabr oyida Toshkent shahrida o'tkazilgan O'zbekiston yoshlarining olimpiadasiga qatnashib, yakka qo'shiq ijro qilish bo'yicha yoqori o'rin oldi. 1957-yili Toshkentda o'tkazilgan O'zbekiston yoshlarining birinchi respublika tanlovida "Lay-lay", "Muwsa sen yari" qo'shiqlarini yuqori mahorat bilan ijro qilgani uchun, shu tanlovning I darajali laureati diplomi bilan mukofotlandi.

1967-yili O'zbekiston adabiyoti va san'atining Turkmanistonda, 1968-yili Tajikistonda va 1978-yili Ozarbayjonda o'tkazilgan dekadalariga qatnashdi. 1969-yili Olma-Ota shahrida o'tkazilgan Qozag'istonning 50 yilligiga bag'ishlangan O'rta Osiyo bo'yicha xalq ijodiyoti ijrochilarining tanloviga qatnashib, yuqori baholar olishga

muyassar bo‘ldi. 1971-yili Turkmanistonda bo‘lib o‘tgan Turkman klassik shoiri Keminening 200 yilligi ham 1989-yilning aprel oyida Tileubergen Jumamuratov bilan birgalikda Maxtumquli pirog‘ining eslashiga bog‘liq o‘tkazilgan poeziya bayramlariga qatnashib tomoshabinlarning olqishlariga sazovar bo‘lib qaytdi.

1977-yili Boshqirdistonda o‘tkazilgan Qoraqalpog‘iston adabiyoti va madaniyat kunlarida Genjebay Tileumuratov “Muxalles” dutorchilar ansambli bilan qatnashdi. Ansamblning ijro qilgan “Siy perde”, “Nazli”, “Qara jorg‘a” kuylarini tomoshabinlar katta qiziquvchanlik bilan eshitdi. Shu yili Moskvada o‘tkazilgan To‘rtinchi Butkul ittifoq musiqali folklorini yig‘ishga bag‘ishlangan sessiyada Genjebay Tileumuratov a‘lo darajada qatnashib, bir nechta xalq nomalarini magnit tasmlarga yozdirdi.[1]

1979-yili O‘zbekiston Respublikasining Ozarbayjonda o‘tkazilgan dekadasiga faol qatnashib, tomoshabinlarning olqishlariga sazovar bo‘ldi. Shunday buyuk ishlari bilan, Qoraqalpoq baxshichiligini rivojlantirib, jahon sahnalariga chiqarishda Genjebay Tileumuratovning hissalar juda katta va uning nomi qoraqalpoq adabiyotlarida alohida ahamiyatga ega.

Genjebay Tileumuratov 1997-yili 17-dekabr kuni 50 yoshida olamdan o‘tadi. Uning xalq oldidagi barcha mehnatlari uchun hukumatimiz tarafidan “Qoraqalpog‘istonga mehnati singan xalq xizmatkori”, “Berdaq nomidagi mamlakatlik mukofati laureate”, “Qoraqalpog‘iston xalq baxshisi” va “Shuhrat medali” mukofatlari berilgan. Genjebay Tileumuratov hardoyim xalqning ko‘nglidan chiqadigan baxshi bo‘ldi va o‘z shogirdlaridan ham shuni talab qildi.

Genjebay Tileumuratovga bag‘ishlab yo‘zilgan qo‘shiqlar. Ustozim Genjebay Tileumuratovga bag‘ishlayman

Qaraqalpaq maqtanishi, shin’ edin’,
Duwtar shertsen’, saz shertkenge pir edin’,
Ashiq aydin pirdin’ sende biri edin’,
Ma’ngi juregimde ismin, Ustazim.

Bu’lbu’l sayray almay tartina turar,
Sazin’a terbeler ana jer, tawlar,
Ha’tte, jimin’laspay, hayran juldizlar,
Aqimbet, Muwsanin’ biri Ustazim.

Sadag'an' keteyin duwtar so'yleydi,
Tula boydin' ba'rin sazin' biyleydi,
Ju'rekti silkindirip taplap iyleydi,
Xalqimnin' ilhami, yoshi Ustazim.

Ustazim saz shertse basqalar turg'an,
Qulshina qosiq aytsa, kewiller tolg'an,
Misali a'lemde tim-tiris turg'an,
Babalar sazinin' ko'zi, Ustazim.

Ta'n'irim o'nerin ataylap Bergen,
Umitpas Ustazimdi ha'mme ko'z ko'rgen,
Milletim maqtanishi ustazim dermen,
Aytjan ha'm Esjannin' biri, Ustazim

O'z joli aytqani, nama shalg'ani,
Burinnan birew edi nusqa qalg'ani,
Xalqinan jaqsi so'z, algis alg'ani,
Baqsi jollarinan, sag'im, Ustazim.

Sum a'jel aladi jaqsi-jamandi,
Bul du'nya isleri, ba'ri a'rmandi,
Ustazim qudayg'ada kerek bolg'andi,
Ko'zsiz, bir soqirday turman, Ustazim.

Shogirdi Tengelbay Qalliyev
O'zbekiston xalq baxshisi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. D.Allanazarov Xaliq Baqsisi Nukus "Avangard-Baspa", 2022.
2. Adambaeva T, Revolyutsiyag'a shekemgi Qaraqalpaq muzikasi. Nukus, "Qaraqalpaqstan", 1985.
3. Adambaeva T. Qaraqalpaq sovet muzikasinin ' tariyxinan. Nukus "Qaraqakpaqstan", 1985.
4. Allanazarov D. Qaraqalpaq Sazlari (duwtar). Nukus, "Bilim", 2004.

5. <https://lex.uz/uz/docs/-3711930>

6. <https://t.me/baqsilar>

“MUG‘OM OLAMI” FESTIVALI VA O‘ZBEKISTONLIK IQTIDORLI XONANDALAR

Odina KUYDIMUROTOVA,

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMMSI,

San‘atshunoslik: (musiqashunoslik) ta‘lim yo‘nalishi

2-kurs talabasi.

Ilmiy rahbar: Shaxida BERDIXANOVA,

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMMSI,

*“O‘zbek maqom tarixiva nazariyasi” kafedrası kata o‘qituvchisi,
san‘atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).*

Annotatsiya: Mazkur maqola, “Mug‘om olami” Xalqaro festivali mohiyatini yoritish bilan bir qatorda, ushbu festival doirasida O‘zbekistonlik maqom ijrichilarining erishgan natijalari bayoniga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: Mug‘om, san‘at, maqom, festival, milliy musiqa.

Bugungi kunda maqom san‘atning rivojlanishiga davlat siyosati darajasida e‘tibor qaratilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasida madaniyatni yanada rivojlantirish, yangi O‘zbekistonning yangi tarixini yaratish, madaniy meros durdonalarini saqlash va targ‘ib etish, xalq og‘zaki ijodiyoti va havaskorlik san‘atini yanada ommalashtirish, madaniyat va san‘at sohasini innovatsion rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora tadbirlar yo‘lga qo‘yilgan. [4.1] Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son farmoniga asosan – “O‘zbekiston davlat konservatoriyasi hamda O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutining tegishli ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari negizida maqom ijrochiligi, baxshichilik va katta ashula yo‘nalishlari bo‘yicha kadrlar tayyorlovchi tayanch oliy ta‘lim muassasi – Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san‘ati instituti tashkil etilishi” belgilangan bo‘lib, ushbu institut

2020-yil 2-sentyabrdan boshlab hozirgi kungacha samarali faoliyat olib bormoqda. Qolaversa, jamiyatimizda maqom san'atining nufuzini oshirishga xizmat qiladigan turli tanlov va festivallar o'tkazish, ushbu san'at sohasi namoyondalarini rag'batlantirish bo'yicha tashabbuslar, maqom san'atini ta'lim tizimining barcha qatlamlarida – musiqa maktablaridan to oliy ta'lim dargohlarigacha o'qitishni amalga oshirga qaratilgan qator chora-tadbirlar yo'lga qo'yilganligini, hamda dunyo hamjamiyatida milliy musiqa san'atimizni keng targ'ib qilish va turli festivallarda yurtimizning is'tedodli yishlari ishtirokini ta'minlash kabi chora-tadbirlarni amalga oshirilayotganligini ta'kidlab o'tish joiz.

Milliy musiqa san'atiga bag'ishlangan nufuzli tanlovlardan biri sifatida "Mug'om olami" festivalinining o'rni alohida ahamiyatga ega. So'nggi yillarda tobora milliy ruhdagi maqom san'ati bo'yicha o'tkazilayotgan shu bilan birga Sharq xalqlarini o'zining san'ati bilan birlashtirgan "Mug'om olami" xalqaro festivali 2009-yildan buyon har ikki yilda bir o'tkazilib kelinmoqda. Bundan maqsad shuki mug'om san'atini dunyo xalqlariga tanitish, sharq musiqasi an'analarini saqlab qolish va madaniy aloqalarni mustahkamlashdan iboratdir.

Ozarbayjon madaniyati va san'ati qadim, bo'y va rang-barang tarixga ega bo'lib, mug'om Ozarbayjon xalq musiqa san'atining gultoji desak mubolag'a bo'lmaydi. Ozarbayjon xalqining umummilliy rahnamosi Heydar Aliyev quyidagi jummalarni keltiradi: "Bizning xalqimiz musiqa madaniyatining buyuk tarixiga ega. Ozarbayjon xalqining qadimdan to hozirgi kungacha yashab kelayotgan musiqasi, qo'shiqlari, Ozarbayjon mug'omlari milliy boyligimizdir" deya takidlaydi. [3.1] Bugungi kunda Ozarbayjonda mug'om san'atiga chuqur muhabbat va hurmatga sazovor bo'lib, ushbu san'atni asrab avaylash va targ'ib etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev buyrug'iga asosan, yuksak saviyada bunyod etilgan Xalqaro Mug'om markazining barpo etilishi, qadimiy san'atga bo'lgan e'tibor va g'amxo'rlikning yana bir ifodasidir. Davlat Prezidenti aytib o'tganidek: "Mug'om – Ozarbayjonning milliy boyligi. Asrlar davomida Ozarbayjon xalqi o'z hayotida bu go'zal san'atni yuksak qadrlab, qalblarida salqab kelgan. Bugungi kunda avloddan-avlodga o'tib kelayotgan mug'om san'ati, bugungi kunda ham

Ozarbayjonda yashamoqda, avaylab saqlanmoqda, rivojlanib bormoqda”.
[3.2]

Ozarbayjon mamlakatida 2008-yilda “Xalqaro mug‘om markazi” binosining ochilishi munosabati bilan, mug‘om san‘atini yanada rivojlantirish hamda maqom ijrochilarini munosib rag‘batlantirish maqsadida 2009-yildan e‘tiboran Baku shahrida Heydar Aliyev jamg‘armasi tomonidan “Mug‘om olami” I Xalqaro festivali har ikki yilda bir muntazam ravishda Ozarbayjon madaniyat va turizm vazirligi va Ozarbayjon kompozitorlar uyushmasi tashabbusi bilan yo‘lga qo‘yilib, hozirgi kunga qadar an‘anaviy ravishda yuqori darajadagi festivallar qatorida o‘tkazilib kelinmoqda. Festivalga maqom san‘ati rivojlangan davlatlardan 18 yoshdan 35 yoshgacha bo‘lgan ishtirokchilar taklif qilinadi hamda maqom san‘atiga bo‘lgan qiziqishni boyitish maqsadida, yosh ijodkorlarning ijodi targ‘ib qilinadi va rag‘batlantiriladi. Mazkur festival ikki bosqich (tur)dan iborat bo‘lib har bir davlat o‘zining maqom namunalarini kuylashlari va o‘zlarining ijrochilik mahoratlarini namoyon etishlari kerak. Ilk festival rasmiy ravishda 2009-yil 20-martda Baku shahridagi “Mug‘om markazida” bo‘lib o‘tgan. Ushbu festivalning Navro‘z bayrami arafasida o‘tkazilishi bejiz emas. Sababi, Mug‘om va Navro‘zni bog‘lovchi omillar ko‘pdir. Ularning ikkalasi ham qadimiy tarixga qadimiy an‘analarni o‘zida mujassam etadi. Shu o‘rinda ushbu festivalda O‘zbekistonlik iqtidorli xonanda Yulduz Turdiyevaning ishtiroki va o‘zining betakror chiqishi bilan “Qorabog‘ shikastasi” ijrosi barchani lol qoldirganligi alohida taqsiqga sazovor.

Festival doirasida xalqaro simpozium tashkil qilish, simpozium doirasida esa milliy musiqa san‘atiga doir ijrochilik kabi masalalar yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu “Mug‘om olami” festivalida maqom-mug‘om tizimlarini tuzilishi va shakillanishi, mug‘om ijodi va rivojlanishida ijro uslublari yuzasidagi masalalar yetakchi olimlarining maruzalaridan joy olganligi bilan ahamiyatlidir.

2011-yil 14-martdagi “Mug‘om olami” II Xalqaro festivalida ishtirok etuvchi davlatlar soni tobora kelgayganini kuzatish mumkin. Navbatdagi festival doirasida mug‘om ijrochilari shuningdek, Eron, Iroq, Misr, O‘zbekiston, Hindiston va boshqa ko‘plab mamlakatlarda ijrochilari o‘z chiqishlari bilan milliy mumtoz musiqa san‘atini namoyish etishgan.

2015-yilning 11-18 mart kunlari tashkil qilingan “Mug‘om olami” IV Xalqaro Mug‘om festivali doirasida Ozarbayjon, Turkiya, Latviya, Eron, Iroq, O‘zbekiston, Tojikiston va Xitoy musiqachilari ishtirok etishgan.



2018-yilning 7-14 mart kunlarida bo‘lib o‘tgan navbatdagi V Xalqaro Mug‘om festivalida yurtdoshlarimizning ishtiroklari yuqori ravishda baholanganligini kuzatishimiz mumkin. Jumladan, festivalda Ilyos Arabov 1-o‘rin (xonanda), Azamat Ergashev 3-o‘rin (nay), Otabek Akramov 3-o‘rin (dutor) ga sazovor bo‘lishgan. Yildan yilga ushbu festival doirasida O‘zbekistonlik ishtirokchilar sonining ortib borayotganligi ham taqsinga loyiq.



Bu esa o‘z navbatida yurtimiz yoshlarining o‘zbek maqom san’atiga bo‘lgan qiziqishining tobora kengayganligi, shu bilan bir qatorda nufuzli o‘rinlarga ega bo‘lishlari milliy musiqa san’atimizga bo‘lgan e’tiborning dunyo miqyosida ortib borayotganligidan dalolatdir.

2023-yilning 18-25 iyun kunlari navbatdagi “Mug‘om olami” VI Xalqaro festivali tashlik qilinib, Ozarbayjon, O‘zbekiston, Turkiya, Eron, Misr kabi 20 dan ortiq davlatlardan 70 nafarga yaqin ishtirokchilar qatnashgan. Ushbu festivalda yurtimizning vakillari munosib tarzda ishtirok etib, navbatdagi sovrinli o‘rinlarni qo‘lga kiritishganligini alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Bu galgi festivalda yangi tashkil qilingan Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti nomidan “Maqom xonandaligi” kafedrasida o‘qituvchisi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Mohichehra Shomurodova Gran-Pri sovrindori bo‘ldi. Mazkur institutning “Maqom cholg‘u ijrochiligi” kafedrasida 2-bosqich talabasi Shoxjaxon Yoriyev 2-o‘rinni hamda Buxoro namunali maqom ansambli xonandasi Do‘stmurod Negmurodov 3-o‘rinni egalladilar.

Ushbu g‘olib bo‘lgan ishtirokchilar orasida O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, Sharq taronalari xalqaro musiqa festivali hamda “Mug‘om olami” VI xalqaro musiqa festivali Gran-Pri g‘olibasi, “Zulfiya” nomidagi davlat mukofoti va “Shuxrat” medali sohibasi Mohichehra Shomurodova hozirgi kundagi faol ijod olib borayotgan xonandalardandir.



“Mug‘om olami” VI Xalqaro Mug‘om festivali (2023)

1988-yilda Buxoro viloyatining Olot tumanida tavallud topgan. Buxorodagi bolalar va o'smirlar markazida "O'zbekim" ansambli tarkibida uch yoshidan boshlab o'z ijod namunalarini namoyish etishni, keyinchalik esa katta sahnalarga qadam qo'yishni boshlagan. 2010-yilda O'zbekiston davlat konservatoriyasining bakalavr bosqichini, 2017-yilda shu muassasada magistraturada o'qishni muvaffaqiyatli tamomlagan. Talabalik yillarida 2016-yilning may oyida o'zining ilk yakkaxon konsert dasturini taqdim etadi. Kasbiy faoliyatini Konservatoriyadagi o'qishi bilan bir vaqtda turli madaniy tadbirlarida, jumladan "Shanxay hamkorlik tashkiloti" Sammiti, o'zbek-turkman va o'zbek-koreya madaniy almashinuvi, mustaqillik kunlari doirasidagi oliy darajadagi konsert va Navro'z bayram dasturlarida, qolaversa mumtoz musiqa namunalarini ijro etib kelmoqda. Yaponiya, Xitoy, Latviya, Litva, Estoniya, Qozog'iston, Malayziya, Tojikiston, Fransiya, Ozarbayjon, Turkiya va Amerikadagi turli madaniy tadbirlarda maqom ijrosi bilan dunyo bo'ylab sayohat qiladi. Bakuda bo'lib o'tgan "Mug'om olami" VI xalqaro festivalda Shashmaqomdan "Orazi navo" taronasi, "Mo'g'ilchayi segoh", "Navori bayot" katta ashula va Ozarbayjon xalq ashulasi "Shushanin daglari" asari ijro etildi. Ozarbayjon tilidagi ijrosi ozarbayjonliklar tomonidan juda ham iliq qabul qilinganligini aytib o'tish lozim. Uning repertuarida Shashmaqom, Toshkent-Farg'ona maqom yo'llari, shuningdek, o'zbek xalq qo'shiqlari o'rin olgan. Festivallarda ishtirok etishdan tashqari, ilmiy jurnallarda maqolalar nashr etish bilan an'anaviy ijro san'ati sohasiga oid bo'lgan muammo va masalalarda ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Hozirgi kunda mehnat faoliyatini Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati institutida davom ettirib kelmoqda. Mohichehra Shomurodovanning "Mug'om olami" festivalidagi ishtirokining yuksak darajada baholanishi san'atkorning betakror ovoz, yetuk iste'dod sohibasi va ijrochilik mahoratiga ega ekanligining yana bir isboti sifatida ta'riflasak mubolag'a bo'lmaydi.

Maqom – insoniyat ma'naviy dunyosini shakliiy, ma'rifiy, amaliy va ruhiy unsurlarining go'zal uyg'unlikdagi falsafiy kamolotini shakllantiruvchi va ilhomlantiruvchi manba – ruhiy ozuqadir. [1.1] Chunonchi, xalqimiz merosining ajralmas qismi bo'lgan milliy maqom san'ati bugungi kunda mamlakatimizda qolaversa butun Sharq mamlakatlarida o'zining munosib o'rniga ega. Bunga asos sifatida

yuqorida so‘z yuritilgan festivallardagi erishilgan natijalarni keltirib o‘tishimiz mumkin. Albatta shuni ham ta’kidlash kerakki, Xalqaro maydonlarda, nufuzli davlatlar ishtirokida tashkil qilinayotgan festivallar milliy san’atga bo‘lgan qiziqishni yoshlar o‘rtasida yanada targ‘ib qilinishi va yosh is’tedod sohiblarining namoyon bo‘lishiga o‘z hissasini qo‘shishi bilan ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Maqom ilmiy-uslubiy jurnali. Mart, 2022.,1-son.
2. R.Yu.Yunusov. Sharq xalqlari maqomlari, T., 2022.
3. https://azculture.uz/uz/ozarbayjon.php?link=mogam_yaradiciligi
4. <https://lex.uz/docs/-3581613?ONDATE=03.02.2022> .

BASTAKORLAR IJODIDA RIVOJ TOPGAN BIR KUY TARIXI

Nazokat SAIDIKROMOVA,

Yunus Rajabiy nomidagi O‘ZMMSI,

San’atshunoslik: (musiqashunoslik) ta’lim yo’nalishi

2 kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Soibjon BEGMATOV,

Yunus Rajabiy nomidagi O‘ZMMSI,

“O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi” kafedrası professori,

san’atshunoslik fanlari nomzodi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bastakor, Manas Leviyev tomonidan yozilgan “Sayyoraning qo‘shig‘i” nomli so‘zsiz kuy keyinchalik sozanda, hofiz va bastakor Rustam Qori Tursunov tomonidan qayta ishlanib, qo‘shiq shakliga keltirilish tarixi haqida bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Manas Leviyev, Rustam Qori Tursunov, Aziza Saidxo‘jayeva, bastakor, sozanda, hofiz, ijrochilik, kuy, talqin, qo‘shiq, qochirim.*

Tarixga nazar solsak, xalqimizning shonli o‘tmishini o‘zida mujassamlashtirgan, asrlar osha sayqal topgan, ijrochilik amaliyotida mumtoz musiqa san’atimiz, yuksak madaniyatimizning bugungi kundagi jonli namunasi. Musiqa merosimizning umrboqiy asardar qatoridan o‘rin egallashida o‘tmish ustoz san’atkorlarining o‘rni beqiyosdir. Zero, butun dunyo tan olgan g‘arb klassik musiqasi siymolari kabi buyuk san’at namoyandalar shark musiqasining nafaqat uzoq utmishida, balki yaqin tarixida xam talaygina. Ayricha qudratli iste’dod egalari bo‘lgan xonanda, sozanda va bastakorlar milliy musiqa san’atimizning bizgacha yetib kelishida beminnat xizmat qilish bilan bir qatorda o‘z ijodlari ila ulkan ma’naviy meros qoldirishga muyassar bo‘lganlar. Ular ijod etgan musiqiy namunalar, kuy, qo‘shiqlar va ashulalar xalqimizning tilida va dilida mudom yangramoqda. Bugun mana shunday umrboqiy kuylardan birining yaratilish va rivojlanish tarixi haqida so‘z yuritamiz.

O‘zbek retro kinosining xazinasidan joy olgan, 1960-yilda oq-qora tasmaga suratga olingan “Mahallada duv-duv gap” nomli kinokomediyani ko‘rmagan inson bo‘lmasa kerak. Ushbu filmda ijro etilgan kuy-qo‘shiqlar esa shu darajada milliylik bilan sug‘orilganki, hali

hamon quloqlarimiz ostida jaranglaydi. Film musiqasi muallifi O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, O‘zbekiston xalq artisti, kompozitor Manas Betyanovich Leviyev bo‘lib, filmda yangragan har bir asarda milliylikni aks ettirishga harakat qilgan. Ushbu filmda “Vals”, “Bahor”, “Hayot” kabi qo‘shiqlar bilan bir qatorda ilk bor yangragan “Sayyoraning qo‘shig‘i” nomli so‘zsiz qo‘shiq hali xalq ijrochilik amaliyotida turlicha sayqal topib, yangidan-yangi namunalar yaratilishiga asos bo‘lib, hamon sahnalardan tushmay ijro etilib kelinmoqda [1, 188-bet].

O‘z davrida kinoteatrlarda bu filmni tomosha qilgan xalqimiz tilidan tushmagan bu qo‘shiqlar orasida o‘zi qisqa, so‘zsiz bo‘lsa ham “Sayyoraning qo‘shig‘i” xalq tomonidan hirgoyi qilinishi bastakorning chinakam iste’dod sohibi ekanligining yaqqol isbotidir.

Andantino M.Leviyev. Sayyora qo'shig'i

Ilk bor o‘zbek kinosining eng sara filmida Aziza Saidxo‘jayeva tomonidan so‘zsiz tarzda kuylangan ushbu qo‘shiqqa yillar o‘tib xonanda, sozanda, bastakor Rustam Qori Tursunov qayta hayot baxsh etdi. Rustam Qori Tursunov o‘z davrining yetuk xonandalaridan biri edi. U ijro etgan “Zuhrom kelmadi”, “Meni eslagin”, “Ona”, “Bog‘ ko‘cha”, “Seni

sog‘inib”, “Mening yulduzim” kabi ko‘plab qo‘shiqlar singari “Shalola” qo‘shig‘i ham xalqimiz qalbidan chuqur joy egallagan.

“Shalola” qo‘shig‘i aynan Manas Levdiyevning “Sayyoraning qoshig‘i” nomli so‘zsiz qo‘shig‘i kuyi asosida yaratilgan bo‘lib, bastakor unga so‘z biriktirib qayta ishlaydi va ijro etdi. Qo‘shiq matni ham aynan xonandaning o‘z qalamiga mansubdir:

*“Ey qalbimning otashi go‘zal, senga tomon cho‘mdi hayolim,
Olib beray so‘zlari asal, gul shoxida qoldi ro‘moling.
Shalolaga chaygan yuzingmu, bir ko‘rdimu termulib qoldim,
Eslab ikki shahlo ko‘zingni, yana uzoq hayolga toldim.*

*Mayli yurak shalola bo‘lsin, mavjlansin u butun umrga,
Mayli yurak nurlarga to‘lsun, keng dunyoni to‘ldirsin nurga.
Ey qalbimning otashi go‘zal, senga tomon cho‘mdi hayolim,
Qaydasan ey, so‘zlari asal, gul shoxida qoldi ro‘moling”*

Qo‘shiq asosan yakkaxon erkak xonandalar uchun yozilgan bo‘lib, yo‘li ravon ijro etish uchun juda ham keng diapazon talab qilinmaydi. Kuyning asosiy mavzusi tor cholg‘usida ijro etilib unga doira o‘zining jozibali usullari bilan hamrohlik qiladi. Rustam Qori Tursunov mahoratli xonanda, bastakor, shoir bo‘lish bilan birga yaxshigina sozanda ham edi. Uning ushbu asari “Bastakorlik sohasi ijrochilik an‘analarining pirovardi sifatida yuzaga kelgan. Ijrochilik an‘analarini mukammal o‘zlashtirgan, musiqa merosini idroklagan va merosga nisbatan ijodiy munosabatda bo‘lish iste‘dodi bo‘lgan yetuk xonanda va sozandalarning amaliyotida qaror topgan” - deb ta‘riflaydi musiqashunos olim S.Begmatov . [2, 8-bet].

“Shalola” qo‘shig‘i keyinchalik ko‘plab xonandalar talqinida turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ldi. Bahrom Ergashev, Mahmud Namozov, Sherzod Ergashev, Dilfuza Qobilova, Shahzoda Umarovalar tominidan ijro etilgan asarning keyingi talqinlari asl ijrodan farq qilsa-da, lekin ularning ham o‘ziga yarasha jozibasi, yo‘nalishi borligi bois tez orada o‘z muxlislarini topdi

Rustam Qori Tursunov ijrochilik yo‘lini davom ettirgan shogirdi Bahrom Ergashev talqinida ushbu qo‘shiq biroz rang-baranglashdi. Qo‘shiq faqatgina doira va tor cholg‘ulari bilan emas, balki ular bilan birga nay, qonun, g‘ijjak, dutor cholg‘ulari ishtirokidagi to‘liq ansambl

bilan ijro etildi. Qo‘shiq matniga ham bir nechta bandlar qo‘shildi va bazi bandlar o‘zgartirildi.

Asl ijrodagi ikkinchi banddan so‘ng quyidagi so‘zlar qo‘shildi:

*“Erkaginam, yorginam, mani vafodorginam,
Bu dunyoda o‘zing borginam”*

Asl ijrodagi uchinchi band o‘zgartirildi:

*“Mayli quyosh nurlarga to‘lsin, porlasin u butun umrga
Mayli jonim, shalola bo‘lgin, keng dunyoni to‘ldirgin nurga
Ketma-ketma yonimdan, shirin-shirin joningdan
Man o‘rgilay sani joningdan”*

Otasining izidan borib uning ijodiy faoliyatini davom ettirgan Baxrom Ergashevning farzandi, xonanda, sozanda Sherzod Ergashev talqini Bahrom Ergashev talqinidan biroz farq qiladi. Ushbu talqinda tor sozi asosiy cholg‘u sifatida namoyon bo‘ladi. Ya’ni, bunda kuyning asosiy mavzusi, turli xalqona nolalar, qochirimlar bilan tor cholg‘usida ijro etildi. Qo‘shiq matni oxiriga esa quyidagi bayt qo‘shildi:

*“Osmondagi oy bo‘lib, yo‘llaringni to‘ldiray,
Piyolangda choy bo‘lib, lablaringni kuydiray”*

Ayollar talqinida ushbu qo‘shiq yana-da nafislashdi. Ayollarga xos noz, erkalik qo‘shiqqa yanada joziba bag‘ishladi. Dilfuza Qobilova ijrosidagi talqinda qo‘shiqning so‘zlari ham ayollar uchun moslab o‘zgartirildi:

*“Beri kelgin yorginam, muhabbatim borginam,
Mani muhabbatim borginam”*

*“Mayli jonim, shalola bo‘lay, mayjlanay butun umrga,
Mayli jonim muhabbat bilan, keng dunyoni to‘ldiray nurga
Yolg‘izginam, yorginam, bu dunyoda o‘zing borginam”*

Xalq orasida “Shalola” qo‘shig‘i va uning talqinlari ko‘plab boshqa “Tilimdagi g‘azalim”, “Kel qalbimning otashi go‘zal”, “Mayli jonim”, “Yolg‘izginam, yorginam” kabi nomlari bilan mashxur.

Qayd etish joizki, milliy uslubda yaratilgan har qanday kuy yoki qo‘shiq albatta o‘zining rivojini topadi, yangi avlodlar tomonidan yangicha sayqallanadi, zamon ruhi bilan sug‘orilib ijro amaliyotini yangi qarashlar bilan boyitadi. Buyuk kompozitor Manas Leviyevning bir asari kelajak xalq bastakorlari ijodida turlicha sayqallanib kelinmoqda.

Yangicha soʻzlar bilan, yangicha talqinlar bilan zamon ruhida ijro etilib, kuyning umrboqiylik jihatlarini namoyon etib kelinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. A.Jabborov. “Oʻzbekiston bastakorlari va musiqashunoslari”. “Yangi asr avlodi” nashriyoti, Toshkent- 2004.
2. S.M.Begmatov. “Bastakorlar ijodi”. Toshkent, “Niso-Poligraf” nashriyoti, Toshkent-2017.

O‘ZBEK MUMTOZ MUSIQASIDA FITRAT SIYMOSI
(Abdurauf Fitratning O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi risolasi
xususida)

Kamola ERGASHEVA,

Yunus Rajabiy nomifagi O‘zMMSI,

San’atshunoslik: (musiqashunoslik) ta’lim yo’nalishi
1-kurs talabasi.

Ilmiy rahbar: Nilufar BOTIROVA,

Yunus Rajabiy nomifagi O‘zMMSI,

“O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi” kafedrasida o‘qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek xalqining millatparvar adibi, ma’rifatparvar shaxs - Abdurauf Fitratning o‘zbek milliy musiqa san’atidagi tutgan o‘rni, o‘z davrining siyosiy qarama qarshiliklariga qaramasdan bizning milliy musiqa san’atimizning yo‘qolib ketishiga yo‘l qo‘ymay, uni asrab avaylash yo‘lida yozilgan “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” risolasi xususida so‘z boradi. Fitrat o‘z davrining musiqiy ahvoliga qaramasdan sozlar turlari, ansambldagi sozlar jamlanmasi, uning kompozitsiyasi to‘g‘risida tasavvur beradi. Bu esa bizning milliy musiqamiz hozirgi kunga yetib kelgunga qadar o‘z boshidan kechirgan tarixini o‘rganishda muhim manba sifatida qadrlidir.

Kalit so‘zlari: *jadid adabiyoti, klassik musiqa, nay, qo‘shnay, nag‘ma, niqra, siporish, shaqr musiqasi fevral inqilobi, kolsov voqeasi yosh turklar, yosh buxoroliklar.*

Turma - yugur, tinma - tirish, bukilma - yuksal,
Hurkma - kirish, qo‘rqma - yopish, yo‘rilma - qo‘zg‘al!
(Abdurauf Fitrat “O‘gut” she’ridan parcha)

Insoniyat tarixida shunday daholalar san’atkorlar bo‘lganki, ular o‘z hayoti, ijodi, fikr-u zakovatini xalqining bugungi turmushini yaxshilashga, ertangi kunini charog‘on qilishga bag‘ishlaganlar. Darhaqiqat, bir gancha millatparvar adiblar gatag‘on tufayli ma’naviyatimiz tarixidan yulib tashlanganiga qaramay, ular merosini o‘rganish, asarlarida ko‘tarilgan ma’naviy-axloqiy muammolarni tadqiq

etish bugungi istiqlol sharoitida ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Zero, ulug‘ adib Abdurauf Fitrat ijodining mohiyati jamiyat va millatni yuksaltirishga xizmat qilgan desak xato bo‘lmaydi.

Abdurauf Fitrat 1886-yili Buxoro shahrida tug‘ilgan, uning otasi Abdurahimboy oz zamonasining ziyoli boylaridan bo‘lgan. Abduraufning onasi Mustafbibini o‘qimishli ayol bo‘lib, farzandlar ta‘limi hamda tarbiyasi bilan ko‘proq o‘zi mashg‘ul bo‘lishiga to‘g‘ri kelgan. Nozikta‘b onasining izchil ta‘siri ostida Abduraufda juda yoshligidanoq she‘r yozish zavqi uyg‘ongan. Abduraufning taxallusi Fitrat bo‘lib, bu sozning lug‘aviy ma‘nosi “yaratmoqdir” [2. 3-bet]. Shoir garchi talabalik yillari ayrim g‘azallarida Mijmar (cho‘g‘don, xushbo‘y narsalar solib tutatiladigan idish) taxallusini qo‘llagan bo‘lsa ham, asosan, 1908-yillardan boshlab Fitrat nomiga bir umr sodiq qolgan. Davr tazyiqi kuchayib, uning zamondoshlari o‘z asarlariga bir necha taxallus va laqablar bilan imzo chekishga majbur bo‘lganlarida ham adib yolg‘iz shu taxallusni qo‘llagan. Hatto rasmiy idoralardagi xizmat chog‘ida va xavfsizlik qo‘mitasining hujjatlarida ham mana shu nom ba‘zan familiya o‘rnida qo‘llanilgan.

Abdurauf Fitrat o‘zbek tarixchisi, filolog, tarjimon, yozuvchi, dramaturg va shoir, o‘zbek tili va adabiyoti asoschilaridan biri bo‘lib, O‘rta Osiyo jadidchiligining taniqli vakillaridan biri, birinchi o‘zbek professori, jadidchilik milliy marifatparvarchilik harakatining tarafdoridir. Fitrat Turkiyada o‘qiyotgan davrda Turkiyada kuchaygan “Yosh turklar” xarakati ta‘sirida Turkiyadagi Buxorolik yoshlar yordamida “Buxoro ta‘limi maorif jamiyat” ini tuzadi. Bu jamiyat Buxoro va Turkiston maorifining olg‘a siljishiga doir muhim ishlarni amalga oshiradi. Fitrat Turkiyada taxsil olish bilan birga samarali ijod ham qilgan. 1909-yil Istanbulda uning fors tilida yozgan “Munozara”, “Sayxa”, “Siyohi Hindiy” asarlari nashr etilgan. Keyinchalik Fitratni millatchi turkparast va islomparast yozuvchisi sifatida qoralanishiga sababchi bo‘lgan bu asarlar XX asr Turkistondagi milliy uyg‘onish xarakatining norasmiy dasturi bo‘lib xizmat qilgan. Ayniqsa “Munozara” va “Siyohi Hindiy” asarlari yoshlar dunyoqarashining keskin o‘zgarishiga va ularning jadidlar safiga kelib qo‘shilishiga sababchi bo‘lgan. Keyinchalik Fitrat vataniga qaytib, turli tumanlarda jadidchilik g‘oyalarini keng targ‘ib etdi. “Yosh Buxoroliklar” xarakatining mafkurachisi va g‘oyaviy

rahbarlaridan biriga aylandi. Fevral voqealaridan keyin jadidlarning Buxoro amirligidagi ahvol murakkablashgach Fitrat Samarqandga ko'chib boradi va o'sha yerda "Xurriyat" gazetasida ishlaydi. "Kolsov" voqeasidan so'ng Toshkentga ko'chib keladi "Tong" jurnalini tashkil etib, yosh ziyolilar avlodini millatparvarlik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga kirishgan. "Tong" jurnalida shoir bo'lgan vaqtda "Miyva o'zgarmaguncha boshqa o'zgarishlar negiz tutmas" so'zlar Fitrat shu yillarda olib borgan faoliyatini maqsad mohiyatini to'la ifodalaydi [5.263-b] Aleksandr Jumayev Fitrat haqida shunday degan edi "Fitrat haqidagi birinchi maqolamiz O'zbekiston musiqiy frontida Abdurauf Fitrat va uning zamondoshlari nomli 1997-yilda O'rta Osiyo jurnalining uchta sonida e'lon qilinga va Ozod Sharafiddinovichning shahsan o'zining jurnalida maqolani o'zbek tilida chop ettishni taklif qiladi faqat maqolaning barcha murakkab va muamoli masalalar saqlanib qolgan xolda.[6.b-9]

Fitratning ijodini shartli ravishda uch davrga bo'lishimiz mumkin:

1. 1909-1916-yillarda jadid ma'rifatparvari sifatida ijod qilgan;
2. 1917-1923-yillarda Xurriyat va mustaqillik g'oyalari bilan to'yingan asarlar yozadi;
3. 1923-1937-yillarda asosan, ilmiy va pedagogic faoliyat bilan shug'ullanadi.

Adibning badiiy me'rosi boy va rang-barang. U yozuvchi sifatida badiiy ijodning barcha turlarida qalam tebratgan.

Fitratning ijod qilgan yo'nalishlari:

- She'riy ijod;
- Nasriy ijod;
- Dramaturgiya;
- Ijtimiy, huquqiy, diniy va maorif asarlari;
- Tilshunoslik va adabiyotshunoslikka oid asarlari;
- San'atshunoslikka oid asarlari.

Olim shu yo'nalishlarda qalam tebratibgina qolmay, dramaturgiya yo'nalishida "Tragediya" janriga asos solib, mazkur janrning asosiy tamoyillarini belgilab berdi. Tilshunoslik va adabiyotshunoslikka oid yo'nalishda "Ona tili" darsiligini yaratdi va "Adabiyot nazariyasi" faniga asos soldi.

Fitrat musiqa sohasida ham o'z o'rniga ega. Eng avvalo shuni ta'kidlash joizki, Fitrat o'zining o'zbek musiqasi to'g'risidagi maqolalari hamda "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" risolasi bilan XX asr o'zbek musiqashunosligining tamal toshini qo'yishga intildi. Ma'lumki, bizda o'zbek adabiyot va musiqiy merosiga nisbatan ilk marotaba "klassik" tushunchasini A. Fitrat o'zining "Adabiyot qoidalari" va "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" asarlarida kiritdi. Uning keng mafkurasi, jumladan, yevropacha bilimlari bu umumiy universal atamaning joriy qilganligini asosiy sababi deyish mumkin. Zero, ko'p o'rinlarda "klassik" so'zi o'zbek tilidagi "mumtoz" so'zlari bilan ma'nodosh o'rnida qo'llanilganligini eslatib o'tib, professor Fitratning aynan "klassik" atamasida to'xtalganligi va butun boshli risolaning "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" deb nomlanganida ham o'ziga xos ma'no borligini ta'kidlash zarur degan fikrlar ilgari suriladi [3.].

Ma'lumki, "klassik" tushunchasi insoniyat badiiy merosining oltin nuqtasi sifatida tan olingan eng mukammal va dunyoviy ahamiyatga molik namunalariga nisbatan ishlatiladi. U 1921-yilda sharq musiqa maktabini tashkil etib uning birinchi direktori bo'ldi. Maktabga mohir sozanda, cholg'uchi, va xonandalar bilan birga V.A. Uspenskiyni ham taklif qildi va "Shashmaqom"ni yozib olish ishlariga boshchilik qiladi. Fitratning o'zbek musiqa san'atida biz uchun eng qimmatli risolasi "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" asari hisoblanadi. Bu risola

1994-yil "Fan" nashriyotida nashrdan chiqqan.

Bu risolada sharq musiqasi, o'zbek musiqasi, usul va sho'balari, o'zbek xalq cholg'ulari, pardalar, shakllar va turk musiqasi haqida asosli fikrlar bayon etilgan.

Risola quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

1. Sharq musiqasi
2. O'zbek musiqasi
3. Usul va sho'balari
4. O'zbek xalq cholg'ulari
5. Musiqamizning tarixiga bir qarash .Turk musiqasi

"Sharq musiqasi" qismida - Sharq musiqasi o'n ikki maqom uzra yuradi. Bizning adabiyotimiz sharq islom adabiyotiga qanday bog'langan bo'lsa va qanday munosabatda bo'lsa, musiqamiz ham sharq islom musiqasi bilan shunday bog'langan va shunday munosabatdadir

shaqrona mavzuda bizning eski kuylarimiz orasida “rok” hindcha maqom va “qator sarang” kabi hind musiqasiga oid iboralar bilan o‘xshashligi to‘g‘risida fikrlar yuritilgan[1. 5-bet].

“O‘zbek musiqasi” deb nomlangan qismda Fitrat quyidagi fikrlarni bayon qiladi: “Bizning adabiyotimizda bo‘lg‘ani kabi musiqamizda xam ikki oqim bordir. Adabiyotimizda aruz vaznida sher yozmoq bilan aruzsiz, yani o‘zimizning barmoq vaznida sher yozmoq vazni bor Aruz vazni miyallarini eron arab tasiri ostida yashatgan madrasa saroyi shoirlarimiz orasida ishlatilsa, barmoq vazni el shoirlari orasida ishlatilgandir” [1.10-bet] usul vaznidagi kuylar va usulsiz vaznidagi kuylar haqida malumotlar mavjud.

Usul va sho‘balar haqidagi fikrlar quydagilardir: “Usul” so‘zini birinchilardan bo‘lib Fitrat ishlatgan bo‘lib “nag‘ma” “niqra” “siporish”, “bam”, “zer” haqida malumotlar mavjud.

Nag‘ma - cholg‘uni chertganimizda bir muddat uzayib turuvchi tovush.

Siporish – xar bir maqomning ohirida bir siporish bor. Xar maqomning sarahbori qaysi pardadan boshlansa shu maqomning o‘z pardasi shudir.

Bam va Zer – bizning musiqiy istilohlarimizdandir. Tovushning pastiga ‘bam yuqorisiga zer deyiladi. [1.8-bet]

Cholg‘ular: Fitrat har bir o‘zbek xalq cholg‘ulariga birma-bir ta’rif berib chiqqan tanbur, mizrob, dutor, rubob, qobuz, chang, doira, nog‘ora g‘ijjak nay, qo‘shnay, surnay, balabon, karnay. Alisher Navoiy ham o‘zining “Mahbub ul-qulub” asarida cholg‘u sozlariga bo‘lgan o‘z fikrini quydagicha bayon qiladi:” Mayxonada kimki ibo qilg‘ay, maydan tortinmas ekan nay uni bi dilkash, o‘ziga tortuvchi bir navo bilan ani rasvo qilg‘ay. Agar kishi may g‘ijjak boshi nay nolasi bilan yolvorur. Va tanbur pardadag‘i fitnadan halok etar va sog‘liq, tinchlik pardasinchok etar yirtar Va ud tili nag‘masining targ‘ibi qiziqtirishi, undashi, rag‘batlantirishi changdan ham ortar”. [4.bet 54]

“Musiqamiz tarixiga bir qarash. Turk musiqasi.” qismida Usmonli musiqashunoslardan Rauf Yaktobekning Marog‘ali Xoja Abdulqodirdan ko‘chirib yozganiga ko‘ra turklarda uchta „usul doirasi bor emish. Turklar butun kuylarini ashulalarini shu uch “usul doirasi” orqali ijro etishar ekan. Bu usul doiralari nomi “kug”lar deb ataladi. Navoiy ham o‘zining “Mezon

ul avzon” nomli kitobida “tizim” da turk vaznlarini ko‘rsatar ekan “Arg‘ushtik” olti bir “usul doirasi borlig‘ini buningda bazi musiqiy kitoblarda yozilganini aytib, bundan boshqa bir necha turk kuylarining xam otlarini bizga bildirib o‘tadir [5. b 22]

Xulosa qilib biz shuni aytishimiz mumkunki Fitrat bizning milliy musiqamizni saqlab qolish uchun o‘z davrining siyosiy muomolariga qarshi chiqqan va ziddiyatli kurash olib borgan. Milliy musiqamiz shunday darajaga va shunday kunga yetb kelishida Fitratning o‘rni beqiyosdir SHuning uchun ham biz asrlar osha o‘z milliyligini, urf-odatlarini, an‘analarini saqlab boyitib, sayqal berib rivojlanib kelgan milliy musiqamizni rivojlantirishga va uning tarixini yanada chuqurroq o‘rganishga harakat qilishimiz lozim. SHunday ekan biz hozirgi kunda milliy musiqani rivojlantirish uchun xalq negizida asarlar yaratishimiz va ularni keng ommaga taqdim etishimiz hamda musiqashunos sifatida tahlil qilib kelajak avlodga bus butunlikda yetkazib berishimiz lozim.

Biz bu kichik tadqiqotimizda Fitrat orqali o‘zbek mumtoz musiqasi asoslarini o‘rganishga, kitob mutolaasi orqali uni o‘z imkoniyatlarimiz darajasida tahlil qilishga urinib ko‘rdik. Zero, bu manba kelajak ilmiy ishlarga safarbar etilishimizda muhim durturilamal vazifasini bajarishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdurauf Fitrat “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” “Fan” nashriyoti 1994-y 1-56 b.
2. Abdurauf Fitrat. Saylanma., Jadid adabiyoti namoyandalari. Toshkent 2022.
3. Muhayyo Abduhamidova., A.FITRAT IJODI O‘ZBEK KLASSIK MUSIQASI TARAQQIYOTI KESIMIDA. Том 2 № 2 (2021): АЗИАТСКОЕ ИСКУССТВО
4. «Ўзбек мусикаси тўғрисида» \\\“Maqom” ilmiy-uslubiy jurnali 2022-yil №2.
5. Ўзбекистон миллий энциклопедияси “Ф” харфи 262-264-б.
6. Александр Джумаев., Абдурауф Фитрат. Время, личность культурная и научная деятельность. Ташкент 2022.

MUMTOZ MUSIQA TARIXI VA UNING YOSHLAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

Gulyuz YOQUBJONOVA,

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSSI,

Professional ta’lim: (cholg‘u ijrochiligi)

ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi.

Ilmiy rahbar: Asatillo SUNNATILLAYEV,

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSSI

Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik

kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i.

***Annotatsiya** An’anaviy hayot tarzi, axloq me’yorlari hamda musiqaning ma’naviy ozuqasi bo‘lgan milliy maqom san’atida insonni kamolotga undaydigan dunyoqarashlardan kelib chiquvchi boy mentalitet mavjud. Maqolada mumtoz musiqa falsafasi va uning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini yoritib bergan.*

***Kalit so‘zlar:** san’at, namoyonda, O‘rta Osiyo, noyob durdonalar, ohang, soxta tushuncha, ma’naviy, axloqiy, madaniyat, tafakkur, chora-tadbir.*

O‘zbek xalqining tarixiy-madaniy va diniy-ma'rifiy qadriyatlarini qayta tiklash va buyuk ajdodlarimizning ma'naviy-axloqiy, madaniy merosini o‘rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Bunda O‘rta Osiyoda yashab, ijod qilgan san’at namoyondalarining ilmiy, madaniy merosi, shuningdek, sog‘lom ma'naviy-axloqiy muhitini shakllantirishga yordam beradigan milliy maqom san'ati muhim ahamiyat kasb etadi. Nega deganda, agar insonning qulog‘iga yengil-yelpi ohanglarga o‘rnashib qolsa, bora-bora uning badiiy didi, musiqa madaniyati pasayib ketishi, uning olamini soxta tushunchalar egallab olishi ham hech gap emas. Oxir-oqibatda bunday odam “Shashmaqom” singari milliy merosimizning noyob durdonalarini... qabul qilishi qiyin bo‘lib qoladi”.

An’anaviy hayot tarzi, axloq me’yorlari hamda musiqaning ma'naviy ozuqasi bo‘lgan milliy maqom san’atida insonni kamolotga undaydigan dunyoqarashlardan kelib chiquvchi boy mentalitet mavjud. “Maqom – ohangga joylashgan tafakkurdir. U qog‘ozga bitilmagan,

toshga o'yilmagan kitob uning ohanglari ona zaminga mehr uyg'otadi". Shularni nazarda tutgan holda yoshlarning ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirishda maqom san'atidan oqilona foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratish lozim deb o'ylaymiz. Ayniqsa, "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarorning o'z vaqtida e'lon qilinganligi maqom san'atining tarbiyaviy ahamiyati o'ta muhim ekanligidan dalolat beradi.

Ana shunday durdona musiqa merosimizni asrab-avaylash, nazariy va amaliy o'zlashtirish, uni kelajak avlodga yetkazib berish har qaysi musiqa nazariyotchisi va amaliyotchisining zimmasidagi muhim vazifadir. Bu sharaflı yo'lda sidqidildan mehnat qilgan maqomdon ustozlar, musiqashunos olimlar va savodxon ijrochilarning samarali ilmiy izlanishlari hamda erishgan natijalarini e'tirof etish lozim. Sharq xalqlarida juda qadim zamonlardan mavjud bo'lgan musiqiy janr – maqomlardir. Ular mazkur xalqlarning o'ziga xos milliy musiqiy boylıklarını mujassam qilgan holda, sozanda va xonandalar tomonidan yaratilgan va uzoq madaniy-tarixiy taraqqiyot jarayonida mustaqil musiqiy janr sifatida yuzaga kelgan. Maqomlar kishilarni ruhan tetiklashtiruvchi, ularning ma'naviy ehtiyojlarını qondiruvchi sifatida qadim zamonlardan buyon bugungi kungacha insonlarga xizmat qilib kelmoqda. Asrlar davomida ulug' olimlar, mohir bastakorlar, hofiz va sozandalarning mashaqqatli mehnati va fidoiyligi, ijodiy tafakkuri bilan sayqal topib kelayotgan ushbu noyob san'at dunyo miqyosida katta shuhrat-e'tibor qozongan. Maqom san'atining gultoji bo'lgan "Shashmaqom" YUNESKO tomonidan insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatida e'tirof etilgani hamda uning Rerezentativ ro'yxatga kiritilgani buning yaqqol tasdig'idir. Dunyo miqyosida tan olinayotgan mazkur san'at na'munasining ma'naviy ozuqasi, insonni ezgu amallarga chorlash xususiyati va tarbiyaviy ahamiyatını anglash lozim. Buning uchun, birinchi navbatda maqom namunalarını ilmiy tahlil etish va milliy musiqa ixlosmandlariga yetkazib berish lozim bo'ladi.

Bunday sharaflı yo'lda mehnat qilib, maqom sirlarını yoshlarga o'rgatishda samarali faoliyat olib borayotgan ustozlarning o'rni katta albatta. Ushbu qo'llanma ana shunday ma'suliyatli vazifani amalga oshirib kelayotgan ustoz-murabbiylar va an'anaviy ijrochilik yo'nalishida

tahsil olayotgan o‘quvchi talabalar uchun kichik bir dastak vazifasini bajarib beradi. Shashmaqomdagi har bir maqom ikki bo‘limdan iborat: Mushkilot – cholg‘u bo‘limi, Nasr – ashula bo‘limi.

Nasr bo‘limi ham o‘z navbatida birinchi hamda ikkinchi guruh sho‘balariga bo‘linadi. Olti maqomning har birida birinchi guruh sho‘balari Saraxbor deb nomlanuvchi turkumli ashula yo‘llari bilan boshlanadi. Saraxbori Buzruk, Saraxbori Rost, Saraxbori Navo, Saraxbori Dugoh, Saraxbori Segoh va Saraxbori Iroq shular jumlasidandir. Saraxborlar Shashmaqomning Nasr bo‘limini boshlab beruvchi – bosh axborotchi bo‘lganligi uchun ushbu turkumlarni tahlil qilinishi maqomlarning ashula bo‘limi haqida umumiy tasavvur hosil bo‘lishini ta‘minlaydi. Shuningdek, Saraxborlarning vazmin kuy harakati, murakkab tuzilishi va g‘azal matnining mazmuni nuqtai nazaridan tahlil qilish tadqiqotchiga katta mas‘uliyat yuklaydi.

Shu o‘rinda, Shashmaqomdagi bo‘limlar va ularning nomlanishi orasidagi mantiqiy bog‘liqlik xususida fikr yuritishni lozim deb topdik. Bu orqali, maqom ilmiga endigina qadam qo‘ygan qiziquvchilarga notanish bo‘lgan atamalar mazmuni hamda, ularning Shashmaqomga munosabati va falsafiy ma‘nolarini imkon darajasida tahlil qilishga harakat qilamiz. Maqomdon ustozlar cholg‘u bo‘limini Mushkilot, ashula bo‘limini esa, Nasr deb nomlashgan. Mushkilot atamasi mushkul so‘zining ko‘plik shakli hisoblanib, “qiyinchiliklar”, “murakkabliklar” kabi ma‘nolarni bildiradi. Murakkab kuy aylanmalari va doira usullarini inobatga olib, ushbu so‘zni cholg‘u bo‘limiga berilgan ta‘rif deyish mumkin, lekin mazkur atama lug‘aviy ma‘no jihatidan cholg‘u musiqasiga berilgan nom sifatida to‘laqonli mos kelmaydigandek ko‘rinadi. Shunday bo‘lsa-da, bizgacha yashab ijod qilgan maqomdon olim va bastakorlar cholg‘u bo‘limini mazkur nom (Mushkilot) bilan atab kelishgani bejiz emas. Cholg‘u va ashula bo‘limining nomlanishidagi mantiqiy mazmunni anglashdan avval Shashmaqomni tashkil etuvchi olti maqom nomlari xususida ham fikr yuritish kerak. Shunda Shashmaqom tarkibida uchraydigan atamalar ma‘nosini tushunish osonlashadi. Demak, Shashmaqomni tashkil etuvchi olti maqomni Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Iroq deb nomlanishi va aynan shu ketma-ketlikda tartiblanishi

bejiz emas. Buzruk – buyuk, katta, ulug‘ , Rost to‘g‘ri, haq; Navo – yoqimli ohang; Dugoh– ikki parda; Segoh – uch parda; Iroq – mamlakat nomi kabi ma‘nolarni anglatadi. Bunday nomlangan maqomlar orasidagi bog‘liqlikni diniy-falsafiy qarash bilangina tushunish mumkin.

E‘tibor qaratsak: Buzruk – buyuklar, ya‘ni payg‘ambarlarga nisbat berilishi Payg‘ambarlar esa hech qachon yolg‘on so‘zlashmagan. Rost hamda yoqimli Navo qilish (Allohni zikr qilish)gan va bu ishni muayyan parda (maqom)larda, ya‘ni ikkinchi, uchinchi pardalarda, Iroq mamlakatida amalga oshirishgan. Iroq mamlakat nomi bo‘lishi bilan birga, cho‘l-u saxro, yiroq ma‘nosida ham qo‘llanilishi mumkin. Buyuklar qanday sharoitda bo‘lishidan qat‘i nazar, jazirama sahrodami, so‘lim o‘lkadami – Allohni zikr qilishdan to‘xtashmagan. Keltirilgan ta‘riflar yaxlitlansa, yuqoridagi nomlarning ketma-ketligidan quyidagicha mazmun hosil bo‘ladi: “Buyuklar (Buzruk) to‘g‘ri (Rost) navo qilishgan, ikkinchi (Dugoh), uchinchi (Segoh) pardalarda – Iroqdan!”. Bu falsafiy tasavvur bo‘lgani holda, mantiqiy asosga ega. “Xususan, XVI asrning ikkinchi yarmi XVII asrning birinchi choragida yashab ijod etgan taniqli musiqachi va olim Darvish Ali Changiyning ustozlar Xo‘ja Abdulqodir Marog‘iy, Xo‘ja Safiuddin ibn Abdulmo‘min va Sulton Uvays Jaloir fikrlariga tayanib yozishicha: Avvaliga yetti payg‘ambar nomlari bilan bog‘liq yeti maqom bo‘lgan. Bunda Rost maqomi Odam alayhissalomdan, Ushshoq – Nuh alayhissalomdan, Navo - Dovud alayhissalomdan, Hijoz – Sulaymon alayhissalomdan, Iroq – Ayub alayhissalomdan, Husayniy –Yaqub alayhissalomdan va Rohaviy – Muhammad sollallohu alayhi vasallamdan meros qolgani haqidagi rivoyatlar bayon etiladi”.

Bir so‘z bilan aytganda, Shashmaqom – buyuklarning dardi va zikrini o‘zida mujassamlashtirgan ohanglar yig‘indisidir. Bugungi kunda maqom she‘riyatining ichki xususiyatlari, uning o‘ziga xos musiqiyligi nuqtai nazaridan o‘rganilgan bo‘lsa-da, bularni yetarli deb bo‘lmaydi. Shunga ko‘ra, men mazkur qo‘llanmada milliy madaniy merosimiz durdonasi bo‘lgan Shashmaqomning eng mahobatli sho‘balari – Saraxbor turkumlarini nazariy asoslarini tahlil qilishga harakat qildik. Shashmaqomdagi taronalarning doira usullari adabiyotlarda turlicha ko‘rsatilgan va amaliyotda ham bu jarayon doirachi yoki musiqiy rahbarining ta‘biga ko‘ra ijro etilib kelinayotganligi sir emas. Shularni

hisobga olib, ilmiy tahlillarga asoslangan holda nazariy bilim va amaliy ijro o‘zaro uyg‘unligini ta‘minlash maqsadida Saraxbor turkumlaridagi ayrim taronalarning doira usullari amaliy ijroga ko‘ra, ashula yo‘liga mos qilib notalashtirishga harakat qilindi. Ashula yo‘llariga O‘zbekiston Radiosi huzurida atoqli san‘atkor, akademik Yunus Rajabiy rahbarligida 1959-yilda tashkil etilgan maqom ansambli tomonidan ijro etilgan va gramplastinkalarga yozilgan audio yozuvlar asos qilib olindi. Qo‘llanmada har bir nazariy tahlildan so‘ng asarning nota manti berilgan.

Nota namunalari ham Yunus Rajabiy to‘plab, notalashtirgan olti jildlik Shashmaqom kitobidan olindi. Mavzudan kelib chiqib xulosa qilib aytish mumkinki, o‘ziga xos bir doirani tashkil qilgan g‘azallar va xalq og‘zaki ijodi namunalaridan oziqlangan maqom she‘riyati hamda mumtoz musiqaning kuy yo‘llari, usul hamda shakl-shamoyillari avloddan-avlodga o‘tib kelmoqda. Bu mumtoz musiqa namunalarini tarkibiy tuzilishi, kuy-ohang xususiyatlarini ilmiy tahlil etish, soha kishilarining zimmasidagi birlamchi vazifadir. Mazkur qo‘llanma maqom san‘atiga qiziquvchilarning safi kengayishiga, hamda yoshlar ongida milliy ohanglarga nisbatan to‘laqonli taassurot hosil bo‘lib, savodli tinglovchilarning yetishib chiqishiga turtki bo‘ladi degan umiddamiz. O‘rta Osiyo xalqlarining musiqa madaniyati tarixi hali etarli o‘rganilmagan. Bu masalani, shu jumladan maqomlarning taraqqiyot yo‘lini izchil yoritib beradigan yaxlit asarlar yaratilmagan. Umuman, musiqa madaniyatiga doir tarixiy materiallar turli tillarda yozilgan manbalarda va boshqa xarakterdagi asarlarda sochilgan holdadir. Bu materiallarni to‘plab, O‘rta Osiyo xalqlari musiqa madaniyati tarixini yaratish esa juda murakkabdir . Shu sababli hozircha X-XIX asrlarda musiqa manbalaridagi mavjud ma‘lumotlarni qisqacha eslatib o‘tish bilan kifoyalanishni joiz deb bildim.

Abu Nasr Forobiy o‘zining musiqaga bag‘ishlagan risolalarida sharq musiqa nazariyasini asoslab berdi. Uning musiqa asarlari “Kitabul musiqiy al-kabir” (“Musiqaga doir katta kitob”), “Kalam fil-musiqa” (“Musiqaga haqida so‘z”), “Kitabul musiq” (“Musiq kitobi”), “Kitabun fi-ihsa’il-ulum” (“Fanlar tasnifiga doir kitob”)ning musiqaga bag‘ishlangan qismi, “Kitabun fi – ihsa’il-iqo’” (“Musiq ritmlari –iqo’ tasnifi haqida kitob”) va boshqalardir.

Shashmaqom o‘zbek-tojik xalqlari musiqa boyliklari asosida yaratilgan va xalq musiqa ijodiyotining so‘nggi davrlardagi taraqqiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatib, omma orasiga keng ildiz otdi. Maqomlar ta’sirida katta-kichik shakldagi asarlar yuzaga keldi. O‘zbek-tojik xalq musiqasi boyliklariga sinchiklab nazar solinsa, o‘zining kuy ohangidagi ifoda vositalari, lad va ritmik asosi, umuman kuy asosi nuqtai nazardan maqomlardan holi bo‘lgan musiqa asari sanoqli darajadadir. Maqomlar xalq musiqasi bilan hamkorlikda yashadi, rivojlandi va boyib bordi.

Har bir kuy yoki ashula ma’lum lad tovushqatoriga maqom (parda)ga mos kela beradi. Bastakor-sozandalarning asrlar davomida maqom mavzularida kuy va ashulalar yaratib kelganliklari va hozirgi kungacha ham ular ta’sirida yoqimli va ajoyib asarlar yaratayotganliklari maqomlarning xalq musiqa ijodiyotiga chuqur singib ketganini ko‘rsatadi.

Shuni aytib o‘tish joizki mustaqillik yillarida uzliksiz ta’lim tizimi muassalarida o‘tiladigan barcha musiqa fanlari mazmuni ham milliy istiqlol g‘oyasi asoslari, hozirda maktablarda tarbiya fani negizida qaytadan shakllantirilayabdi. Musiqa madaniy hayotimizdan muhim o‘rin olgan va inson shaxsiyatining kamolotga yetishida muhim o‘rin tutadigan san’at turi bo‘lishi bilan birga ijtimoiy siyosiy va tarbiyaviy xarakter kasb etadi. O‘sib kelayotgan yosh avlodni milliy ma’naviy ruhda tarbiyalash, ularda milliy qadriyatlarimizga ongli munosabat tushunchalarini shakllantirish hamda milliy musiqani o‘rganishning o‘rni va ahamiyatini yoshlarga tushuntirish asosiy vazifamizdir. Ongni, tafakkurni, dunyoqarashni o‘zgartirmasdan turib, ma’rifat sivilizatsiyasiga erishib bo‘lmaydi. Islom Karimov ta’kidlaganlaridek: “Ong mahsuli bo‘lmish ta’lim-tarbiya o‘z ma’rifiy falsafasiga ko‘ra, avvalo, ong darajasi, ayni paytda ong rivojining yakkayu yagona asosidir”. San’at insonning tarbiyasida juda muhim o‘rin tutadi. Musiqa tarbiyasi bo‘yicha xalqaro jamiyatning IX konferensiyasida uqtirilganidek, san’at insonning ma’naviy dunyosiga chuqur ta’sir ko‘rsatib va o‘zining har qanday faoliyat sohasida, har qanday kasb-korida zarur bo‘ladigan ijodiy qobiliyatlarini namoyon qilishda yordam beradi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining yangidan yaratilgan musiqa fani bo‘yicha o‘quv dasturi va darsliklariga kiritilgan maqom musiqa ijodiyotiga mansub kuy, qo‘shiqlar sirasida xalq qo‘shiqlari salmoqli

o‘rin tutadi. Xalq qo‘shiqlari o‘z ifodaviy mazmuniga ko‘ra qudratli tarbiyaviy kuchga ega bo‘lgan san‘at hisoblanadi.

Musiqqa madaniy hayotimizda keng o‘rin tutgan va inson shaxsiyatining shakllanishda muhim ro‘l o‘ynaydigan san‘at bo‘lib, eramizdan oldingi IV asrdanoq yunon faylasufi Platon shunday degan edi: “Eng katta tarbiyaviy omil musiqiy san‘atda emasmikan, zeroki ritm va garmoniya xammadan ko‘proq shu vaqtda qalbga chuqur yo‘l topadi va salovat baxsh etib, uni ko‘rkam qiladiki, agar tarbiya to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, aks xolda uning teskarisi bo‘lib chiqadi”

Xulosa qilib aytish mumkinki, o‘ziga xos bir doirani tashkil qilgan g‘azallar va xalq og‘zaki ijodi namunalaridan oziqlangan maqom she‘riyati hamda mumtoz musiqaning kuy yo‘llari, usul hamda shakl-shamoyillari avloddan-avlodga o‘tib kelmoqda. Bu mumtoz musiqqa namunalarini tarkibiy tuzilishi, kuy-ohang xususiyatlarini ilmiy tahlil etish, soha kishilarining zimmasidagi birlamchi vazifadir. Mazkur tadqiqot ishi orqali maqom san‘atiga qiziquvchilarning safi kengayishiga, hamda yoshlar ongida milliy ohanglarga nisbatan to‘laqonli taassurot hosil bo‘lib, savodli tinglovchilarning yetishib chiqishiga, manisiz va vayronkor g‘oyalarga boshlovchi ohanglardan yiroq, madaniyatli, ma‘naviyati va ruhiyati sog‘lom, tarbiyali yoshlar safi kengayib, yangi O‘zbekistonni ana shunday yoshlar bilan birgalikda quramiz degan umiddamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. E.M.Fayzullayev “Bo‘lajak musiqqa o‘qituvchilari badiiy didini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari” (O‘zbek mumtoz musiqasi misolida).
2. I.Karimov. “Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz”.
3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.
4. Sh.Ayxodjayeva , Ch.Ergasheva , A Zokirov “O‘zbek musiqasi tarixi”.

O‘ZBEK MUSIQIY MANBASHUNOSLIGI YORITILISHIDA ZOKIRJON ORIPOVNING O‘RNI

*Jasmina MAHAMMADJONOVA,
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMMSI,
San'atshunoslik: (musiqashunoslik) ta'lim yo'nalishi
1-kurs talabasi.*

*Ilmiy rahbar: Xumoyun XAYDAROV,
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMMSI,
“O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi” kafedrası
katta o‘qituvchisi.*

***Annotatsiya:** Mazkur maqola filologiya fanlar doktori, professor Zokirjon Oripovning musiqiy manbashunoslik bo'yicha olib borgan izlanishlar hamda olimning qalamiga mansub bo'lgan “X-XV asrlar Markaziy Osiyo Manbashunosligi” kitobini o'rganishga bag'ishlangan.*

***Kalit so'zlar:** musiqa, maqomot, manbashunoslik, shashmaqom, bo'd, jins, ja'm, lad, parda.*

Musiqa tarixini o'rganishda o'tmishda yozilgan risolalar va turli manbalarning o'rne beqiyos. Ushbu tarixiy ma'lumotlarni o'rganuvchi musiqashunoslikning alohida yo'nalishlaridan biri bu – manbashunoslikdir. “Manbashunoslik tarixiy manbalarni izlab topish, qayd etish, to'plash, o'rganish va qo'llanish nazariyasi va amaliy usullari xaqidagi fan” [5.162]. Musiqiy manbashunoslikning asosi ham yuqorida keltirilgan fikrlarga monand ravishda shakllanib rivojlanib kelgan. Unda bevosita tadqiqot yozma manbalar ustida bo'lsada, ammo, uning asosiy ilmiy va amaliy uslubiyati tarixiy qadriyatlarining barcha turlarini o'rganish va tanqidiy taxlil etishdan iboratdir. Manbashunoslik amaliy va nazariy turlarga bo'linadi. Amaliy manbashunoslik tarixning ayrim soha va yo'nalishlari hamda davr bosqichlarini yoritadi. Nazariy manbashunoslik tarixiy manbalarning yaratilishi va ularda tarixiy voqeliklarning rivojlanish jarayonlarini aks ettirish tartibi va joylashish xususiyatlarini o'rganadi.

Sharq uyg'onish davri X-XI asrlarga to'g'ri kelishi turli ma'lumotlat orqali bizga ma'lumdir. “Sharq musiqasi tarixini o'rganishda o'rta asrlar

musiqa ilmiga oid asarlar asosiy manba sifatida qo‘llaniladi. Bu davr quyidagi belgilar bilan ajralib turadi:

- 1) Ko‘plab musiqa doir asarlar yaratiladi.
- 2) Ko‘plab musiqa doir manbalar to‘plama boshlanishi bilan ajralib turadi” [2.3].

Markaziy Osiya va O‘zbekiston xududida yuzaga kelgan musiqashunoslikka oid bo‘lgan ko‘plab manbalarning asosiy qismi, maqom san‘atining nazariy va amaliy asoslari, ijrochilik an‘anasi, bastakorlik san‘ati kabi yo‘nalishlarning rivojlanishi bilan bog‘liqdir.

O‘zbek milliy musiqasining boy tarixini yoritish, uni keng miqyosda targ‘ib etishda manbashunoslik alohida ahamiyatga ega. Shu bilan birga u serqirra va mashaqqatli sohalardan biridir. Bu sohada faoliyat yuritgan manbashunoslar V.Semyonov, I. Rajabov, D.Rashidova, Z.Oripov, A.Nazarov kabi musiqashunos olimlar yaratgan musiqa ilmiga doir risolalar bilan tanishib, o‘rta asrlardagi musiqiy qarashlar, madaniy xayot xaqida tasavvurga ega bo‘lamiz.

Musiqashunoslikka oid manbalarni o‘rganish va ularni tadqiq etishda, manbashunos olim, filologiya fanlar doktori, professor Zokirjon Oripovning o‘rni alohida ahamiyatlidir. Fors va arab tillari mutaxassisi bo‘lgan Z.Oripov 50 yildan ortiq pedagoglik faoliyati davomida O‘zbekiston davlat konservatorisida undan so‘ng Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san‘at institutida talabalarga shu tillar hamda musiqiy manbashunoslik fanlaridan saboq beradi. Ilmiy ishlari doirasida o‘rta asrlarga oid musiqiy manbalar ustida tadqiqot olib boradi hamda manbashunoslik bilan shug‘ullangan olimlarga ushbu sohada yo‘riqlar ko‘rsatadi. “Konservatoriyadan yetishib chiqqan ko‘plab olimlar, sa‘atshunoslik fanlar doktorlari Abdurahmon Nazarov, Asliddin Nizomov, san‘atshunoslik fanlari nomzodlari Aleksandr Jumayev va Iroda Dadajonovalarning musiqiy manbashunoslik yo‘nalishida erishgan ilmiy muvaffaqiyatlarida ustoz Zokirjon Oripovning ustozlik faoliyatining samarasi mavjud” [6.198].

Z.Oripovning manbashunoslikka oid olib borgan tadqiqotlari natijalari aks ettirilgan asarlari orasida quyidagilari ayniqsa ahamiyatlidir. Ushbu tadqiqotlar orqali Sharq musiqa madaniyatini yanada mukammal o‘rganish imkoni tug‘iladi. Bular:

1. Sharq Musiqiy Manbashunosligi (X-XI asrlar) (2008 yil)

2. X-XV asrlar Markaziy Osiyo Musiqa Manbashunosligi (2017 yil)
3. Arabcha musiqa terminlari tizimining shakllanishi va tarraqiyoti (2021 yil)

Zokirjon Oripovning ushbu asarlari orasida “X-XV asrlar Markaziy Osiyo manbashunosligi” monografiyasi alohida e’tiborga loyiq bo‘lib unda olim o‘rganilayotgan davrni VII bobga ajratgan holda ma’lumotlarni keltirib o‘tadi. Monografiyada Markaziy Osiyo xududida shakllangan qadimiy bayramlar va ularda ijro etiladigan turli musiqa namunalar, arxeologik topilmalar, yashab o‘tgan allomalar va ularning asarlari taxlili shu bilan bir qatorda bastakorlik va ijrochilik masalalariga ham to‘xtalib o‘tadi. Monografiyaning **birinchi bobi** O‘rta asrlar Markaziy Osiyo musiqashunosligining mumtoz davri matnlarining asos va manbalari deb nomlangan bo‘lib, unda olim “Avesto”, “Shoxnoma” kabi qadimiy asarlar yuzasidan fikrlarni bayon etadi. Shundan so‘ng turli hududlar madaniyatini aks ettiruvchi arxeologik topilmalar va ularning musiqa tarixini o‘rganishdagi o‘rni, tarixan shakllangan bayramlar va ularda ijro etiladigan kuylar xususida ma’lumotlar keltiriladi.

O‘rta asrlar Markaziy Osiyo musiqashunosligining mumtoz davri deb nomlanadi. Bu bobda “Z.Oripov o‘z tadqiqotlarida X-XV asrlar manbalari ustida ish olib borgan va ushbu davrga o‘rta asrlar Markaziy Osiyo musiqashunosligining mumtoz davri deb nom beradi” [6.198]. O‘z navbatida ushbu davrni ikki alohida bosqishlarga ajratgan holda o‘rganiladi deya fikrlarni ilgari suradi. Birinchi bosqich X-XIII asrlarni qamrab olgan bo‘lib, unda “Sharq allomalaridan Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Ibn Zayla, Abu Abdulloh Xorazmiy kabi allomalar ijod qilganlar. Xususan, Sharq Uyg‘onish davrida riyoziyot, arifmetika, geometriya, astronomiya kabi fanlar ham o‘rganilgan. X-XIII asrlar mumtoz davr hisoblanib tovush, nag‘ma, bo‘d, parda, jins tushunchalar ko‘rib chiqiladi” [2.26]. Ikkinchi bosqich “XIII-XV asrlar hisoblanib, Sharq musiqashunosligining quyi bosqichi hisoblanib “Risolayi musiqa” ya’ni “Musiqa risolasi” deb qabul qilingan janr vujudga keladi. Bu janrda Urmaviy, Marog‘iy, Abdurahmon Jomiy, Zaynulobiddin Xusayniy ijod qilganlar. Bu bosqichda ko‘proq maqomot masalalari ahamiyatli hisoblanadi” [2.26].

O‘rta asr Markaziy Osiyo musiqashunosligining mumtoz davri yuqori pog‘onasi mualliflari va manbalari deb nomlanadi. Mazkur bobda

Forobiy, Ibn Sino, Ibn Zayla hamda al-Xorazmiylarning musiqaga bag‘ishlangan asarlari, ularda keltirilgan musiqaning nazariy – amaliy jihatlari haqida fikr yuritiladi.

Musiqqa terminlarining qisqacha ma’nosi keltirilgan o’rta asrlar Markaziy Osiyo musiqashunosligining mumtoz davri yuqori pog‘onasi manbalaridagi musiqqa nazariyasiga oid masalalarga va ularga xos terminlar deb nomlanib, bunda musiqqa terminlarning qisqacha ma’nolari tizimlashtirilgan holda aks etadi.

O’rta asrlar Markaziy Osiyo musiqashunosligining mumtoz davri quyi pog‘onasi mualliflari va manbalari deb nomlanadi. Bu bosqichda Urmaviy, Marog‘iy, Jomiy ijodlari ular yozgan asarlari o’rganiladi. 17 pog‘onali tovushqator yaratiladi, ilk 12 maqom tizivi borasida so‘z yuritiladi.

O’rta asr Markaziy Osiyo musiqashunosligining mumtoz davrida zikr etilgan va davrimizgacha istemoldagi cholg‘ular hamda raqs turlari deb nomlanadi. Bu bobda cholg‘ular, ularning tarixi ijro uslublari haqida ma’lumot beriladi.

Monografiyaning so‘nggi o’rta asrlar Markaziy Osiyo musiqqa manbashunosligining yirik vakillaridan A.A.Semyonov, I.R.Rajabiy, 3. A.F.Nazarov, A.B. Jumaev, A.N.Nizomov, Mahmud Hafniy, Zakariya Yusuf, V.M. Belyaev, Taqi Binish, H.J. Farmerlarning manbashunoslik borasida olib brogan faoliyatlari yuzasidan ma’lumotlar beriladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqorida ta’kidlaganimizdek, manbashunoslik musiqashunoslikning muhim bo‘g‘ini hisoblanib, tarixni yoritish, o‘tmishda musiqqa sohasida olib borilgan ishlarni tadbiq etish va ushbu ma’lumotlarni bugungu kun nuqtai – nazari bilan o‘rganish uchun xizmat qiladi. Filologiya fanlar doktori, professor Zokirjon Oripovning bu borada olib borgan ishlari alohida e’tibor va e’tirofqa loyiqdir. Olimning tadqiqotlari o‘tmish allomalarining fikrlarini anglashda, to‘g‘ri talqin etishda muhim asos hisoblanadi. Bundan tashqari bugungi yosh avlod manbalar bilan ishlash, ularda keltirilgan ma’lumotlarni anglash, ilmiy va ijodiy faoliyatlariga tadbiq etish ko‘nikmalarini xosil qilishlarida Z.Oripovning manbalar bilan ishlash uslubi namuna bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O.Ibrohimov Maqom asoslari. T., 2018.
2. Z.Oripov X-XV asrlar Markaziy Osiyo Manbashunosligi T., 2017.
3. Z.Oripov Sharq Musiqiy Manbashunosligi, T., 2008.
4. Z.Oripov Arabcha musiqa atamalari tizimining shaskillanishi va taraqqiyoti (X-XV asrlar Markaziy Osiyo olimlarining musiqashunoslikka oid asarlari asosida). Monografiya. T. 2020.
5. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi M harfi.
6. Z.Yakubov “Manbashunos olim Zokirjon Oripov” maqolasi. // “Oriental Art and Culture” Scientific -Methodical Journal / ISSN 2181-063X Volume 3 Issue 3 / September 2022.

FOLKLOR JANRINING ZAMONAVIY BASTAKORLIKDAGI O'RNI

*Aynura TOSHBOLTAYEVA,
Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSSI,
San'atshunoslik: (musiqashunoslik) ta'lim yo'nalishi
1-kurs talabasi.
Ilmiy rahbar: Azizjon ZOKIROV,
"O'zbek maqomi tarixi va nazariyasi" kafedrası
katta o'qituvchisi.*

Annotatsiya: *Ushbu maqola o'zbek xalq ijodiyotining durdonalaridan bo'lmish folklor ijodiyoti namunalarini o'rganishga qaratilgan. Bugungi kunda o'zbek musiqasi va xalq ijodiyoti namunalarini o'rganishga bo'lgan e'tibor kuchaytirilmoqda. Bunga sabab har bir inson o'zi tug'ilib o'sgan yurtining madaniyati, urf-odati, an'analarini bilishi shart va zarurdir.*

Kalit so'zlar: *Folklor, xalq ijodiyoti, lapar, o'lan, estrada, etnografik ansambllar, oranjirovka, mavsumiy va marosim qo'shiqlari, bastakor.*

O'zbek musiqa san'ati uzoq moziydan sado beruvchi bizning ko'hna tariximiz debochasidir. Hozirgi kunda san'atimizga bo'lgan e'tibor va olib borilayotgan izlanishlar kuchaytirilmoqda. Shu o'rinda milliy qadriyatlarimiz tiklanishiga yo'l ochilayotgani, hozirgi sharoitda xalq ijodiyoti namunalarini, asrlar osha shakllanib, og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga o'tib, tobora sayqallanib, rivojlanib va ravnaq topib bizgacha yetib kelgan folklor durdonalarini o'rganish va keng targ'ib qilishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Bugungi kunda ham folklor durdonalari o'zining badiiy qiymatini saqlagan holda rivojlanib bormoqda. "Folklor atamasi inglizchadan olingan bo'lib, "folk"—xalq, "lore"—bilim, donolik degan ma'noni anglatadi. Bu atamani fanga 1846-yilda ingliz arxeologi U.J.Toms olib kirgan. Folklor deganda ma'lum bir millatga mansub, xalq tomonidan asrlar davomida yaratilgan san'at namunalari: so'zanalar, xalq kuylari, raqslar va boshqalar tushuniladi. Bugungi kunga qadar Folklor namunalarini to'plash va yozib olish

soxasida ko‘p mehnat qilingan bo‘lsa-da, xalq ijodiyotining haligacha o‘rganilmagan va qog‘ozda o‘z aksini topmagan ajoyib durdonalari mavjud” [1. 197-bet].

XX asrning 80-yillariga kelib, xalq ijodiyoti namunalarini targ‘ib etish, folklor jamoalariga e‘tibor va xalq ichidan etishib chiqqan ijodkor iste‘dod egalarini izlab topish ularning ijod mahsullarini rivojlanishiga zamin yaratdi. Tashkil topgan jamoalar o‘z navbatida yashab turgan makonlari vodiylar va vohalariga xos bo‘lgan xalq qo‘shiqlari, kuylari, raqslari, udumlari va urf-odatlarini o‘rganishga kirishib ketdilar. O‘zbek xalqining musiqiy merosida, asosan, to‘rtta mahalliy uslub shakllangan bo‘lib, ular Surxandaryo-Qashqadaryo, Buxoro-Samarqand, Xorazm va Farg‘ona-Toshkent uslublaridir. Ular orasida Farg‘ona vodiysining xalq musiqasi ijodining tasnifotlari haqida so‘z ketganda, lapar, yalla, o‘lan, qo‘shiq, termalar, mavsumiy marosim qo‘shiqlari va katta ashula, ashula, mumtoz yallalar muhim o‘rin egallaydi.

Farg‘ona vodiysining xalq ijodiyotini o‘rganar ekanmiz ularning lapar, o‘lan janrlari, aholining turmush tarzidan kelib chiqib-mavsumiy, marosim bilan bog‘liq qo‘shiqlari shular jumlasidandir.

Farg‘ona vodiysining so‘lim Quvasoy shaharida o‘zining mumtoz yalla hamda folklor janrining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan Xasanjon Axmadshoyev tomonidan oilaviy ansambl tuzilganligini aytib o‘tishimiz o‘rinlidir.

Ansamblning ijro repertuaridan xalqimiz yuragining tub-tubidan joy olgan “Yallama yorim”, “Nahori nashta”, “Shaydini shaydo”, “Yor-yor”, “G‘ayra-g‘ayra”, “Ajab-ajab”, “Hililla yorim” ashulalari o‘rin olgan bo‘lib, yoshi keksa onaxonlarimiz, otajonlarimiz tomonidan bundan tahminan oltmish yil avval ijro qilingan. Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng mavsumiy, marosim qo‘shiqlari katta saxnalarda ya‘ni 1991-yil mustaqilligimizning ilk kunlarida, davlat tadbirlarida, to‘y-hashamlarda, sayllarda folklor dastalari orqali ijro qilinib, estradaga kirib keldi. Keyinchalik bu tadbirlarda yurtimizning mashhur xonanda-hofizlari folklor etrografik ansambllari ijro repertuarlarini katta saxnalarga olib chiqib, ularga musiqiy sayqal-“aranjirovka” berib keng ommaga taqdim qildilar. Bu albatta san‘at o‘z oqimi, o‘z o‘qi atrofida aylanib, yuksaklikka ya‘ni, yetuklikka, bus-butunlikda yetib kelganidan dalolat beradi.

Xalq ijro an'anasi hozirgi kunda 100 yil ilgari ijro qilingan asarlarni zamonaviy ko'rinishda ijro qilinishi va unga albatta butun xalq qo'shilib birga raqs tushishi kabi an'analar, ohanglar xalqimizning tomirida oqayotgan qonida borligi, ruhoniyatida ular ota-bobosining allasida, to'ylarida qulog'iga chalingan ijro ohanglarini sayqallanishidir. Musiqaning janrlari bir-biri bilan tobora sinkretik qorishib ketdi. Albatta o'yin, raqs bilan bog'liq yoki marosim bilan bog'liq qo'shiqlarga xalqni o'ynatishda Axmadshoyevlarning o'rni beqiyosdir.

Xasanjon Axmadshoyevning san'atga bo'lgan qiziqishi uni el orasida tanilishiga sababchi bo'ldi. 1983-yili san'atshunoslik fanlari doktori, professor, folklorshunos olim Rustam Abdullayevning tashabbusi bilan Quvasoy madaniyat bo'limi qoshida Xasanjon Axmadshoyev tomonida folklor etnografik ansambli tuziladi. Qisqa muddatda Quvasoyda tuzilgan folklor jamoasining soni 25 taga yetadi. Ularga Xasanjon aka xalq laparlaridan, xalq yo'lidagi qo'shiqlardan o'rgatadi. *"Men ashula ayta olamanmi?"* degan turmush o'rtog'i G'azaloy Axmadshoyevaning ovozigiga hamma qishloqdagilar mahliyo bo'lib, ular turli tadbirlarda "Navro'zoy" va boshqa obrazini gavdalantiradi. Folklor jamoasi bergan konsertlar "Navro'z" tantanalarida, mahalliy televideniyalardan tashqari hatto Moskva televideniya ham namoyish etiladi. Xasanjon akaning turli obrazlarni qoyilmaqom ijro etishdagi iste'dodi tufayli unga I.A.Muxtorovning qalamiga mansub rus tilida yozilgan "Ходжа Насриддин в Кувае" nomli ssenariysi asosida spektakl tayyorlandi. Bu spektaklda Nasriddin afandi rolini Xasanjon Axmadshoyev muvaffaqiyatli ijro etadi.

1984-yil noyabr oyida folklor etnografik ansambli Moskvada bo'lib o'tgan Butunittifoq folklor qo'shiqlari ko'rigida qatnashib diplom va faxriy yorliqlar bilan taqdirlanadi. Xasanjon aka o'sha davrda tuzilgan folklor ansambllari tarkibida dunyoning bir qator mamlakatlari – xususan Veytnam, Pokiston, Hindiston, Bolgariyada bo'lib, o'zbek san'ati va madaniyatini butun dunyoga tanitishga o'zining katta hissasini qo'shadi. Xasanjon akaning xizmatlari gazeta-jurnallarda va radio, televideniya orqali uzatiladi. Bundan tashqari X.Axmadshoyev "Yor-yor" folklor jamoasini tuzishga muvaffaq bo'ldi. Bu jamoa shahar va viloyat miqiyosida o'tkaziladigan barcha tadbirlarda faol ishtirok etishi bilan

birga sobiq Sovet davrida ta'qiqlanishiga qaramay aholi o'rtasida milliy udum, an'ana va marosimlarni targ'ib etadi.

Bugungi kungacha ustoz san'atkor Xasanjon Axmadshoyev yoshlarga o'z bilimi va san'at sirlarini o'rgatib keldilar. Yoshlar orasidan musiqaga qiziqqan iqtidorlilarini izlab topish, ularni tarbiyalash va bilmaganini o'rgatish bo'yicha ustoz hofizda katta tajribaga ega. Buning yorqin misoli o'laroq ustoz san'atkorinig o'g'li, xalq orasida Dilshod Axmadsho nomi bilan tanilgan xonanda, bastakor va qo'shiqchi, shoirning ijodida yaqqol namoyon bo'ladi. Dilshod Axmadsho yoshlik davrlarida faqat otasi tuzgan ansamblda birgalikda turli asarlar ijro qilib yurgan va bugungi kunga kelib, qo'shiq kuylashdan tashqari mamlakatimizning ko'plab xonanda hofizlariga qo'shiq yozib, kuy bastalab, bastakor sifatida faoliyat olib bormoqda. Bilamizki "Bastakor" so'zi fors-tojik so'zlar birikmasidan hosil bo'lgan bo'lib, "basta"– bog'lash, "kor"–ish, mashg'ulot degan ma'noni bildiradi [2. 40-bet]. Bastakorlikning turli an'analari asrlar osha ustoz shogird an'analari negizida kamol topib kelgan. Asarlarning turli so'zlar bilan aytilishi yoki aksincha, cholg'u yo'llarining aytim yo'llariga moslanishi, aytim yo'llarini cholg'u ijrochiligida talqin qilish an'analarning barchasi ijrochilik amaliyoti va ustozlarning an'anasiga aylangan.

"Bastakorlikning keng qamrovliligi, keng ko'lamliligi, oddiy va marakkab jihatlar bilan sug'orilganligida o'ziga xos milliy an'analarni mujassam etgandir. Ko'p asrlar davomida rivojlanib, kamol topib kelgan o'zbek bastakorlik ijodi, avvalo, xalqimizning ma'naviy dunyosiga mos rivojlanish jarayonini o'tganligini e'tirof etish lozim" [3. 27-31.bet]. Buning negizida mukammal asarlar yaratilishi, ushbu sohada mahoratli bastakorlar yetishib chiqqanini ko'rsatadi. Bastakorlikning yorqin namoyandalari sifatida Ota Jalol Nosirov, Ota G'iyos Abdug'ani, Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Imomjon Ikromov, To'xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy, Muxtorjon Murtazoyev, Jo'raxon Sultonov, Qurbonnazar Abdullayev, Komiljon Otaniyozov, Muhammadjon Mirzayev, G'anijon Toshmatov, Komiljon Jabborov, Faxriddin Sodiqov, Saidjon Kalonov, Fattohxon Mamadaliyev, Orifxon Hotamov, Abduhoshim Ismoilovlarni aytishimiz lozim.

XX asrga kelib o'zbek bastakorlik ijodiyotida an'anaviy maqom ijodiyoti emas, balki shunga yaqin, lekin o'zgacha yangi yo'nalishdagi

shakllarga asoslangan ijodiy uslublar yuzaga kelgan. Lekin, an'anaviy uslubga ham umuman chek qo'yilgani yo'q. Ayrim bastakorlar ijodiyotida yetuk, maqom yo'llariga xos ijod namunalari oz bo'lsa-da yaratilib turilganligini e'tirof etish lozimdir. Xalq orasida Dilshod Axmadsho deb tanilgan Dilshod Axmadshoyev ham bugungi kunda o'zbek xalq ijodiyotining rivojlanishiga o'zining ulkan hissasini qo'shib kelmoqda. Uning yaratgan qo'shiqlari ko'proq xalq orasidan chiqqan mumtoz musiqa usullarida bo'lganligi uchun ham xalqning ko'ngliga yaqin va dunyo e'tiboridadir. Bunga misol qilib Dilshod Axmadshoyev qalamiga mansub O'zbekiston xalq artisti, ustoz san'atkor Ozodbek Axmadovich Nazarbekov tomonidan ijro qilingan - "Chang ko'chalar", "Nima qilaman ayt", "Nimam yoqmaydi", "Xafa bo'laman", "Yolg'izman"; O'zbekiston xalq artisti Gulsanam Mamazoitovaning "Boshimda ipak ro'molim", "Ajab-ajab", "Shaydoni ko'ring"; Ilhomjon Farmonovning "Shaydini shaydo"; Jamolbek Murodovning "Seni eslab" kabi ijro qilgan qo'shiqlarini sanab o'tishimiz mumkin.

Aynan bu qo'shiqlar folklorning yangicha ko'rinishi san'atning har doim o'z oqimida rivojlanib, sayqal topib, zamonaviy bastakorlar tomonidan qayta ishlanib yana xalqqa berilishi o'sha xalqning bilimdon ustoz yoki bastakorlari tomonidan charxlanib o'ziga qaytishi bu albatta zamon zayli yoki musiqani rivojlanishi, hozirgi ommaviy madaniyatga milliy ruh bilan kirib borib bevosita xalqni raqsga tushishga undashi kabi kuchli sifalarga ega ekanligidan dalolatdir. Bu yo'nalishda ijod qilayotgan bastakorlar yaratgan asarlari, folklor jamoalarining ijro dasturlarini o'rganish, tahlil qilish biz kabi yosh musiqashunoslarning dolzarb vazifalaridan biridir.

San'at - bu aslida insonlarning qalbiga ezgulik, yaxshilik sochishdir. Ulug' ustozlarning risolalarida "San'at bu-ruh ozig'i" deyishgan. Ruhimizni holatini ko'rsatib yig'lab tursak kuldirsa, kulib tursak yig'latsa ana shu musiqadir. Ulamolarimiz, mashoyiqlarimiz musiqa nima deganda "Musiqa insonning ruhini poklash", ruhiga taskin berish deganidir. Musiqa bilan so'z uzukka ko'z qo'ygandek bo'lganligi hammani o'ynatadi. Men yosh musiqashunoslar minbarida ustozim tavsiyalariga ko'ra shu mavzuni olib chiqishni maqsad qildim. Chunki hozirgi kunda musiqaning janrlari tobora ko'payib bormoqda. Jumladan: Pop, rep, rok, ayrabiy yoki har xil Lotin Amerika uslubi, bryuslardan ko'ra o'zimizning

folklor janrini etno-jazz, etno-pop qorishtirganligi, ohanglarni hozirgi kundagi tovushlar ya'ni shovqunli sonorik tovushlar orasida o'sha qadim do'mbiralarning ishlatilishi folklor janrining hozirgi kunda ham o'z o'rnini va mavqeyiga ega ekanligi, xalq tomonidan yaxshi qabul qilinib, kundankunga boyib borayotganidan dalolatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi F harfi 197-b.
2. I. Akbarov. Musiqa lug'ati. –T., 1987. 40-b.
3. S.Begmatov “Bastakorlar ijodi” T., 2017-yil. 27-31-b.

BOLALAR FOLKLOR QO‘SHIQLARI: AN’ANA VA ZAMONAVIYLIK

Quvonchbek ORTIQBOYEV,
*Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSSI,
San’atshunoslik: (musiqashunoslik) ta’lim yo‘nalishi
1-kurs talabasi,
Ilmiy rahbar: **Rustambek ABDULLAYEV,**
O‘zbekiston Respublikasi san’at arbobi,
San’atshunoslik fanlari doktori, professor.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bolalar folklori haqida, an’anaviylik hamda zamonaviylik haqida, hozirgi kunda bolalar uchun yaratilayotgan asarlar va avval yaratilgan asarlardan farqi, yaxshi tomonlari va salbiy tomonlari haqida hamda bugungi kunga kelib yuzaga chiqqan takliflar va istaklar haqida to‘laqonli ma’lumot berilgan.*

Kalit so‘zlar: *folklor, qo‘shiq, o‘yin, zamonaviylik, maqolalar, topishmoq, maqol, alla.*

“O‘zbek xalqining ko‘hna va boy musiqa madaniyati asrlar osha qudratli ma’naviyat manbai bo‘lganligi o‘tmish tarix zarvaraqlaridan ma’lum. Masalan, milliy qadriyatlarni ajoyib an’analar ila o‘zida mujassam etgan an’anaviy musiqamiz xazinasi badiiy-estetik qiymatini yo‘qotmasdan hanuzgacha gurkirab yashnamoqda”[1.3.b].

Chunonchi, hozirgi kunda yaratilyotgan qo‘shiqlar, milliy musiqamizga bo‘layotgan e’tibor, turli izlanishlar, ilmiy tadqiqotlar shular jumlasidandir. Bizning milliy musiqamiz butun jahonda ham o‘z o‘rniga ega. Butun dunyo ahli xonanda, baxshi-shoir va sozandalar tomonidan ijro etilgan an’anaviy musiqa namunalaridan tinglab bahramand bo‘lmoqdalar.

“Ana shu xazinani chuqur idrok etish, uning negizida tub qonuniyatlarini aniqlash, jonli musiqa merosimizni harakatga keltirishda tayanch bo‘lib xizmat qilayotgan marosim qo‘shiq-kuylari, dostonu-maqomlarni eng zamonaviy ilm-fan yutuqlari va ilg‘or texnologiyalar vositasida atroflicha tahlil etilishi hamda o‘zlashtrilishi bugungi kun talabidir”[1.3-4.b].

“O‘zbekiston davlat konservatoriyasi, O‘zbekiston kompozitorlar va bastakorlar uyushmasi, o‘zbek milliy maqom va baxshichilik san’atlarini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida hamda Xalqaro “Sharq taronalari” (Samarqand, 1997-2019), maqom (Shahrisabz, 2018) va baxshichilik (Termiz, 2019; Nukus, 2021) san’atlari festivallarini o‘tkazish Qarorlarida (2017) hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 3 avgustdagi O‘zbekiston ijodkor ziyolilar vakillari bilan bo‘lgan uchrashuvdagi “Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir” ma’ruzasida “yuksak idealar yo‘lida fidoiylik ko‘rsatib yashash, o‘zligimizni anglash, g‘urur va iftixor, milliy manfaatlarimizni himoya qilish uchun bel bog‘lab maydonga chiqish – ijod ahliga xos ezgu fazilat va buni yuksak qadrlaymiz” deb tegishli va katta vazifalar belgilangan”[1.4-5.b].

Biz bugun global jamiyatda yashayapmiz, tilimizga, madaniyatimizga, o‘zligimizga bo‘layotgan manaviy tahdid ko‘lami ham globaldir. Milliylikimizni asrab qolish, rivojlantirishimiz, va albatta kelajak avlod ongiga singdirishimiz kerak. Albatta bunga hozrgi zamonaviy axborot vositalari juda kerak bo‘ladi.

Folklor inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib, folk – “xalq”, lore – “bilim”, “donolik” degan ma’nolarni anglatadi. Fanga 1846-yilda ingliz arxeologi William Thoms olib kirgan. 1880-1890 yillarda “folklore” termini ko‘plab mamlakatlarda, jumladan, Rasiyada ham qo‘llanila boshlandi. O‘zbekistonda dastlab, Og‘zaki adabiyot”, “og‘iz adabiyoti” atamaları qo‘llanilgan. “Folklor” termini 1930 yillarning o‘rtalarida ishlatila boshlangan. 1939-yilda Hodi Zarifning “O‘zbek folklori” xrestomatiyasi tashkil etildi va bu termin o‘zbek folklorshunosligida keng ko‘lamda ishlatilib boshlandi.

Folklor janri turli davrlarda turlicha rivojlangan, turlicha o‘rganilgan, turlicha yondashilgan. Biroq mustaqillikdan keyin u tom ma’noda yangicha mazmun va mohiyat ega bo‘lgan.

Darhaqiqat, Sharq xalqlari musiqa madaniyatining mushtarakligi uning tarixiy, e’tiqodiy (hamda diniy), ijtimoiy-madaniy an’analari bilan bog‘liq holda uning ijtimoiy qiymati, ma’naviy-marifiy, g‘oyaviy-tarbiyaviy va estetik ahamiyati bilan belgilanadi. Musiqa madaniyati o‘z ichiga musiqa ijodiyoti, ijrochiligi, ta’lim-tarbiya va ilmni qamrabolgan

bo‘lib, sertarmoq, tartibli, takibli, muayyan qonuniyatlarga asoslangan va albatta, ozi xos an‘analarni yuzaga keltirgan soha. Bularning barchasi shakllanib, rivojlanishi esa san‘atning kuchini, sehrini namoyon etuvchi “ijrochilik”, ya‘ni musiqa ohanglarini ovoz va cholg‘ular orqali va tomoshaning jonli jarayoni natijasidir.

“Asarlar davomida yaratilib, har bir avlod badiiy dahosi tufayli boyitilib, sayqallanib kelgan an‘anaviy musiqamizda xalqimiz badiiy tafakkurining bir necha ming yillik tarixi mujassamlashgan. Ushbu ijodiyotning ko‘plab qadimiy va ayni paytda, sho‘ro davri mafkurasining tazyiqi tufayli unutilishiga kelib qolgan ba‘zi namunalar qayta tiklandi va keng ko‘lamda targ‘ib etilmoqda. An‘anaviy musiqa XXI asrdan dunyo boyicha keng tarqalgan nomoddiy madaniy merosining yetakchi sohalaridan biri bo‘lib, uning durdonalari bugun ham bevosita jonli og‘zaki ijroda, urf-odatlar va marosimlar bilan bog‘liq tarzida rivojlanmoqda. Badiiy ijodning aksariyat folklor va mumtoz musiqa janrlarida yangilanish, yaratilish jarayoni faol davom etmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi “Madaniy meros ob‘ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish” tog‘risidagi Qonuni (2009), “2010-2020 yillarda nomoddiy madaniy meros ob‘ektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish” Davlat dasturi (2010) huquqiy asos bo‘lib xizmat qilib kelmoqda va mamlakatimizda yaratilgan ulkan nomoddiy madaniy meros yodgorliklarini asrab-avaylash, ilmiy tadqiq etish va keng qamrovda targ‘ib etib ommalashtirishning katta imkoniyatlarini ochib berdi”[1.10.b].

O‘zbek musiqasi quyidagilardan iborat boladi; ijod, ijro, targibot qilish. Chunonchi, xalq o‘zi yaratadi, ozi ijro etadi, o‘zi targ‘ib qiladi. Mana shu uchalasi bo‘lsa, musiqa bor agar, birortasi bo‘lmasa musiqa yo‘q. Chunki, musiqani yaratmasa, kashf etmasa musiqa bo‘lolmidi, uni yaratib, ijro etmasa, unda ham musiqa bo‘lolmidi, uni yaratib, ijro etsayu uni targ‘ib etmasa u musiqa bo‘lolmidi, rivojlanmedi, shakllanmedi, ohir oqibat tanazzulga yuz tutadi.

Folklorni ya‘ni xalq ijodiyotining turli xususiyatlari shundaki yaratuvchi xalq, ijro etuvchi xalq va targ‘ib qiluvchi ham xalq. Ya‘ni ommaviylik bor unda, agarda, bo‘lmaganda edi bastakorlik, yoki boshqa ijod janrlaridan farq qilmay qolardi meni nazarimda. Undan tashqari og‘zakilik, an‘anaviylik, xalqchilik, mintalitetga mos kelishi shular

jumlasidandir. Folklor kop turlarga bolinadi. Xalq og‘zaki poetik ijodiyoti (so‘z bilan bogliq, til bilan bog‘liq), xalq musiqa ijodiyoti (musiqiy tovushlar bilan bog‘liq), xalq raqs ijodiyoti (harakat bilan bog‘liq), xalq tomosha ijodiyoti (xalq o‘yinlari bilan xalq tomoshalari bilan bog‘liq. Dorbozlik, Qo‘g‘irchoqbozlik (teatr emas!)), xalq amaliy san‘ati ijodiyoti (sozgarlik bilan bog‘liq).

Musiqa cholg‘u orqali , ovoz orqali ifoda etiladi. Demak folklor ham ikkita asosiy yo‘nalishdan iborat (cholg‘u va aytim), bularni ichida aytaylik ma‘lum janrlarga bo‘linadi. Janr degani bevosita ma‘lum xususiyatga javob beradigan, ijtimoiy va madaniy hayotda qollaniladigan narsa. Uning ichiga asarlar kiradi. Demak biz qanday janrni aniqlaymiz folklorda? Mavzu bo‘yicha, vazifasi bo‘yicha, yana shunday savol tug‘iladiki nmaga biz folklora xususiyatlarini bilishiz kerak? Chunki ijodiyot yo‘nalishlari kop, jumladan fortepiano ijodiyoti bor,skripka ijodiyoti bor, maqom ijodiyoti bor, folklor ijodiyoti bor bularni hammasini ajrata bilishimiz bir-biridan farqini bilishimiz kerak. Masalan kompozitorlik ijodiyoti, kompozitor kim? Yakka shaxs, bilim olgan ta‘lim olgan shaxs, u asar yaratadi, asarni qanaqa yaratadi, ya‘ni nota yozuvida ifoda etilgan, ho‘p endi folklorchi, folklor yaratuvchisi xalq, u yozilmaydi og‘izdan og‘izga o‘tib keladi, mana shundan ham farqlarini bilib olsak bo‘ladi. Kompozitor shaxs va yozma an‘anada ijod qiladi, folklor xalq, an‘anasi esa og‘zaki, yaratadi, ijro etadi. Kompozitor yozadi lekin uni o‘zi ijro etmaydi, yo teatr, yoki jamoa, yoki orkestr shunga o‘xshashi ojro etadi.

Bizning yosh avlod ya‘ni yosh bolalar o‘zining xilma-xil o‘yinlari va rang-barang janrdagi qo‘shiq repertuarlarini yaratganlarki, ularda bolalarning qalbidagi ezgulik, qiziqish va ehtiroslar, psixologiyasi balqib turadi. Bugungi kunda topishmoqlar, tez aytishlar va qo‘g‘irchoq teatrining tom ma‘noda bolalarniki, asosan bolalar tomonidan sevib aytiladi, kuylanadi, tomosha qilinadi. Mana shu o‘yinlar, qo‘shiqlar, og‘zaki nasr, muqallid yoki og‘zaki teatr tarzida tarmoqlangan va o‘zaro chambarchas bog‘lanib, bir butunlik holatiga kirgan o‘zbek bolalar folklori shakllantiradi.

Har xil yoshdagi bolalarning ongi shakllangan sayin ular ijod va ijro etgan qo‘shiqlar ham shakl, ham mazmun jihatdan teranlashib, o‘zgarib boradi. Shu zaylda uchlik, to‘rtlik, beshlik, oltilik, va sakkizlik

shaklidagi qo‘shiqlar yuzaga kelgan deyish mumkin nazarimda. Ayniqsa to‘rtlik qo‘shiqlari bolalar repertuarida keng tarqalgan. O‘yinlarga keladigan bo‘lsak, bular bolalar faoliyatida alohida ro‘l o‘ynaydi va bolalar o‘yin folklori sifatida maxsus guruh tashkil etiladi.

“Allalar beshik qo‘shiqlarining keng tarqalgan ma’naviy janri hisoblanadi. Jahonda biror xalq, millat yoki elat yo‘qki, ularning o‘z allasi bo‘lmasa. Ruslarda “bayki” yoxud “bayushki” deb yuritiluvchi bunday qo‘shiqlar turkmanlarda “huvdilar”, tatarlarda “alli-balli”, qoraqalpoqlarda “heyra-heyra”, turklarda “nini-nini”, forslarda “lo-lo”, inglizlarda “cradlesong lullaby”, nemislarda “wiegelielie”, fransuzlarda “berceuse” o‘zbek va tojiklarda “all ava allo” atamaları bilan mashhurdir”[2.182.b]. Alla bola tug‘ilgan paytidan boshlab uning qalbi, yuragi, his tuyg‘ularini mehr-muhabbat ila sug‘oradi. Shu sabab sekin-sekin ovozlarni ajratib olish shakllanadi, ona ovozini bittada taniy oladi.

Bolalar folklor qo‘shiqlari hammasi o‘yin bilan bog‘liq yoki marosimda ijro etilgan yoki o‘yinda. Masalan “Boychechak” o‘yin bilan bog‘liq, “Ramazon” esa marosim bilan bog‘liq. Nmaga bolalar ijro etgan bu qo‘shiqlarni? Oldin hammasini kattalar ijro etgan keyin vahalik bolalar o‘zlashtirgan. Undan tashqari Folklor namunalari ham o‘tmishda kattalar ijro etgan, keyinchalik “Boychechak”, “Binafsha”, “Lola”, “Ramazon” hammasi bolalar folkloriga kirib ketgan. Nimaga? Chunki bolalar ham o‘sha kattalar qatorida qo‘shiqlar, o‘yinlar o‘ynashgan. Shu kattalar ham bolalar bo‘lib shu qo‘shiqni ijro etgan. Undan tashqari har bir marosimda qo‘shiq ijro etganda hadyalar berishgan. Qandaydir shirinlik, yoki turshak, mag‘iz, yong‘oq, pul shular, masalan. Kattalar shunaqa hadyalarni olishga uyalgan, yana qandaydir sabablar bo‘lib o‘tgan. Shular sababli bunday ijodlar asosan bolalar tomonidan o‘zlashtirilgan, sekinlik bilan kattalar bu ijod turlaridagi o‘rnini bolalarga bo‘shatib bergan.

“Ilyos Akbarov, H.Muhammedova, K.Abdullayevlar, birinchi bolalar qo‘shiqlari, V.Uspenskiy, B.Nadejdinlar bolalar uchun ilk fortepiano asarlar yaratgan. M.Burhonov, A.Muhammedov, F.Qodirov, N.Norxo‘jayev, Ye.Shvars, A.Mansurov va boshqa ommabop qo‘shiqlar, S.Varelas, B.Gyenko, D.Zokirov, G.Mushel, F.Nazarovlar turli janrlarda cholg‘u asarlar. X.Azimov, S.Abramova, P.Xoliqov, G‘.Qodirov kabi kompozitorlar bolalar musiqa ta‘limiga oid asarlar yozgan. Bolalar uchun opera (“Yoriltosh”, S.Boboyev, “Alovuddinning sehirlil chirog‘i”,

S.Varelas; “Malikai ayyor”, S.Jalil; “Ali bobo va qirq qaroqchi”, V.Milov; “Xayvonlar sultoni”, A.Mansurov va boshqalar) yaratilgan”[4.18.b].

Bolalar juda ham beg‘ubor qalb sohibi bo‘lishadi ularni yanada hayotga undash yaxshilik va ezgulik sari yo‘naltirish mana shunday qo‘shiqlar, o‘yinlar, topishmoq va matallar zimmasida albatta. Bu esa o‘z navbatida mana shunday bastakor va kompozitorlar zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi. Faqatgina qo‘shiqlar emas balki hozirgi zamonga monand holda turli axborot vositalari jumladan televizor yoki internetlarda chiqayotgan multfilmlar deymizmi shularga ham juda katta etibor beishimiz kerak. Hozir shuncha televidenyamiz rivojlanib gurkirab yashnamoqda shunga yarasha bolalar uchun ham bir kerakli dasturlar ishlab chiqilishi kerak deb o‘ylayman meni nazarimda. Multfilmga keladigan bo‘lsak, oynai jahon orqali namoyish e‘tilyotgan aksariatlari boshqa davlat multfilmlari, o‘zmizning qahramonimiz yo‘q, bo‘lsa ham juda kam, ozimizning milliy qahramon kashf qilish kerak, albatta oson emas lekin, ozmimizning kelajak avlod uchun qancha harakat qilsa ham shuncha arzidi. Masalan “Smurflar”, “Uch bahodir”, “Qunduz amaki qissalari”, “Oppog‘oy va yeti gno‘m”, “Tro‘llar” bularni hammasini yoshligimizdan sevib ko‘rganmiz va hozirgacha efirlarda qo‘yiladi, lekin, bularning hech biri bizning milliy qahramon emas, balki boshqa millat qahramoni. Bu esa o‘z navbatida ularning milliyligi, o‘zligi, ularning dunyo qarashi, mintaliteti hammasi bizni bolalarga ta’siri juda kuchli. Undan tashqari bolalar juda ham vertual olamga, vertual o‘yinlarga qiziqishi ortib bormoqda. Masalan “PUBG” o‘yini nazarda tutsak, hozirgi kunda kimga qaraganda shu o‘yin bilan vaqt o‘tkazadiganlar chiqib qoladi, hamma ham emas lekin afsuski bor. Bu odamlarning aksariyati bizning o‘smir yoshdagi bolalar qatlami ekani esa, afsuski haqiqat. Menimcha reallikka qaytish kerak avval bolalagimizda o‘ynaydigan o‘yinlarni bolalarga o‘rgatish kerak. Masalan “Oq terakmi ko‘k terak” “Tapur tupur g‘oz, g‘oz”. Maktablarda haftada bir kun axborot soati o‘tiladi o‘sha kunlari masalan yosh sinf vakillarini bo‘lsa ham kun yaxshi bolganda maktab hovlisiga olib chiqib, tabiat qo‘ynida, o‘sha o‘yinlarni o‘ynasa boladi. Jismoniy tarbiya darsi ham bor lekin, u mutlaqo boshqa sport ga e‘tibor qaratiladi. Lekin mana shunday o‘yinlar juda kerakli va juda muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rustambek Abdullayev. An’anaviy o‘zbek musiqasi asoslari. Nashriyoti Toshkent 2022.

2. T.Mirzayev, SH.Turdimov, M.Jo‘rayev, J.Eshonqulov, A.Tilavov. O‘zbek folklori. Nashriyoti 2020.

3. Wikipediya.

4. M.Jo‘rayev, J.Eshonqulov. Musiqashunoslikka kirish. Nashriyoti Toshkent 2017.

MAQOM SAN'ATINING ILMIY-NAZARIY MASALALARI



ATOQLI KOMPOZITOR MUSTAFO BAFOYEV IJODIDA MILLIY MEROS O'RNI VA AHAMIYATI

(“Yetti pir” oratoriyasi misolida)

Madinaxon DJAMIYATOVA,

O‘zDK, San‘atshunoslik (musiqashunoslik)

ta‘lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi.

Ilmiy rahbar: Shaxnoza AYOJAYEVA,

O‘zDK, “O‘zbek musiqasi tarixi” kafedrasi dotsenti,

san‘atshunoslik fanlari nomzodi.

“Buxoroning jahon sivilizatsiyasi va islom madaniyati rivojiga qo‘shgan hissasi beqiyos. Bu zaminda ko‘plab allomalar tavallud topgan va yashagan. Ularning boy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib qilish kerak. Buxoroning ko‘hna va boqiy shahar, deb atalishida katta ma‘no bor. Bu yerdagi qadimiy obidalar, osori-atiqalar, xalqimizning betakror qadriyatlari, o‘lmas an‘analari asrlar osha yashab kelmoqda. Chet elliklarning, tarixchi va mutaxassislarning ularga qiziqishi doimo yuqori bo‘lgan. Bundan samarali foydalanish kerak.

Sh.M.Mirziyoyev

Ko‘hna va xamisha navqiron Buxoro shahri qadimdan musiqa madaniyati markazi bo‘lib, unda ko‘plab ijodkorlar faoliyatini yuritib, musiqa san‘ati sohasining taraqqiy etishiga o‘zlarining ulkan hissalarini qo‘shganlar. Hozirda ham ushbu shahardan ko‘plab musiqa san‘atining mahoratli darg‘alari yetishib chiqmoqda. Ana shunday ijodkorlar qatoridan munosib o‘rin egallagan shaxslardan biri – kompozitor, dirijyor va pedagog, ya‘ni bir so‘z bilan aytganda serqirra faoliyat sohibi, shuningdek, O‘zbekiston Bastakorlar uyushmasi a‘zosi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi, Abdulla Qodiriy nomidagi Davlat mukofoti, “Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni sohibi hamda qardosh davlatlar ko‘krak nishonlari singari mukofotlar egasi, ijodkor Mustafo

Bafoyevdir. U ko‘p yillardan buyon o‘zbek musiqa san’atining rivojlanishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelmoqda.

Kompozitor Mustafo Bafoyev talabalik yillaridayoq o‘zining musiqiy ijod namunalari yaratib boshlaydi. U bir emas, bir necha shakl va janrlarda jozibali asarlar yozadi. Quyidagi fikrlar ham buning yaqqol isbotidir: “...Mustafo Bafoyev o‘z ijodiy faoliyati davomida xalqchil kuy ohanglar zaminida ajoyib o‘lmas asarlar ijod etishga qo‘l uradi. U musiqa ijodiyotining deyarli barcha janrlarida yirik va zamonaviy ruhdagi asarlar yaratadi. Ular orasida milliylik bilan sug‘orilgan va milliy an’analarini ifodalab opera, balet, simfoniya, konsert, simfonik poema va boshqa kichik shakldagi kamer cholg‘u asar yaratganki, ularni bevosita milliy kompozitorlik ijodiyotining o‘ziga xos namunalari sifatida e’tirof etish mumkin. U yaratgan har bir musiqiy namunada milliy musiqamizning boy imkoniyatlariga tayangan holda ijod etgani yaqqol namoyonbo‘ladi...” [4. 289-bet]. Barchamizga ma’lumki, Mustafo Bafoyev davrimizning sermahsul ijodkorlaridandir. Ya’ni, yaratgan asarlari O‘zbekiston musiqa san’ati olamida muhim voqelikka aylangan zabardast ijodkor Mustafo Bafoyev ko‘plab janrlarda ijod qiladi. Shu bois ham u har bir janrning o‘ziga xos xususiyatlarini, qonun-qoidalarini yaxshi biladi hamda ijodiy mahorati, tajribasi orqali his qila oladi.

So‘nggi yillarda o‘zbek musiqa san’atida oratoriya janriga murojaat etayotgan ijodkorlar soni kamchilikni tashkil etadi. Ammo Mustafo Bafoyev shaxsi bundan mustasnodir. O‘z faoliyati davomida kompozitorlik ijodiyotiga mansub barcha janrlarda mohirona asarlar yaratgan ijodkor “oratoriya” janrida ham takrorlanmas, bir tinglanishidayoq musiqa shinavandalarini maftun eta oladigan asarlar yoza oldi. Darhaqiqat, kompozitor ijodiga nazar tashlasak, unda ajoyib, o‘lmas musiqiy namunalar mavjudligining guvohi bo‘lamiz. Ya’ni, Mustafo Bafoyev vokal-simfonik janrda ham unumli ijod qila olgan kompozitorlardan biridir. O‘z asarlarida tarix va zamonaviylikni, kundalik turmush tarzini, hayotning o‘ziga xos obrazlarini yaratishga intildi. Iste’dodli ijodkorning oratoriya janrida yozilgan asarlariga: *suxandon*, *yakkaxon*, *aralash xor* va *orkestr ijrosi* uchun atalgan “*Buxoronoma*”(“*Buxoro afsonasi*” O. Xalil so‘zi, 1977); badiiy so‘z ustasi, *yakkaxon*, *xor* va *simfonik orkestr ijrosi* uchun yaratilgan “*Toshkent haqida qo‘shiq*” (Jamol Kamol so‘zi, 1983); badiiy so‘z ustasi,

yakkaxon, ayollar xori, zarbli, fortepiano, torli cholg'ular ijrosi uchun mo'ljallangan "Roksananing ko'z yoshi" (shoir va yozuvchi Hamid Olimjonning "Roksananing ko'z yoshlari" nomli dostoni asosida, 1987); badiiy so'z ustasi, yakkaxon, xor, damli va zarbli, torli, fortepiano, milliy cholg'ular ijrosi uchun yozilgan "Hajnoma" (A. Oripov so'zi, 1993); badiiy so'z ustasi, yakkaxonlar, xor va simfonik orkestr ijrosi uchun yaratilgan "Zafarnoma" (Z. Obidov so'zi, 1995), shuningdek, yakkaxon, xor va simfonik orkestr uchun mo'ljallangan "Zardushtiylar marosimi" (Yu. Ismatova so'zi, 1995) oratoriya-baleti kabi bir necha asarlarini misol tariqasida aytishimiz mumkin. Ijodkorning qay darajada mahoratli ekanligi Toshkent davlat konservatoriyasining "Bastakorlik san'ati" yo'nalishini tamomlayotib yozgan "Buxoronoma" nomli oratoriyasidan ham bilib olsa bo'ladi. Boisi, yosh ijodkorning bunday yirik va murakkab janrga qo'l urushi uchun yetarli darajadagi salohiyat hamda mahorat talab etiladi.

Mustafo Bafoyev ijodiy namunalari orasidan munosib o'rin egallagan asarlardan biri – "Yetti pir" nomli oratoriyasidir. Mazkur oratoriya kompozitor tomonidan 2018-yilda Shodmon Sulaymon so'zlariga yozilgan bo'lib, suxandon, yakkaxonlar, xor va simfonik orkestr ijrosi uchun mo'ljallangan. "Yetti pir" oratoriyasi: debocha (kirish), 7 ta qism hamda xotimadan iborat. Barchamizga ma'lum bo'lganidek, Mustafo Bafoyev qalamiga mansub "Yetti pir" oratoriyasi kompozitor ijodining gullab-yashnagan davri, rivojlangan pallasida yaratilgan ijodiy namunalardan biri bo'lib, musiqa olamida alohida o'rin egallagan. "Yetti pir" oratoriyasi azim shahar hisoblanmish Buxoro vohasida yashab o'tgan yettilik silsilasining yorqin namoyondalari: Hazrat Abduxoliq G'ijduvoni, Hazrat Xoja Orif Revgariy, Hazrat Xoja Mahmud Anjir Fag'naviy, Hazrat Xoja Ali Romitaniy, Hazrat Bobo Samosiy, Hazrat Sayyid Mir Kulol, Hazrat Bahovuddin Naqshbandiylar hayoti va faoliyatini musiqa tili orqali hikoya qiladi. Bu ulug' siymolarning har biri ma'lum bir hunar egasi bo'lib, birovning haqqiga xiyonat qilmaganliklari, ayniqsa, o'ziga xos xulqi-odobi bilan ajralib turgan avliyolar edi. Yettilik silsilasining barcha vakillari yuksak ilmiy ma'rifat egalari bo'lganlar. Ul zotlarning ilmiy faoliyati tasavvuf ta'limoti, xususan, xojagon tariqatining rivojlanishi hamda atrofga keng yoyilishiga qaratilgan. Yetti purning so'nggi vakili bo'lmish Hazrat

Bahouddin Naqshband tomonidan: “Qalblarning buyukligi bir. Ulardagi ma’rifat farqli”; “Xalqning yukini yengillashtiring, xalqqa yuk bo‘lmang” kabi hikmatli so‘zlari ularning naqadar yuksak ilm-ma’rifat egalari bo‘lganliklarini yaqqol namoyon etadi. Respublikamiz prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham bejizga ushbu avliyo-pirlar hayotini alohida o‘rganish zarurligini ta’kidlamagan. Shu o‘rinda ushbu so‘zimizning yorqin dalili tariqasida Yurtboshimizning “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofliqini asrash – davr talabi” mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqini keltirib o‘tish maqsadga muvofiqdir: “...asosiy maqsad shuki, tariximiz, madaniyatimiz, dinimizga aloqador bir varoq qo‘lyozma bo‘lsa ham, ularni to‘plab, xalqimizni, yoshlarimizni tanishtirish, bizning qanday buyuk va betakror merosimiz borligini anglatish, farzandlarimizni shu ulug‘ merosga munosib etib tarbiyalashdan iborat” [7].

Mustafo Bafoev “Yetti pir” nomli oratoriyasida ko‘p yillik ijodiy tajribasi, salohiyati, tafakkuri, shuningdek, ichki hissiyotlari orqali yettita buyuk avliyo-pirlar siymosini musiqiy til bayoni ila ajoyib tarzda ta’riflab beradi. Asarning har bir qismi yettilikning bir vakiliga bag‘ishlangan bo‘lib, ul zotlarning o‘ziga xos musiqiy xarakteri, mos lad-parda uyushmasi, vazn-usul hamda kuy-ohanglar orqali ko‘rsatib berilgan.

Kompozitor mazkur asarni yaratish davomida milliy meros namunalaridan foydalanishga alohida ahamiyat berib, uni o‘ziga xos uslubda qo‘llaydi, bu esa ijodkorning yutuqlaridan biridir. Xususan, ushbu oratoriyani yozish davomida kompozitor o‘tmishda tasavvuf oqimiga mansub insonlar, ya’ni so‘fiylarning zikr marosimlarida bevosita qo‘llanilgan iboralarga; Buxoro mahalliy musiqiy merosiga mansub bo‘lgan “Buxorcha” janriga; o‘zbek mumtoz musiqasining yorqin namunasi, umrboqiy maqomlarimizga mansub “Ufar” doira usuliga murojaat etgan. Shu bilan birga, “O-o-o”, “E-e-y” singari mumtoz musiqamizga xos hanglardan ham unumli foydalanadi. Asar davomida “O-o-o” hangining nolali tarzda qo‘llanilishi “maqom san’ati”ga xos ohang yo‘lini namoyon etadi (II qism).

Yuqoridagi ma’lumotlarga batafsil to‘xtalib o‘tamiz. “Yetti pir” oratoriyasida zikr marosimiga xos bo‘lgan “Haq do‘st yo Oллоh, Haq do‘st yo Oллоh; Yo hu Yo hu...” kabi iboralar uning debocha (kirish) qismida qo‘llaniladi. Ya’ni, bas ovozida ijro yakuniga yetgandan so‘ng bas va

tenor ovozlaridabu iboralarning muntazam takrorlanishi kuzatiladi. Ma'lumki, ular tasavvuf oqimining so'fiylar marosimlarida bevosita qo'llanilgan. Shuningdek, "Haq do'st yo Olloh, Haq do'st yo Olloh; Yo hu Yo hu..." iborasi asar davomida xuddi leit mavzu singari bot-bot takrorlanib keladi:

The musical score consists of three staves. The top staff is for Tenor (T.), the middle for Bass (B.), and the bottom for Piano (Pno.). The tempo is marked *P* (Piano). The lyrics are: Хақ дўст ё Ол лоҳ Хақ дўст ё Ол лоҳ Ё ху. The piano accompaniment features a consistent rhythmic pattern of eighth notes in the right hand and quarter notes in the left hand.

Buxoro mahalliy musiqa merosiga mansub "Buxorcha" janri ohanglari oratoriyaning 2-qismida namoyon bo'ladi. Mazkur qismda vohaga xos bo'lgan "Buxorcha" ohanglarini bir muncha rivojlantirilgan holda, munosib ravishda kiritilganining guvohi bo'lamiz. O'zbek mumtoz musiqasining salohiyatli qatlamini tashkil etuvchi maqomlarga xos "Ufar" doira usuliga murojaat esa oratoriyaning 1-qismi va xotimasida namoyon bo'ladi. Asar davomida "O-o-o", "E-ey-y" hanglarining kuychan tarzda qo'llanilishi 3-qism hamda 7-qismlarda uchraydi:

Tenn.solo

S.

A.

Pno.

f

f

O

O

(III qism)

4

Bar.solo

T.

B.

Pno.

Эй О Ба хо уд дин Ба ло гар дон

Ба хо уд дин Ба ло гар дон Ба хо уд дин Ба ло гар дон

Ба хо уд дин Ба ло гар дон Ба хо уд дин Ба ло гар дон

(VII qism)

Keltirib o'tilgan ma'lumotlar orqali kompozitorning aynan Buxoro vohasiga doir milliy merosga murojaati bejiz emasligi ayon bo'ladi. Chunki yettilik siymolarining barchasi Buxoroi Sharifning turli joylarida yashab o'tganlar. Ul zotlarning tug'ilib o'sgan makoni hamda faoliyatiga aloqador bo'lgan ushbu joy ya'ni, Azim Buxoroga oid milliy meros ijodkor asarining mazmunini, ta'sirchanligini yanada orttirib, go'zal

tarzda ochib bergan. Bu borada kompozitorning o‘zi quyidagicha fikr bildiradi: “Ushbu ohanglar tarixiy voqealarni yoritishda javob bera oladi. Nega deganda, bu o‘sha zaminning merosi. Ul zotlar o‘sha yerda tug‘ilib, voyaga yetganlar. Uning madaniyati, uning havosi bilan katta bo‘lganlar. Asar mazmuni nishonga tegishi uchun aynan shu vohaga xos milliy ohanglardan qo‘llanilgan. Ya’ni, tarixga bog‘langan holda yanada ta’sirli, ifodali bo‘lishi uchun” [2]. Shuningdek, Mustafu Bafojevning asar davomida zikrlardan foydalanishining ham o‘z sababi bor. Yettilikning ilk vakili Abduxoliq G‘ijduvoniya oid manbalarda qayd etilishicha, ul zot 10 yoshidan boshlab darvishlarning zikr marosimlarida faol ishtirok etgan ekan. Yana bir yettilik vakili, uchinchi pir Hazrat Anjir Fag‘naviy ham “xufiyona (yashirin) zikr bilan jahriya (baland tovushli) zikriga baravar amal etgan” [6. 213-bet]. Pirlarning mazkur jihatlari ham kompozitor e’tiboridan chetda qolmay, asar davomida o‘z aksini topdi. “Zikr ishlatmasa ham bo‘lar edi. Lekin asar ohangini yanada to‘lqinlantirish, ifodali bo‘lishi, shuningdek, pirlarning obrazlarini kuchaytirish “zikr”siz bo‘lmaydi”, – deya izohlaydi kompozitor[2].

“Yetti pir” oratoriyasida yakkaxon ijrochilar bilan bir qatorda aralash xor jamoasining ishtiroki birdek bo‘lib, asar mazmun–mohiyatini g‘ozal tarzda ochib bergan. U ayrim qismlarda yakkaxon ijrosini tasdiqlovchi, ayrim qismlarda esa sof jo‘rovoz vazifasini bajargan.

Atoqli kompozitor Mustafu Bafojev qalamiga mansub “Yetti pir” oratoriyasi ulug‘ siymolar xarakterini ochib berishda muntazam o‘zgaruvchi o‘lchovlar, turli xil ritmlar va boshqa musiqiy ifoda vositalariga asoslangan bo‘lib, lad-parda jihatidan puxta o‘ylangan. Mustafu Bafojev bu asarni yozish davomida nafaqat o‘zining mualliflik musiqasini qo‘llagan, balki milliy musiqa namunalaridan ham o‘tamohirlik bilan foydalangan ijodkordir. “Yetti pir” oratoriyasining muvaffaqiyati mazkur janrning keyingi rivojlanish bosqichini belgilab beradi. Ya’ni, oratoriya janriga bo‘lgan e’tibor va qiziqishni yanada orttiradi.

“Yetti pir” oratoriyasi yuksak mahorat ila yaratilgan, o‘zbek musiqa san’atida alohida ahamiyatga ega, ayniqsa, musiqa shinavandalarining qalbidan munosib o‘rin olgan go‘zal ijod mahsulidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jabborov Ahmadjon. “O‘zbekiston kompozitorlari, bastakorlari va musiqashunoslari”. – Toshkent: “Musiqqa” nashriyoti, 2018-y.
2. Kompozitor Mustafó Bafoyev bilan bo‘lgan suhbatdan. 23.02.2024.
3. Mahmudova Sayyora. “Mustafó Bafoyevning vokal – simfonik ijodida oratoriya janri” // “PEDAGOGS” international research journal. Volume – 1, Issue – 1, January – 2022.
4. Umarova G. “Bastakor Mustafó Bafoyev ijodida o‘zbek mumtoz musiqqa namunalari” // YILNOMA 2009. “O‘zbekiston musiqqa madaniyati rivoji va Toshkent”.(ЕЖЕГОДНИК 2009. “Ташкент и развитие музыкальной культуры Узбекистана”). – Toshkent: “O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Tahrir-nashriyot bo‘limi”, 2009-y.
5. “Yetti pir ziyorati” (Reportaj+) // “Shavkat Mirziyoyev’s Press – service” You Tube kanali. 17.05.2019.
6. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” 9-jild. “F” harfi. – Toshkent: “Davlat ilmiy nashriyoti”, 2005-y.
7. Mirziyoyev Sh.M. “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi” mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqidan. 15.06.2017.

O‘ZBEK BASTAKORLIK IJODIYOTIDA SAIDJON KALONOVNING O‘RNI

Mahliyo AZIZOVA,

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSh,

San’atshunoslik: (musiqashunoslik) ta’lim yo’nalishi

4-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Chinora ERGASHEVA,

O‘zDK, “O‘zbek musiqasi tarixi” kafedrasi dotsenti,

san’atshunoslik fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD).

Annotatsiya: Ushbu maqolada bastakor va sozanda Saidjon Kalonovning hayot yo’li, ijodiy faoliyati va ijrochilik san’ati qisqacha yoritib beriladi. Shu qatorda ijodkor qalamiga mansub asarlar va u tomonidan ijro etilga kuylar haqida ham ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Saidjon Kalonov, bastakor, sozanda, kuy, ashula, nay, musiqiy soz, qo‘shiq.

Uzoq o‘tmishdan ma’lumki, Yaqin va O‘rta Sharq musiqasi o‘zining qadimiyligi va murakkabligi bilan ajralib turadi. Bastakorlik an’anaviy, mumtoz musiqa uslubi zaminida vujudga kelgan badiiy an’ana, ijodiy kasb turi va musiqiy ijrochilikdir. Bastakorlik tarixi O‘rta Osiyoda qadimdan rivojlanishni boshlagan. Borbad Marvaziy, Abdurahmon ibn Surayj, Abduhafz So‘g‘diy kabi iste’dodli xonanda, sozanda va bastakorlar Yaqin va O‘rta Sharqning deyarli barcha mamlakatlarida tanilgan. Abu Nasr Farobiy va Abu Ali ibn Sino kabi buyuk allomalar ham bastakorlik bilan bivosita shug‘ullanganliklari haqida ma’lumotlar bizgacha yetib kelgan. Bastakorlikka kirishdan avval bastakor so‘ziga alohida to‘xtalib o‘tsak. Bastakor (forscha-bog‘lash, bog‘lov, mashg‘ulot, ish) – an’anaviy, mumtoz musiqa asarlari muallifi. Musulmon Sharqida musannif, mulahhin, ohangsoz kabi atamalar bilan tanilgan. Odatda bunday san’atkorlar o‘z faoliyatida ijrochi (xonanda, ko‘proq sozanda) lik va ijodchilikni uzviy bog‘lagan [1, 38-bet].

Biz xalqimiz yaratgan cholg‘u sozlari yangraganda undan sadolangan ohanglarni maroq bilan tinglaymiz. Dutor, rubob, doira, tanbur, nay va shu kabi cholg‘u sozlari har vaqt dilimizni hush, vaqtimizni

chog‘ etib o‘zgacha kayfiyat baxsh etadi. Xalqimiz orasida yetishib chiqqan mohir sozanda, xonanda va bastakorlar o‘z san‘atlarini namoyon qilish uchun bor mahoratlarini ayashmagan. Biz xalqimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak ana shunday sozandalarni ko‘pini uchratishimiz mumki. Nayning dilrabo, mungli ohanglari tinglovchini maftun etadi, chunki naychining yuragidan chiqayotgan nola yuraklarga yetib boradi. Nay kuyi tinglovchini goh go‘zallik sari yetaklaydi, goh o‘tmishning achchiq haqiqatlari tomon chorlaydi. Ana shunday o‘z baxtini san‘at sohasida topgan nay sozining mohir ijrochisi, sozanda va bastakor Saidjon Kalonovdir. Sozanda tomonidan ijro etilgan “Yovvoyi chorgoh”, “Yovvoyi ushshoq”, “Patnis ushshog‘i” kabi kuylari xalqimiz qalbidan chuqur o‘rin egallagan.

Sozanda o‘z kasbi haqida mehr ila, “Saroyga keltirilgan xorazmlik bir sozanda har kuni erta saharda nay chalib xonni uyg‘otar, kech tushganda ham nayi bilan uxlatar ekan”, manashu so‘zlarni ustozim Abduqodir aka takror-takror aytib berardi deya so‘z yuritgan. [2, 24-bet]. Bo‘lg‘usi bastakor, nay sozining mohir ijrochisi Saidjon Kalonov 1914-yil 30-iyunda Namangan viloyati, Chust tumaning Karkidon qishlog‘ida tavallud topgan. Saidjonning otasi musiqa ishqibozlaridan edi, u bo‘sh vaqtlarida dutor chalar, o‘g‘li esa zavq bilan tinglar edi. Sozlarning ichida unga nay sozi ko‘proq yoqar edi. Nayga qiziqishi katta bo‘lgan Saidjon Kalonov qayerda musiqa sadosi eshitilsa o‘sha yerga borar, har bir cholg‘u sozidan chiqayotgan ohanglarni diqqat bilan tinlar va sozlarni chalayotgan ijrochlar harakatini ham qiziqish bilan kuzatar edi. Xalq kuylariga bo‘lgan qiziqishi kundan-kunga ortib borar, ular qayta-qayta eshitib yodda saqlashga harakat qilar edi. Uni bunday serharaktligini yerda qoldirmaslik maqsadida, 1925-yili Toshkent musiqa maktabiga o‘qishga yubordilar. Bu yerda atoqli musiqachilar Abdusattor Vahobov va Shorahim Shoumarov boshchiligidagi milliy cholg‘u sozlari sinfida o‘qiy boshladi. Uning bunday izlanuvchanligi sababli taqdir uni ulug‘ ustoz Abduqodir naychi Ismoilov bilan siylaydi. Ushbu uztozidan nay sozining sir-asrorlarini, ijro etish mahoratlarini puxta egalladi va keyinchalik o‘zi ham mohir ijrochi bo‘lib yetishdi. Mustaqil ijodiy faoliyatini 1932-yilda Farg‘ona teatri musiqa rahbari sifatida boshlab, mazkur teartda sahnalashtirilgan “Farhod va Shirin” singari spektakllarga musiqa yozgan. O‘zbekiston davlat filarmoniyasining To‘xtasin Jalilov

rahbarligidagi orkestri (1936-38), O‘zbek davlat opera va balet teatri (1938-42), Yangiyo‘l teatri (1942-48), O‘zbekiston radio va televideniya o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestrining (1948-71) yakkanavozi sifatida faoliyat olib borgan. Saidjon Kalonov har doim xalqimiz orasida yetishib chiqqan va mashxur bo‘lgan sozanda, xonanda va bastakorlar bilan doim birga bo‘lishga va ulardan xalq musiqa boyliklarini o‘rganib olishga harakat qilga va 1936 yilda Moskva shahrida bo‘lib o‘tgan O‘zbek san’ati va adabiyoti dekadasida qatnashishga muvofiq bo‘lgan. Farg‘onada yurgan kezlarda mashxur askiyachi va doirachi Yusufjon qiziq Shakarjonov, xonandalar Jo‘raxon Sulstonov, Ma‘murjon Uzoqov, changchi Otaxo‘ja Eshonqulovlar singari musiqachilar bilan yaqindan tanishib ular davrasida musiqa saboqlarini mukammal egallashga musharraf bo‘lgan.

Saidjon Kalonov nay sozining mohir ijrochisi bo‘libgina qolmay u bastakorlik bilan ham shug‘ullangan. Ijodkor Ikkinchi Jahon urushining og‘ir yillarida sozini yangratadi va ushbu davrdan olgan taasurotlari bilan qalamini o‘tkirlaydi. Shu yillarda u “Zafar marshi”, “O‘zbek soldatlariga salom” deb nomlangan qo‘shiqlarini qahramon jangchilarni ruhiyatini ko‘tarish maqsadida ularga bag‘ishlaydi. Bastakor urush yillaridan so‘ng yurtimizda ro‘y bergan o‘zgarishlardan ilhomlangan holda xalqimiz kishilarining baxt-saodati, buyuk istiqbol, porloq kelajakini ifodalovchi qator kuy va qo‘shiqlar yaratdi. Bastakorning “Assalom” deb nomlagan qo‘shig‘ini xalqimiz orasida deyarli barcha yaxshi taniydi. Ushbu qo‘shiq ijro etilgan vaqt ko‘z oldimizda go‘zal manzara paydo bo‘la boshlaydi va inson ruhiga ruh, kayfiyatiga kayfiyat qo‘shiladi. Bu qo‘shiq O‘zbekiston xalq artisti Kamuna Ismoilova tomonidan mahorat bilan ijro etilgan. Ijodkor qalamiga mansub “Yorga istab”, “Vafo qilsa”, Habibiy she‘riga bastalangan “Mehringning payvandimu”, Turob To‘la she‘riga yozilgan “Dilnavozim”, Xamza she‘ridan foydalangan holda yozilgan “Bog‘larda gul” kabi qo‘shiqlari tinglovchilarni qalb tubidan joy olib, kuylovchilarga ilhom baxsh etishi Saidjon Kalonovning ijodiy izlanishlari va tinimsiz mehnatlarining samarasidir. “Ey chehrasi tobonim” (Muqimiy she‘ri), “Dilnavozim” (Turob To‘la she‘ri), “Xormang qizlar” (Zulfiya so‘zi), “Topmadim”, (Alisher Navoiy so‘zi), “Ey nasimiy” (Xabibiy so‘zi), “Seningdek gulozor etmas” (Furqat so‘zi), “G‘uncha” (Erkin Vohidov so‘zi), “Olqish” (M.Nazarov so‘zi), “Ketmang” (Furqat so‘zi), “Gulmidi-

ra'nomidi" (qo'lyozma), "Assalom janon yigit", (A.Bobojon so'zi) kabi qo'shiqlari ham xalqimiz yuragidan joy olgan desak adashmaymiz. Bastakor qo'shiqlar yaratish bilan bir qatorda betakror kuylar ham yaratgan. Uning "Armug'onim", "Istak" nomli kuylari konsertlarda hali hanuz mahorat bilan ijro etilib, maroq bilan tinglab kelinmoqda. Sozandaga yuborilgan xatlarning birida: "Siz cholg'ularning shohanshoi bo'lmish nayni bulbul nolasi kabi chalasiz. Sizni ijroingizni eshitgan inson ezgulikka to'lib toshadi. Nay sadolari kishini uzoq o'tmishga olib ketadi va shu bilan birga bugungi kunda sevinch bilan yashashga, mehnat qilishga, yangi marralar sari intilishga undaydi" kabi muxlislarning qalb so'zlari bitilgan. Xalq ishonchini, mehrini qozonish har qanday san'atkor uchun yuksak baxtdir va mana shunday baxt Saidjon Kalonovga ham nasib etgan deb yozadi X.G'ofurbekova o'zining "Bastakor Saidjon Kalonov" deb nomlangan maqolasida. [3, 67-bet].

Bastakor, mohir sozanda Saidjon Kalonov ijodiy yo'li davomida bizga ko'plab bir-biridan durdona asarlarni meros qilib ketganlar. Har bir yaratgan asarlari o'z tarixiga ega bo'lib, hozirgi kunda ham xonanda va sozandalar tomonidan mahorat bilan ijro etilib, xalqimiz tomonidan tinglab kelinmoqda. Biz ushbu maqolamni davomida ular tomonidan yaratilgan asarlarni nota na'munalarini topib, ular bilan tanishib, tahlilini quyida keltirdik. Ushbu asarni tahlil qilar ekanmiz, Saidjon Kalonov bor mahoratlaridan foydalangan holda yaratganliklarini guvohi bo'ldik.

“G'uncha”

Ijodkorning yana bir Erkin Vohidov she'riga bastalagan "G'uncha" nomli asari zamonaviy qo'shiq yo'nalishida yozilgan. Qo'shiq g-moll tonalligi, doriy ladida yozilgan. Qo'shiq vals harakteriga bo'lib $\frac{3}{4}$ o'lchovida berilgan, temp raqssimon harakatning belgilari sifatida qaralishi mumkin.

Qo'shiq 12 taktli cholg'u muqaddima bilan boshlanadi. Cholg'u muqaddimada berilgan kuy asarning asosiy ohang matnini belgilab beradi.





Kuy sakrama va sakramani to'ldiruvchi intervallar bilan bayon etiladi. Biz buni 1-taktdagi g tovushi yuqoriga 2-taktning d tovushiga kvinta intervaliga sakrashida va ushbu d tovushi c tovushi bilan to'ldirilayotkanida ko'rishimiz mumkin.



Mana shunday sakramali holatlarga asar davomida ko'p marotaba duch kelamiz. Bu holat yuqorilama va pastlama harakatlarda kuyni boyitishga, ularda intervallarni bir-biriga bog'lanishi yordamida, tovushlar uyg'unligi ifodalangan. Asarning asosiy qismi 13-taktdan yuqoriga sakramali harakat bilan g-moll tonalligida boshlanyapdi va 28-taktgacha davom etyapdi. Asosiy qismni 16 takтли davriya deb ham hisoblashimiz mumkin. Bunda davriya jummalarga bo'lingan, jumalalar bir-birini qisman takrorlaydi.



Bu asarni tahlil qilish davomida 41-taktda e bemolni e bekar bo'lishini va 8 taktdan so'ng yana e bemol holatiga qaytishi lad o'zgaruvchanligidir.



Asar yakunida 4 taktdan iborat hangni ham uchratamiz, bu ham asarga o'zgacha chiroy baxsh etadi.



Xulosa o‘rnida bu asarni zamonaviy qo‘shiq janrida, vals karakterida yozilgan asar deb hisoblashimiz mumkin. Asar davomida sakramalar, ularni to‘ldirilishini ham tahlil qildik. Bu asar tinglovchiga o‘zgacha kayfiyat uyg‘otishi va taasurot baxsh etishi mumkin.

Saidjon Kalonovning o‘zbek musiqasi rivoji uchun qo‘shgan munosib hissalar, mehnat faoliyatlari munosib taqdirlanib unga “Hurmat belgisi” ordeni, “Shavqatli mehnati uchun” medali bilan mukofotlangan va “Respublikada xizmat ko‘rsatgan artist” degan yuksak unvonga loyiq deb topilgan. [2, 26-bet].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. B-harfi – Toshkent. Davlat ilmiy nashriyoti. 2000-2005.
2. Rahmatjon Tursunov. “Xalq musiqa ijodiyoti va adabiyoti”. “Ma’rifat-madadkor” nashriyoti. Toshkent-2002.
3. Musiqiy ijodiyot masalalari II. – Toshkent. 1997.

MAHMUDJON TOJIBOYEV “SARAXBORI USHSHOQ”

Asilaxon AXMADJONOVA,

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSSI,

“San’atshunoslik” (musiqashunoslik) ta’lim yo’nalishi

4-kurs talabasi.

Ilmiy rahbar: Soibjon BEGMATOV,

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSSI,

“O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi” kafedrasida professori,

san’atshunoslik fanlari nomzodi

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada bugungi kunda hofiz va bastakorlar ijodiy faoliyati davomida maqom yo‘llarida asar yozishga katta e’tibor qaratilmoqda. Shu jumladan mazkur maqolada hofiz Mahmudjon Tojiboyevning ushshoq asosida yozilgan “Saraxbori Ushshoq” asari haqida so‘z boradi.*

***Kalit so‘zlar:** Ushshoq, lad, usul, saraxbor, hang, parada, ohang, avj, shakl, ashula, bastakor.*

Bastakorlik ijodiyoti amaliyotida xalqimizning nodir maqom yo‘llaridan biri Ushshoq namunalariga “nazira” an’anasida yozib kelinayotgan bir qator asarlar mavjud. Mazkur asarlardan biri taniqli hofiz va bastakor Mahmudjon Tojiboyevning qalamiga mansub bo‘lgan “Saraxbori Ushshoq” asaridir.

Alisher Navoiy g‘azali, Mahmudjon Otajonov notalashtirgan.

Asar maqomlar tizimlariga asoslangan holda ikki, uch tonalliklar uyg‘unligiga asoslanib yozilganligini ko‘rish mumkin. Asar davomida lادلarning o‘zgarib turishi maqomlar xarakteriga xos bo‘lgan xususiyatdir. Har bir maqomni o‘zining ladi bo‘lishiga qaramasdan, rivojlanish jarayonida bevosita lad o‘zgaruvchanligi kuzatiladi. Asosiy tonallik *c-miksolidiy* ladi hisoblanadi.

Saraxbori Ushshoq Shashmaqom tarkibiga kiruvchi saraxborlarning yohud birinchi va ikkinchi guruh sho‘balaridagi ashulalar tarkibiy tuzilishi, ma’lum bir shaklning tartibi bilan yozilganligi uning Shashmaqom an’analariga asoslanganligini ko‘rsatadi. Asar rivojlanishi jarayonida Farg‘ona vodiysining mahalliy lokal xususiyati alohida o‘rin kasb etgan. Saraxbori Ushshoqni ayol va erkak xonandalar navbatma-

navbat ya'ni jo'rovoz birgaligida, katta ashulaga xos erkin uslubda ijro etiladi. Saraxbori Ushshoq odatga ko'ra asosiy qismidan keyin ketma-ket ijro etiladigan uchta (I-III) Taronalari ham mavjud. Saraxbori Ushshoq sho'ba shaklida yozilgan bo'lib, shashmaqom ashula bo'limi namunalari shaklida yaratilgan. Uning tarkibi quydagicha:

Daromad

Miyonxat


Dunasr

Katta Avj

Furovard qismlaridan tashkil topgan.

Asarning metro-ritmik asosi 2/4 o'lchovida saraxbor doira usulidadir:

1-misol:



Bastakor ashulaga so'z bog'lashda Alisher Navoiyning g'azaliga murojat etgan. Ushshoqlarning yaratilishida uning mazmun mohiyatini ifodalashda kuyga biriktirilayotgan matnning, ya'ni g'azalning o'rni ahamiyatlidir. Avvalo klassik shoirlarning asarlariga murojat etilsa, ikkinchidan ohang konteksti negizida mazmunan mutanosib bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Saraxbori Ushshoq cholg'u muqaddimasi, asosiy mavzuning ijrosi bilan boshlanadi. Ijro jarayonida mavzuning ilk yangrashi muallif tomonidan sato cholg'usi sadolari va cholg'u ansambli jo'rligida ijro etilgan. Asar o'n ikki taktli 3 ta jumladan iborat bo'lgan cholg'u muqaddimasi bilan boshlanadi. Kuy *si* pardasidan boshlanib sekin-asta pog'onama-pog'ona pastlab boradi. Satoning mungli ovozi asarning jozibasini, uning go'zalligini yanada namoyon etgan holda ushshoq mavzusini ifoda etadi. Asarning asosiy tayanch pardasi bu *do* tovushi hisoblanadi.

Daromad.

Ey, safhayi ruxsoring azal xattidin insho

Debochai husnungda abad nuqtasi tug'ro

So‘zlari bilan ayollar ijrosida, lirik harakterda daromat qismi boshlanadi, ushbu qism ikki xatdan iborat bo‘ladi. 1-xat ham *si* pardasi bilan boshlanib rivojlanadi va *do* pardasiga qaytadi.

2-misol

Sarahbori Ushshoq

M. Tojiboyev
musiqasi
M. Otajon
notalashirdi

Voice

Adagio **12** Qizlar

17 Ey_ saf__ xa - i__ ruh - so - ringa

23 zal_____ Xa - tti - dan in -

2-xatda esa biz *do* pardasining kvarta yuqoriga ko‘tarilganligini ko‘rishimiz mumkin. “I bosqichga tayanib amalga oshirilgan yuqori kvarta ohang sakramasi hamda uning muvozanatini yuzaga keltiruvchi aksil harakat Ushshoqning alohida belgisidir” [3.66-b.].

Sarahbori Ushshoqda ham Ushshoqqa xos hususiyatni quyidagi namunada ham ko‘rishimiz mumkin:

3-misol

30 sho__ De-bo - cha-i hus ningda a-bad

36 nuq - ta - si tug' - ro. Zar - rot__ a - ro har

Ushbu namunada ham Ushshoqning o‘ziga xos bo‘lgan interval oralig‘i yaqqol namoyon bo‘ladi.

Ovozni yuritish kuy ohangi ya’ni hanglar asosida miyonxat qismigacha rivojlanib boradi. O‘ziga xos “hang” ravon va to‘lqinsimon harakatlar bilan dastlab *fa* tovushidan kvarta pastga *do* tovushiga tomon, so‘ngra kvinta yuqoriga *sol* tovushiga chiqib boriladi. Hang asarning shakliy rivojida bog‘lovchi vazifasida kelsada, asarning miyonxat

qismiga tayyorlab boradi. So‘ng 8 taktli cholg‘u kuyi ijro etiladi, cholg‘u kuyi asosan miyonxat ohangidan tuzilgan bo‘lib, xonandalarga kuy rivojini avvalroqdan bildirib beradi va ijrochilarga mos bo‘lgan zaminni yaratib beradi.

Miyonxat.

Miyonxat qismi 2 xatdan iborat bo‘lib kuy rivojini taminlab beradi. Daromad qismida asosiy pardasi *do* pardasi deb yuqorida aytib o‘tgan edik, miyonxat qismiga kelib (vaqtinchalik) tayanch parda kvinta yuqoridagi *sol* pardasiga ko‘chiriladi.

4-misol

76 Qizlar
Ma sho - ta-i sun ung durur ul-
83 Yigitlar
kim_ na - fašch ra kun ko'z-gu - si aq - shom ku - li
90

Nota misollarida ko‘rinib turibdiki ayol va erkak xonandalar ketma-ketligda ijro etadilar. Miyonxatda ham Ushshoqning lad xususiyati saqlanib qolinganligini *si bemol* tovushi namoyon qilib turadi. Miyonxatning keyingi tuzilmasi yuqori ikkinchi oktava *re* pardasida boshlanadi. Asta sekinlik bilan har bir pardaga oz bo‘lsada to‘xtab, so‘ngra (vaqtinchalik) tayanch pardaga qaytib tushadi. Ushbu qism nihoyasiga yetgandan keyin, 4 taktli cholg‘u kuyi baland ovozda yangraydi va bu qisqa tuzulmada go‘yo asosiy parda hisoblangan *do* tovushini takiblab o‘tadi.

Qisqacha kuy bayonidan so‘ng, dunasr qismi boshlanadi.

Dunasr.

Dunasr qismi baland pardalarda ya‘ni 2-oktava *fa* tovushidan namoyon bo‘ladi. Dunasr dastlab aytib o‘tilgan daromad va miyonxat kabi 2 xatli ko‘rinishga ega emas. Aksincha uning tarkibi kichikroq tuzilmaga ega ya‘ni 1xatli ekanligi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari lad jihatidan ham yuqoridagi qismlardan tubdan farq qilib, asosiy laddan ikkinchi ladga o‘tgan. Buni quyidagi misolda ko‘rishimiz mumkin:

5-misol

447
Sunun_ qi - li - bon subx ni ul na -

121
-vi mu - shabi - d(a) Kim mehr_ o' - ti__ og'

127
-zi - an e - tar___ har na - fas__ in - sho O -

134

Ushbu misolda *si bekar* va *lya diyez* pardalari namoyon bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin. Tovushlarning o‘zgarishi *Do-miksolidiy* ladidan *Do-doriy* ladiga o‘tganligini ko‘rsatib beradi. Asar rivojlangani sari uning jozibasi, tinglovchiga bo‘lgan ta’siri tobora ortib boradi. Bastakor “Saraxbori Ushshoq” ashulasini bastalash jarayonida namudlar tizimidagi 2 namud ohanglariga murojat qiladi. Dastlab Muhayyari Chorgoh namudi ohanglari keyin esa Uzzol namudi ohanglarining ijro etilishi asarni yanada mukammallashtiradi.

Katta Avj.

Har bir ashulaning eng yuqori pardalardagi ijro namunalari “*avj*” deb yuritilishi barchamizga ma’lum. Avj haqida so‘z yuritilar ekan avvalo Farg‘ona-Toshkent ashula yo‘llarining betakror avjlari, keng diapazoni ko‘z oldimizda gavdalanadi. “Saraxbori Ushshoq” ham o‘ziga xos bo‘lgan avj qismiga ega.

6-misol

Go'

208
yo ki jon og'zi ulo't hir qa - tin - din kim

214
yo - ri ma an jum - din o' - lur. o - v.

Mazkur nota namunasidan ma’lumki bu ajvni kuylash uchun ijrochilarga professionallik, katta tajriba va mahorat kerak bo‘ladi. Katta

avj yuqori 2-oktava *lya* tovushidan boshlanib, kuy asta-sekin pastga tomon harakatlanuvchi hanglarga ulanib ketadi. Hanglar ijro etilish jarayonida asosiy parda tomon intiladi va yakunlovchi qism ya'ni furovardga olib boradi.

Furovard.

Furovard qismi “Saraxbori Ushshoq” asariga yakun yasaydi va undan so‘ng birin-ketin keluvchi I-II-III-taronalari ijro etiladi.

Ushshoq aro, yo rabki, Navoiyg‘a maqome

Bergilki, sening hamdinga bo‘lsun tili go‘yo.

So‘zlari bilan yakunlovchi qism kuylanadi va erkak va ayol xonandalar hamnafasligida tayanch tovush *do* pardasiga boshlovchi hanglar asar asosiy pardaga qaytishi bilan yakulashadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki o‘zbek milliy musiqa san’atining ravnaqi xususan maqomlarni rivojlanishida maqom yo‘llarida yozib kelinayotgan asarlarning o‘rni beqiyosdir. Hofiz va bastakorlarning maqom yo‘llarida yozilgan bir qator namunalari orasida Mahmudjon Tojiboyevning “Saraxbori Ushshoq” asari o‘zining dilbar ohangi, lad asosi hamda xarakterining ushshoqqa xosligi bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. I. Rajabov “Maqom asoslari” Toshkent. 2019-y
2. “Rajabiyxonlik” ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Toshkent. 1994-y
3. Ch. Ergasheva “O‘zbek mumtoz musiqasida nazira an‘analari” Toshkent 2022-y

KASBIY PEDAGOGIKADA MAQOM USULLARIDAGI RITMIK MASHQLAR

(Fortepiano ijrochiligi misolida)

Sevara BAHRIDINOVA,

*O‘zDK, “Vokal va cholg‘u pedagoglarini tayyorlash”
ta‘lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi.*

Ilmiy rahbar: Gulnoza VOHIDOVA,

*O‘zDK, “Vokal va cholg‘u pedagoglarini tayyorlash” kafedrası
katta o‘qituvchisi.*

Annotatsiya: *Ushbu maqola kompozitorlik ijrochiligini rivojlantirish maqsadida fortepiano yo‘nalishi o‘quvchilari uchun maqom usullaridan foydalangan holda ritmik mashqlarni o‘rgatish mavzusida tayyorlandi, maqolada nota ko‘rinishida namunalar ko‘rsatilib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlari: *Maqom, ritm, o‘lchov, parda, saraxbor, tasnif, saql, usul, ufor, savt, aytim yo‘li, cholg‘u yo‘li, shashmaqom.*

O‘zbek milliy mumtoz musiqasi me‘rosining ajralmas qismi bo‘lgan maqomlar bir necha asrlardan buyon rivojlanib kelmoqda. Maqom arabcha so‘z bo‘lib o‘rin, joy, tovush, parda, daraja kabi bir qator ma‘nolarni anglatadi. “Musiqqa islohidada esa maqom-musiqqa cholg‘ularida kuy va ashulalarni tashkil etadigan tovushlarning joylashadigan o‘rni, ya‘ni pardalardir. Hozirgi kunga qadar maqom kuy va ashula yo‘llari turkumi ma‘nosini ifodalab kelmoqda.[1.63-64-b]Maqomlarga oid nazariy va musiqiy estetik masalalar Abu Yusuf Yoqub ibn Ishoq al-Kindiy va Forobiy (9—10-asr), Ibn Sino va Ibn Zayla (11-asr), Safiuddin al-Urmaviy (13-asr), Mahmud ashSheroziy va Abdulqodir Marog‘iy (14-asr), Jomiy va Zaynulobiddin Husayniy (15-asr), Najmiddin Kavkabiyy (16-asr), Darvishali Changiy (17-asr) va boshqa olimlarning musiqiy risolalarida bayon etilgan. Yaqin va O‘rta Sharq mumtoz musiqqa nazariyasida 13-asrga qadar maqomlar soni aniq belgilanmagan. Safiuddin al-Urmaviy maqom nomlaridagi parda tuzilmalarini ilmiy tasniflab, O‘n ikki maqom tizimini ishlab chiqqan. Ushbu tizim birmuncha takomillashtirilgan holda qariyb 17-asrga qadar qo‘llanib kelingan. O‘n ikki maqom tizimining Turkiston zaminidagi qariyb to‘rt

asrdan ziyod rivoji davomida maqomotning yangi turlariga asos solindi. XVIII asr o'rtalariga kelib esa Buxoroda Shashmaqom tizimi uzil-kesil shakllandi va XIX asrning birinchi choragiga kelib Xiva shahri saroy madaniyati muhitida Xorazm maqomlari qaror topdi. Shuningdek, Toshkent va Farg'ona vodiysining yirik shaharlari – Qo'qon, Andijon, Farg'ona, Namangan, Xo'jand, Quva, O'sh hamda Chimkent bo'ylab yoyilgan Farg'ona – Toshkent maqom yo'llari ham paydo bo'ldi.[2, 33-34-b]

Hozirgi kunga qadar O'zbekistonda maqom san'ati milliy meros sifatida ardoqlanib kelinmoqda. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 17- noyabrdagi "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori imzolangan edi. Unda maqom san'atini yanada rivojlantirish va uni butun dunyo bo'ylab tan olinishiga imkon yaratish borasida muhim vazifalar belgilab berilgan. Davlatimiz rahbarining 2020 yil 26 maydagi "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, maqom ijrochiligi, baxshichilik va katta ashula yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasasi — Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti tashkil etildi. Ayni paytda ushbu institut maqom san'ati bo'yicha bilim va tushunchalar, tarixiy va milliy an'analarni puxta egallagan yosh kadrlarni tayyorlab kelmoqda. Bundan tashqari 2020-2021 o'quv yilidan boshlab Toshkent shahri, Farg'ona, Buxoro va Xorazm viloyatlarida tashkil etilgan, maqom san'atiga ixtisoslashtirilgan maktab-internatlari ochildi. Bu maktablar maqom san'atini boshlang'ich bosqichda o'rgatuvchi ilk ta'lim dargohlaridir. Huddi shu yili Madaniyat vazirligi va O'zbek milliy musiqa san'ati instituti tashabbusi bilan "Farzandlarimizni maqomot ila kamolotga eltaylik" shiori ostida o'tkazilgan I respublika ilmiy-amaliy vebinari bo'lib o'tdi. Vebinarda madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov maqom o'qitishdagi muammolar haqida so'z yuritib, ko'plab iste'dodli sozanda va xonandalarning musiqiy savodi yo'qligi ta'lim jarayonidagi og'riqli nuqtalardan biri ekanini ta'kidladi. Bu borada ixtisoslashgan maktab-internatlarda nazariya va amaliyotni yonma-yon olib borish, boshlang'ich ta'lim dargohlari o'zbek milliy musiqasining yadrosi bo'lishi kerakligini ilmiy va hayotiy misollar bilan asoslab berdi. San'atshunoslik fanlari nomzodi, professor, maqomshunos olim Otanazar

Matyoqubov ham “Maqomning ilmi — uning o‘q tomiri, amaliyoti esa yondosh tomiridir” so‘zlarini vebinar ishtirokchilariga izohlab berdi va maqomning amaliyoti har xil shakllarga integratsiya bo‘lsa ham, uning nazariyasi turg‘un va bir xil tamoyil asosida tuzilishi kerakligini alohida qayd etdi. Buxoro, Farg‘ona va Xorazm maqom maktab-internatlarining rahbar va o‘qituvchilari ham so‘zga chiqib, maqom ta‘limi bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalar juda kamligi va bu borada tayanch o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarni yaratish va targ‘ib qilish bo‘yicha mavjud bir qator muammolarni sanab o‘tishdi. Jumladan, Buxoro maqom maktabi o‘qituvchisi Tolib Temirovning “Maqomlarni farzandlarimizga bog‘cha yoshidan o‘rgatib borish, ya‘ni musiqa mashg‘uloti darslarida 5-10 daqiqa “soqiynoma”, “ufor” kabi yengil maqom usullarini qo‘yib berish orqali bolalarimiz qulog‘ida milliy ohanglar va usullarning o‘troqlashishiga erishishimiz mumkin”, degan taklifi bilan chiqdi.[3-bet]

Shu o‘rinda aytish joizki, shu kungacha maqom ta‘limida uning amaliyotiga e‘tibor kuchaytirilib, nazariy tomonlari esa ancha oqsagan edi. O‘zbekistonning barcha viloyat va shaharlarida bolalar musiqa va san‘at maktablari bor va u yerda xalq cholg‘ulari va an‘anaviy cholg‘ular bo‘limi o‘quvchilari milliy musiqamizga oid bastakorlik namunalarini bemalol ijro eta oladi. Biroq o‘zbek kompozitorlik ijodining ijro targ‘iboti juda achinarli ahvolga kelib qolgan. Sababi kompozitorlik bu yevropa janri bo‘lganligi sabab darsliklarning barchasi yevropa uslubida. Fortepiano bo‘limida ta‘lim olayotgan o‘quvchilarning repertuarlarida o‘zbek kompozitorlarining asarlari juda kam ijro etiladi. O‘quvchilar uchun o‘zbekona asarlarning ritmi, ohang va garmoniyalarini ijro etish biroz murakkabdek tuyuladi. Sababi ularning ongida o‘zbekcha ohang va usullarga ma‘lum darajada poydevor yo‘qligi juda og‘riqli masalalardan hisoblanadi. Agar biz o‘quvchilarga ilk saboqlarini berish davomida ularga maqom usullarini ohanga solib chalishni o‘rgatsak ularning ongiga juda katta ta‘sir ko‘rsatgan bo‘lar edik. O‘quvchilarning yoshi va sinfidan kelib chiqqan holda o‘zbek maqomlarida mavjud usullarni notalar yordamida tushuntirib va ijro ettirib borish kerak. Oddiy barmoq mashqlarini bajarish davomida ham maqom usullari va ohanglaridan foydalanishimiz mumkin. Misol uchun saraxbor usullarini olaylik. Saraxbor maqomlar ashula bo‘limining asosiy va bosh mavzuidir. Uning doira usullari boshqa usullarga nisbatan soddaroq va tinglovchiga oson

singiydi. 2/4 o'lchovida yozilgan ushbu usul ikki xil ijro etiladi. Biz aynan shu doira usulidan foydalanib 1-sinf o'quvchilari uchun mashqlar chaldirsak bo'ladi. Masalan:



Bu mashqlar chap qo'l uchun berilgan.



Bu mashqlar esa o'ng qo'l uchun.

Dastlab bu mashqlarni o'zlashtirgandan so'ng esa o'ng qo'l da shu ohang qoladi va chap qo'l unga akkord ko'rinishida jo'r bo'ladi. Masalan:



Bu oddiy usuldagi boshlang'ich mashq edi. O'quvchining ritmik holatini shakllantirish uchun esa quyidagi ko'rinishda mashq bajartirishimiz mumkin.



Bu o'ng qo'l uchun.



Bu esa chap qo'l uchun.

Men bu mashqlarni “tayanch mashqlar” deb nomlagan bo‘lar edim, sababi o‘quvchi buni o‘rganish davomida barmoqlari klaviaturaga joylasha boshlaydi. Bu boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun eng muhim va asosiy jarayondir. O‘quvchining salohiyati va qobiliyatini hisobga olgan holatda sekin asta maqom ohangi va ritmlarini singdirib boramiz. Bu mashqlar saraxbor usuliga tegishli edi. Biz yana Tasnifga ham mashqlar bajarishimiz mumkin. Maqomlarning cholg‘u bo‘limlari Tasnif kuy yo‘llari bilan boshlanadi. 2/4 yoki 4/4 o‘lchovidagi doira usulidan foydalanib quyidagicha mashqlar chaldirsak bo‘ladi.



Bu mashqlardan tashqari men yana o‘zbek va tojik xalqlari orasida keng tarqalgan va ko‘pchilikga tanish bo‘lgan soqiynomaga misol keltirmoqchiman. Soqiynoma maqom ashula bo‘limi 2-guruh sho‘basiga kiruvchi savtlarning shahobchalaridan biridir. Soqiynomalarning takt-ritm o‘lchovi 4/4 bo‘lib ijroda unchalik murakkablik tug‘dirmaydi.



Bu mashqlarni barchasini biz boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘rgatsak bo‘ladi.

Yuqori sinf o‘quvchilari uchun esa biroz murakkablashgan va milliy ohanga ega kuylar ko‘rinishida o‘rgatishimiz mumkin. Misol uchun Shashmaqom ashula bo‘limining ikkinchi guruh sho‘basi shahobchalariga kiruvchi Ufar usullariga misol keltirish mumkin. 3/4 yoki 6/8 sur’atda ijro etiladigan ushbu ufar yuqori sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallanganligini sababi u ritmik jihatdan biroz murakkabroq.

Ushbu mashqni davomli ravishda 1 ton ko‘tarilgan holda davom ettirishimiz ham mumkin. Huddi gamma singari o‘quvchi takror-takror ijro etadi faqat bir ton yuqoriga ko‘tarish natijasida. Masalan:

Bu ham huddi yuqoridagi singari ijro etiladi.

Hozir bir nechta usullarga qisqacha misollar keltirib o‘tdim. Buni davom ettirishimiz mumkin yana.

Biz o‘quvchilar bilan ilk darslarni shu kabi milliy usul va ohanglarimizdan foydalangan holda boshlasak, kelajakda ular o‘zbek kompozitorlik ijrodidagi asarlarni ijro etishda mukammallikka erisha oladi. Biz aynan maqomning har bir guruh sho‘basi yoki cholg‘u bo‘limlarini o‘rgata olmasamiz ammo o‘quvchiga milliy musiqamiz ritmi va malodiyasini singdira olishimiz mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rajabov I. Maqomlar. T., 2006.
2. Ibragimov.O. Maqom asoslari. T., 2018.
3. Internet tarmoqlari: R.Madiyeva “Maqomning mangu mo‘jizasi” 2020.

ADVORI MEZON VA AVZONI RUKNLARI

(Talqini Uzzol sho‘‘basi misolida)

Hadicha MAMADALIYEVA,

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMMSI,

San‘atshunoslik: (musiqashunoslik) ta‘lim yo‘nalishi

3-kurs talabasi.

Ilmiy rahbar: Laylo DJURAYEVA

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi

*“O‘zbek musiqasi tarixi” kafedrasi katta o‘qituvchisi,
san‘atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD.)*

Annotatsiya. Ushbu maqolada aruz nazariya va musiqaning bir-biriga bog‘liq jihatlari atroflicha o‘rganilgan. Talqini Uzzol sho‘basining g‘azalini aruz ruknlari bo‘yicha tahlili keltirilgan bo‘lib, nota namunalari ham kiritilgan.

Kalit so‘zlar. Aruz, advor, avzon, rukn, maqomlar, shashmaqom, asliy, fariy, Alisher Navoiy, g‘azal, atonin, afoil, Talqini Uzzol, mujtaliba talqin, milliy musiqqa.

Aruz nazariyasi ko‘p yillik asrlardan buyon murakkabligi bilan o‘z o‘rniga ega Yaqin va O‘rta Sharq xalqlarining she‘riy tizimidir. “Aruz” arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, “arz qilmoq” degan ma‘noni anglatadi. Shunga asosan “Aruz” so‘zining ko‘plab lug‘aviy ma‘nolari bor. Adabiy istiloh sifatida ularning qay biri asos qilib olingani aniq emas. Bu borada olim va ijodkorlar tomonidan bir-biridan tubdan farq qiluvchi bir qancha fikrlar bildirilgan. Ulardan: 1.Vodiy nomi. 2. Makka shahrining nomlaridan biri. 3.Taraf, jihat, mintaqa, yon. 4. Bulut. 5. Sarkash tuya. 6. Chodirning o‘rta ustuni. 7. O‘lchov.” [1.7]

Aruz nazariyasi turkiy xalqlarga, xususan o‘zbek she’riyatiga arablardan kirib kelgan. Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon” asarida ko‘rsatilishicha aruz “vodiy”, “rukn” nomiga to‘g‘ri keladi, ko‘chma ma’noda “ustun” degan ma’noni anglatadi. Aruz nazariyasi ilk bor filolog, lug‘atshunos olim, yetakchi grammatik, aruz ilmi asoschisi Xalil ibn Ahmadning “Kitob al-aruz” kitobida bayon qilingan, keyinchalik Rashididdin Vatvot, Tusiy, Shams Qays Roziy, Mavlono Yusuf Aruziy Nishoburiylar tomonidan rivojlantirilgan. Turkiy xalqlarda aruzning ilk namunalari islom kirib kelgungacha bo‘lgan davrlardagi qadimgi maqol va topishmoqlarda, “Devonu lug‘atit-turk” kitobida uchragan. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig‘” asari shu vaznda bitilgan turkiy doston hisoblanadi.

Aruzning nazariy qismi bilan tanishar ekanmiz, aruz vazni tuzilishi jihatidan ikkiga bo‘linadi. Birinchisi Asliy zarb doiralari, ikkinchisi Fariy zarb doiralari. Bularning har biri o‘zining ichki tuzilishiga ega bo‘lib, Asliy zarb doiralari chuqurroq yondashilgan holda, ushbu zarb doiralari uchta doiradan iborat.

1. Mutalifa – (7/8 o‘lchovda tuziladi)
2. Mujtaliba – (7/8 o‘lchovda tuziladi).
3. Munfarida yoki (Muttafiqa) – (4/8 o‘lchovda tuziladi) deb nomlanadi.

Jami Asliy zarb doiralarida o‘n ikkita advor mavjud. Ulardan yettitasi faol advorlar hisoblanadi. Advor – arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, “davr” degan ma’noni anglatadi. She’riyatda vaznning o‘lchov birligini “baytlar” tashkil etadi. Aruz nazariyasida bayt – “o‘lchov birligi” ya’ni “ikki misra”dir. Misralarda arkon tuzilishi bir xil sonda keladi. Arkon bu – “rukn” demakdir. Aruz nazariyasi va she’riyatda doira – “davoir”, vazn – “avzon” deb yuritiladi. Mezon – arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, “tarozi”, “o‘lchov”, “qolib” degan ma’nolarni anglatadi. Mezon so‘zi musiqada “takt”ni bildiradi. Vazn bu – “zarb”, “ritm” demakdir. Ketma-ket tanosubida kelgan tizim sadolanishini “vazn” deyiladi. Ya’ni, vazn kuchli va kuchsiz zarb hissalaridan iboratdir.

Rukn – arabcha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida “ustun” deganidir. Aruz tizimida esa ma’lum bir hijolarning birikuvidan hosil bo‘ladigan ritmik bo‘lak hisoblanadi. Masalan; bir cho‘ziq, bir qisqa hijolar birlashsa, bir butun rukn vujudga keladi.

Jon fidong bo‘lsun, g‘amim sharhidin og‘oz aylasang.

“Alisher Navoiy aruz nazariyotchisi sifatida o‘zbek she‘riyatida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan yoqimli, musiqiy bahr hamda vaznlar belgilab bergan va ularning ritm-ohang imkoniyatlarini ko‘plab misollar bilan isbotlab ko‘rsatgan. Aruz bahrlarining o‘zbek xalq qo‘shiqlari vaznlarining yozma ijodda foydalanilishi mumkin bo‘lganlarini ko‘rsatib o‘tgan. Shu bilan birga shoir mumtoz she‘riyatimizda keng qo‘llanilgan bahrlarga, ularning eng xalqchil, serjilo, ohangdor, musiqiy vaznlariga alohida e‘tibor bilan qarab, aksariyat lirik she‘rlarini ular asosida yaratgan. [5.113]

Mazkur g‘azal matla baytini hijolarga bo‘lib, atonini va afoilini aniq qilib yozilganligini bilan quyidagi jadvalda kuzatish mumkin.

—	V	—	—	—	V	—	—	—	V	—	—	—	V	—
Fo	i	lo	tun	fo	i	lo	tun	fo	i	lo	tun	fo	i	lun
(ta n)	(n a)	(ta n)	(na n)	(ta n)	(n a)	(ta n)	(na n)	(ta n)	(n a)	(ta n)	(na n)	(ta n)	(n a)	(ta n)
Ey	m	g‘a	niy	Yo	ri	ba	mi	da	N		soz	ay	la	san
	u	n				z			a					g,
Jo	fi	do	bo‘	Su	g‘	mi	sh	hi	Di	o	g‘o	ay	la	san
n		ng	l	n	a	m	ar		n		z			g.

Atonini: ***Tan – na – tan – nan***

Afoili: ***Fo – i – lo – tun***

<i>№</i>	<i>Advor</i>	<i>Faol davr nomlari</i>	<i>Advorning zarb tuzilishi va atonin aytilishi</i>	<i>Advorning vazn tuzilishi as afoil aytilishi</i>
1	1-davr	Solimi Ramal	tan-na-tan-nan	— V — — <i>fo-i-lo-tun</i>

Talqini uzzol sho‘‘basi talqin doira usuliga to‘g‘ri kelib, aruzning asliy zab doiralaridan “**Mujtaliba**” doirasi va uning “**Ramal**” faol davrida yozilgan. Yuqorida keltirib o‘tilgan tahlillardan kuzatish mumkinki, Talqini Uzzol sho‘‘basi aruz vazniga qay darajada to‘g‘ri ekanligi asoslangan.

Talqini Uzzol

$m . m . \text{J} - 152 = 160$
 $m . m . \text{J} - 88 = 92$

e mu - g`a - niy yo - r(i)
 baz - mi - da na - vo_ soz ay - la - sang jon fi - dong bo`l - sun, g`a
 mim ghar - mi - qin o - E, ox g`a - ja - ghar (o)

Darhaqiqat, maqom ashula yo'llari qaysi uslubda ijro etilmasin, uning mazmuni va shakli ashula ruhiga mos kelishi shart. She'riy vaznlarning ham o'z tabiati mavjud bo'lib, ko'pincha maqomlarning usullari vaznlar mazmuniga zid kelishi kuzatiladi. Masalan, ramal yengil vazn, unda o'ynoqilik, sho'x kayfiyat ustun. Lekin, talqincha, qashqarcha, saraxbor kabi og'irroq sho'balarga uning vazni mos keladi. Alisher Navoiy ijodini jumladan uning aruzi va maqomlarimizdagi doira usul ritmini izchil tadqiq etgan musiqashunos L.Jo'rayeva quyidagi xulosaga kelgan. "Buzruk maqomidagi Uzzollar ohangi jihatidan deyarli farq qilmaydi, ya'ni Talqini Uzzol va Nasri Uzzol sho'balari intonatsion bir-biriga yaqin bo'lib, asosiy farq – doira usulidadir. Shuning uchun ham Talqinlarga ramal, Nasrlarga hazaj vaznlaridagi g'azallar mos tushadi".[5. 115]

Xulosa qilib aytganda aruz murakkab vazn bo'lib, uni hozirgi kunda maqomlardagi o'rnini tahlil qilish va yosh ijodkorlarga mutaxassis ustozlar tomonidan o'rgatilib kelinayotganligi quvonarlidir. Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati institutida "Aruz va musiqa" fanidan dars berib, faoliyat olib borayotgan professor Abduvali Abdurashidovning talaba yoshlarga berayotgan bilmi va salmoqli mehnatlari kelajak yoshlarni maqom san'atining mutaxassisi bo'lishlariga katta yordam bermoqda. Shuni aytish joizki, milliy musiqalarimizning nafaqat ijrochiligini, balki nazariy ichki tuzilishlarini ham amaliyotda teran idroklagan holda to'laqonli o'rganib, kelajak avlodga meros qilib

qoldirish oldimizga qo‘ygan maqsadlardan biridir. Milliy musiqamizning ravnaq topishi, yashnashi, yanada ko‘p asrlargacha rivojlanishi xalqimizning tafakkuriga bog‘liqdir. Bugungi kunda maqom san‘atiga berilayotgan e‘tibor, kelajakda milliy merosimizni yanada yuksak cho‘qiga olib chiqilishidan dalolatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yusupova D. Aruz va Mumtoz poetikaga kirish.. Toshkent - 2020
2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent – 2000-2005.
3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent – 2000-2005
4. O‘zbek maqomlari. Shashmaqom. Yunus Rajabiy. Toshkent – 2007.
5. Djurayeva L. Alisher Navoiy va musiqa. San‘atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi qo‘lyozmasi. – Toshkent. 2021.

FARG‘ONA-TOSHKENT MAQOM CHOLG‘U YO‘LLARINING TURKUMLANISH MASALASIGA DOIR

(Mushkiloti Dugoh turkumi misolida)

Nozimaxon QOBULOVA,

*O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasi,
San‘atshunoslik: (musiqashunoslik) ta‘lim yo‘nalishi
3-kurs talabasi.*

Ilmiy rahbar: Shaxnoza AYOXODJAYEVA,

*O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasi,
“O‘zbek musiqasi tarixi” kafedrasi dotsenti,
san‘atshunoslik fanlari nomzodi.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Benazir musiqiy xazinalardan biri, o‘zbek maqomotining uchinchi asosiy turi bo‘lmish Farg‘ona-Toshkent maqomlari, xususan, cholg‘u yo‘llarining turkumlanish masalasi Mushkiloti Dugoh turkumi orqali bayon etiladi. Asarlarning tahlilijarayonlari to‘liq ochiqqlanadi. Turkumlanish masalasi shuningdek, Mushkiloti Dugoh turkumiga jam bo‘lgan asarlarning o‘zaro bog‘liqlik hamda farqli jihatlari haqida so‘z boradi. Shu bilan birgalikda, Shashmaqom hamda Farg‘ona-Toshkent maqom cholg‘u yo‘llari o‘rtasidagi tavofutlarga e‘tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: Mushkiloti Dugoh, Mushkiloti Dugoh talqinchasi, Ufar I, Ufar II, turkumlanish, xona, bozgo‘y.

Ko‘p asrlik tarixning guvohi, ilm-u ma‘rufning yuksak qiyosi bo‘lgan maqomlar - mumtoz musiqamizning muhim poydevoridir. Uning zamirida necha –necha ijod mahsullari dunyo yuzini ko‘rdi. Ijod ahli bor-ki, maqom san‘atidan bohabar bo‘lib, o‘z ijodiy namunalarida ham asl san‘atning sarchashmasidan andoza olib kelmoqda. Jumladan, mavzuyimizning asosi bo‘lmish Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari ham uzoq tarixiy bosqichlardan birma-bir o‘tgan milliy mumtoz merosimizning ajralmas qismidir. Aynan Farg‘ona-Toshkent maqomlari haqida so‘z borar ekan, albatta uning tarixiy rivojlanish pog‘onasidan boshlab ko‘rib chiqishimiz maqsadga muvofiqdir. Ya‘ni O‘n ikki maqom, Shashmaqom va Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari, ulardagi

o‘xshash hamda farqli taraflarini imkon qadar yoritishga harakat qilamiz. Farg‘ona-Toshkent maqomlari “O‘n ikki maqom” tizimidan oldinroq paydo bo‘lgan turkumli asarlarga borib taqalishi haqida ma‘lumotlar bor. Jumladan, R.Yunusovning “O‘zbek maqomlari” kitobida ushbu mazmundagi quyidagi fikrlar ilgari suriladi: “Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llarining shakllanish ildizlari o‘rta asrlarda mashhur bo‘lgan “O‘n ikki maqom” tizimi, hatto undan ham oldinroq paydo bo‘lgan bir qisimli va turkumli asarlarga borib taqaladi” [3. 45-b]

Shunisi e‘tiborliki, Farg‘ona-Toshkent maqomlari Shashmaqom hamda Xorazm maqomlaridan farqli o‘laroq, yaxlit turkum ko‘rinishida emas, balki alohida-alohida, turkumli va turkumsiz asarlar tarzida bizgacha yetib kelgan. U xalqchilligi, tuzilish jihatidan oddiyliigi, erkinligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, maqomshunos O. Ibrohimov Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llarini “tarqoq” tizim shaklida namoyon bo‘ladi [1. 114-b],- deya ta’rif berganlar.

Shuningdek, Farg‘ona-Toshkent maqomlarining cholg‘u yo‘llari ham avvalgi ikki turkum (Shashmaqom va Xorazm maqomlari)dan farqli o‘laroq, bir qismlidan besh qismligacha bo‘lgan cholg‘u kuylaridan iborat. Jumladan, Mushkiloti Dugoh asari turkumli cholg‘u yo‘llaridan o‘rin olgan asarlar qatoriga kiradi. Chunki, Mushkiloti Dugoh turkumi tarkubida uning talqinchasi, ufar I, ufar II kabi qismlari mavjud.

Mushkiloti Dugoh cholg‘u yo‘lining avvalo ifodaviylik jihati haqida oz bo‘lsa-da to‘xtalsak, tinglaganimizda takrorlanib turuvchi aylanma kuy yo‘lining harakati yaqqol namoyon bo‘ladi. Shuningdek, kuy oqimi bir-birini to‘ldirgan holatda tasvirlanadi. Notalar ketma-ketligi ham zich joylashgan, sakrashlarga kelsak, kvarta, kvinta doirasida bo‘lgan. Bu jihat aynan o‘zbek milliy navolariga xos xususiyatdir.

Shuningdek, xonalar doimiy o‘zgarishlarsiz takrorlanib keladigan kuy oqimi ya’ni bozgo‘yga tayanib turganligi ma’lum bo‘ladi. Mushkiloti Dugoh re eoliy ladiga asoslanadi. Asar olti xona, olti bozgo‘yning jamlanmasini tashkil etadi.

Mushkiloti Dugoh

Usul bo‘yi cha	1-xona	Bozg o‘y	2-xona	Bozg o‘y	3-xona	Bozg o‘y	4-xona	Bozg o‘y	5-xona	Bozg o‘y
----------------	--------	----------	--------	----------	--------	----------	--------	----------	--------	----------

tuzilmalar										
Lad tarkibi	Reoliy									
Jumlaning boshlanish tovushi	A1	D1	D1	D1	C2	D1	D2	D1	F2	D1
Tayanch tovush	D1	D1	D1	D1	D1	D1	D1	D1	D1	D1
Tovush ko'lamini	C1-a1	C1-h1	D1-c2	C1-h1	D1-c2	C1-h1	D1-e2	C1-h1	D1-f2	C1-h1
Usul	4 takt									

Usul bo'yicha tuzilmalar	6-xona	Bozgo'y
Lad tarkibi		
Jumlaning boshlanish tovushi	D1	D1
Tayanch tovush	D1	D1
Tovush ko'lamini	D1-g2	C1-h1
Usul	4 takt	

Asarning 1-xonasi to'rt taktli doira usuli bilan boshlanadi. Nisbatan tayanch bo'lgan "lya" tovushida ijro yangrashni boshlab, asta-sekin pastlama kuy harakati bilan asosiy tayanch tovushni tasdiqlaydi.

Xonadagi kuy cho‘zimlarining turliligi (kuchli hissadagi pauzalarning kelishi) asarning tobora rivojlanishiga ko‘mak beradi:



So‘ngra qoidaga ko‘ra bozgo‘y qismi yangraydi. Bu qismda sakrama harakatlarning mavjudligi hamda bozgo‘y qismini ikki marta takrorlanishini ko‘rish mumkin. Shuningdek, 4 taktdan iborat bo‘lgan bog‘lovchi kuy bo‘lagi ham ijro etiladi. Bu ikki takroriy bo‘lakni bog‘lash uchun xizmat qiladi:



Rivojlanuvchi kuy bo‘lagi ya‘ni 2-xona 1-xonaga nisbatan kvinta pastda yangrashi bilan farqlidir. 2-xonada kuchli xissaga to‘g‘ri keladigan pauzalarning soni ortadi, bu kuy yo‘lini yuqorilama va pastlama harakatlardagi ildam rivojini anglatadi:



Bozgo‘y 1-xonada ikki marta yangragani singari butun asar davomida ham takroriy ketma-ketlikda ijro etiladi.



Bozgo‘y asosiy tayanch tovushda yakunlanib, seksta intervaliga sakrashi bilan 3-xonaning kuy bo‘lagi yangraydi. Shuningdek, xona 8 takt davom etsa ham ushbu xonada bog‘lovchi qismning kuy jumlasiga o‘xshash 2 taktli kuy bo‘lagi yangraydi:



So‘ngra xona va bozgo‘yni o‘rtasida bog‘lovchi vazifasini bajarayotgan to‘rt taktli kuy tuzilmasi to‘liq ijro etiladi. Bu kuy tuzilmasini xona yoki bozgo‘yning yakunlovchi qismi sifatida qarash maqsadga muvofiq emas. Chunki xona va bozgo‘yning qismlariga o‘xshamasligi uchun uni bog‘lovchi qism deb nomlashga sabab bo‘ladi:



Bundan keyin yana bozgo‘y takrorlanadi. Asarda doimiy bozgo‘ydan keyin bog‘lovchi kuy jumlasini yangraydi.



Navbatdagi rivojlanuvchi kuy bo‘lagi 4-xona dastlabki xonaning bir oktava yuqoridagi takrori (dunasr) bo‘lib, u sezilarli darajada kengaytirilgan bo‘lib, tayanch tovushlarning o‘zgarishini ham ko‘rish

mumkin. Ushbu xona ikki rivojlangan kuy bo‘lagidan tashkil topgan bo‘lib, birinchi kuy jumlasini asosiy tayanchni mustahkamlagan holda ikki marta takrorlanadi. Ikkinchi kuy bo‘lagining so‘nggi jumalari esa bog‘lovchi qismni eslatadi.



4-xonadan so‘ng kelgan bozgo‘y qismi kvarta intervaliga sakrash yo‘li bilan 4 taktdan iborat bog‘lovchi kuy jumlasiga qo‘shilib, bozgo‘y qismini ikki marotaba takrorlaydi. Asosiy tayanch tovushni mustahkamlagan holatda yangi rivojlanuvchi kuy bo‘lagiga zamin yaratadi.



Navbatdagi 5-xona sezilarli darajada katta sakrash bilan boshlanadi. (nona intervaliga sakrash) Ushbu xonada kuchli xissalarga pauzalarning kelishi kuy rivojini tobora sayqallab boradi. Xonaning yakuni esa bog‘lovchi kuy jumlasini bilan yakunlanadi:




So‘ngra qoidaga binoan bozgo‘y qismi takroriy holatda yangraydi. Bozgo‘yning asosiy tayanch tovushda tugashi bilan yangi xona ijro etiladi.



6-xonaga o'tish oldidan katta intervalga sakrash bilan kuy jumlasini ijro etiladi. Bu asarning avj qismi bo'lib, xonaning yakunida sakrama harakatlar orqali yangraydi:



Bozgo'ydanda oldin yana avvalgi to'rt taktli bog'lovchi qism 1-oktava yuqorida ijro etiladi.



Mushkiloti Dugoh asarining yakunida bozgo'y ikki marotaba takrorlangan holda yangraydi. Shuningdek, takroriy bozgo'y o'rtasida bog'lovchi qismning kuy jummalari ham birgalikda ijro etiladi:



Mushkiloti Dugoh turkumining navbatdagi asari Mushkiloti Dugoh talqinchasi bo'lib, asar Mushkiloti Dugoh asosida yaratilgan va uning varianti sifatida yangraydi. Shuningdek, Mushkiloti Dugohdan andoza olgan holda ijro etiladi. Mushkiloti Dugoh Talqinchasidagi xona va bozgo'ylarning miqdori, ketma-ketlikdagi ijrosi Mushkiloti Dugohning kuy tuzilishidan umuman farq qilmaydi. Asardagi bog'liqlik hamda takroriy, o'xshash kuy jummalarining mavjudligi haqida gapirar ekanmiz, Talqinchaning bozgo'y qismidagi kuy yo'liga bunday ta'rif bera

olmaymiz. Chunki Mushkiloti Dugohda bozgo'y takroriy holatda shuningdek, bog'lovchi qism bilan birgalikda ijro etilsa, Talqinchada aksincha, bozgo'y qismlari qisqartirilgan, lekin xonalarning bir necha marta takrorlanganini kuzatish mumkin.

Shuningdek, Mushkiloti Dugohning kuy jumalari aynan Mushkiloti Dugoh talqinchasida biroz o'zgartirilgan ya'ni ba'zan cho'zimlari qisqargan holatda, ba'zan esa aksincha kuy cho'zimlarini kengaytirgan holatda namoyish etiladi.

Farg'ona-Toshkent maqom yo'llaridan yana biri Mushkiloti Dugoh Ufori I asaridir. U 4 xona 3 bozgo'ydan iborat bo'lib, re miksolidiy ladida ijro etiladi. Ushbu asar kuy harakatida ham sakrashlar mavjud. Aynan kuy jumalarining yakunlanib, navbatdagi xonaga o'tishida kvarta intervaliga sakrashi nisbatan ko'p kuzatiladi.

Mushkiloti Dugoh Ufori I asari avvalo usul jihatdan hamda xona va bozgo'ylarining ketma-ket teng taqsimdagi hajm bilan ijro etilishi orqali farqlanadi. Asardagi kuchli hissaga qo'yilgan pauzalar kuyga doimiy ildamlilik, rivojlanish uchun yo'l ochadi. Mushkiloti Dugoh Ufori II asarining kuy asosi Mushkiloti Dugoh Ufori I ga juda yaqin. Asarning lad-parda uyushmasi ham bir-xil, u re miksolidiy ladiga mos keladi. Ammo xona va bozgo'ylarning miqdori o'zaro farqlanadi. Mushkiloti Dugoh Ufori II asari 4 xona va 2 bozgo'ydan iboratdir. Qismlar o'rtasidagi farqli jihati shuki, Ufar I da xona ya'ni rivojlangan kuy bo'lagi bilan asar boshlangan bo'lsa, Ufar II da esa bozgo'y qismi bilan boshlanadi. Yuqoridagi asarlarning bozgo'ylari 3 xil holatda bayon etiladi. Ya'ni Mushkiloti Dugohning bozgo'yi takroriy holatda ijro etilib doimiy bog'lovchi qism bilan yonma-yon yangraydi. Mushkiloti Dugoh Talqinchasining bozgo'yi esa qisqartirilgan holatda hech qanday bog'lovchi jumalarsiz yangraydi. Bu ikki asarning asosiy tayanch tovushlari, nisbatan tayanch tovushlari, sakrashlar bilan xonalarning boshlanishi, o'xshash kuy jumalarining mavjudligi, xona va bozgo'ylarning teng miqdori asarning birlik ildizini namunasidir.

Tahlillar asnosida kuzatilganidek, Mushkiloti Dugoh asarining asosida uning tarkibiy qismlari yaratilgan. Shuningdek, turkumlanish jarayonida asarlar o'rtasidagi bog'liqlik jihatlari yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu jarayon Mushkiloti Dugoh turkumida quyidagicha aks etadi: Mushkiloti Dugohning kuy jumalari qolgan asarlar ya'ni talqincha, ufar

I, ufar II asarlarining kuy yo‘llarida doimiy ravishda yangraydi. (qisqargan, takroriy holatlarda) Mushkiloti Dugohning bozgo‘y qismi bog‘lovchi bo‘lak bilan takrorlansa, uning talqinchasida farqli o‘laroq xonalarning kuy jumalari takroriy holatda yangraydi. Mushkiloti Dugoh Ufar I va Ufar II asarlarining lad pardalar uyushmasida o‘ziga xoslik kuzatiladi. Jumladan, asosiy asar Mushkiloti Dugoh re eoliyda bo‘lsa, uning tarkibiy qismlari nomdosh re miksolidiy ladiga mos keladi. Natijada, Mushkuloti Dugoh turkumi yaqqol namoyon bo‘ladi. Ushbu asar turkumdagi asarlar uchun andoza vazifasini bajaradi.

Mushkiloti Dugoh cholg‘u turkumini o‘rganar ekanmiz, beixtiyor Shashmaqom cholg‘u bo‘limi bilan taqqoslab, o‘zaro farqli va o‘xshash jihatlariga e‘tibor qaratamiz. Bu holat ularning nomlanishida ham kuzatiladi. Jumladan, Mushkilot Shashmaqomning butun cholg‘u bo‘limi nomini anglatsa, Farg‘ona-Toshkent maqom cholg‘u yo‘llarida bu nomlanish faqat bir turkumli asar nomi sifatida keladi. Ma‘lumki, Talqincha Shashmaqom tarkibida muayyan shaxobchaning nomi bo‘lsa, Farg‘ona-Toshkent maqom cholg‘u turkumining tarkibiy qismidir, shuningdek, Ufar nomli qism Shashmaqom ashula bo‘limining rasmiy yakunlovchi qismi sifatida kelsa, Mushkiloti Dugohda mazkur cholg‘u turkumini tugallovchi asar bo‘lib keladi. Bundan xulosa shulki, Farg‘ona-Toshkent maqom cholg‘u yo‘llarining yaratilishida maqomdon bastakorlar o‘ziga xos tarzda yondashib, betakror asarlar yaratishga erishganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ibrohimov O. “Maqom asoslari”. “TURON-IQBOL” Toshkent 2018.
2. Matyoqubov O. “Maqomot”. “Musiqqa” nashriyoti. Toshkent 2004.
3. Yunusov R. “O‘zbek maqomlari”. Toshkent 2018.

KOMPOZITOR SHERZOD SOBIROVNING UVERTYURASI HAQIDA

Marjona SULTONOVA,

O‘zDK, San’atshunoslik: (musiqashunoslik)

ta’lim yo’nalishi 3 kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Chinora ERGASHEVA,

*O‘zDK, “O‘zbek musiqasi tarixi” kafedrasi dotsenti,
san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya: Mazkur maqolada kompozitor Sherzod Sobirovning simfonik ijodida alohida ahamiyat kasb etgan uvertyurasi haqida so‘z boradi. Shuningdek, asarning shakl, kuy va garmoniya tomonidan tahlili ham keltirilgan.

Kalit so‘zlar: uvertyura, simfoniya, pyesa, cholg‘u, shakl, ekspozitsiya, rivojlov, repriza, tonallik, ritm, kuy yo‘li.

Asar tahlilini boshlashdan avval “uvertyura” janrining mazmuniga e’tibor qaratishimiz lozim. Uvertyura – cholg‘uli kirish so‘zi bo‘lib, parda ko‘tarilguniga qadar bastakorning xohishiga ko‘ra yangraydigan musiqa.

Butun operaga muqaddima sifatida xizmat qiladigan cholg‘u pyesalar opera san’ati paydo bo‘lgan dastlabki paytlardanoq uning an’anaviy (tarkibiy) bir qismiga aylanib qolgan. XVII-XVIII asrlar mobaynida shaklning bir qancha turlari o‘zaro o‘rin almashdi. Shulardan fransuzcha (uch qismdan iborat: vazmin – tez – vazmin tarzida keladi) va italyancha (bu ham uch qismdan iborat bo‘lib: tez – vazmin – tez tarzida keladi) va uvertyuralar ko‘proq mashhur bo‘lib ketgan.

XVIII asrning oxirlariga kelib sonata shaklining gullab-yashnashi operaga yozilgan kirish pyesalarining tuzilishiga ham ta’sir qildi. Sonata shakli opera uvertyuralari uchun shu darajada normal hodisa bo‘lib qoldiki, hatto hozirgacha ham xuddi mana shu shaklda yozilgan barcha pyesalarni uvertyura deb ataydilar. Bunga nisbatan kamroq taraqqiy etgan pyesalar – kirishlar, introduksiyalar, muqaddimalar, prelyudiyalar, Vorspiel’lar va hokazo nomlar bilan ataladi.⁵

Kompozitor Sherzod Sobirovning simfonik ijodida alohida ahamiyat kasb etgan uvertyurasi 2019-yilda yaratilgan. Asar allegro

⁵Sposobin I.V. Musiqa shakli. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1982, 286-bet.

tempida, 4/4 o'lchovida ifodalanadi. Asar bayonida simfonik orkestrning barcha cholg'u guruhlari, ya'ni mis-damli cholg'ular, yog'och-damli cholg'ular, urma-zarbli cholg'ular va torli cholg'ularning faol ijrosini tinglashimiz mumkin.

Asarga shakl jihatidan e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu yerda keng va tor ma'nodagi shaklga ahamiyat berishimiz lozim. Ushbu asar umumiy jihatdan sonata allegro shaklida bo'lib, bu shakl o'z navbatida uchta yirik bo'limlardan tashkil topadi. Bular:

I.Ekspozitsiya ham o'z navbatida bir nechta qismlardan tashkil topadi, ya'ni quyidagi to'rta partiyani o'z ichiga oladi:

- 1.Bosh partiya
- 2.Bog'lovchi partiya
- 3.Yondosh partiya
- 4.Yakunlovchi partiya.

II.Rivojlov

III.Repriza

Kirish. Kompozitorning so'nggi yillarda yaratgan asarlaridan biri bo'lgan simfonik orkestr uchun "Uvertyura"si milliy ruhda yozilgan bo'lib, asarning musiqiy matosida raqs san'atiga oid ritmik shakllarni o'z ichiga oladi. Tantanavor va yorqin xarakterdagi ushbu uvertyura lya doriy ladida yozilgan. Kirish qismining 1-taktida litavraning ochib berish maqsadidagi usuli va barcha cholg'ularning *ff* dinamikasida keskin kirishi asosiy tonallikning dominanta tayanchida ifodalanadi. Ekspozitsiya qismi boshlanguniga qadar, ya'ni 4 takt davomiyligida bu funksiya bilan organ punkti keltiriladi.

Allegro ♩ = 140 *Шерзод Собиров*

Piano *ff*

Ekspozitsiya

Bosh partiya. Asar ekspozitsiyasining bosh partiyasi murakkab, rivojlanuvchi uch qismli shaklda bo‘lib, ilk mavzu ya’ni birinchi jumla fortepiano cholg‘usida ko‘rsatilib, 8 takt davom etadi.

Bosh mavzuning ikkinchi jumlasida fleyta cholg‘usi fortepianoga qo‘shilib ketadi. Musiqiy mato asta-sekin garmonik ohanglar bilan boyitilib, orkestrning barcha cholg‘ulari ijrosida takrorlanishi bilan namoyon bo‘ladi. Ushbu partiyada fa diyez tovushining aniq tasdiq tarzida keltirilishi sababi ham lad-tonallik jihatidan Iya doriy ladiga tegishli ekanligi seziladi.

Bosh mavzuning o‘rta qismida mis-damli cholg‘ular asarning mohiyatini boyitgan holda garmonik va ritmik jihatdan partitura rang-baranglik olib kiradi.

Yondosh mavzu solo klarnet cholg‘usida o‘z ifodasini topgan. Unga torli cholg‘ular ritmik shaklda jo‘r bo‘ladi:

The image shows a musical score for a string quartet in 4/4 time. The score includes parts for Violin I (Кл.), Violin II (Vln. II), Viola (Vla.), and Violoncello (Vc.). The key signature has one sharp (F#) and the time signature is 4/4. The first system shows the beginning of the piece with dynamics like *mp*, *pizz.*, and *mf*. The second system continues the piece with similar dynamics and includes a "solo" marking above the Violin I part.

Mavzuning bayoni ilk taktlardan oq ladning tersiyasiz tonika, tersiyasiz VII pog'ona septakkordi, dominantkvartakkord funksiyalarida ifodalanadi. Torli cholg'ular guruhida esa pitsikato shtrixi bilan kuyga jo'rlik kuzatiladi. Endi esa davriyaning sifatlarini keltiradigan bo'lsak, 16 taktdan iborat davriya va takroriylikning hisobiga 2 ta jumlagga bo'lingan. Va bu davriya 8+8 takt bo'lganligi sababli kvadrat davriya deya olamiz.

Kuy yo'li pastdan rivojlanib, yuqorilama va sakrab to'ldiruvchi harakatida kelgan. Urma-zarbli cholg'ular guruhi garmonik jo'rlik vazifasini bajarsa, damli, torli cholg'ular guruhi esa kuyning asosiy mavzusini qayta tasvirlaydi. Mavzu yorqin ifodalanib, o'zida jo'shqinlikni hosil qiladi, tinglovchiga o'zgacha bayramona ruhiyatini beradi. Muallif birinchi jumla yakuni va ikkinchi jumlaning boshlanishi orasida o'tish vazifasida tersiyali qatordan foydalangan. Ikkinchi jumla

esa barcha cholg'ularning birgalikdagi ijrosi asosida, damli cholg'ular guruhi *mp* va *f* dinamikalarining taktma-takt almashib kelishi bilan, urma-zarbli va torli cholg'ular esa *f* dinamikasi bilan bosh mavzuni qayta ifodalaydi.

Bog'lovchi partiya. O'z vazifasiga ko'ra bog'lovchi partiya bosh partiyaning mavzu materiali asosida asarning 47-taktida *mf* dinamikasi bilan klarnet cholg'usiga berilgan solo hosila contrast bilan mi minor tonalligida ifodalanadi. Bundan tashqari, kompozitor tomonidan "dodekafoniya"⁶ ni mahorat bilan qo'llanganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Nafaqat 12 ta har xil tovush, ba'zi taktlarda 16, 18 ta bir xil bo'lmagan tovushlarni keltirilishining sababi esa ritmik sur'at buzilishining oldini olish maqsadida, deya olamiz. Kompozitor bu uslubni asarning rivojlov qismida fortepiano va torli cholg'ular partiyasida yorqin ko'rsatib bergan. 72-taktdagi xuddi shunday dodekafonik tovushlar ketma-ketligidan so'ng finalda barcha cholg'ularga tutti keltiriladi. Bu safar kompozitor 89-taktda "solo"ni fagot cholg'usiga berishdan boshlaydi. Har 4 taktda yangi cholg'ular solosi qo'shila boshlaydi: 2-ovozda klarnet, 3-ovozda goboy va 4-ovozda fleyta. Va shu tariqa ushbu sololar bayonida polifonik rivojlov shakllanib, 4 ovozli, 2 mavzuli fuga uslubi namoyon bo'ladi. 125-taktdan fleyta pikkolo cholg'usida fuga reprizasi kuzatiladi.

Rivojlov

Asarning ushbu qismida esa fuga ekspozitsiyasi kelib, katta intermedia (fugada bog'lovchi) dan so'ng, fuganing erkin qismi ya'ni rivojlovda polifonik elementlar tugab, faktura gomofon-garmonikka aylanadi. 133-taktda keltirilgan mavzuning qayta bayoni esa klarnet cholg'usiga berilgan solodan boshlanadi. Ikkinchi va uchinchi ovozdagi mavzuning qayta kiritilishi esa goboy va fagot cholg'ulari ijrosida keltiriladi. Cholg'ular partiyasida ikki xil mavzu kelganligi sababli biz buni murakkab fuga deb ataymiz.

Asarning rivojlov qismi epizod tariqasida aks etgan bo'lib, ushbu qismda polifonik musiqiy matoni kuzatish mumkin. Mavzu avvaliga fagot cholg'usida boshlanadi:

⁶ Yunoncha dodeka – o'n ikki va phone – tovush; atonal musiqani muayyan qoidalarga bo'ysundirish maqsadida yaratilgan kompozitorlik texnikasi. // <https://uz.m.wikipedia.org>



Fagot cholgʻusining mavzusiga birin-ketin klarnet, goboy va fleyta qoʻshilib keladi. Shu vaqtning oʻzida musiqiy matoga zarbli cholgʻular asta-sekin qoʻshilib, asarning avj qismiga olib keladi. Ushbu mavzu orkestrda barcha cholgʻularda garmonik va ritmik tarzda rivojlanadi.

Repriza klassik shakllarga koʻra, asosiy tonallikda yangraydi. Murakkab fuga rivojlov qismida boshlanib, repriza qismida bir ovozli kuy yoʻnalishida ifodalanadi. Va bu kuy yoʻnalishida murakkab fuganing reprizasi kirib keladi. Mavzuning uch marta qayta bayoni va ikki xil mavzuning keltirilishi yuzasidan biz murakkab fuganing reprizasini yaqqol koʻrishimiz mumkin. Butun orkestrda tutti holatida mavzu gomofon-garmonik fakturada keladi va toʻlaqonli sonata allegrosi shaklining reprizasi eshitiladi. 157-taktda yordamchi partiyaning kulminatsion nuqtasi *f* dinamikasida tersiyasiz tonika funksiyasida keltiriladi. Kulminatsiyada barcha cholgʻular “uygʻonadi” va tutti holatida asosiy mavzuni bayon qilishadi. Oʻrta qism 172-takt bosh mavzu qaytariladi va 180-taktda kuy yoʻlida mavzudan mavzuni itarib chiqarish holati yuzaga keladi. Bosh mavzu oʻzgarmagan holatda yangraydi va asar soʻngida koda tantanavor ruhda oʻz ifodasini topadi.

Ushbu uvertyuraning yana bir jihatiga alohida eʼtibor qaratishimiz kerak-ki, asarda usul yetakchi ahamiyat kasb etgan. Buning sababi esa milliy musiqa anʼanalarimiz, jumladan, maqomlarimiz bilan bogʻliqlik tomoni bor. Muallifning oʻzi ham – “oʻzbek maqomlarimiz boshqa davlatlar, Yevropa mamlakatlari kuylariga qaraganda ritmik jihatidan juda ham boy, hech qaysi davlat musiqalariga oʻxshamaydi, shu bois oʻzbek ritmlarimizni his qilgan holda ushbu uvertyurada ham alohida eʼtibor qaratganman,” deydi.⁷

Asarning uvertyura deb nomlanishi bu uni shu janrga xosligini bildiradi. Ammo asar koʻtarinki, shodiyonalik kayfiyatini beradi. Inson tasavvurida bayram epizodlari koʻrinadi. Yaʼni unda dasturiylik

⁷ Kompozitor bilan suhbatdan. 7-dekabr 2023-yil.

xususiyatlari ham mavjud. Muallifga bu uvertyuraga nima sababdan nom bermaganining sababini so‘raganimizda esa xarakter uvertyura janrini ifodalagani bois, unga shunchaki nom bermaganligini aytdi. Bundan tashqari kompozitor, asarda asosiy mavzularni ko‘rsatib berishda klarnet cholg‘usiga ko‘p marotaba murojaat qilganini sezamiz. Buning sababi esa mavzuning tonalligi, registri jihatidan klarnet ijrosida yorqin ifodalanishida ekanligini, fleyta va goboyda mavzu ifodalansa nisbatan mungliroq, pastroq eshitilib qolishi mumkin ekanligini ta’kidladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, kompozitor Sherzod Sobirovning serqirra ijodi davomida xalq cholg‘ulari, fortepiano, polifonik, simfonik, estrada va vokal, kinomusiqqa, kamer orkestrlari uchun yaratib kelayotgan bu kabi yorqin asarlari talaygina. Shuningdek, u bir vaqtning o‘zida kompozitorlik, pedagoglik, tashkilotchilik faoliyatini olib bormoqda va ko‘plab shogirdlarni yetishtirmoqda. Ijodkorning keyingi faoliyatlarida ulkan zafarlar tilab qolamiz.

TASNIFI BUZRUK SHAKL JIXATLARNING TA'SNIFOTI

Marjona BAXTIYOROVA,
Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMMSI,
San'atshunoslik:(musiqashunoslik) ta'lim yo'nalishi
2-kurs talabasi,
Ilmiy rahbar: **Soibjon BEGMATOV,**
Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMMSI,
"O'zbek maqomi tarixi va nazariyasi" kafedراسi professori,
san'atshunoslik fanlari nomzodi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada maqomlar haqida, xususan Tasnifi Buzruk misolida so'z boradi. Shakl tuzilishi va qisman taxlil haqida baholi qudrat yoritiladi.

Kalit so'zlar: Maqom, peshrav, risola, Shashmaqom, ajam.

Tubdan rivojlanayotgan yangi O'zbekistonda yoshlarga qaratilayotgan e'tibor va yaratilayotgan shart-sharoitlar juda katta. Shubhasiz milliy me'rosimiz maqomlarimizni asl shaklini, ijrochilik an'alarini, tarixiy ildizlarini o'rganish, saqlab qolish va targ'ib qilish sayqallab yanada rivojlantirishga bo'lgan ijodiy munosabat davlat siyosati darajasida qaralmoqda. Ayni paytda 6-7 yillardan buyon respublikamizning turli viloyatlarida maxsus maqom maktablarini tashkil qilinishi, viloyatlarda maqom ansambllari faoliyatini yo'lga qo'yilishi, qolaversa Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti tashkil qilinishi ham davlatimiz raxbari bergan ko'rsatmalarning natijasi sifatida ko'rishimiz mumkin. "Bugungi zamonda barcha ezgu niyatli insonlarni birlashtirish, yoshlarni yuksak gumanistik ideallar ruhida tarbiyalashda musiqa san'atning o'rni va ahamiyatini hech narsa bilan o'lchab, baholab bo'lmaydi desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz"¹

Sharq musiqasiga doir risolalarda musiqa sohasida qalam tebratgan ulug' insonlar, xususan san'at fidoiylari tomonidan qoldirilgan noyob milliy me'ros, maqomlarimizning tarixiy rivojlanishi ancha avval boshlangani tabiiydir.

Maqom musiqa cholg'ularida kuy va ashulalarni tashkil etadigan tovushlarning joylashadigan o'rni, ya'ni pardalaridir. [2.63]. Bilamizki,

o'zbek mumtoz musiqasining mustahkam, buzilmas poydevori bo'lmish olti maqom - "Shashmaqom"dir. "Shashmaqom" XVIII asrga oxiriga kelib tugal shakllanganligi manba'larda bayon etilgan.

Ma'lumki, Shashmaqom ikki yirik bo'limdan iborat bo'lib, "Cholg'u" ya'ni Mushkilot bo'limi, ikkinchisi Nasr ya'ni ashula bo'limi deb yuritiladi. Har bir bo'lim o'zining tarkibiy tizimi negizida turkum asarlarni o'zida mujassam etgan. Mushkilot bo'limi asosan Ta'snif, Tarje', Gardun, Muxammas va Saqil kabi cholg'u namunalarini o'z ichiga qamrab olgan. Ashula bo'limi esa 2 guruh sho'balaridan iborat. Birinchi guruh sho'balariga har birida 2 tadan 6 tagacha taronalari bo'lgan - Saraxbor, Talqin, Nasr va Ufarlar. Ikkinchi guruh sho'basida esa Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma va Ufar kabi taronalardan iborat bo'lgan Savt va Mo'g'ulcha turkumlari o'rin olgan.

Maqomlarni o'rganish, anglash jarayoni bevosita maqom asarlarini tarkibiy tuzilishi, mavzuiylik jarayoni drammaturgik jihatlarini anglash orqali tasavvur hosil qilinadi. Shu bois biz bugungi ma'ruzamizni cholg'u yo'lidagi ilk asar sifatida turkumdan o'rin olgan tasniflar haqida so'z yuritmoqchimiz. Maqom cholg'u kuylarini nazariy asoslarini Tasnifi Buzruk misolida o'zlashtirishga harakat qilamiz.

Tasnif-(ijod etilgan, yaratilgan ma'nosini bildiradi)-mushkilotning asosiy qismi, u maqomning ilk boshlovchi cholg'u kuyi vazifasini o'taydi. "Shashmaqom" tarkibida 6 ta tasniflar mavjud: Buzruk tasnifi, Rost tasnifi, Navo tasnifi, Dugoh tasnifi, Segoh tasnifi va Iroq tasniflaridir. Ularning har biri o'zining parda tuzilmalari, kuy mavzulari va xarakteri bilan o'ziga xos tarzda alohida ajralib tursada, shu o'rinda umumiy turkumiylilik jihatlariga ham egadir. Tasniflarning doira usuli zarbalari va shakllari bir qolipda bo'lib, uning ritm o'lchovi 2/4 hissani tashkil etgan. Ularning asosidagi usul asosan to'rt taktli ritmik tuzilmadan iboratdir.

Maqomi Buzurg (Buzruk). Buzurg-katta, ulug' ma'nolarida kelib, ulug' maqom demakdir. Hatto Shashmaqomdagi shaklida ham u juda ko'p kuy va ashulalarni o'z ichiga olgan. Ijro jarayonida ham ulug'vor, tantanavor xarakterda o'zining buyukligini anglatadi.

Tasnifi Buzruk

The image displays a musical score for 'Tasnifi Buzruk'. It consists of four staves of music. The first two staves are labeled '1-xona' and 'Bozgo'y'. The first staff begins with a treble clef, a key signature of one sharp (F#), and a 2/4 time signature. It contains a melodic line and a bass line starting with a piano (*P*) dynamic. The second staff continues the melody. The third and fourth staves are labeled '2-xona' and 'Bozgo'y'. The third staff continues the melodic line, and the fourth staff concludes it. The notation includes various rhythmic values, rests, and articulation marks.

Shashmaqom cholgʻu kuylari oʻziga xos ichki tarkibli shaklga ega boʻlib, asosin “xona” va “bozgoʻy” tamoyiliga asosan rivojlangan. Tasniflarning har biri mustaqil musiqa mavzulariga ega. Kuy yoʻllari bir biridan farq qiladi. Ularning shakllanish jarayonidagi kuy ohan rivoji, xususan, xona va bozgoʻy tamoyilidagi tarkibiy tuzilish mezonlari ham turlichadir.

“Xona” (uy,xona) - asosiy kuy jumlasini boʻlib, unda asarning asosiy mavzui va ohangi mujassamlangan va rivojlanish jarayonida u shaklan va mazmunan boyitilib, oʻsib boradi. Kuy oʻz harakati doirasida yuqoriga intilib, avjga tomon rivojlana boradi va asta-sekin oʻzining boshlangʻich pardasiga qaytadi.


“Bozgoʻy” (qaytaruv) – maqom ohangiga asoslangan kuy tuzilma boʻlib, xona mavzuidagi ohang asosida ifodalanadi va ijro jarayonida uzgarmaydigan shaklda muntazam takrorlanib (naqoratga oxshash) turadi. [3.68]. Bundan koʻrinib turibdiki xona va bozgoʻy kuy tuzilmalarining rivoji cholgʻu asarlarining shaklini yanada rivojlantirib beradi. Xona har gal takrorlanganida esa yangicha ohang rivoji bilan shaklan kengayib boradi. Bozgoʻy esa ijroning boshidan oxirigacha oʻzining shaklini, ohang tuzilish qiyofasini saqlaydi.

Tasnifi Buzruk-8 xona va 8 bozgoʻydan iboratdir. Tasnifi Buzruk maqomida hona taktlari soni dastlab 4 tadan boshlanib asar yakunigacha 28 taga yetadi, bozgoʻylar esa 8 ta taktdan iborat boʻlib doimiy tarzda takrorlanib turadi.

Bilamizki maqomlarni ijro etishda tanbur va doira cholgʻulari yetakchilik qiladi. Mushkilot boʻlimidagi “Tasnif”larda, aytib

o'tganimizdek 2/4 o'lchov ritmida bo'lgan doira usulida ijro etiladi. An'anaga ko'ra bu usul "bak – bak – bum – bum – bak – ist – bum – ist" deb o'qilgan.

Usul nota yozuvida quydagicha aks etadi:



Tasniflar maqomlarning yirik shakldagi cholg'u yo'llari bo'lib, ular keng diapozonga ega, ba'zan esa ikki oktavadan ham ortiqroqligi haqida manba'larda keltiriladi. Tasnif yo'llari hajmi ancha kattadir. Ayrim maqomlarning mashhurligi tinglovchiga onson tushunilishi va ohangini eslab qolishiga sabab ularning asl xalqchilligidir. Ularning ohang mag'zi va ulug'vorlik jihatlari xalq bastakorlik an'alarida keng qo'llanib kelingan. Yani xalq kuylari bilan uzviy bog'lanib ketgan. Shu sababli tinglovchilarda yuksak badiy-estetik zavq uyg'otadi. Tasnifi Buzruk asarini ham qisman shunday deyishimiz mumkin. Quydagi Tasnifi Buzrukning muayyan kuy ohanglari (bo'laklari) "Ajam taronalari" musiqiy namunasining avj qismida qo'llanilgan namunasini e'tiboringizga havola qilamiz. Misol № 3. "Ajam taronalari" asarining avj qismi:



Xulosa qilib shuni aytish mumkinki Shashmaqom xalqimizning ma'naviy dunyosini aks etuvchi mumtoz musiqamizning ulkan me'rosimizdir. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan istiqbolli ishlar xususan turli respublika va xalqaro maqom ijrochiligiga oid ko'rik tanlovlarning o'tkazilishi va munosib tarzda ta'qdirlanishi, yosh avlodda katta qiziqish va ishtiyoq uyg'otmoqda. Bu an'ana avvallari ham bo'lgan, bugungi kunda esa yanada katta e'tibor qaratilmohda. Misol tariqasida "Tasnif va Tarje' Buzruk" YUNESKO qoshidagi Xalqaro musiqa kengashi tomonidan o'tkazilgan III Osiyo Musiqali Minbari anjumanida (Olmaota, 1973) ijro etilib, an'anaviy musiqa borasida "Eng oliy ijro" deb

e'tirof etilgan va butun dunyo radio tarmoqlari orqali targ'ib etilishi ta'vsiya qilingan [4.21b]. Sifatli va muvafaqiyatli tarzda yozib olingan bu ijro bugungi kunda ham munosib targ'ib etilmoqda.

Biz maqom cholg'u kuylarining birgina Buzruk Tasnifi misolida tahlil qilishga urinib ko'rdik. Maqom kuylarimizni naqadar badiiy – estetik imkoniyatlarga egaligi va falsafiy ma'no kasb etishi ularning ohanglarida mavjud ekanligiga iqror bo'lamiz. Shu bois ham maqom kuylari avvalo o'zbek xalqining ohanglardagi tarixi, ikkinchidan musiqa ijodiyoti uchun asl manba', qolaversa, tinglovchilar ma'naviyatini boyituvchi, ruhiyatini oziqlantiruvchi ulkan kuchdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoev. Sh.Niyati ulug' xalqing ishi ham ulug', xayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2019. Xalqaro maqom san'ati anjumanining ochilish marosimidagi nutq. Shaxrisabz, 2018 yil 6 sentabr

2. I.Rajabov "Maqomlar" Toshkent 2006 [2.63b].

3. R.Abdullaev "O'zbek mumtoz musiqasi" Toshkent "YaNGI NASHR" 2008.[3.68b]

4. O.Ibroximov. Maqom asoslari. Toshkent. TURON-IKBOL»2018

5. Yunus Rajabiy nomidagi Maqom ansambiling 60 yillik ijodiy va amaliy faoliyatiga bag'ishlangan MAQOLALAR TO'PLAMI. Toshkent 2019[4.21b]

MUSIQIY ASARLARDA “JALOLIDDIN MANGUBERDI” QIYOFASI

*Azizbek IBODULLAYEV,
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSS,
San’atshunoslik:(musiqashunoslik) ta’lim yo‘nalishi
1-kurs talabasi.*

*Ilmiy rahbar: Sardor TOJIBOYEV,
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSS,
“O‘zbek maqom tarixi va nazariyasi” kafedrasida
katta o‘qituvchisi.*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada buyuk xorazmshoh sarkarda Jaloliddin Manguberdiga bag‘ishlab yaratilgan Rustam Abdullayevning “Jaloliddin Manguberdi” baleti, Behzod Tursunboyevning “Jaloliddin” baleti haqida so‘z boradi. Musiqiy asarlarda tarixiy qahramonlar siymosini gavdalantish hamda kompozitsion mahorat borasida atroflicha fikr-mulohazalar bayon etiladi.*

***Kalit so‘zlar:** J.Manguberdi, balet, sahnaviy asar, dramaturgiya, musiqiy obraz, leytmotiv.*

Otadan o‘g‘il tug‘ilsa, shunday tug‘ilsin!”

Chingizxon

Bugungi kunda mamlakatimizda ulug‘ bobokalonlarimizning millatimiz va umuminsoniyat tarixida faxrli va salobatli o‘rnini holisona va teran idrok etish va o‘rganish, jumladan, ilm-fan va tarbiya sohasida ularning tutgan o‘rni va mavqegini aniqlash hamda izlanishlar olib borish uchun keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, asarlarda tarixiy shaxslarning siymolarini gavdalantishga yo‘naltirilgan say-harakatlarini ham tilga olishimiz darkor. “Xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak madaniy qadriyatlarini va ma‘naviy merosini asrab-avaylash hamda jahon madaniyati bilan uyg‘un holda rivojlantirish, milliy madaniyatni keng targ‘ib etish uning

xalqaro madaniy makonda tutgan o‘rni va mavqeini yanada mustahkamlash” birinchi masalalar sifatida qayd etiladi.

Bugungi kunda tarixiy shaxslar, vatan qahramonlari va ozodlik kurashchilari siymolarini yaratish masalasi keng e’tibor markazidadir. Buyuk Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, To‘maris, Shiroq, Bobur va boshqa qator qahramonlar haqida yaratilgan va yaratilayotgan asarlarni o‘rganishimiz zarur. Ushbu maqolada vatanimiz ozodligi kurashchisi, dovyurak sarkarda, milliy qahramon, jahon xalqlari tarixida o‘chmas iz qoldirgan Jaloliddin Manguberdi siymosiga bag‘ishlab yaratilgan musiqiy asarlar haqida so‘z boradi. Nafaqat, O‘zbekiston balki, chet davlat va nodavlat xususiy kutubxonalarida Jaloliddin Manguberdiga bag‘ishlab yaratilgan faqatgina adabiy va badiiy adabiyotlar mavjud, xolos. Musiqiy-sahnaviy asarlarda qahramon obrazini yaratishga kamdan kam qo‘l urishgan. Musiqa ijodiyotida Jaloliddin Manguberdi obraziga bag‘ishlab yaratilgan asarlarni o‘rganish, tadqiq etish musiqashunoslik masalalarini yechishga xizmat qiladi.

Sohibqiron Amir Temur haqida yaratilgan asarlar O‘zbekiston, O‘rta Osiyo, umumiy olganda butun dunyo bo‘ylab, shaxsni talqin qilish, Amir Temur obrazini yaratish va ularni o‘rganishda xususida to‘laqonli ma’lumotlarga egamiz. Biroq Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi obrazini musiqiy asarlarda ifodalanishi, Sharq qahramoniga bag‘ishlab yaratilgan asarlar bir nechtani tashkil etadi. Kompozitorlik ijodiyotida Jaloliddin Manguberdi obrazi talqini masalasi deyarli o‘rganilmagan mavzular sirasiga kiradi. Mazkur mavzuni atroflicha yoritish uchun xizmat qiluvchi ma’lum bir ma’lumotlar, musiqiy-sahnaviy asarlar, ularning tahlillar kam.

2022-yilda O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2021-yil 8-sentabrdagi 558-son qarorida belgilangan vazifalarni ta‘minlash, shuningdek, zamonaviy milliy qahramon obrazlarini yaratish, bu orqali bolalar va o‘quvchi yoshlarni vatanparvarlik, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash maqsadida “Jaloliddin Manguberdi” kelajak milliy qahramoni obrazini yaratish bo‘yicha tanlov ham bo‘lib o‘tgan edi. Biroq, musiqiy asarlarda Jaloliddin Manguberdi

obrazini yoritish, shaxsiy sifatlarini tomoshabinlarga ochib berish masalalari bo'yicha kam asarlar yaratilgan. Misol uchun Rustam Abdullayevning "Jaloliddin Manguberdi" baleti, Behzod Tursunboyevning "Jaloliddin" baletlarini sanay olamiz xolos. Ushbu ikkita asar ham balet janrida yaratilgan.

Balet san'ati asar mazmunining musiqiy xoreografik obrazlar vositasi bilan ifodalanadigan sahna san'at turidir. Bu san'at turi o'zida dramaturgiya, musiqa, raqs, tasviriy san'at kabi turlarini mujassamlashtiradi. Ushbu san'at turlari birlashgan xolda baletning sintez markazi bo'lgan xoreografiyaga bo'ysunadi. Balet-musiqada yozilgan, raqsdan gavdalantirilgan drama. Balet san'ati 15-16-asrlarda teatrlashtirilgan raqslarning shakllanish jarayonida avval Italiyada, keyinchalik Fransiya, Angliya, Avstriya kabi mamlakatlarda vujudga kelib, mustaqil san'at turi sifatida shakllandi. Ilk o'zbek baleti Rostoves va Usta Olim Komilovning "Paxta" baleti hisoblanadi. Shu davrdan boshlab o'zbek balet san'atida ajoyib, tomoshabop, turli xil mavzularni qamrab olgan baletlar yaratildi.

2023-yil 4-5-fevral kunlari O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, O'zbekiston Bastakorlar va Kompozitorlar uyushmasi raisi, O'zbekiston davlat konservatoriyasi professori Rustam Abdullayev va jahonga mashhur xoreograf Mehmet Balkan hamkorligidagi "Jaloliddin Manguberdi" baleti Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta teatrida premyera qilindi. 2022-yilning 15-23-may kunlari esa Xitoy Xalq Respublikasining Katta Xalqaro opera teatrida sahnaga qo'yildi. So'nggi xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi Mo'g'ullar saltanatining yengilmas hukmdori qudratli Chingizxonga qarshilik ko'rsata olgan bosh dushmani kerak joyida orzusi sifatida tarixga kirgan va buyuk qahramon obrazini gavdalantirish oson kechmagan albatta. Negaki Jaloliddin Manguberdi yashagan davr murakkabliklari ko'proq o'qish, izlanishlar olib borishga va musiqa ixlosmandlariga xaqiqiy san'at asarini yetkazib berishga olib keldi. 5 oy davomida rassomlar, kastyumerlar, raqqoslar nafaqat, O'zbekistonlik balki qardosh Turkiyalik mutaxassislar bilan hamkorlikda yaratilgan bu balet tomoshabinlar tomonidan yaxshi kutib olindi. Kompozitor-Rustam Abdullayev. Sahnalashtiruvchi xoreograf-turk baletmeysteri Mehmet Balkan. Libretto muallifi-Mehmet Balkan. Sahnalashtiruvchi rassom-Tayfun Chebi.

Musiqiy rahbar va dirijyor-Denis Vlasenko. Balet 2 pardadan iborat. Birinchi parda olti ko‘rinish, ikkinchi parda esa uchta ko‘rinishdan iborat. Balet librettosi real voqealarga asoslangan va biroz badiiylashtirilgan. Kompozitor qahramonlarni bir-biriga taqqoslash usulini mohirlik bilan qo‘llagan. Chingizxon va Jaloliddin sulton obrazlarini solishtirgan. Asarda obrazlarni yoritib berishga alohida e‘tibor qaratilgan va xorazm, turkiy xalqlar musiqa namunalari va cholg‘ularidan o‘z o‘rnida foydalana olgan. Har bir ko‘rinishning syujetiga mos holda musiqa bastalangan. Misol uchun: ikkinchi pardaning 3-ko‘rinishi jang maydoni sahnasini qaraydigan bo‘lsak, Sind daryosi bo‘yida Jaloliddin va Chingizxon o‘rtasida ayovsiz jang olib boriladi. Bu jarayonni tomoshabinga yetkazib berish uchun mis damli va zarbli cholg‘ulardan foydalanilgan. Torli cholg‘u guruhi esa jangning shiddatini yuqori notalar bilan tasvirlagan. Barabanlar, litavralar jangni to‘laqonli xis qildirish uchun asosiy cholg‘u hisoblangan. Umumiy holda zarbli cholg‘ular ijrosi mavzuni to‘la yoritgan. Baletga xor ham kiritilgan. Mis damli cholg‘ular, kselafon va tarelkalar syujetga mos ravishda ijro qilingan va Jaloliddinning daryoga sakrashida uning mardligi, jasurligi xatto Chingizxonning sarosimasi va olqishini to‘la ifodalagan. Jaloliddinning daryoga sakraganidan keyin balet xor bilan yakunlanadi. Xor mayus va kulga aylangan Xorazmning dardini ifodalagan. Mo‘g‘ul balosidan qutulmoq uchun ollohga yolvorgan holda balet yakunlanadi. Baletda Xorazm maqomlaridandan “Saqili Navo”, “Gusvand”, Komiljon Otajonov ijodiyotidan va xorazm kuylaridan foydalanilgan. Balet original musiqaga asoslangan. Unda kompozitor o‘zi yaratgan musiqa orqali har bitta obrazni ochib bergan.

“Tarixiy shaxslar obrazini yoritish oson ish emas. Bu balet yozilguniga qadar katta ijodiy yo‘lni bosib o‘tdim, biroq, xali ham obrazni to‘laqonli ifoda qila oldimmi degan savol bo‘ladi. Chunki, Jaloliddin nafaqat O‘rta Osiyo, balki, Turkiya, Ozarbayjon, Kurtdiston va qator turkiy xalqlarning ham milliy qahramonidir. Balet oxirida Jaloliddinning oz sonli askarlari qolganligi, mo‘g‘ullarga tutqun bo‘lishini istamasdan daryoga sakraydigan sahnasi bor. O‘sha joyida Jaloliddin yengilayotgan bo‘lsa ham Chingizxonga qarata xali qaytaman deganday ishora qiladi va shiddat bilan oqayotgan Amudaryoga o‘zini tashlaydi. Shunda Chingizxon bu jasoratdan xayratda qoladi”, -deydi ustoz kompozitor.

Jaloliddin Manguberdi hayotini sahnada ko‘rsatish qiyin ish albatta. Bunday buyuk shaxs obrazini yetkazib berish, ayniqsa, balet san‘atida ancha murakkab. Ana shunday murakkab asarlardan yana biri bu Xalqaro tanlovlar g‘olibi, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi 2-kurs magistranti, yosh kompozitor Behzodbek Tursunboyevning “Jaloliddin” baletidir. “Aslida balet tarjima qilinmaydi, balki o‘qiladi. Balet san‘ati bir tomonlama yaratiladigan asar emas. Unda kompozitor, raqs, orkestr hamkorligidagi yaxlit bir asar xolatiga olib keladi. Chunki ular balet san‘atida bir-birini to‘ldiruvchi unsurlardir”-deydi kompozitor o‘z so‘zida. Ushbu balet kompozitorning dibiut asaridir. Balet 2021-2022 yillar davomida yaratilgan va 2023-yil 12-dekabr kuni to‘liq premyerasi bo‘lib o‘tdi. Ushbu balet O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi bilan hamkorlikda sahnaga qo‘yildi. Baletda milliy kompozitorlik amaliyoti va xoreografiya san‘atida o‘zbek o‘g‘loni Jaloliddin milliy Manguberdi raqs va musiqa san‘ati orqali gavdalantirilgan. Balet bir akt va to‘rtta ko‘rinishdan iborat. Balet musiqasi muallifi-Bahzod Tursunboyev. G‘oya muallifi-Shoira Ibragimova. Libretto muallifi-Durdona Abduhakimova. Musiqiy-ijodiy rahbarlar-Qodir Mo‘minov, Oydin Abdullayeva. Balet hajman kichkina bo‘lsada, Jaloliddin Manguberdi siymosi va Xorazmshohlar davrini to‘laqonli yoritib bera olgan. Bu asar ijodiy namuna sifatida ahamiyat kasb etadi. Balet Jaloliddin askarlari bilan harbiy tayyorgarlik olib borayotgan sahna bilan boshlanadi. Asosiy obraz sifatida Jaloliddin ifodalanadi. Jaloliddin leytmotivi butun balet davomida saqlanib har xil cholg‘ularda takrorlanadi. Bundan tashqari Jaloliddinning onasi ya‘ni Oychechaxonim ham ona obrazida, ham ona zamin obrazida gavdalanadi. Chunki uning farzandiga bo‘lgan muhabbati Jaloliddinning ona vataniga bo‘lgan muhabbati bilan bog‘liqdir. Muqaddima birinchi ko‘rinishdagi ona zamin (Oychechaxonim) dueti vatan taqdiri qil ustida ekanligi haqida bayon qiladi. Mazkur duetda yurt tinchligi, ozodligi Jaloliddinga bog‘liqligi bu murosasiz jangda ona zamin u bilan birgaligi, onaning dardi, iztirobi, xavotiri o‘z ifodasini topgan. Duet 6/8 o‘lchovda “Qora dali” kuyi orqali ochib berilgan. Balet davomida har bitta obraz o‘z xarakteridan kelib chiqib o‘ziga xos kuylar bilan ifodalangan. Bunga misol sifatida ikkinchi ko‘rinishdagi Alouddin Muhammad, Jaloliddin va

Turkonxotun o'rtasidagi bahs misol bo'la oladi. Balet leytmotivi bu Jaloliddin obrazini ifodalovchi surnay yo'llari.

“Raqs musiqaga bo'ysunishi kerak va uni to'ldirish uchun xizmat qilsagina balet yaratiladi”-deydi yosh kompozitor.

Baletda xorazm, turkman va mo'g'ul musiqa namunalaridan o'z o'rnida juda mahorat bilan foydalanilgan. Chunki shu davrda Xorazmshohlar davlati katta hududlarni egallab olgan va unda barcha turkiy xalqlar ahl umrguzaronlik qilishgan. Shu o'rinda uchinchi ko'rinishdagi 1.Mo'g'ul askarlari raqsi. 2.Asir qizlar raqsi nomerlarini tahlil qilib o'tishimiz zarur. Mo'g'ullarning turli raqslari, raqslar orqali diniy sig'inish holatlari zarbli cholg'ular hamda chanqobuz cholg'usi orqali aniq tasvirlangan. Tamburo, tamburino, silofono, pianino, nog'ora, violanchel, kontrabas, trambon, temple blocks va boshqa cholg'ular ketma-ketligi va allegro tempi xaqiqiy mo'g'ul musiqasini ifoda etgan. Nomer bevosita keyingi nomerga ulanadi. Bu mo'g'ul askarlari tomonidan asir olingan xorazmlik qizlar raqsi. Bu raqsda xorazm milliy musiqasi hisoblangan “Aliqambar” kuyidan mohirona foydalanilgan. Aslida bu kuy bugungi kunga qadar xorazm to'ylarida, bayramlarida ko'tarinki kayfiyatni ifodalash uchun foydalaniladi. Ammo bu baletda kompozitor mahorati bilan shu darajada garmoniyalashtirilganki baletda kuy qayg'u, tutqunlik azobi va beayb qizlar nolasi sifatida yangragan. Fleyta, klarnet, gaboy, doira, qayroq kabi cholg'ular bilan kuy o'zining boshqa qiyofasida jonlangan.

“Baletni yozish davomida men xorazm tarixi, xorazmshohlar davlatidagi madaniy hayot, ko'pmillatlilik, milliy musiqa namunalari, to'ylari, bayramlari, milliy kuylari, milliy cholg'ular xususida ko'p o'qidim, o'rgandim. Chunki biz oddiy shaxsmas, dunyo tarixida o'chmas iz qoldirgan davlat va uning qahramoni haqida asar yaratishimiz kerak edi. Jaloliddin obrazi murakkab va sirli shaxs. Baletda faqatgina Jaloliddin obrazini, balki har ikki davlatning saroy muhiti, Chingizxon, Alouddin Muhammad, Turkonxotun, Oychechekxonim obrazlarini gavdalantirishda ham alohida kuylardan foydalanishga harakat qildim. Ayniqsa, milliy cholg'ularga yuzlandim, chunki, bu-milliy balet. Haqiqiy milliyligimiz bizning cholg'ularimiz, milliy kuylarimizdadir”,- deya ta'kidlaydi kompozitor.

Balet davomida “Qora dali”, “Norim-norim”, “Norim-norim 2”, “Xorazm doston kuylari”, “Aliqambar” “Xorazm maqomlari naqshlari”dan, kuylaridan, surnay yo‘llaridan mohirona foydalanilgan. Milliy cholg‘ularimizdan qayroq, doira, nog‘ora, surnay, nay, chang, qonunlar ijro qilingan.

Har ikkita kompozitor tarixiy shaxsni gavdalantirishda o‘z dunyoqarashi, o‘z fikri, o‘rganishlari va tajribasidan kelib chiqib yondashgan. Har bitta yaratilgan asar bir-biridan albatta farq qiladi. Orkestrga moslashtiruv, garmoniya, dramaturgiya, musiqiy til va har obrazga har xil rakursdan qarash, baletda musiqa bilan raqsning uyg‘unlashuvi, rang-baranglik har bitta kompozitorning o‘zidan kelib chiqib yaratiladi, albatta. Kuyning tuzilishi, konsonansligi yoxud milliy ohanglarni sayqallash, ma‘lum bir ma‘noda qahramon xarakteridagi jihatlarni, ya‘ni uning dadilligi, o‘ziga ishonganligi, qat‘iyatliligini ifoda etishga ko‘maklashadi. Chunonchi, har bir yangi asar qahramon talqiniga yangi qirralar va o‘zgarishlarni kiritib boradi. Har kompozitor ijodida Jaloliddin Manguberdi obrazi qayta anglanadi, har bitta yaratuvchi obrazning rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shadi, talqin qiladi, qahramon shaxsini qayta ko‘rib chiqilishi va o‘rganilishi uchun zamin yaratadi. Har yaratilgan asarda Jaloliddin Manguberdi obrazi o‘zining serqirraligi bilan e‘tibor tortadi. Unda qahramononalik ruhi chuqur lirika va jo‘shqin his tuyg‘ular qurshovida namoyon bo‘ladi. Jaloliddin Manguberdi siymosiga bag‘ishlab yaratilgan musiqiy-sahnaviy asarlar har bir kompozitor uchun ijodiy laboratoriyadir.

Musiqiy ijodiyot nuqtai nazaridan kelib chiqqan xolda Sulton Jaloliddin obrazi sevgi-muhabbat(oilaga, ona zaminga), ichki kechinmalar va hissiyotlarini yoritib berish orqali gavdalanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi obrazlaridan tashqari boshqa qahramonlar siymolarini gavdalantirish ishlari davom etadi. Va bunday sharq qahramonlari haqidagi mavzular albatta musiqa dunyosida ham, tomoshabinlar orasida ham katta e‘tiborga sazovor bo‘ladi. Uzoq yillar davomida musiqa va xoreografiya orasidagi aloqa yanada tiklanadi. Yangi mavzular, yangi obrazlar yaratiladi. O‘tgan asrda yaratilgan baletlar repertuariga yangi yondashuvdagi musiqiy-sahnaviy asarlar qo‘shiladi. Qotib qolgan balet san‘ati jahonning bugungi kundagi balet asarlarini o‘rgangan holda

tomoshabinni jalb qiluvchi, tarixiy-milliy baletlar yaratiladi degan umiddamiz. Kelgusi yillarda Jaloliddin Manguberdi obraziga murojaat qilish ko‘payadi, yanada kengroq murojaat qilish, mavzu doirasini kengroq olish, o‘rganilmagan va yoritilmagan tomonlarni ochishga zamin yaratiladi.

Bir kun paydo bo‘laman shu yurt, shu yerda
Yurt shaydosi ko‘rinmas g‘urbatda-go‘rda
Kim yurtidan yovni quvsa, mendirman o‘shal!
Ulug‘vor niyatlarga kor qilmas ajal.

M.Shayxzoda. “Jaloliddin Manguberdi” dramasi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. R.Tursunova. G‘arbiy Yevropa operalarida Amir Temur obrazi. Monografiya. Toshkent-2021.
2. M.Shayxzoda. Jaloliddin Manguberdi. Drama. Toshkent. “O‘zbekiston”-2006.

MAQOM SAN'ATINING IJROCHILIK AN'ANALARI



O'ZBEK KOMPOZITORLARI IJODIDA MAQOMLARNING ZAMONAVIY TALQINI

(Yosh kompozitor Alim Mullayev asari misolida)

Odinaxon OMONJONOVA,

O'zbekiston davlat konservatoriyasi

“Kompozitorlik va cholg'ulashtirish” ta'lim yo'nalishi

4- kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Chinora ERGASHEVA,

O'zbekiston davlat konservatoriyasi

“O'zbek musiqasi tarixi” kafedrasi dotsenti,

san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek kompozitorlik san'atining shakllanishi, o'zbek milliy mumtoz musiqasining kompozitorlik ijodidagi o'rni va maqomlarning qo'llash prinsiplari, zamonaviy musiqa notatsiyasi haqida so'z boradi. Zamonaviy kompozitorlik maktabining yosh ijodkorlaridan biri, kompozitor Alim Mullayevning “Iroq” (“Shashmaqom”) maqomi asosida yozilgan “Отблески Востока” asarining musiqiy taxlili yoritilgan.*

XX asrga kelib, O'zbekistonda bastakorlik an'analari xos bo'lgan va jahon musiqa ijodi namunalariga mos kompozitorlik ijodi kirib keldi va o'zbek musiqa madaniyatida yevropa musiqiy an'alarida mavjud bolgan opera, balet, simfoniya, kamer musiqa, cholg'u asarlar kabi bir qator janrlarda ijod etish an'anasi shakllana boshladi. O'tgan asr davomida bu an'ana o'zbek musiqiy hayotida oz o'rini topdi. O'zbek kompozitorlik maktabi shakllanib, yetuk kompozitorlar tarbiyalandi va ijod etdilar. Bu jarayon ham o'ziga xos rivojlanish bosqichlarini o'taganini qayd etish lozimdir. Chunki, bu an'ana avvalo rus musiqashunos va kompozitorlari tomonidan boshlab berildi, so'ngra milliy an'analarni saqlash maqsadida, bastakorlar bilan

kompozitorlarining hamkorlik davri ham samarali natija berdi. 1930-yillarning oxirida o'zbek kompozitorlik ijodiyoti o'zini korsata boshladi va tez orada kompozitorlarning yangi avlodi tarbiyalandi. Qariyb bir asr davomida o'zbek milliy kompozitorlik san'ati o'zining ijodiy maktablari va an'alariga ega bo'ldi. Ushbu milliy kompozitorlikning barcha janrlardagi namunalari milliy ruhda va o'zbekona ohanglar asosida yozilgan bo'lib, jahon sahnalarida o'zini namoyon etib kelmoqda [1, 11-bet].

Kompozitorlik ijodiyotining asosiy tamoyillaridan biri bu milliy-mumtoz musiqaqa tayanishdir. Bir necha yillar davomida O'zbekistonda yashab ijod etgan rus kompozitorlari (B.Giyenko, G. Mushel va boshqalar) va o'zbek kompozitorlari o'zbek an'anaviy musiqalarinig turli janrlari "Lapar", "Doston", "Yalla", "Ashula" va "maqom" larga murojaat etib, ijodiy tafakkuri bilan betakror musiqa namunalari yaratdilar.

O'zbek mumtoz musiqa durdonasi bo'lgan maqomlar kompozitorlik san'atida qo'llanilishi juda ahamiyatli o'rin tutadi. Asarlarda maqomlardan foydalanish bir necha turlarga bo'linadi. Bular: maqomlarning ladi, ritmik usuli va kompozitsion shaklini o'zgartirmasdan cholg'ular uchun moslashtirish (misol uchun, ijodkor biror bir maqom yo'lini tanlab, unga hech qanday o'zgartirish kiritmasdan, simfonik orkestr yoki boshqa turdagi orkestr cholg'ulari, yakka cholg'u, ovoz va xorlar uchun moslashtiradi); maqomning kuy mavzusini qayta ishlash, uning orkestr fakturasini polifonik tamoyillar bilan boyitish va shakl jihatidan o'zgarishlar kiritishi; maqom mavzusidan faqat "sitata" sifatida foydalanish; maqomlarning melodiyasi va ritmiga taqlid qilgan holda yangi asar bastalash; maqomlarning shaklu-shamoyillaridan foydalangan holda zamonaviy talqinda bastalash.

Ko'plab kompozitorlarning ijodida maqomlarga bo'lgan murojaat yuqorida aytib o'tilgan turli usullardan iborat bo'ladi. Hozirgi kundagi o'zbek kompozitorlik maktabida jahon standartlariga mos musiqa namunalari bastalash, an'anaviy musiqaning zamonaviy nota grafikasini o'rganish jarayonlari juda ham faollashdi. Ushbu yo'nalish nafaqat ustoz-kompozitorlar, balki, ijodkor-talabalar uchun ham ko'plab ijodiy imkoniyatlar eshigini ochdi. Yangi notatsiya prinsiplari va maqom shaklida hozirgi zamon cholg'u imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda asar

bastalash (bunda maqomlarning musiqiy tuzilishi, xona, bozgo‘y va peshrav kabi tuzilma qismlaridan tashkil etilishi), Yevropa klassik cholg‘ulari va o‘zbek milliy cholg‘ularini birgalikdagi jarangi kabi musiqiy amaliyotlar talabalarning kompozitorlik yo‘nalishidagi bilimlarini yanada oshirmoqda. Buning mahsuli sifatida yosh iqtidorli kompozitor Alim Mullayevning yozilgan “Отблески Востока” asarini yaqqol misol keltirish mumkin.

Quyida, “Отблески Востока” asari 1-qismining musiqiy tahlilini ko‘rib chiqamiz.

Asar “Shashmaqom”ning “Tasnifi Iroq” maqomi asosida an’anaviy cholg‘ular (nay, tanbur, ud, qonun, doira va g‘ijjak) hamda torli kvartet (2 skripka, alt, violonchel) ansambl uchun yozilgan bo‘lib, 3 qismdan iboratdir. Milliy cholg‘ularning va Yevropa cholg‘ularining bir biriga hamohang tarzda ijro etilishi, tembrlarning qorishishi maqom ohangini ko‘p ovoqlikda yangrashiga zamin yaratadi. Partiturasidagi zamonaviy elementlar va mikroxromatik sentlarning yangrashini ko‘rish mumkin.

Kompozitsiyaning musiqiy shakli-shamoyili xona va bozgo‘ylardan iborat.

Umuman olganda, maqom asarlari “xona” va “bozgo‘y” asosida shakllanadi. “Xona” va “bozgo‘y” kuy tuzilmalari bo‘lib, cholg‘u asarlari shakli ularning almashuvi asosida gavdalanadi. **“Xona”** (uy, xona) — asosiy kuy jumlasini bo‘lib, unda asarning asosiy mavzui va ohangi mujassamlangan va rivojlanish jarayonidagi shaklan va mazmunan boyitib boriladi. Kuy o‘z harakati doirasidayuqoriga intilib, avjga tomon rivojlana boradi va asta-sekin o‘zining boshlang‘ich pardasiga qaytadi. Shu tufayli, xonaning har bir kuytuzilmasi son belgisi bilan belgilanadi — Xona 1, Xona 2 va h.k. (Xp X2, X3 va h.k.).

Мушкilot-Инструментальный раздел

М.М. ♩=76
Бозгуй

ТАСНИФИ ИРОҚ

М.М. ♩=76

7 I Xona

15 II Xona

23 Бозгуй

“**Bozgo‘y**” (qaytaruv) – kuy tuzilma bo‘lib, xona mavzui-ohang asosida ifodalanadi va ijro jarayonida o‘zgarmaydigan shaklda muntazam takrorlanib (naqaratga o‘xshash) turadi. Cholg‘u asarlarida kuy xonalar bilan takomillashadi vamazmunan boyiydi, bozgo‘y esa takroriy jumlar kabi musiqiyfikrni yakunlab, umumlashtirib beradi. Demak, asar shakli xona vabozgo‘y kuy tuzilmalarining ketma-ket harakatidan shakllanadi [3, 68-bet].

Ushbu bir ovozli monodik yo‘lda yozilgan “Tasnifi Iroq” (“Shashmaqom, “Iroq” maqomi mushkilot bo‘limi) Yu.Rajabiy tomonidan notaga olingan variantidir. Asar xona-bozgo‘y shaklida, ladi (lya, si, do, re) tetraordlik ya‘ni 4 pog‘onalik “jins” dan tashkil topgan. Doira usuli “bum-bum bak”. Har bir xonada ritmik variantlilikni ko‘rish mumkin, ladida deyarli o‘zgarish sezilmaydi. Zamonaviy talqinida esa kompozitorning yondashuvi biroz kengroq (chunki ko‘p ovozlikka aylangan).

“Отблески Восток” asarining kompozitsion shakli quyidagicha:

Muqaddima + bozgo‘y + xona1 + bozgo‘y + xona2 + bozgo‘y + xona3+ bozgo‘y

Отблески Востока (Sharqning porlashi)

Настройка до и фа 36% -Сибелнус= 10.9 %

I

Alim Mullaev

Adagio $\text{♩} = 60$

Nay

Tambur

Oud

Qanoon

Doyra I

Doyra II

Gijak

Violin I

Violin II

Viola

Violoncello

Asar cholgʻu muqaddima bilan boshlanadi. Cholgʻu muqaddimada asar ladi koʻrsatib beriladi. Birinchi va ikkinchi skripkalarda kvarta intervali (Iya-re,mi Iya) flajolet akkord qilib olinadi. Violonchel va alt doira usuli bilan birgalikda pitsikato shtirixida doira usuli bilan birga usul ijro etadi. Qonun va tanbur cholgʻularida naqshinkor elementlar nay cholgʻusida kuy ijro etilishiga tinglovchini eshitishga tayyorlaydi.

Muqaddimadan soʻng bozgoʻy boshlanadi. Bozgoʻylarda deyarli oʻzgarishlar sezilmaydi.

The image shows a musical score for a piece titled "Bozgu". It consists of several staves of music. The first staff is marked *mf* and has the word "bozgu" written below it. The score includes various dynamic markings such as *mf*, *f*, and *fp*, along with articulation symbols like slurs and accents. The music is written in a staff with a treble clef and a key signature of one sharp (F#).

Bozgo‘yning kuy yo‘li asl variantdan farq qilmaydigandek ko‘rinishi mumkin, lekin, partiturada zamonaviy nota elementi bo‘lmish kichik bir belgini ko‘rish mumkin.



- ushbu belgi nota balandligini chorak ohangga oshiradi [5]. Kompozitor nima sababdan bu belgidan foydalangan?

Xalq cholg‘ularining temperatsiyalanishi, 12 yarim tonliklardan iborat sozlangan yevopa musiqa asboblardagi ijro 1 asr davomida quloqlarimizga singib ketgan. Aslida maqomlar, tarixdan nim pardalar asosida bastalangan va ijro etilganligi ko‘plab manbaalarda keltirilib

quvvatlash va rag‘batlanstirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, O‘zbekiston milliy maqom san’ati markazi, O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi tomonidan Milliy maqomlar asosidagi zamonaviy yo‘nalishdagi eng yaxshi asar (vokal va cholg‘u asarlar) Respublika tanlovi tashkil etildi. Ko‘plab iqtidorli kompozitorlar o‘z asarlari bilan ushbu tanlovda faol ishtirok etdilar. Yosh kompozitor Alim Mullayevning “Отблески Востока” asari ushbu tanlovda faxrli 3-o‘rinni qo‘lga kiritdi. Yosh avlodga milliy musiqa an‘analarini yetkazib berish ijodkorlarning asosiy vazifasi hisoblanadi va kelajakda o‘zbek milliy maqom namunalari asosida yozilgan asarlar jahon sahnalarida yangrab, e’tirof etilishiga ishonchimiz komil.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A. Jabborov, S. Begmatov, M. A‘zamova. O‘zbek musiqa tarixi. T., 2018
2. I. Rajabov. Maqomlar. T., 2006
3. R. Abdullayev. O‘zbek mumtoz musiqasi. T., 2008
4. Yunus Rajabiy. “Shashmaqom” 6/6 jild T., 1975
5. Современная музыкальная нотация — Википедия
<https://ru.m.wikipedia.org/wiki/>
6. I.Mirtalipova. Zamonaviy Garmoniya. – O‘zbekiston kompozitorlari ijodiyotida mikroxtomatika. T., 2015
7. <https://lex.uz/docs/-3581613#-3581640>
8. Nota matnlari kompozitor Alim Mullayevdan olindi.

O‘ZBEK AN’ANAVIY MUSIQASI VA UNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Sevinch XOLMURODOVA,
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSSI,
“Maqom cholg‘u ijrochiligi” ta’lim yo‘nalishi
4 kurs talabasi
Ilmiy rahbar: **Ilyos ARABOV,**
“Maqom cholg‘u ijrochiligi” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek an’anaviy musiqasi va uning asosiy xususiyatlari ilmiy jihatdan yoritiladi. Bundan tashqari o‘zbek an’anaviy cholg‘u musiqasiga xos xususiyatlar misollar yordamida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: O‘zbek an’anaviy musiqasi , Ommaviylik, an’anaviylik, Professionallik, “Tanovar”, Cholg‘u kuylari.

“O‘zbek an’anaviy musiqasi – bu ulkan badiiy meros bo‘lib, o‘z ichiga musiqa ijodiyoti va ijrochiligi namunalarini qamrab olgan; ular xalqimiz va yetuk san’atkorlar tomonidan asrlar mobaynida og‘zaki an’anada yaratilib, sayqal berilgan ma’naviy madaniyat durdonasidir. Badiiy salohiyati g‘oyat yuksakligi tufayli juda qadim zamonlardan oq bu ijodiyotining bebaho namunalarini yaratgan ijodkor - xalqimizdir. Ko‘p asrlar davomida xalq diliga jo bo‘lib, ijrochilarning tili va sozidan tushmay takomillashib, boyib, uslublar mukammallashib, janrlar tarkibi kengaytirilgan holda an’anaviy musiqa asarlari milliy qadriyatlarimiz xazinasini deb sanaladi”[1.18b].



Kelajagi buyuk davlatni qurish uchun eng avvalo ma'naviy kamol topgan insonlarni tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Darhaqiqat, yangi avlod har tomonlama baquvvat, kamolikka erishgan, o'zida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni mujassamlashtirgan, odobli, axloqli, bilimli, idrokli, farosatli, imonli, e'tiqodli, odil, halol, pok, vatan va millatiga sadoqatli, ruhiy va jismoniy sog'lom shaxs darajasiga ko'tarilgan insonlar bo'lishi zarur.

An'anaviy o'zbek musiqasi boshqa musiqa ijodiyoti namunalaridan bir necha o'ziga xos xususiyatlari bilan farqlanadi:

- **Og'zakiylik** – an'anaviy o'zbek musiqasi namunalari xalq tomonidan asrlar davomida yaratilib, og'izdan-og'izga, avloddanavlodga, ustozdan shogirdga o'tib, xalqning yetuk sozanda va xonandalari ijrosida sayqal topib kelayotgan badiiy ijod mahsulidir. Shu bois ushbu musiqaning yaratilishi va tarqalishi jonli og'zaki an'ana bilan bog'liqdir; uning namunasi qaysi shakl va janrda bo'lmasin, ijodkor xalqning orzu va umidlarini, ijtimoiy-tarixiy voqelikka bo'lgan munosabatini ifodalaydi. Bu san'atning yuzaga kelishi kishilarning mehnat tajribasini og'zaki shakllarda talqin etilishidir.
- **Ommaviylik** – omma (xalq) tomonidan badiiy ijod namunasi sifatida yaratilib, ijro etilgan va omma tomonidan targ'ib qilingan, avloddan-avlodga o'tib kelgan ommaviy ijod mahsulidir. Chunki uning asarlari butun bir ommaning ijodiy tajribasi asosida vujudga kelgan va qadimdan davom etib saqlanib, ijodkorlik va ijrochilik san'ati sifatida o'zlashtirilib, omma ijodining an'analari bo'ysungan. An'anaviy musiqa namunalari keng omma ijodi, o'zbek xalqi badiiy faoliyatining tarkibiy qismi, o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadigan og'zaki an'ana musiqasi san'atidir. U tarixiy voqealarni xalq ommasining tushunchasi nuqtai nazaridan, xalq dunyoqarashi va tafakkuridan kelib chiqib, badiiy shakllarda ifodalanadi. Omma (xalq) – ijodkor, ayni paytda ijrochi, saqlovchi va targ'ibotchi hamdir.
- **An'anaviylik** – xalq va yetuk sozandalar tomonidan ijod etilgan, sayqal topgan; uning eng yetuk namunalari, uslub va usullari an'ana sifatida saqlanib, rivojlanib kelgan. An'ana – og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga, ustozdan shogirdga o'tib keluvchi odat, ommaviy ijod mahsuli. An'anaviy musiqa namunalarida kishilarning mehnat va turmush tajribalari, dunyoqarashi va tushunchalari hal qiluvchi

ahamiyat kasb etgan. Mehnat jarayoni hamda ongning rivojlanishi voqea va hodisalar talqinida oddiy bir tovushli bayondan obrazli tasvirlashga, badiiymusiqiy tili vositalari bilan boyib, san'at namunasi sifatida namoyon bo'ldi. Asarning og'zaki yaratilishi va og'zaki ijro etilishi ularning o'zgarimas, barqaror shakllari – an'analarini yuzaga keltirgan. Chunki an'anaviy musiqasining cholg'u va aytim-ashula yo'llari o'rtasida janr e'tibori bilan ma'lum darajada tafovut mavjud bo'lsa ham, badiiy va musiqiy-ijrochilik uslub an'anaviy shaklga ega. Zero, musiqa asarlarining tuzilishi va yechimi ham real, hayotiyli bilan ajralib turadi. Har bir an'anaviy musiqasi asarlariga an'anaviylik bilan bir qatorda ijodiy o'zgaruvchanlik ham xosdir. Bu o'zgarishlar (janr yoki ijro usuli)ning barchasi puxta va mustahkam an'analar doirasida bo'ladi.

- **Lokallik** – mahalliy uslub. O'zbek millati shakllanishi jarayonida o'zbek musiqa madaniyati yuzaga kelgan. Ushbu tarixiy davrda an'anaviy musiqa ma'lum jihatlariga ko'ra o'ziga xos mahalliy uslublarga ega bo'ldi. Har bir kuylangan yoki ijro etilgan asar o'ziga xos mahalliy uslub va usullari bilan ajralib turadi. Lokallikning asosiy mezonlari: geografik muhit, qadimiy turmush tarzi, madaniy muhit, ma'lum musiqa janrlarning mavjudligi; musiqa cholg'ularini ma'lum voqea yoki hududlarda tarqalishi; o'ziga xos musiqiy tili va shevasining borligi. Ushbu mezonlariga ko'ra an'anaviy o'zbek musiqasida Farg'ona-Toshkent (Farg'ona vodiysi bilan bog'liqligi), Buxoro-Samarqand (Zarafshon vodiysi), Qashqadaryo-Surxondaryo (janubiy O'zbekiston hududlari) va Xorazm (shimoliy hudud) lokal uslublari shakllanib, rivoj olgan.
- **Funktsionallik** – har bir an'anaviy musiqa namunasiga ma'lum vazifa yuklangan, masalan, alla janriga uxlatish hamda ma'lum vazifalarni, jumladan, alla keng manoda estetik (hamda axborot, o'quv, tarbiyaviy, kommunikativ va b.) bajarib kelgan.
- **Professionallik** – mumtoz musiqa asarlari professionallik darajasi ("ustoz-shogird" mahorat maktablarini o'tishi va an'analarni o'zlashtirishi) va talablari (sozanda uchun ma'lum cholg'uga va uning ijro usullariga; xonanda uchun keng diapazonli ovozga ega bo'lishi) bilan bog'liqligi (sozandalik va xonandalik jihatlari tomonidan). An'anaviy musiqa asarlari o'ziga xos badiiy tizimga ega; har bir janr

kuy-ohang tuzilishi va rivoji, shakli va o‘zgacha ijro uslubi sifatida namoyon bo‘ladi. Aynan, cholg‘u va aytim-ashula yo‘llarining o‘ziga xos an‘analarga bo‘ysunishi, ko‘nikmalarni o‘zlashtirilishi hamda ijrochilik mahoratini namoyish etish, she‘riyat va musiqali qonuniyatlarini bilish talab etiladi.

- **Mualliflik** – an‘anaviy musiqaning mumtoz namunalari yetuk sozanda va bastakorlar mahsuli. U individual – mualliflik (ma‘lum shaxs tomonidan yaratilgan) ijodga kiradi. Birobarin, an‘anaviy musiqasida individual (ma‘lum darajada mualliflik) ijod o‘rni inkor etilmaydi. Zotan xalq kuychisi (baxshi-shoir, qo‘shiqchi, xalfa, sozanda, laparchi, yallachi, termachi) unga ijodiy munosabatda bo‘lib, o‘zidan nimadir qo‘shadi, boyitib boradi. Shuning uchun ham ijodkor (etuk sozanda yoki bastakor) tomonidan ijro etilayotgan asar hamisha “xalqniki” deb tan olingan. Ammo, aksariyat asarlarning mualliflari noma‘lum, an‘anaga ko‘ra ayrim namunalar ijodkor yoki ijrochi nomi bilan yuritilgan bo‘lib, san‘atkorning ismi asar nomida muhrlanib qolgan, masalan, *Abdurahmonbegi, Muhammasi Mirzahaqim, Saqili Sulton, Nasrullo, Ushshoqi Mulla To‘ychi, Samarqand ushshoqi* va b.
- **Xalqchilik** - an‘anaviy musiqasi o‘zining hayotiyligi va xalqchilligi bilan ajralib turadi. Xalqning mehnati, urf-odati, turmush sharoiti, orzu-istagi, kurashi va g‘alabalari, asar mavzusi va g‘oyaviy mazmunida aks etiladi. Uning namunalari ma‘lum, jumladan, o‘zbek xalqining mahsuli va u asarning matni, she‘riy va musiqiy tili hamda ijrochilik uslubi orqali namoyon bo‘ladi. Asarning xalqchilik xususiyati ularning hayotiyligi va xalqning dunyoqarashi bilan belgilanadi. Zero, xalqning butun hayotiy, ijtimoiy-tarixiy tajribasi va voqealari musiqa asarlarida xalqning munosabatlari orqali ifodalangan. Aynan bu narsa musiqa asarlari mazmuni va g‘oyasining chuqur xalqchilligini qo‘rsatadi.
- **Variantlik** – an‘anaviy musiqa asarlarining davrda-davrga, ijrodan-ijroga o‘tishida yuzaga kelgan o‘zgarishlar variantlarda aks etadi. Asarlarning kuyi, umuman musiqa va she‘riy matnlari variantlarda, bir necha namuna-nusxalarda tarqalishi variantlik hisoblanadi. Variantlar muayyan asarlarning bir-birini inkor etmaydigan, jonli og‘zaki an‘anada mustaqil yashay oladigan turli namunalardir.

“Masalan, “*Tanovar*” yigirmadan ortiq qo‘shiq va ashula yo‘llariga ega; “Lazgi” kuyining Xorazmga xos cholg‘u, raqs va ashula yo‘llari;

“Alpomish” dostoni o‘ttizga yaqin variantlari mavjud. Variantlar, asosan, hayotiy shart-sharoitlar va iste’dodli ijrochilar tomonidan ijro etish natijasida yuzaga keladi.

Variantlar mustaqil ahamiyatga ega bo‘lgan musiqiy-badiiy asos sifatida ijtimoiy va badiiy tafakkurning rivojlanish jarayonini o‘rganishda alohida ahamiyatga ega. Darhaqiqat, variantlik an’anaviy musiqa ijodining tarqalishi doirasi va xalqchilligini belgilaydi”[1.24b].

- Ijtimoiy mohiyati – an’anaviy musiqasi namunalari o‘zining hayotiyliigi, ijtimoiy tabiati, g‘oyaviy mohiyati hamda o‘ziga xos badiiy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Uning ijtimoiy qimmati ma’rifiy (tarix, dunyoqarash, munosabatga keng bilim berish), g‘oyaviy-tarbiyaviy va ma’naviy (badiiy didi, voqelikka nisbatan xalqona estetik munosabat) ahamiyati bilan belgilanadi.

Tanovor O‘zbek xalq kuyi. S.Jumayev notaga olgan

O‘rtacha tez



Davomi bor

- **Badiiylik** – an’anaviy musiqa san’ati orqali hayotni haqqoniy aks ettirilishishi va bilishligi; san’atkor (ijodkor va ijrochi) talqin etgan ijtimoiy idealning muhimligi; har bir asarning ahamiyati, halqchilligi, asarning shakl va mazmun birligiga erishishdagi mahorati; asar ijtimoiy-madaniy va axloqiy-tarbiyaviy ta’sirining kuchli va barakali bo‘lishi bilan ajralib turadi. An’anaviy musiqa namunalari pokiza, xalqona va falsafiy tuyg‘ular, boy ezgu niyatlar, sof insoniy go‘zal kechinmalar yorqin ifodasini topgan, shu bois ular o‘zining mavzui, mazmuni, shakli va ichki qonuniyatlari fazilari, betakror badiiy

uslublari, boy ijodiy-ijroviy an'analari bilan yuksak badiiy qimmatga (badiyyatchilikka) ega..

- ***Badihago'ylik*** – maxsus tayyorgarliksiz, birdan aytilgan qo'shiq yoki ijro etilgan kuy (san'atda improvizatsiya, eksprompt). Xalq cholg'u va aytim yo'llari ko'pincha badiha tarzida, ma'lum mavzuda hozirjavoblik bilan asarlarni yaratish va mohirlik bilan yoritish yoki ijro etish usuli. Cholg'u kuyi (cholg'u chaqiriq, usuli yoki ohangi), qo'shiq (“Alla”, “Yor-yor”, “Mayda”, “Sust xotin”) yoki aytishuvlar (“O'lan”, “Muborak”, “Baytxonlik”) improvizatorlik namunasidir.

Ko'p janrlilik – an'anaviy musiqasi o'zining mavqei, funktsionallik va ijrochilik uslublariga ko'ra cholg'u va aytimashula janrlariga ega; ular xilma-xil. An'anaviy musiqa janrlari g'oyaviy-tematik va badiiy xususiyatlari bilangina emas, balki ijro usullari jihatidan ham bir-birlaridan faqr qiladilar. Shu bilan ular tarixan tarkib topgan yahlit tizimdir; ammo barcha cholg'u va aytim-ashula yo'llari murakkab o'zaro aloqada bo'lib, bir-birlarini boyitadilar.

- ***Ko'p mavzulik*** – turli va rang-barang mavzu va mazmunlarni boyligi va serqirraligi. O'zbek xalqining tarixi, urf-odati, maishati, orzu-umidlari, dunyoqarashi, ijtimoiy munosabatlari va turmush tarzining ifodasi an'anaviy musiqaning o'ziga xosligi bilan izohlanadi. Har bir asar o'zgacha ichki qonuniyat (kuy, ohang, ritm, lad, usul, shakl)lari bilan ajralib turadi.

- ***O'ziga xos ijrochilik uslubi va ijro maktablari*** – har bir hudud yoki vohaning o'ziga xos mahalliy ijrochilik maktablari, an'analari saqlanib, rivoj olishiga namoyandalar faoliyatlari bilan mahkam bog'liq. Ijrochilik sohasida san'atkorlar “ustoz-shogird” an'anasini yuzaga keltirib, uni qadimdan bevosita qo'llagan holda faoliyat ko'rsatib, mahorat maktablarini shakllantirgan. An'anaviy musiqasi ijodiyoti va ijrochiligi maqomchilik, baxshichilik, sozandachilik, ashulachilik, qo'shiqchilik (lapar, qo'shiq, yig'i) kabi o'ziga xos maktablari bilan jilolanadi. Ularda og'zaki an'anada bilim va ko'nikmalar o'zlashtirilib kelingan.

An'anaviy musiqaning har bir namunasi asrlar davomida ko'plab iste'dodli sozanda va xonandalar tomonidan nihoyatda sayqallanib, yuksak san'at asari darajasiga ko'tarilgan. An'anaviy musiqa ijodiyoti va ijrochiligida bir-biriga o'xshamagan yangidanyangi asarlar yaratilgan va

ajoyib ijro uslublari yuzaga kelgan. An'anaviy san'atimizning ulkan bilimdoni, ustoz Yusuf qiziq Shakarjonov shunday ta'riflaydi: "Milliy musiqa san'atimiz bamisoli daraxt bo'lib, uning tomiri Xorazm, tanasi Buxoro, shoxlari Farg'onadir" ("O'zbekiston san'atini bir daraxt desak, uning ildizi Xorazmda, tanasi Buxoro, Samarqandda, shohlari vodiya va Toshkentga kelib gullaydi").

An'anaviy musiqaning cholg'u va aytim-ashula yo'llaridagi asarlarni ardoqlash, saqlash, o'rganish va o'zlashtirish yosh avlodimizning muqaddas burchidir. Demak, estetik sezgilarimiz ravnaqida go'zallikni, badiiy so'z qadr-qimmatini, ona tilimiz boyliklarini va musiqiy tili-shevasini his qilishimizda an'anaviy musiqaning o'rni beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rustambek Abdullayev. An'anaviy o'zbek musiqasi asoslari. Toshkent 2022;
2. O'ktam Mirzayev. Cholg'u ijrochiligi va ansambli. Navoiy 2019;
3. Abdullaev R. O'zbek mumtoz musiqasi. Toshkent, 2006;
4. Fitrat A. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. Toshkent Samarqand, 1927; Toshkent, 1993.

ATOQLI BASTAKOR NABIJON HASANOV IJODIY MEROSIDA MUMTOZ YALLA JANRI

*Navro‘za TURSUNALIYEVA,
O‘zDK, San‘atshunoslik: (musiqashunoslik)
ta‘lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi.
Ilmiy rahbar: Shahnoza AYGODJAYEVA,
O‘zDK, “O‘zbek musiqasi tarixi” kafedrasida dotsenti,
san‘atshunoslik fanlari nomzodi.*

Anonnatsiya: Mazkur maqolada bastakor Nabijon Hasanovning mumtoz yalla janrida yaratilgan “O‘ynab o‘ting shabbodalar” asari imkonqadar atroflicha o‘rganilib yoritildi.

Kalit so‘zlar: Nabijon Hasanov, bastakor, milliy, mumtoz yalla, ijodiyot, ijro, usul

O‘zbek xalq musiqasi merosi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Musiqashunos olim T.B.G‘ofurbekov yozganidek, “Milliy bastakorlik san‘ati-yillar va asrlargina emas, balki ming yilliklar davomida barcha sinovlarga bardosh berib, usluban sanog‘i yo‘q musiqiy bitiklar tevaragida o‘z an‘analarini yo‘qotmay kelmoqda”⁸. Albatta, hammaga ayonki, o‘zbek bastakorlik ijodiyoti davrlar osha rivojlanib, sayqal topgan.

“O‘zbekiston milliy musiqasi san‘atining o‘tgan asrdagi taraqqiyot bosqichlari shu zamon ijtimoiy voqelik va hodisalari bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. E‘tirof etish joiz, 1950-yillardan e‘tiboran ijodkorlik uslubiyati tom ma‘noda an‘anaviy, mohiyatan esa ayni zamonaviy o‘zbek bastakorlik ijodiyoti yana bir bor gullab-yashnagan davrni boshidan kechirdi. Shunday ekan, endilikda hassos bastakorlar tomonidan bunyod etilgan musiqiy qadriyatlar mazmun-qiyofasini ochib berish, voqelik tarannumi xosiyatini idroklash, qolaversa o‘tgan va hozirgi zamon badiiy qonuniyatlar silsilasini teran tushunib olish kabi muhim vazifalar musiqiy madaniyatimizning kelgusi ravnaqi uchun alohida ahamiyat kasb etadi”⁹. Shu yo‘sinda, O‘zbekiston xalq artisti,

⁸ Begmatov S. Bastakorlar ijodi, Toshkent, 2017-yil, 8-bet.

⁹ Yunusov.R. Faxriddin Sodiqov. Toshkent, 2005-yil, 5-bet.

sozanda va bastakor Nabijon Hasanov 1920-yil musiqa san'atiga ilk qadam qo'ygan. "Bastakorning jozibali va dilrabo qo'shiq, ashula va yallalari, sahna asarlariga bastalagan musiqasi xalq yuragidan joy oldi, o'zbek musiqa san'atiga yorqin iz qoldirdi¹⁰. Bastakor ijodini o'rganar ekanmiz, rang-barang janrlarda ijod qilganligiga guvoh bo'lamiz. Jumladan, "Yarashdi", "Ko'rdim", "Yuzingni sog'indim" nomli ashulalari, "Gulchexralar", "O'n sakkiz yoshligim", "Intizor", "Ne bo'ldi" kabi qo'shiqlari, "Sallamno", "Qizlar vals", "Baxt yallasi", "Yor qo'ynida" singari yalla-lapar janridagi asarlari xalqimiz qalbidan munosib o'rin olgan. Mazkur maqolamizda hassos bastakorning mumtoz yalla janrida yaratilgan "O'ynab o'ting shabbodalar" asariga murojaat etib, uni baholiqudrat yoritishga jazm qildik. Taniqli shoir S.Qo'qonbekov qalamiga mansub she'rga bastalangan "O'ynab o'ting shabbodalar" mumtoz yallasi bastakorning bag'oyat nafis asarlaridan biri hisoblanadi. Mazkur asar mashhur xonanda Ergash Yo'ldoshev ijrosida maromiga yetkazib kuylangan. U o'zbek bastakorlik ijodiyotidagi mumtoz yalla janrining eng noyob namunalaridan biridir.

Asar 6/8 o'lchovda, allegro sur'atida, *f* dinamikasida quvnoq, shiddatli tarzda bayon etiladi. Cholg'u muqaddimani tashkil etuvchi 6 taktli kuy tuzilmasi butun asar davomida takrorlanib, qismlar orasidagi bog'lovchi vazifasida keladi va cholg'u jo'rligining o'ziga xos naqorati vazifasini o'taydi:



Ijodkor Nabijon Hasanov ushbu asarini o'zbek milliy musiqasiga xos jo'shqin ufar usuli jo'rligida bayon etadi. Ufar usuli uni bir tomondan quvnoqligi, raqsboqlikiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan asarni xalq musiqasiga yaqinlashtiradi:



Ilk jumlaning boshlanishiyoq dinamik jihatdan harakatchan bo'lib, "Dildor o'tar bog' qo'ynidan" so'zlari bilan o'ynoqi harakterda hayajonli

¹⁰ Jabborov A. O'zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari (Ma'lumotnoma to'ldirilgan 2-nashr), Toshkent, 2015-yil, 391-bet

tarzda yangraydi. Asar jozibali, ajib xarakterda bo‘lib, rivojlanishi muayyan ohang takroriga asoslanadi:



She‘r matnining “Kuylab o‘ting shabbodalar, o‘ynab o‘ting shabbodalar” kabi misralari naqorat qismi sifatida keladi:



So‘ngra cholg‘u muqaddimasi yangrab, ikkinchi jumla boshlanishiga xizmat qiladi. Ko‘rinib turibdiki, har bir band boshlanishidan oldin cholg‘u musiqasi ijro etilishi, keyingi musiqiy-she‘riy band boshlanishi uchun ogoh etayotgandek ko‘rinadi.

Mumtoz yalla dastlab 1-oktava sol tovushidan boshlangan bo‘lsa, ikkinchi bandga kelib rivojlanib re 2-oktava tovushida baland registrda davom etadi. Ya‘ni, bunda kuyning dastlabki jumlasini nisbatan soddaroq tuzilishi bilan ajralib tursa, ikkinchi bandning baland sadolanishi, ovoz ko‘lamining rivojlantirilgan ko‘rinishda berilishi uchinchi jumlada avj qismining yanada boyitilishiga zamin yaratadi:



Ikkinchi qism va uchinchi qismlar orasidagi cholg‘u muqaddimadan so‘ngra keluvchi avj kuyning eng yuqori pardalarini o‘zida mijassamlashtirgan. Mana shu yo‘sinda, ansambl ijrosi hamda xonanda hamnafasligida “o jon” hanglari asarni rivojlantirib, avj qismi tengsiz darajada yangrashiga xizmat qiladi:



Mazkur musiqiy parcha ancha davomli o‘ynoqi ohanglar, ifodaviy vositalar yordamida rivojlantirilganini ko‘ramiz. Oxirgi band yakunlovchi qism vazifasini o‘tab asarni xotimalaydi.



Kuy baland registrda sadolangan holda tantanovor tugallanadi, ammo badihago'ylik uslubidan foydalangan xonanda Ergash Yo'ldoshev ilk jumlani yana bir bor takrorlash orqali avj qismi bilan yakunlaydi. Ijrochi g'oyoki tinglovchilarga yana bir asarni eslatib o'tgandek talqin qiladi.

Xulosa qilib shuni ayish mumkinki, hassos bastakor Nabijon Hasanov "O'ynab o'ting shabbodalar" asarini bastalar ekan, mumtoz yallalarni xalq yo'lidagi yallarga nisbatan keng diapazonliligi va rivojlangan kuyi bilan farqlanishini mahorat bilan ko'rsatib bergan. San'atshunoslik fanlari doktori, professor, musiqashunos Rustambek Abdullayevning mumtoz yallaga berilgan ta'rifi quyidagicha: "Mumtoz yalla keng tarqalgan qo'shiq-raqqimon janr bo'lib, ishqiy-lirik mazmuni bilan yakkanavoz (xonanda va yallachi tomonidan) cholg'u ansambli jo'rligida ijro etiladi. Mumtoz yallalar xalq yo'lidagi yallarga nisbatan keng diapozonli bo'lib, uning she'rdagi har bir bandi va raqs harakatlari yakkaxon yallachi, naqorati esa guruh tomonidan cholg'u jo'rli (ko'proq doira va dutor) da aytib kelingan ¹¹". Bastakor aynan shu yo'sinda asarni jozibali xarakterda tasvirlab, uning rivojlanishini muayyan ohang takroriga asoslagan. So'z va ohang uyg'unligi asarda o'ziga xoslik bilan talqin etilgan. Bastakor asar mazmuniga monand ohanglar hamda nozik did bilan cholg'u va yallaga xos bezaklar hamda raqsob musiqiy vositalar yordamida birmuncha murakkab bayon etib navbatdagi muvaffaqiyatga erisha olgan. U bunday benazir asarlardan 200 dan ortig'ini yaratdi. Nabijon Hasanov O'zbekiston musiqa madaniyatida nafaqat sozanda, balki atoqli bastakor sifatida ham o'chmas iz qoldirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yunusov.R. "Faxriddin Sodiqov "Monografiya, Toshkent, 2005.
2. Jabborov A. O'zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari (Ma'lumotnoma to'ldirilgan 2-nashr), Toshkent, 2015.

¹¹ Abdullayev R. An'anaviy o'zbek musiqa asoslari. Toshkent, 2022-yil, 181-bet

3. Abdullayev R. Aʻnanaviy oʻzbek musiqa asoslari, Toshkent, 2022.

4. Begmatov S. Bastakorlar ijodi, Toshkent, 2017.

FARRUX AKRAMOV FORTEPIANO IJODIGA CHIZGILAR

Muslima BAXTIYOROVA,

*OʻzDK, Sanʼatshunoslik: (musiqashunoslik)
taʼlim yoʻnalishi 2-kurs talabasi.*

Ilmiy rahbar: Chinora ERGASHEVA,

*OʻzDK, “Oʻzbek musiqasi tarixi” kafedrasida dotsenti,
sanʼatshunoslik fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD).*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada kompozitor Farrux Isomiddinovich Akramovning fortepiano ijodi haqida bayon qilingan. Forteplano ijodidagi oʻziga xos xususiyatlar hamda sharqona chizgilar – forteplano uchun yaratilgan 2 asari misolida keltirilib, ushbu 2 asarning musiqiy tahlili va ular oʻrtasidagi umumiy-nouumumiy jihatlari vositasida oʻz ifodasini topgan.*

Kalit soʻzlar: *Pesa, dasturiylik, romantizm, impressionizm, trio, koloristika, obrazlar dunyosi.*

Yosh iqtidorli kompozitor, Oʻzbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi aʼzosi, xalqaro va respublika tanlovlar sovrindori Farrux Isomiddinovich Akramov 1985 yilning 2 sentabrida Buxoro shahrida tavallud topgan. Kompozitor ilk musiqiy tahsilni A.Ixtiyorov nomidagi 5-son bolalar musiqa va sanʼat maktabida boshlagan. 2001 yildan boshlab M.Ashrafiy nomidagi Buxoro davlat sanʼat kollejida, (2002 yil oʻqishni Hamza nomidagi Toshkent davlat sanʼat kollejiga koʻchirgan), 2004 yildan Oʻzbekiston davlat konservatoriyasi “Kompozitorlik va cholgʻulashtirish” yoʻnalishida tahsil olgan. 2011 yil 2-yarmidan boshlab, V.A.Uspenskiy nomidagi RIMALda musiqa nazariyasi fanlari boʻyicha ustoz sifatida faoliyat yuritadi. 2021 yilda Oʻzbekiston davlat konservatoriyasi “Kompozitorlik va cholgʻulashtirish” kafedrasiga ishga taklif qilinadi va ish faoliyatini oliy taʼlim muassasida davom ettiradi. Kompozitorning koʻplab forteplano

uchun yaratgan asarlari konservatoriya talabalari tomonidan ijro etilib kelinmoqda.

Farrux Akramovning fortepiano ijodi – obrazlar dunyosi, yaratgan asarlaridagi sharqona bo‘yoqlar, garmoniyaning o‘ziga xosligi hamda turfa hil mavzular bilan yo‘g‘rilgandir. Bu fikrimizning isboti sifatida quyida kompozitor ijodidagi 2 asarning tahlilini keltirib o‘tishni lozim topdik.

Bu ikki kompozitsiya – “Jilg‘a” va O‘zbek qizi asarlari bo‘lib, bu ikkala asar uchun ham dasturiylik xosdir. Ularning ikkovi ham murakkab 3 qismli shaklda yaratilgan bo‘lib, lirik mavzuga asoslanadi (“O‘zbek qizi”ning 2-qismi quvnoq, raqsona xarakterdagi mavzu).

Dasturiylikning o‘ziga xosligi shundaki – “Jilg‘a” asarida tabiat manzarasi figuratsion vositalar yordamida taqdim etilgan bo‘lsa, “O‘zbek qizi”da esa, o‘zbekim qizlarining nozik, nafis xarakteri va obrazi lirik ohang yordamida keltiriladi (2-qismda raqsona ohanglar o‘zbek milliy musiqasini yodga soladi). Bunda har ikkala dasturni qiyoslangan taqdirda – “Jilg‘a” romantik yo‘nalishda, “O‘zbek qizi” kompozitsiyasini esa impressionizm yo‘nalishi namunasi deb topdik (sababi, ma’lum musiqiy vositalar yordamida emas, obrazning xarakteristikasi ochib berilganligida. Ma’lumki, impressionizm oqimida asosiy mavzu, obraz va uning mohiyatini chuqur anglashda kompozitsiyaga berilgan nom muhim ahamiyat kasb etadi).

Quyida 2 asarning tahlilini keltirib o‘tgach ular o‘rtasidagi farqli va umumiy jihatlarni imkon qadar yoritib beramiz.

Farrux Akramov – “Jilg‘a”

Farrux Akramovning “Jilg‘a” nomli asari mi minor tonalligida yaratilgan. Nomidan ma’lum bo‘ladiki asarga dasturiylik xosdir. Gomofon-garmonik fakturada yozilgan asarning 2/4 o‘lchovda, tez sur’atda ijro etilishi – etyud janriga moyillikni his ettiradi (musiqiy lahza, musiqiy manzara, fantaziya kabi miniatyura janrlari ham “Jilg‘a” uchun xos bo‘la oladi).

Jilg‘a asari – musiqiy chizmalari jihatdan romantizm yo‘nalishi namunasi sifatida taassurot qoldiradi. Fikrimizni asarning triollar orqali suvning toshda-toshga urilib oqishi tasviri misolida sodda garmonik

figuratsiyalar jo‘rligida asosiy kuyning lirik, kantilenali hamda emotsional rivojlanishi bevosita tasdiqlay oladi.

“Jilg‘a” murakkab 3 qisimli shaklda yaratilgan. Asarning strukturasi:

A A₁ A | B B₁ B | A A₁ A | Coda

Murakkab 3 qisimli shaklning birinchi qismi oddiy 3 qisimli shaklda yozilgan. 4 taktli muqaddimadan so‘ng, tonika va II bosqich sekstakkordi nisbatidagi garmonik figuratsiyalar jo‘rligida asosiy mavzu yangraydi. Asosiy mavzu – mayin, kuychan, lirik xarakterga ega.

Asosiy mavzu (A) dan so‘ng unga qarama-qarshi bo‘lmagan (A₁) mavzu yangraydi. Bu mavzu asosiy mavzu bilan ritmik va faktura jihatdan farq qilmaydi. Unda faqat garmoniya minor (kichik) dominantasi va tonika sekundakkordiga o‘zgaradi va kuy ham unga mos tus oladi. Bu mavzu xarakteri asosiy mavzudan keskinligi va shaxdiyati bilan biroz farq qiladi. Asosiy mavzuda kuyning yo‘nalishi tonallikning tonika uchtovushligi orasidagina rivojlangan bo‘lsa, bu qismda garmoniyaning o‘zgarishi taqazosida ko‘pgina sakramalar va deklamatsiyali bayon kuzatiladi.



Mavzuning ohirida yana asosiy mavzuga qaytish maqsadida tonika va minor dominantasi nisbatidagi garmoniyadan foydalaniladi. Reprizada asosiy mavzu hech qanday o‘zgarishlarsiz (statik) to‘liq yangraydi.

Oddiy 3 qisimli shaklda yaratilgan murakkab 3 qisimli shaklning 2-qismi (trio) da asosiy mavzuga kontrast kuzatiladi. Bu qismda 1-qismga nisbatan – dinamik, melodik, ritmik kontrast mavjud. 1-qismda garmonik figuratsiyalar skripka kalitida ifodalangan bo‘lsa, endi bas kalitida – (xuddi suvning toshga urilgandagi tasviri kabi) qisqa va bo‘lingan tarzda ifoda etiladi. 1-qismda garmoniya har taktida aynan takrorlangan bo‘lsa (A – tonika – II bosqich sekstakkordi, A₁ – minor (kichik) dominantasi va tonika sekundakkordi), bu qismda deyarli har taktida va taktlararo garmoniyaning almashinishi kuzatiladi. Kuy ham anchayin (1-qismga nisbatan) harakatchan tus oladi.

Bu qismning mavzusi suvning toshdan-toshga urilib, shiddatli oqishini aks ettiradi. Xuddi jilg'a – bir toshdan boshqa toshga urilganda garmoniyalar o'zgarib, kuy (suv misolida) boshqa yo'nalishga intilayotganday go'yo. Mavzu – tonika va yondosh funksiyalar nisbatidagi garmoniya jo'rligida (tonika (tersiyasiz) va II bosqich (kvartali) nisbati; III, VII va tonika nisbati), kuyning shiddatli va ohangdor rivojlanishi orqali ifodalanadi.



Bu mavzuda kvarta sakramalari, tabiiy minor ladidagi kuyning tonika tomon tortilishi, forshlaglar, qism so'ngida kuyning sekvensiya orqali tonikaga harakatlanishi – bularning barchasi kuy tuzilmasining naqadar sharqona bo'yoqlarga boy ekanligidan dalolatdir.

Shaklning 2-qismida asosiy kuy garmonik figuratsiyalarda yashirin (43-takt). Mavzuning asosiy xususiyati ham aynan shunda. Xar ikki qo'l partiyasida garmonik figuratsiyalar (tonika nisbatida), asosiy kuy esa o'rta ovozda yangraydi.



Bu qism juda qisqa bo'lib, reprizaga o'tish vazifasini bajaradi deyish ham mumkin, sababi hech qanday kuy rivojga ega emasligida.

Repriza ma'lum darajada (dinamik) o'zgarishlarga ega. Uning yakuniy jumlasiga tabiiy ravishda keyingi bo'limga – murakkab 3 qismli shaklning yakuniy (repriza) qismiga o'tish vazifasi yuklatilgan. Unda tonikaga sekvensiyali tortilishlar



hamda garmonik figuratsiyalar orqali tonikaning ketma-ket takrorlanishi barobarida mustahkamlanishi kuzatiladi.



Reprizaning har uchala qismi (A A₁ A) o‘zgarishlarsiz, to‘laligicha (statik) yangraydi.

Asar anchayin katta hajmdagi kodaga ega. Unda shaklning birinchi qismidagi garmonik figuratsiyalar hamda ikkinchi qismidagi shiddatli mavzudan olingan forshlaglar uyg‘unlashganligining guvohi bo‘lamiz.



Garmoniyada tonika va II bosqich uchtovushliklari nisbati orqali tonikaning mustahkamlanishi hamda 2-qismga hos bo‘lgan – sekvensiya orqali kuy tuzilmasining tonikaga intilishi kuzatiladi. Asar oktavalalararo tonika uchtovushligining takrori bilan yakunlanadi.

Farrux Akramov – O‘zbek qizi

Farrux Akramovning “O‘zbek qizi” asari murakkab 3 qismli shaklda, fa minor tonalligida yaratilgan. Dasturiylikka xos jihatlari mavjud ekanligi sababli asarni impressionizm yo‘nalishi sifatida ta’riflash mumkin. Bu fikrimiz isboti tariqasida – yaqqol tasviriylikka xos xususiyatlar ko‘zga tashlanmasligi, faqatgina kompozitorning o‘z tasavvurida o‘zbek qizini gavdalantirganligini ayta olamiz. Albatta, sharqona obraz tasviri uchun ham melodiyada, ham garmoniyada kvarta-kvinta nisbati, akkordlar (intervallar) da sekunda va kvartali nisbatlar, shaklning 2-qismida 6/8 o‘lchovi, sinkopali ritm hamda forshlaglardan keng foydalanilgan (bularga quyida – tahlil jarayonida alohida to‘xtalamiz), ammo asar nomini bilmay turib, faqatgina yuqorida aytib o‘tilgan jihatlar orqali obrazning asl mohiyatini anglash mushkul masala.

Asar bir-biridan tubdan farq qiluvchi qismlar bilan fantaziya janriga moyillik his ettiradi. Deyarli barcha qismlar maxsus “o‘tish” (perexod) lar bilan ajralib turadi.

“O‘zbek qizi”ning shakl strukturasi:

A B A₁ | C D C – coda | A B₁ A | Coda

Murakkab 3 qismli shaklning 1 qismi oddiy 3 qismli shaklda yaratilgan. 1 qismning asosiy mavzusi fa minor tonalligida, lirik (kvarta nisbatidagi) intonatsiyalar joʻrligidagi tonika, (minor) dominantanta va subdominantanta kvintsekkordni nisbatidagi akkordlar bilan yangraydi. Asosiy mavzuga mayin, xuzunli xarakter xosdir. 1 qism – davra, kvadrat (4+4 takt) va (oʻzgararuvchi) takroriy tuzilishga ega boʻlgan 2 jumlagacha ajraladi. Davra soʻngi (2-jumla yakuni) da asosiy tonallikning VII bosqichi (Es-dur) ga modulyatsiyaning kvartali intonatsiyada yangrashini – oʻzbek qizining shaxsiyatini tasvirlaydi.

Shaklning 2 qismi (B) da garmonik figuratsiyalar yordamida lirik mavzu rivojlanadi. Qism mavzusi va garmonik figuratsiyalar uygʻunlashib ketishi natijasida asosiy kuyni ilgʻab olish mushkullik tugʻdiradi va bu jarayonning sodda garmoniyalar (VI bosqich va minor dominantasi nisbati) yordamida amalga oshirilganligi eʼtiborga molikdir.

Shaklning reprizasiga “oʻtish”da sekstali dominantsekundakkord orqali Iya-bemol major tonalligiga ishora beriladi, ammo soʻngra darhol (dinamik) reprizaga oʻtiladi.



Reprizada asosiy mavzu 2-qismdagi garmonik figuratsiyalar bilan birga keladi. Kuy garmonik figuratsiyalarning birlashuvi mavzuga shaxt va dinamik jihatdan oʻsish bagʻishlaydi. Bu esa surʼat jihatdan tezroq boʻlgan murakkab 3 qismli shaklga oʻtish uchun qulaylik yaratadi hamda moslashish (adaptatsiya) jarayonini hosil qiladi (repriza statik boʻlgan taqdirda, birdaniga sekin surʼatdagi lirik mavzudan 6/8 oʻlchovdagi raqsona ritmga ega boʻlgan qismga oʻtilishining mantiqan erish tuyulishi ehtimoli nazarda tutilmoqda).

Murakkab 3 qismli shaklning 2 qismi (trio) ga 2 ta “oʻtish” mavjud. Bulardan biri oldingi qismning reprizasiga “oʻtish”dagi intonatsiyaning garmonik figuratsiyalar bilan kelgani;



ikkinchisi esa raqsona trioning o‘lchovidagi (fa minor uchun III bosqich, yangi qism tonalligi uchun VII bosqich bo‘lgan) uchtovushlik akkordlar gemiolasi.



Trio – si-bemol minor tonalligi [s=t] da yaratilgan bo‘lib, 6/8 o‘lchov, raqsona sinkopali ritm, tez sur‘atdagi akkord fakturasiga ega bo‘lgan kuy tuzilmasini o‘zida birlashtiruvchi oddiy 3 qisimli shakldan iborat.

1 qism (S) – davra, kvadrat (8+8 takt) va (o‘zgararuvchi) takroriy tuzilishga ega bo‘lgan 2 jumlagga ajraladi. Kuy tuzilmasi – tonika, III, VII bosqich hamda subdominanta uchtovushliklari va aylanmalari jo‘rligida rivojlanadi.

2 qism (D) – kuy tuzilmasi trioning 1 qismidan ritmik jihatdan biroz farq qilsa-da, garmonik (akkordlarning qo‘llanilish o‘rni) jihatdan deyarli farq qilmaydi. Garmoniya – subdominanta, III, VI, VII bosqich nisbatidagi akkordlar yordamida rivojlanadi.


Reprizada davraning faqatgina 1 jumlagi o‘zgarishlarsiz yangraydi.

Trioning kodasi 2 bo‘limga ajraladi. Biri trio mavzusi kuyi va ritmikasiga juda yaqin bo‘lib, sinkopali ritmda, subdominanta va III bosqich nisbatidagi akkordlarining takroridan tashkil topadi, ikkinchisi esa – sinkopa ritmidagi kuy tuzilmasining (yetakchi akkordlar, minor dominantasi hamda tonika nisbatidagi) akkordlar jo‘rligida sekvension tarzda si-bemol tonalligiga intilishi.

Repriza [d=t] da birinchi qism hech qanday o‘zgarishlarsiz – statik yangraydi. Reprizaning 2 qismida garmonik figuratsiyali kuy tuzilmasiga ega bo‘lgan 2 qism mavzusi biroz o‘zgargan holda takrorlanadi (garmoniyaning murakkablashuvi kuzatiladi).

Asosiy mavzuga o‘tish uchun qismga “o‘tish”da – 1 qismdagi (B) dan (A) ga o‘tishdagi intonsiyadan foydalanilgan. Asosiy mavzu odatdagidek statik yangraydi, ammo so‘ngida do minorga modulyatsiya amalga oshiriladi va koda yangraydi.

Kodada do minor tonalligiga ishora qilinadi (politonallilikka xos xususiyatlar mavjud bo‘lib, so‘ngi akkord va o‘ng qo‘l partiyasidagi intervalning tonal farqi – s-moll hamda f-moll orqali ham bu xulosaga kelish mumkin)



va deyarli barcha “o‘tish”larda qo‘llanilgan intonatsiyaning kvarta intervali nisbatida kelishi va takrori bilan asar nihoya topadi.

Ikkala asarning tahlilidan ham ko‘rinib turibdiki, bu asarlar obrazlar dunyosi, mavzuiylik, ritmika, dasturiylik, “o‘tish” bo‘limlari, lad-tonal hamda garmonik jihatdan puxta ishlangan bo‘lib, ularda sharqona jiloviy koloristikasi keng qo‘llaniladi (ayniqsa, ikkala kompozitsiyaning ham ikkinchi qismlarida). Bunda, kompozitsiyalarda keng qo‘llanilgan akkordlar tovushlarining sekundali nisbati, garmonik figuratsiyalardagi kvarta hamda kvinta intervallari nisbati, melizmlar, ohang va ritm uyg‘unligidagi o‘ziga xosliklar, (har ikkala asar o‘rta qismlaridagi sinkopa, punktir kabi raqs xarakteriga xos bo‘lgan ritmlar sharqonaviylikka moyillikni his ettiradigan vositalardandir) – bularning barchasi o‘zbek sharqona musiqasi koloristikasini namoyon qiladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, o‘z fortepiano ijodida kompozitor Farrux Akramov klassik shakllar (aniqlik) va romantik hamda impressionistik yo‘nalishdagi dasturiylikka xos bo‘lgan musiqalari ila sharqona jilolar hamda milliy raqsona ohanglar va ritmika vositalarini birlashtirgan holda yaratgan asarlari bilan o‘zbek musiqasi san’ati rivojiga munosib hissa qo‘shib, milliy merosimizni yangicha g‘oyalar tasarrufida boyitib bormoqda. Kompozitorning bu sa’y-harakatlari sharqona ruhdagi musiqaning dunyo miqyosida yuqori cho‘qqilarga erishishi uchun zamin yaratishiga tilakdoshmiz!

BUXORO IXTISOSLASHTIRILGAN MAQOM MAKTAB- INTERNATI FAOLIYATI

Marjona AXMEDOVA,
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMMSI,
San’atshunoslik: (musiqashunoslik) ta’lim yo‘nalishi
2-kurs talabasi.

Ilmiy rahbar: **Shaxida BERDIXANOVA,**
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMMSI,
“O‘zbek maqom tarixi va nazariyasi” kafedrasida katta o‘qituvchisi,
san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Annotatsiya: Ushbu maqolada maqom san’atini yosh avlodga o‘rgatish, keng targ‘ib etish borasida olib borilayotgan islohatlar, jumladan ixtisoslashtirilgan maktab internatlarini tashkil qilinishi va Buxoro ixtisoslashtirilgan maqom maktab-internatining faoliyati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Maqom san’ati, cholg‘u ijrochiligi, an’anaviy xonandalik, ixtisoslashtirilgan maqom maktab-internati.

Ma’lumki maqom san’ati o‘zining ko‘p asrlik tarixiga ega. Maqomlarning yuzaga kelishi – insoniyat tafakkurining juda uzoq davrlar mobaynida olib borgan izlanishlarining samarasidir. O‘rta asrlarda maqomotning yoyilish hududi ancha kengayib, navlari ko‘payadi, falsafasi teranlashadi, o‘zi murakkablashadi. Turon, Eron va Arab Sharqi el-yurtlarida yaralgan so‘zli va sof cholg‘u maqom navolari katta kichik, saroylarda ham, shahar musiqa shinavandalari o‘rtasida ham mashhur bo‘lgan holda avloddan – avlodga og‘zaki tarzda o‘tib rivojlanaveradi. Shu tariqa gullab yashnash davrini boshidan kechirgani ayon. Maqomlar to‘liq va mukammal holda asosan saroyda ijro etilgan. Eng mohir va hassos maqomdonlar ham aynan amir uchun xizmat qilgan [1.35].

So‘nggi yillarda madaniyat va san’at sohasini tubdan isloh qilish va takomillashtirish, madaniyat va san’at muassasalarini davlat tomonidan qo‘llab - quvvatlashning samarali tizimini yaratish maqsadida tizimli ishlar olib borilmoqda [2.35]. Jumladan, muhtaram Yurtboshimiz tomonidan 2017-yil 17-noyabrdagi “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 6-apreldagi

“Xalqaro maqom san‘ati anjumanini o‘tkazish to‘g‘risida”, 2018-yilda “Maqom ansambllarini tashkil qilish”, 2019-yilda Marg‘ilon shahrida “Musiqali maqom teatri” tashkil etish va 2020-yilda Farg‘ona, Buxoro, Xorazm viloyatlarida maqomga ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarini tashkil qilish to‘g‘risidagi qarorlari o‘zbek mumtoz musiqa tarixida yangi bir davrni boshlab berdi.

Maqomga ixtisoslashtirilgan maktab-internatining asosiy vazifalari qilib, o‘quvchilarni maqom ichrochiligi yo‘nalishida o‘qitishning zamonaviy ilg‘or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish, maqom san‘ati bo‘yicha bilim va tushunchalar, tarixiy va milliy an‘analarni puxta egallagan yosh kadrlarni tayyorlash, ta‘lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va innovatsion texnologiyalarni, madaniyat va san‘at sohasida ilm – fan bo‘yicha erishilgan ilg‘or yutuqlarni joriy etish belgilab berilgan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qarorlari asosida tashkil qilingan Buxoro maqom maktabi 2020 – yil sentabr oyidan “Abdurauf Fitrat nomidagi Buxoro maqom san‘atiga ixtisoslashtirilgan maktab-internati” nomi ostida o‘z faoliyatini boshlagan. Bu nom bilan atalishiga sabab; “Abdurauf Fitrat 1921-yilda Sharq musiqa maktabini tashkil etib, uning birinchi direktori bo‘lgan, va 100 yil, deyarli 1 asrdan so‘ng Abdurauf Fitrat nomi bilan Buxoro maqom maktabini tashkil qildik”- deb ma‘lumot berdilar Buxoro maqom maktabi direktori Ismatov Bahtiyor Bahodirovich.

Maqomga ixtisoslashtirilgan maktab-internatini tashkil etish jarayonida Ismatov Bahtiyor Bahodirovichning qo‘shgan hissalarini beqiyosdir. Hozirgi kunda ham Buxoro ixtisoslashtirilgan maqom maktabining rivojlanish yo‘lida va bizning milliy mumtoz musiqamizni dunyoga tanitish maqsadida samarali faoliyat olib bormoqdalar. Hozirgi kunda Abdurauf Fitrat nomidagi Buxoro maqom san‘atiga ixtisoslashtirilgan maktab – internatida jami 205 nafarfa yaqin o‘quvchi yoshlarni tashkil etadi. Shundan: Samarqand viloyatidan 15, Navoiy viloyatidan 27, Qashqadaryo viloyatidan 3ta, Buxoro viloyati tumanlaridan 113 hamda Buxoro shahridan 46 nafar o‘quvchiga 75 nafar o‘qituvchi jalb qilingan bo‘lib, shundan oliy toifali o‘qituvchilar soni 6 nafar, birinchi toifa - 21, ikkinchi toifa - 10 hamda toifaga ega bo‘lmagan o‘qituvchilar 38 nafarni tashkil etadi. Hozirgi kunda Buxoro Maqom

maktabi internatida 2 ta asosiy yoʻnalish: anʻanaviy vokal (Xonanda) va anʻanaviy cholgʻu ijrochiligi boʻyicha bilim va koʻnikmalar oʻrgatilib kelinmoqda.

Mazkur maktab-internatiga har bir oʻquv yili boshlanishi arafasida oʻquvchilar 5-sinfdan boshlab 10 ta anʻanaviy xonanda hamda 20 ta oʻquvchi anʻanaviy cholgʻu yoʻnalishlariga sinov imtihonlari asosida qabul qilinadi.

Mutaxassislik fanlar bilan bir qatorda, oʻrta-maxsus taʼlim maktablari dasturlarida belgilangan fanlar ham olib boriladi. Anʻanaviy xonandalik yoʻnalishi oʻquvchilarga olti yil davomida: 5-6-sinflar uchun: “Ustozlar”, “Chori Chambar”, “Yallama yorim”, “Ey nozanin”, “Chaman ichra” va boshqalar; 7-11-sinflar uchun esa: “Safti Suvoriy”, “Savti miskin”, “Savti Suvoriy”, “Dugohi Husayniy”, “Dugohi Husayniy” Xislat Muxammasi, “Soqinomai Bayot”, “Savti Kalon soqinomasi” Rost maqomidan, “Moʻgʻulchai dugoh soqinomasi” Dugoh maqomidan, “Bayot I”, “Bayot II”, “Bayot III” Fargʻona-Toahkent maqom yoʻllaridan, oʻzbek xalq qoʻshiqlari, “Dugoh”, “Soqinomai mugʻulchai dugoh”, “Nasri xijoz” kabi xalq qoʻshiqlari va maqom namunalari oʻrgatiladi.

Buxoro ixtisoslashtirilgan maqom maktab-internatida oʻqituvchi va oʻquvchilar cholgʻu va ijro ansambllari ham tashkil qilingan. Oʻqituvchilar ansambilining nomi “Meros” deb nomlangan boʻlib, oʻquvchilar ansambli nomi esa yoʻnalishi va sinf raqami asosida eʼlon qilinadi. Ushbu taʼlim dargohida bilim olayotgan oʻquvchi yoshlar respublika va xalqaro tanlovlarda faol ishtirok etib, oʻz isteʼdodlarini namoyish etgan holda sovrinli oʻrinlarni egallab kelishmoqda. Aytib oʻtadigan boʻlsak: 2020 – yil “Yosh maqomchi ijrochilari” onlayn koʻrik tanlovida Eshonqulov Quvondiq 1-oʻrin, 2020- yil “Млечный Путь” Xalqaro onlayn tanlovda ham Xolmoʻminova Huvaydo 1-oʻrin, 2022-yil Ukrainada boʻlib oʻtgan “Soul” Xalqaro onlayn tanlovida Axmatov Ogʻabek 1-oʻrin, “Yangi yil yulduzlari” onlayn koʻrik tanlovida Muqimova Nargiza 2-oʻrin sovrindori, “Qalb” xalqaro onlayn koʻrik tanlovda Rahimov Dilshod 2-oʻrin sohibi, “Qalb” xalqaro onlayn koʻrik tanlovda esa Raxmatullayev Muzaffar 3- oʻringa sazovor boʻlganlar.

Respublika koʻrik tanlovlarida: “Maʼmurjon Uzoqov” nomidagi Respublika koʻrik tanlovida Xayrullayev Bobur 2-oʻrin, “Yosh ijrochi

maqomchilar” ko‘rik tanlovi respublika bosqichida Ergashev Ramziddin boshchiligidagi ansambl sinfi 1- o‘rin, “Yosh maqomchilar” respublika ko‘rik tanlovida Ravshanov Shamshod 2-o‘rin, 2022-yil 21-24 may kunlari Buxoro viloyatida bo‘lib o‘tgan yosh ijrochilarning “Shashmaqom” Respublika festivalida “An‘anaviy cholg‘u ansambli” yo‘nalishi bo‘yicha Muhammedov Jasur rahbarligidagi sinf ansambli 1-o‘ringa va Ergashev Ramziddin boshchiligidagi “An‘anaviy xonandalik ansambli” esa 2-o‘ringa loyiq topilgan. Bundan tashqari, “Yosh maqomchilar” Respublika ko‘rik tanlovining viloyat bosqichida Raxmatullayev Muzaffar, Eshonqulov Quvondiq, “Buxoro Shashmaqomi” Respublika ko‘rik tanlovi viloyat bosqichida “An‘anaviy cholg‘u ansambli” hamda Ergashev Ramziddin nufuzli 1 va 2-o‘rinlarga loyiq deb topilgan. Shu bilan bir qatorda nufuzli Xalqaro tanlovlar: Rossiya davlatida bo‘lib o‘tgan “Musiqqa va taraqqiyot” xalqaro xalq ijrochilari bolalar musiqa tanlovida Ergashev Ramziddin boshchiligidagi “Meros” ansambli 2-darajali diplom sohibi bo‘lganligi taqsimga sazovordir.

Turli darajadagi ko‘rik tanlovlarda sovrinli o‘rinlarni egallash bilan bir qatorda, Buxoro ixtisoslashtirilgan maqom maktabi tarbiyalanuvchilari maqomga bag‘ishlangan konsert dasturlari bilan muntazam ravishda Buxoro viloyati hamda viloyatlararo hamkorlikni yo‘lga qo‘yishgan. Mana shunday konsert dasturlaridan biri ilk bor 2021- yil 12- aprel oyida Buxoroning Ark qo‘rg‘onida bo‘lib tashkil qilinib, 250-300 ga yaqin tomoshabinlar olqishlariga sazovor bo‘lishgan. Qolaversa, Fattohhon Mamadaliyev hotirasiga bag‘ishlangan konsert dasturini ham tashkil qilishgan.

Buxoro ixtisoslashtirilgan maqom maktabining birinchi viloyatlararo tashrifi 2023- yil 11- noyabr oyida Xorazm viloyati drama teatri “Maqom kechasi”dagi ishtiroki bo‘lgan.

Hozirgi kunda Buxoro ixtisoslashtirilgan maqom maktab-internati turli hil tanlovlarda qatnashib, bilimli o‘quvchilari va tajribali o‘qituvchilari bilan ulug‘ martabalarga erishib kelishmoqda. Abdurauf Fitrat nomidagi Buxoro ixtisoslashtirilgan maqom maktab-internatining asosiy maqsadi Xalqaro festivallarda namunalari o‘rinlar olib, yosh avlod ijrochilarni qo‘llab-quvvatlash va ularga ko‘maklashish, ularni rag‘batlantirishdan, shu bilan bir qatorda Buxoro nomini milliy maqom

sadolari ostida butun jahonga tanitishdan iborat. Takidlash joizki, qabul qilingan qarorlar, tashkil qilingan maqomga ixtisoslashtirilgan maktablar, bu qadimdan hozirgi kungacha kelgan milliy musiqamizni saqlab qolish va keyingi avlodlarga o'rgatish, "An'anaviy ijro" va "An'anaviy xonandalik" yo'nalishlarini rivojlantirish, ustoz- shogird an'anasini davom ettirish negizida maqom san'atini umrboqiyiligini ta'minlashga qaratilgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O.Ibrohimov "Maqom asoslari", T., 2023 y.
2. R.Yunusov "Sharq Xalqlari Maqomlari", T.,2022 y.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 – yil 17 – noyabrdagi PQ – 3391 – sonli "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
Maqom ilmiy – uslubiy jurnal. 2022 y: 1 "Chashmalar Sarchashmasi" Soibjon Begmatov.
4. Maqom ilmiy – uslubiy jurnal. 2022 y: 2 "Xorazm maqomoti navlarini o'rganilishi: Kecha va Bugun" Botir Rahimov, Rustam Boltayev.
5. Maqom ilmiy – uslubiy jurnal. 2023 y: 1 "Shashmaqom ijrochilik an'analari Buxoro maqom ansambllari misolida" Dilovar Qodirova.

QARAQALPAQ "MUXALLES" DUWTARSHILAR ANSAMBLINE BIR NA'ZER

Raushan SAPARBAYEVA,
*Yunus Rajabiy atindag'i O'zMMMSI,
Xalq ijodiyoti (baxsishiliq ha'm da'stan atqariwshilig'i)
ta'lim jo'nelisi 2-kurs talabasi.*
Ilmiy rahbar: Shaxida BERDIXANOVA,
*Yunus Rajabiy atindag'i O'zMMMSI
"O'zbek maqomi tariyxi ha'm teoriyasi" kafedrası
ko'rkem-o'ner tarawi bo'yinsha filofosfiya doktori (PhD).*

Annotatsiya *Bul maqalada Qaraqalpaqstan teleradio kompaniyasi janinan sho'lkemlestirilgen Muxa'lles dutarshilar ansamblinin' du'ziliwi. Ha'zirgi ha'm a'welgi qatnasiwshilari ha'm de repertuari haqqında so'z etilgen.*

Gilt so'zleri: *Baqsi, sa'zende, nama, saz, Muxa'lles, ko'rkem-o'ner, repertuar, xalq qosıqlari.*

Qaraqalpaq xalqi ko'p a'sirlik tariyxına iye bolip, ol a'debiyat, ko'rkem-o'nerdin' barliq tarawlarında-su'wretlew o'neri, arxitektura, teatr, kino, a'sirese muzika ma'deniyatında ken' rawajlang'an. Atababalarimizdin' miyrasi awizeki do'retpe tiykarında xaliqtin' turmisında ushirasatug'in waqiyalarg'a baylanisli salt-da'stu'r jirlari da, da'stanlar da payda bolip, xalq ishinen shiqqan atqariwshilar, jiraw ha'm baqsilar ta'repinen bizge shekem jetip kelip, muzika ma'deniyatında birinshi u'gileri rawajlana basladı.

XX a'sirdin' birinshi yarımında ilimpazlar ta'repinen izertlenip xalq qosıqlarin, jiraw menen baqsilardin' repertuarlarin talqilap, olardin' tu'r o'zgeshelikleri payda boladı.

Usi tiykarda baqsilar haqqında toqtalatug'in bolsaq, Qaraqalpaq xalq jirshilarinin' ishinde duwtar shertip, qosiq aytatug'in o'ner iyesi baqsi dep ataladı. Baqsilar atqarg'an repertuarlar arqali qaraqalpaq xalqinin' turmisi, ul-qizlarinin' erju'rekligi, muhabbatqa sadiqlig'i ha'm xalqtin' watang'a pida'yilig'i bizlerge shekem jetip kelgen.

“Muxalles” duwtarshilar ansambli. Qaraqalpaq xalqinin‘ su‘yikli namalarin duwtarda sheber atqarip, bizin‘ bu‘gingi ku‘nimizge shekem jetip keliwine o‘zinin‘ salmaqli u‘lesin qosqan ataqli Xalq baqsilarinin‘ biri Genjebay Tilewmuratov atindag‘i “Muxalles” duwtarshilar ansambli O‘zbekstan Respublikasi Ma‘deniyat Ministriligi ko‘rkem ja‘ma‘a‘tler birlespesi quramindag‘i ja‘ma‘a‘t bolip esaplanadi.

Ansambl 1976-jilda Qaraqalpaq Xalq baqsisi, Berdaq atindag‘i Ma‘mleketlik siyliqtin‘ laureati, ustaz Genjebay Tilewmuratov ta‘repinen Qaraqalpaqstan teleradio kompaniyasi janinan sho‘lkemlestirildi ha‘m usi ansambldin‘ da‘slepki qurami 5 sa‘zende ha‘m baqsidan ibarat bolip, baqsilardan G.Tilewmuratov, G.Baylepesov, Q.Dosjanov, girjekshi K.Tinibaev ha‘m O.Asanovlar boldi. Bunnan son‘ jillar dawaminda ansambl quramindag‘i sa‘zende ha‘m baqsilardin‘ sani 12-15-18, ge deyin ken‘eyip bardı.

1997-jili ustaz baqsi G.Tilewmuratov qaytis bolg‘annan son‘ 1998-jili mart ayinda O‘zbekstan xalq baqsisi G‘.O‘temuratov ansambldin‘ ko‘rkemlik jaqtan basshisi etip tayinlandi. 2007-jili fevral ayinda “Muxalles” ansambline ustaz baqsi G.Tilewmuratov ati berildi.

Ansambldin‘ tiykarg‘i maqseti Qaraqalpaq xalqinin‘ a‘sirler dawaminda qa‘liplesken ha‘m a‘wladtan-a‘wladqa miyras bolip kiyatirg‘an xalq do‘retiwshilik ko‘rinisleri, Qaraqalpaq milliy muzikasi da‘stu‘riy qosiq atqariwshilig‘i (da‘stan atqariw o‘neri) arqali xalqimiz, a‘sirese jas a‘wlad aldinda biybaha altin miyraslarimizg‘a teren‘ hu‘rmet ha‘m ha‘wes sezimlerin qa‘liplestiriw, olarda milliy ma‘deniyatimiz ha‘m qa‘diriyatlarimizdan maqtaniw sezimlerin asiriwdan ibarat.

Ansambl uliwma xalqliq bayramlarda, Respublika ha‘m Xalq araliq ko‘lemde o‘tkeriletug‘in ko‘rik-tan‘law ha‘m festivallarda belsene qatnasip o‘z repertuarlarindag‘i shig‘armalar menen milliy ma‘deniyatimiz g‘a‘ziynesin bayitip kelmekte.

G‘a‘rezsizlik sharapati menen 1992-jili No‘kis ko‘rkem-o‘ner bilim jurtinda Milliy muzika bo‘limi ashildi ha‘m ko‘rkem-o‘nerge qizig‘iwshi ko‘plegen jaslar oqiwg‘a qabil etildi, usilardin‘ esabinan ansambl jil sayin jan‘a talantli jaslar menen toliqtirilib barilmaqta.

Ansambl ag‘zalarinan, baqsilar Z.Sharipova, Qaraqalpaqstan xalq baqsisi G.Allambergenova, N.Nuratdinov ha‘m sa‘zende I.Saburovalar Frantsiya, Belgiya, Gollandiya, Germaniya, Hindistan ha‘m Koreya

ma'mleketlerinde Qaraqalpaq Milliy muzikasi ha'm ko'rkem-o'nerin ko'rsetiw baxtina miyassar boldi.

2007-jil aprel ayinda Tu'rkmestan Respublikasinin' paytaxti Ashxabad qalasinda o'tkerilgen Xalq araliq teatr ha'm folklor festivalinda ansambl belsendi qatnasip jen'impaz bolip qaytti. Ansambl tu'rli Ma'mleketlerde bolip xalqimiz qa'lbinen orin alip, milliy baylig'imizg'a aylang'an qosiq-sazlarin keleshek a'wladqa jetkiziwde ayanbay miynet qilip kelmekte. Bu'gingi ku'nde "Muxalles" ansambli televidenie ha'm radio esittiriwlerinde ku'ndelikli efirde o'z do'retiwshilikleri menen qatnasip kelmekte.

Ansambl o'z iskerligi dawaminda Qaraqalpaqstan Respublikasinin' ma'deniyat ha'm ko'rkem-o'ner ku'nlerinin' Bashqurtstan, Dag'istan, Tatarstan Respublikalarinda ha'm Tashkent qalasinda, Xorezm wa'la'yatinda o'tkerilgen ma'deniyat kunlerinin' turaqli qatnasiwshisi bolip kelmekte.

Ansamblidin' do'retiwshiligi dawaminda "Qaraqalpaqstan xalq baqsisi" ha'm "Berdaq atindag'i Ma'mleketlik siyliqtin' laureati" G.Tilewmuratov, "Qaraqalpaqstang'a xizmet ko'rsetken artist" O.Asanov, G.Baylepesov, Q.Dosjanov, K.Tinibayev, "Qaraqalpaq xalq artisti" T.Qurbanov, "Qaraqalpaqstang'a miyneti sin'gen artist" G.Rametova, "Qaraqalpaqstang'a miyneti sin'gen ko'rkem-o'ner g'ayratkeri" ha'm "Shuxrat medali" iyesi A.Otarbaev, "Qaraqalpaqstan Respublikasina miyneti sin'gen ma'deniyat xizmetkeri" I.Saburova, "Qaraqalpaqstan xalq baqsisi" G.Allamberganova, "O'zbekstan ko'kirek nishani" belgisi ha'm "Qaraqalpaqstan xalq baqsisi" Z.Sharipova, "Nihol" siyliy'inin laureati L.Muxamatdinova, "Zulfiya" atindag'I Ma'mleketlik siyliy'inin laureati U.Orinbaeva, sonday-aq, Respublikaliq tan'lawlar jen'impazi J.Qosimbetov, B.Palimbetova, B.Asqarova, J.Reymov, G.Xamidovalar o'z miynet iskerliklerin ko'rsetip kelmekte.

Ansambl repertuarinan xalq qosig'ina aylang'an milliy saz ha'm qosiqlar orin alg'an, solardin' ishinen: "Ariwxan", "Bozataw", "Bes perde", "Qara jorg'a", "Ala qayis", "Min' tu'men", "Aqsingu'l", "Jeti asirim", "Sanali keldi", "Qoshim Palwan", "Musa sen yari", "Gu'baddin", "Qiz mina'yim", "Xosha da's", "Ilme sultan", "Nama basi" ha'm bunnan basqalar.

2015-jildan baslap “Muxalles” ansamblinin‘ ko‘rkem basshisi lawaziminda Jalg‘as Reymov islep, ha‘zirgi ku‘nde onin‘ quraminda 14 sa‘zende ha‘m baqsilar do‘etiwsilik etip kelmekte.

G‘a‘rezsizlik jillarinda muzika ma‘deniyatinin‘ quwanishli jetiskenliklerinin‘ biri bul Qaraqalpaqstan Respublikasi Ajiniyaz atindag‘i No‘kis Ma‘mleketlik Pedagogika institutinda, Berdaq atindag‘i Qaraqalpaq Ma‘mleketlik universitetinde muzika qa‘niygeliginin‘, O‘zbekstan Ma‘mleketlik ko‘rkem-o‘ner ha‘m ma‘deniyat institutinin‘ ashiliwi.

Bul qa‘niygelerdin‘ ashiliwi bir ta‘repten ja‘miyetimizge maman qa‘nigelerdi jetilistirip beriw waziypasi bolsa, ekinshi ta‘repten, jaslardin‘ ko‘rkem-o‘nerge, ma‘deniyatqa degen ko‘z-qaraslarin ele de qa‘liplestiriw menen birge, sol tarawda xalqimizg‘a xizmet etiw onin‘ juwapkerli waziypalari bolip kelmekte.

Usi qatarda Jurt basshimizdin‘ “Ma‘deniyat ha‘m ko‘rkem-o‘ner tarawinin‘ ja‘miyet o‘mirindegi orni ha‘m ta‘sirin ja‘nede asiriw shara-ta‘dbirleri haqqindag‘i” 2020-jil 26-maydag‘i PF-6000-san Pa‘rmanina muwapiq O‘zbekstan Respublikasi Ma‘deniyat wa‘zirligi du‘zimindeg-i O‘zbekstan Ma‘mleketlik Konservatoriyasinin‘ “O‘zbek Maqom ko‘rkem-o‘neri fakulteti” ha‘mde O‘zbekstan Ma‘mleketlik ko‘rkem-o‘ner ha‘m ma‘deniyat institutinin‘ tiyisli ma‘lim jo‘nelisleri ha‘m qa‘nigelikleri negizinde maqom atqariwshilig‘i, baqsishiliq ha‘m katta ashula jo‘nelisleri boyinsha kadrlar tayarlawshi tayansh joqari oqiw sho‘lkemleri -Yunus Rajabiy atindag‘i o‘zbek milliy muzika ko‘rkem-o‘neri institutin du‘ziw haqqindag‘i pa‘rmanina baylanisli bul institut ashilip, o‘z jumisin basladi ha‘m a‘yne usi jili Xalq ijodiyoti (baxsishiliq ha‘m da‘stan atqariwshilig‘i)” ta‘lim jo‘nelisinde 1-qarlig‘ashlar pitiriw qarsan‘inda turipti [4].

Bul institut ashilg‘anina ele ko‘p bolmag‘an bolsa da bul jerde ta‘lim alip atirg‘an oqiwshilar usi 4 jil dawaminda Respublikamizda o‘tkerilip atirg‘an “Xalq araliq baqshiliq festivali”nda belsendilik qilip siyli orinlarg‘a erisip kelmekte. Tek g‘ana Respublikamiz emes al, shet ellerinde de o‘tkerilip atirg‘an tan‘lawlar jen‘impazlarida birqansha. Ja‘nede ko‘plegen shet ellerinde xizmet saparlarinda atap aytatug‘in bolsaq Frantsiya, Germaniya, Finlandiya Ma‘mleketlerine o‘z do‘retiwshilik repertuarlari menen qatnasip kelgen oqiwshilar bar.

Institut haqqida mag'liwmat keltiriwimmen maqset bul jerde "Muxalles" duwtarshilar ansamblinde do'retiwshilik ju'ritken birqansha ustazlarimizda bizlerge Qaraqalpaq baqsishiliq ha'm sa'zendeshilik sirlarin u'yretip kelmekte. "Qaraqalpaqstan Respublikasina miyneti sin'gen ma'deniyat xizmetkeri" Injigu'l Saburova, ha'm "Zulfiya" atindag'i Ma'mleketlik siyliqtin' laureati Dinara Nuratdinova.

Muxalles duwtarshilar ansambli quramliq ag'zalari ku'shli, ulli ustazlar ha'm do'retiwshilik repertuari ta'repinen ju'da' bay bolg'nlig'i sebepli bul ansamblge ha'mme baqsilarda qosila almag'an. Ansamblge ag'za boliw u'lken juwappershilik, ko'plegen saz ha'm qosiqlardi ha'm ta'jiriybeni talap etedi. Bul ansambl a'welinde tek g'ana en' aldi baqsi ha'm sa'zendelerden du'zilgen ha'm ha'zirde olardin' en' aldi sha'kirtleri ja'mlengen dep oylayman. Sol sebeplide G.Tilewmuratov du'zgen Muxalles duwtarshilar ansambli abiroyi ha'm salmag'i Qaraqalpaq baqsishilig'inda u'lken a'hmiyetke iye esaplanadi.

Juwmaqlap aytqanda bul ansambl u'lken tariyxqa ha'm ko'p miynetlerge iye esaplanadi. Men Muxalles duwtarshilar ansambli barlig'inan, olardin' sharshamastan miynet etiwlerinen, xalqimizdin' milliy sazlarin, qosiqlarin du'nya saxnalarinda jan'latip atirg'aninan quwanishliman. Biz Muxalles penen maqtansaq arziydi. Ansambl ag'zalarina do'retiwshilikte ku'sh-g'ayrat tilep qalaman.

Paydalanilg'an a'debiyatlar:

1. Allanazarov D. Xalq baqsisi. "Avangard" baspasi No'kis, 2022.
2. Berdixanova Sh.N. Qoraqalpoq dostonlarining metroritmik asoslari. Diss...Avtoreferati. Toshkent, 2022.
3. Nadirova A.B. Qaraqalpaq muzika tariyxi "Sano-Standart" baspasi Toshkent-2018.
4. <https://lex.uz/docs/-4829149>

FAXRIDDIN SODIQOV IJRO MAKTABI

Dilnoza ISKANDAROVA,

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSSI,

“An’anaviy cholg‘u ijrochiligi” ta’lim yo‘nalishi

2-kurs talabasi.

Ilmiy rahbar: Malikaxon ZIYAYEVA,

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSSI,

“An’anaviy cholg‘u ijrochiligi” kafedrasi professori.

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ustoz Faxriddin Sodiqovning ijro maktabi va uning shakllanish jarayonlari haqida bayon qilingan. Ustozning pedagogik va bastakorlik faoliyati davomida yaratgan asarlari – qoldirgan buyuk ijodiy merosi va uning hali hanuzgacha davomiy bo‘lib kelishi haqida ma’lumotlar musiqiy tahlillar bilan birga keltirilgan. Ma’lumot o‘rnida aytib o‘tish kerakki, ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist, Professor Malikaxon Ziyayeva bilan bo‘lgan jonli suhbat jarayonlarida asosida yozildi.*

Kalit so‘zlar: *Dutor, ustoz-shogird an’anasi, maqomga bo‘lgan muhabbat, Y.Rajabiy nomidagi maqom ansambli, maqomlar va ijro maktabining uyg‘unligi, Cho‘li iroq.*

Milliy musiqamiz bo‘lmish “Shashmaqom” ijrochiligi yo‘llarida har bir musiqa cholg‘usining o‘rni beqiyosdir. Ushbu cholg‘ular orasida dutor cholg‘usi o‘zining nafisligi, mayinligi, sirli sadosi va go‘zal nolalari ohangraboligi bilan ajralib turishi shubhasiz, albatta. Dutor cholg‘usining tarixiga nazar tashlar ekanmiz, uning ilk bor XV asrda yashab ijod etgan musiqashunos olim Zaynullobuddin Husayniyning “Qonuni ilm va amali musiqiy” nomli risolasida ta’riflanganini ko‘rishimiz mumkin.[1.4] Ushbu risoladagi Husayniyning dutor cholg‘usi uchun berilgan ta’rifi (dastasi, dastaga bog‘langan pardalar, torlar va sozlanishlar) hozirgi maqom ijrochiligidagi cholg‘uga ko‘p jihatdan mosligini e’tirof etish joiz demakdir. Bundan tashqari Xorazmlik tarixchilar Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li va Muhammad Yusuf Devonzodalar o‘zlarining “Xorazm musiqiy tarixchasi” nomli kitoblarida “Dutor maqomlari deganda bir tarafdin mumtoz musiqa, ikkinchi tomondan el kuylari deyiladigan ma’muliy (amaldagi) butun boshli asarlar tushuniladi” deya takidlaydilar.[1.5]

Dutor ijrochiligining keng ommalashuvi ijrochining samarali mehnati natijasidir. Yillar davomida shinavanda – tinglovchilar bir-biridan serjilo, rang – barang asarlar va sirli ijro uslublariga oshno bo‘lib bordilar. Har bir shakllangan uslublar esa vaqt o‘tib o‘z – o‘zidan ijro maktablariga aylanadi. Darhaqiqat, maktab darajasida shakllanib rivojlangan cholg‘u yo‘llarining bir qator tomonlari mavjud bo‘lib, ular aniq bir tugal maqomga ega bo‘lishgan. Birinchidan ijro repertuari, ya‘ni shu uslub doirasida yuzaga kelgan musiqiy namunalar yoki asarlar turkumlari. Ikkinchidan, asarlarning tarkibiy jihatlari, va albatta ijrochilikdagi o‘ziga xos xususiyatlardir. Bundan ko‘rinadiki, maktab darajasiga erishish uchun uzoq vaqt, ijod, ijrochilik amaliyoti asosiy ahamiyat kasb etadi. Xorazm dator ijrochiligi maktabi yoki Qo‘qon ijrochilik maktabi ana shunday an‘analardan asosida yuzaga kelganligi begumon.

Xorazm ijro maktabining shakllanishiga o‘zining katta hissalarini qo‘shgan mashhur datorchilar: Matkarim Hofiz, Jumaniyoz ota Hayitboyev, Otajon Qo‘shmo, Sharif Botir, Nurmuhammad Boltayev, Yusuf Jabbor. Ularning ijro uslubi Xorazm vohasiga xos bo‘lgan “shovqinli” ijro uslubi sifatida alohida qayd etilgan. Bu ijro o‘ng qo‘l harakatlarini cholg‘u qopqog‘iga ishqalash bilan karakterlanadi. Bundan tashqari Xorazm dator ijrochilik uslubiga nisbatan Samarqand ijro yo‘li o‘ziga ekanligi Abdurauf Fitrat tomonidan ham qayd etilgan. U samarqandlik bastakor, mohir ijrochi sozanda Hoji Abdulaziz Abdurasulovning dator ijrochiligida mohir sozanda va nozik bir uslub egasi ekanligiga e‘tibor beradi.

Farg‘ona – Toshkent hududlari ijrochilik uslublari ham juda rang – barang ekanligini aytib o‘tish lozim. Chunki bu yo‘lda ijro uslublari ko‘p. Hattoki, Qo‘qon dator ijrochilik maktabining o‘zigina, o‘ziga xos an‘analardan bilan sug‘orilgan. Bu an‘analarni birgina “Qo‘qoncha” asarida ham ko‘rish mumkin. Dutorning shahdam shiddatli talqini, zarblarning rang – barangligi, chap va o‘ng qo‘llar mohirligi va jozibaligi uslub ijrochiligining mag‘zi hisoblanadi. “Ijrochilik maktablari yuzaga kelishida ijro uslublarining ahamiyati alohida o‘rin tutadi. Shu sababdan Farg‘ona – Toshkent vohasida biz ko‘pgina shaxsiy datorchilik uslublari shakllanishinining guvohi bo‘lamiz” – deydilar O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist, professor Malikaxon Ziyayeva.

Musiqa ijrochiligi amaliyotida dutor cholg‘u ijrosini me‘yoriga yetkazib, ustozlik darajasida faoliyat olib borgan bir talay mashhur san‘atkorlar o‘tgan. Zohidjon Obidov, Faxriddin Sodiqov, Mahmud Yunusov, Orif Qosimov, G‘ulom Qo‘chqorov kabi ustoz san‘atkorlar shular jumlasidandir. Bu kabi yetuk insonlar orasidan aynan Faxriddin Sodiqovning ijro uslubi ijro maktabi darajasida ekanligini bir qator sabablari mavjud.

O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi, bastakor, mohir sozanda, ijrochilik ansambli rahbari, va benazir ustoz Faxriddin Sodiqov 1914-yil Toshkent shahridagi Eski Qoryog‘di mahallasida hunarmandlar oilasida tavallud topogan. Yoshligida ota – onasidan yetim qolib akasining qo‘lida tarbiya olgan. Akasi musiqa shaydosi, oz bo‘lsa-da hirgoyi qilib dutor chalishni bilar edi. Bundan albatta yosh Faxriddin bebahra qolmagan. Balki o‘sha davrdagi endi rusumga aylangan maktablar qoshidagi musiqa to‘garagiga qatnashish niyatini uyg‘otgan. U to‘garakda ilk ustoz No‘mon Qori Mo‘minzoda o‘g‘lidan chang sozi va unda chalish sirlarini o‘rganadi.

1927-1931-yillar davomida Toshkent milliy musiqa texnikumida benazir ustoz san‘atkorlar Shorahim Shoumarov va Abdusoat Vahobovlardan ta‘lim oladi. O‘qishni tamomlagach san‘atkorlar makoni bo‘lmish teatrqa ishga kiradi. U yerda afsonaviy ustoz san‘atkorlar Abduqodiriy naychi Ismoilova va Ahmadjon qo‘shnay Umrzoqovlardan ijrochilik amaliyotlarini sirlarini va ustozlar an‘analarini o‘rganadi.

Afsuski, ustoz umrining eng gullagan davrlari urush paytlariga to‘g‘ri keladi. Shu sabab ustozning ko‘plab bastalangan asarlarida Vatanga bo‘lgan muhabbat va sodiqlik, insonning ruhini ko‘taruvchi kuy va ashulalarni bamisoli his qilishimiz mumkin ekan. Shu davrda yozilgan “G‘alaba marshi”, “Mergan Zebixon”, “Qora bayir”, “Gullar vodiysi”, “Aylasun opang”, “To‘yona”, “Vatan marshi”, “O‘zbek vals” kabi musiqiy namunalarni misol tariqasida aytishimiz mumkin. Bundan tashqari urush yakunidan so‘ng 50-60-yillarda yaratilgan “Shirmonoy” (T. To‘la), “Parishon qil” (Xamza), “Dutorim” (Z. Obidov), “To‘y muborak” (M. Qoriyev), “Ko‘rsatmag‘ay” (Bobur g‘azali), “Bir go‘zal bormish” (Mirtemir), “Yor kelib” (S. Zunnunova), “Hayo” (Uyg‘un), “Xat yozdilami” (Chustiy) ko‘pgina qo‘shiqlarini o‘zining shiddati va takrorlanmasligi bilan ajralib turadi. 1939-yilda O‘zbekiston radiosi

qoshida tashkil etilgan maqom ansambliga ishga taklif etilgan va u yerda “Shashmaqom”ning barcha nasr bo‘limining ashulalarini plastinkalarga yozilishida ishtirok etgan.

1972-yil O‘zbekiston davlat konservatoriyasi o‘sha davrlardagi Toshkent davlat konservatoriyasida Fayzulla “Sharq musiqasi” kafedrasini ochildi. Fayzulla Karamatov bo‘lim boshlig‘i etib tayinlandi. Bu kafedraning ochilishidan maqsad yosh avlodga bizning milliy mumtoz musiqamizni yanada chuqurroq izlab o‘rganishdir va bunda ustoz Faxriddin Sodiqovning qilgan ishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Faxriddin Sodiqov jonkuyar ustoz va o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lganliklarini ular yetishtirgan zabardast shogird san‘atkorlardan ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Jumladan , O‘lmas Rasulov , Shavkat Mirzayev , Abduhoshim Ismoilov , Yo‘ldosh Tojiyev , Tuyg‘un Otaboyev , Abdurahim Hamidov , Abdurahmon Xoltojiyev , Ahmadjon Abdurahimov va O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist , O‘zbek milliy musiqa san‘ati instituti professori Malikaxon Ziyayeva kabi yetuk ustozlarni jonkuyar ustoz Faxriddin Sodiqovning tirik afsonaviy shogirdlari misolida ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.

Ustoz Malikaxon Ziyayeva bilan suhbatlashar ekanman , ularning: “Men ustozim bilan faxrlanaman. Ularning menga bergan bilimlari , yog‘dulari shu darajada bo‘lgan ediki , hattoki meni dutorga bo‘lgan mehrimni oshirib yuborgandiki , men dutorim bilan gaplashardim. Meni shu paytgacha erishgan yutuqlarimda ustozimning xizmatlari katta” – deydilar ustoz Malikaxon Ziyayeva kamtaronalik bilan. Darhaqiqat, ustoz Faxriddin Sodiqovning ijro uslubi maktab sifatida shakllanishida shogirdi Malikaxon Ziyayevaning xizmatlari katta. Suhbat davomida Faxriddin Sodiqov kabi buyuk ustozlar o‘tganligi ularning ham ijro uslublari takrorlanmas , bebaho bo‘lgankliklari aytib o‘tildi , ammo bularning barchasi yozma tarzda yoki ijro maktabi tarzda saqlanib qolmaganligi achinarli albatta. Lekin ustoz Malikaxon bir ustozni yo‘lini mahkam tutib, uni maktab darajasiga yetkaganligini alohida e’tirof etilsa arziydi. Bunga isbot tarzda ustozning 2008-yilda nashrdan chiqqan kitoblaridan misollarni keltirib o‘tsam. Aytaylik “Cho‘li iroq” kuyi bu kuyni bilamizki , nay va g‘ijjak cholg‘ularida go‘zal ijrolar mavjudligini. Dutor cholg‘usida esa aynan Faxriddin Sodiqov ustozning yo‘llarida go‘zal

dard-u nolalari , miyaglari bilan insonni o‘ziga shaydo qilishi ayni muddao;

Malikaxon ustozni notalashtirgan bu kuylarida ko‘rishingiz mumkin dinamik belgilar bilan kuyning sadolanishini aniq qilib yozma ravishda ifodalab berganlar. [1.60]

Bunda Faxriddin Sodiqov uslubiga mansub bo‘lgan belgilar qatori ya’ni ketma- ketligi ila izoh berib o‘tsam:

Kuyning birinchi taktida kelgan, “lya” notasini oldidagi belgi “kashish” deb nomlanadi. Tanbur , dutor , cholg‘ularida ko‘p ishlatiladi (bir xil ijro uslubdagi) kuy bezagi. Bu belgi kuydagi sadolanishni yanada to‘ldirib berib, uning qay darajad qalbga yaqin, dardli ekanligi sadosini hosil qiladi. Yoki to‘rtinchiqatordagi uchinchi taktda kelgan mi notasining ustidagi belgiga e’tibor qaratsak , “miyang” akademik ijrolarda “glissando” uslubi deya yurutiladi. Faxriddin ustoz ijro uslubida miyang ikki xil ko‘rinishda uchraydi. Oddiy miyang va sadoli miyang. Bu yerda esa sadoli miyang ifodalangan. Bu kabi miyangni biz asosan ochiq pardalarda yoki butun , yarim notalarni chalganda ifodalanadi. Bundan tashqari uchinchi qatorda o‘n oltitaliktalik “fa” notasining pastki qismida ham sadoli liga ifodalangan. Bunda ikki tovush ketma-ketligida , ikkinchi tovush zarbsiz , chap qo‘lning harakati bilan amalga oshiriladi.

Ustozning ijro uslublariga nazar solinar ekan, shubhasiz ko‘zingiz har bir notaning beahamiyat qolmasdan aksincha nolalar , miyang , dard bila ijro etilishiga guvohi bo‘lasiz. So‘z o‘rnida aytib o‘tish joizki, “Bir asrda bir keladigan ustoz san’atkor Turg‘un Alimatov bilan o‘n yil davomida bir sahnada birga chalganimda ularning “Sizni yo‘lingiz bor, sizni yo‘lingiz boshqa, ijrolaringizda Faxriddin Sodiqovning ijro maktabi ko‘rinadi” degan gaplari qanchalik menga narsa bergan, chunki unday san’atkorlar darg‘a, ya’ni darg‘alarga mening ustozim Faxriddin Sodiqov ijro uslubidagi yo‘lim ko‘ringan” – deya aytdilar ustoz Malikaxon Ziyayeva. Bundan ko‘rinadiki, bu ijro uslubi bizning nomoddiy madaniy – ma’naviy merosimiz bo‘lgan “Shashmaqom” asarlarining ijro yo‘llari bilan bevosita hamohang uyg‘unlashadi. Shashmaqomning har bir asarlarini ijro qilsam yoki tinglasam unda o‘ziga xos bir dard , vazminlik, ohanrabo go‘zallikni tinglashim mumkin va albatta bu jihatlarning har biri ustoz Faxriddin Sodiqovning ijro uslubi bilan go‘zal uyg‘unlashgan.



Xulosa o‘rnida shuni aytmoqchimanki, ustoz Faxriddin Sodiqovning ijro uslubini maktab darajasida shakllantirib , uni biz yoshlarga qulay yo‘llarda o‘rgatib, mehr qo‘yishimizga sababchi bo‘layotgan benazir , jonkuyar ustoz Faxriddin ustozning shogirdi Malikaxon Ziyayeva bo‘ladilar. Ularning mana shunday qimmatbaho bilimlarni biz yoshlarga kitoblar , o‘quv- qo‘llanmalar , video-darsliklar va bir qator mavjud bo‘lgan sharoitlar orqali saqlab , yetkazishlari biz uchun muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti talabalaridan tashkil topgan “Shukrona” professional dutorchilar ansamblining tashkil etilishi , undagi bitiruvchi har bir talaba oliy ta’lim dargohini bitirganidan so‘ng o‘zining istiqomat qiladigan hududiga borib , maktab , akademik litsey va kollej o‘quvchilarini qiziqtirib , yangi nihollarini o‘stirish shu maktabni mustahkam tarzda davom ettirilishi yana bir misoldir. So‘z o‘rnida aytish joizdirki , ustoz Malikaxon Ziyayeva safarda bo‘lgan 20dan ziyod davlatning har birida unutilmas va bizning milliy musiqamizga xos bo‘lgan qiziqishni xorijliklarda taassurotli tarzda qoldirib kelganlar. Ushbu qiziqishlar milliy musiqaning rivojlanishiga yana bir sabab bo‘lgan va xorijliklarni ham dutor cholg‘usi

ijrosini o'rganishga bo'lgan qiziqishni shakllantirgan. Ustozning ijro maktabi butun dunyo bo'ylab o'rganib borilayotganiga misol 2014-yil may oyida Amerika Qo'shma Shtatlardagi "SANTA CRUZ" universitetida o'tkazilgan mahorat darslaridir. Bu yerdagi o'n sakkiz kun davomida ustoz bundan tashqari Amerikaning shtatlari bo'ylab konsertlar o'tkazib, ijro maktabini yevropaliklarga namoyish etib, o'rgatib kelganlar. Bundan ko'rinadiki, ustoz Faxriddin Sodiqovning ijro maktablari nafaqat O'zbekistonda balki dunyo bo'ylab ham o'rganib borilmoqda. Bunday faxr tuyg'usi yosh dutorchi shogirdlarni yanada shiddatliroq ijro etishga va buni davomchilari degan ma'usliyat ila harakat qilishga chorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Зияева М. Дутор (Фахриддин Содиков ижро услуби). Ўзбекистон Республикаси спорт ишлари вазирлиги Республика методика ва ахборот маркази. – Т. 2008.

KOMPOZITOR ASADBEK TURG'UNOVNING "DUKCHI ESHON QO'ZG'OLONI" SIMFONIK-POEMASI HAQIDA

Axror XALIMOV,
O'zDK, "Kompozitorlik va cholg'ulashtirish"
ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi.
Ilmiy rahbar: Chinora ERGASHEVA,
O'zDK, "O'zbek musiqasi tarixi" kafedrasi dotsenti,
san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Annotatsiya: Ushbu maqolada "simfonizm" tushunchasi, uni maqom va o'zbek musiqasi bilan bog'lash masalalari, "Maqom-simfoniya" janri va yosh kompozitor Asadbek Turg'unovning "Dukchi eshon qo'zg'oloni" simfonik-poemasi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: simfonizm, simfoniya, ekspozitsiya, rivojlov, maqom, "Maqom-simfoniya", cholg'ulashtirish texnikasi.

So‘nggi yuz yillikda jahon musiqa madaniyatining rivojlanishi va kamolotga yuz tutishi barcha o‘tgan asrlarga nisbatan anchagina salmoqdor bo‘ldi. Kompozitorlik ijodiyotida yangi oqimlarning vujudga kelishi va ushbu jarayon ta‘sirida yangidan yangi nazariyalarning paydo bo‘lishi hanuzgacha to‘xtagani yo‘q. XX asrning dastlabki choragida shakllangan “simfonizm” nazariyasi biz amalda qo‘llab keladigan “simfoniya” atamasidan ko‘ra birmuncha kengroq tafakkurni ifodalaydi. “Simfonizm” nazariyasi asoschisi B.Asafyev ta‘biri bilan aytganda: “...simfonizm – badiiy fikrning izchil va maqsadli musiqiy taraqqiyot yo‘li bilan ifodalanishi, jumladan, mavzular va tematik elementlarning qarama-qarshiligi va sifat jihatidan o‘zgarishi...”. Vena klassiklaridan boshlab to bugungi kungacha simfoniya janrida yaratilgan yuzlab, balki minglab asarlar ichida faqatgina barmoq bilan sanarlik qismini “simfonizm” hosilasi deyish mumkin. Xususan, B.Asafyev nazariyasiga tayanadigan bo‘lsak, Y.Gaydn yaratgan yuzdan ziyod simfoniyaning faqatgina 1-2 tasi, V.A.Motsartning elikkka yaqin simfoniylaridan so‘nggilari ushbu talablarga javob bera olishi mumkin. Faqat Betxoven yaratgan 9 ta simfoniyaning barchasini tom ma‘noda simfonizm tafakkurining in‘ikosi deyish mumkin. Keyinchalik, ushbu ro‘yxatga G.Maler 10 ta, D.Shostakovich esa 15 ta simfoniya bilan kirib keldi [1, 31-bet].

O‘zbekistonda simfonik musiqaning rivojlanishi, qariyb, bir asrdan ortiqroq davr mobaynida shakllandi va rivojlanib kelmoqda. O‘zbek simfoniya poydevori o‘tgan asrning 30-40 yillarida qo‘yilgan bo‘lsa-da, musiqashunos olimlarning ta‘kidlashicha, sof simfonizm talablariga to‘la javob beruvchi asar sifatida Ikrom Akbarovning 1954-yilda yaratilgan “Shoir xotirasiga” nomli simfonik poemasini misol qilib keltirish mumkin. Partiturani diqqat bilan kuzatadigan bo‘lsak, undagi bosh va yordamchi partiyalarning simfonizm talablariga xosligi, ularning rivojlov qismida intonatsion to‘qnashuvini sezishimiz mumkin [1, 30-bet].

O‘zbek simfoniya 60-yillarga kelib bir maromda rivojlangan bo‘lsa, 70-yillarda ijod maydoniga kirib kelgan Mirsodiq Tojiyev faoliyati sabab inqilobga yuz tutdi. Kompozitorning simfonik ijodida tub burilish yasagan asar – 1972-yilda yaratilgan “Uchinchi simfoniya”dir. Ushbu asar klassik simfoniya kabi 4 qismdan iborat bo‘lsa-da, ularning tuzilishida kompozitorning shaxsiy dastxatiga xos bo‘lgan novatorlik

sezilib turadi. Xususan, birinchi qism Yevropaga xos bo‘lgan “Sonata allegrosi” emas, balki butunlay yangicha, “Sonata adajio-allegrosi” shaklida yaratilgan. Birinchi qismning ekspozitsiyasini tashkil qiluvchi maqom (“Segoh”) va katta ashula janriga xos bo‘lgan mavzular kompozitor tomonidan mohirona qo‘llanganini ko‘rish mumkin. Ayni “Uchinchi simfoniya”da o‘zlashtirilgan maqomlarni simfonizmlashtirish malakasi keyinchalik kompozitor tomonidan to‘qqizinchi va o‘n birinchi simfoniyalarda muvaffaqiyatli davom ettirildi. Umuman olganda, kompozitor tomonidan yaratilgan barcha 19 ta simfoniya maqom va o‘zbek musiqasiga xos ohanglardan mohirona foydalanilganini ko‘rish mumkin. Mirsodiq Tojiyevning simfonik ijodi o‘zbek kompozitorlik maktabida “Maqom-simfoniya”ning yaratilishiga poydevor bo‘ldi.

Bugungi kunda kompozitorlar ijodida maqom va maqom ohanglariga xos mavzulardan foydalanish nisbatan ko‘p uchramoqda. So‘nggi davrda ijod qilib kelayotgan bir qancha ustoz kompozitorlar: Mirhalil Mahmudov, Abdulaziz Hasanov, Oydin Abdullayeva, Sherzod Sobirovlar bilan bir qatorda Nodirbek Maharov, Viktor Xandamyan, Asadbek Turg‘unov kabi yosh ijodkorlarning ijodiy faoliyatida maqomga murojaat o‘zgacha shaklda namoyon bo‘ladi.

Xususan, Asadbek Turg‘unov talabalik yillarida yaratgan “Dukchi Eshon qo‘zg‘oloni” simfonik poemasi va Davlat Attestatsiya Komissiyasiga Bitiruv malakaviy ishi sifatida taqdim qilgan “Birinchi simfoniya”sida maqom va maqomga xos ohanglardan mohirona foydalanilganiga guvoh bo‘lish mumkin. Yosh ijodkorning “Dukchi Eshon qo‘zg‘oloni” simfonik poemasi erkin shaklda yaratilgan bo‘lib, ma‘lum bir formaga asoslanmagan. Asar 16 taktli muqaddima bilan



boshlanadi va fagot cholg‘usida ijro etiluvchi Iroq maqomidan olingan “Saraxbor Iroq” namudiga olib keladi.

Asosiy mavzu ijrosi vaqtida violonchel va kontrabas cholgʻusida ijro etiluvchi rezz uslubidagi musiqiy material asarga oʻzgacha kolorit bagʻishlaydi.

Asosiy mavzu rivojlantirilib, fagotdan klarnetga oʻtadi va ushbu ikki cholgʻuda kontrapunktik shaklda davom etadi. Asta-sekin mavzu yogʻoch damli cholgʻularda rivojlanadi va mis damli cholgʻularda navbatdagi variantlashuvga olib keladi.

Asar davomida tanlangan namud bir necha marta variantlashadi va orkestr tuttisi bilan yakunlanadi.

Navbatdagi qismda Asadbek Turgʻunov oʻziga xos topilma yaratadi. Yaʼni milliy ufor usulini ikki nimchorak hissa oshiradi va umumiy ohangni “sindiradi”.



Asarning umumiy g‘oyasidan kelib chiqib qaraydigan bo‘lsak, ushbu o‘rta qism Chor Rossiyasi zulmi va qo‘zg‘olon mavzusini ifodalashini ko‘rish mumkin.


Navbatdagi qismda asarga talqin usuli kirib keladi va kompozitor ushbu usul asosida o‘z ohangini kiritadi. Mavzuni esa torli cholg‘ular ijro etadi. Sababi esa, torli cholg‘ular imkoniyati bilan bog‘liq, ya’ni mavzuga

A musical score for a piece with multiple staves. The score is written in 2/4 time and consists of five staves. The first two staves are marked "con sord" and "pp". The third staff is marked "solo" and "mp". The fourth staff is marked "solo" and "mp". The fifth staff is marked "mp". The score includes various musical notations such as notes, rests, and dynamics.

kiritilgan glissando shtrixi va forshlaglar ushbu guruh cholg‘ularda milliyroq eshitiladi.

Ushbu qismdan so‘ng qo‘zg‘olon mavzusi yana bir bor kirib keladi va asosiy mavzuning reprizasiga olib boradi. So‘nggi qismni cholg‘ulashtirish texnikasi, albatta, yuqoridagidan farq qiladi.

Xotimada esa zarbul qadim usuli va torli cholg‘ular foni ostida xor kirib keladi va asosiy mavzu asosida yaratilgan materialni ijro etadi.



Asar dissonans akkordlar va umumiy dinamikaning pianissimoga harakati bilan yakunlanadi.

Umuman olganda, asarga kompozitorning maqom ohanglarini simfonizmlashtirish yoʻlidagi kichik harakati sifatida qarash mumkin. Yosh ijodkorning ushbu simfonik poemani yaratish jarayonida orttirgan malaka va tajribasi keyinchalik yaratilgan “Birinci simfoniya”sida muvaffaqiyatli qoʻllandi.

Asadbek Turgʻunovning cholgʻulashtirish texnikasi va simfonik orkestr imkoniyatlaridan unumli foydalanishi diqqatga sazovor. Kompozitorning shaxsiy cholgʻulashtirish texnikasi bor, deb bemalol aytish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, oʻzbek simfonik musiqasida “Maqom-simfoniya” yaratish muammosi haligacha dolzarb holda qolmoqda. Mirsodiq Tojiyev, Toʻlqin Qurbonov, Mirhalil Mahmudovlar bir qatorda Asadbek Turgʻunovning ijodi bu yoʻlda tashlangan muhim qadamlardan biri, albatta. Milliy musiqamiz va maqom ohanglarining jahon akademik musiqa ijodiyoti andozalari orqali dunyo sahnalarida yangrashi har birimiz uchun manfaatlidir. Bu esa milliy maqom targʻibotining dunyo darajasiga chiqishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Gʻofurbekov T. Oʻzbekiston musiqa madaniyati. T., 2018.
2. Yunusov R. Mirsodiq Tojiyev. Monografiya. T., 2018.
3. Tojiyev M. Uchinchi simfoniya. Partitura. M., 1989.
4. Asafyev B. Kelajak sari yoʻllar. Maqola. 1918.
5. Turgʻunov A. Dukchi eshon qoʻzgʻoloni, simfonik poema. Partitura. Kompozitor arxividan.

AN'ANAVIY CHOLG'ULAR IJROCHILIGINI O'QITISHDA NOTA YOZUVLARI BILAN ISHLASHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH XUSUSIDA

Oybek ERKINOV,

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI,
An'anaviy cholg'u ijrochiligi ta'lim yo'nalishi
1-kurs talabasi.*

Ilmiy rahbar: Xumoyun XAYDAROV,

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI,
"O'zbek maqomi tarixi va nazariyasi" kafedrası
katta o'qituvchisi.*

***Annotatsiya:** Maqolada an'anaviy cholg'u ijrochiligida o'quvchi va talabalarning nota yozuvlari bilan ishlash mahoratini yanada takomillashtirish, bunda jahon hamda o'zbek kompozitorlari asarlaridan ijro dasturiga kiritishning ahamiyati xususida so'z yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** musiqa, cholg'u, nota yozuvi, kompozitor, bastakor, dinamik belgi, g'ijjak, temperatsiya.*

An'anaviy musiqa ta'limining tarixi ko'p asrlik rivojlanish bosqichlari asosida bugungi kunga qadar yetib keldi. Bunda xonandalik va sozandalik ba'zan yaxlit, ba'zan esa alohida ko'rinishda shakllanib borganligi bu borada olib borilgan izlanishlardan ma'lum. An'anaviy cholg'u ijrochiligi milliy musiqa san'atimizning bir qanoti sifatida bugungi kunda ta'lim tizimida o'qitib, o'rgatib kelinmoqda. Ta'limning ustoz – shogird usuli ayniqsa o'quv jarayonlarida bosh omil bo'lib kelganligi xech kimga sir emas.

XX asr boshlarida A.Fitrat say-xarakatlari va tashabbusi bilan maqomlarimiz notaga olindi va shu asnoda o'qitish amaliyoti ilgari surildi. Bu haqida allomaning o'zi asarlarida va matbuotda e'lon qilib bordi. [1.53] Bundan tashqari jadid ziyolilari va o'sha davrning ilg'or kishilari milliy musiqamiz namunalarini, xususan Shashmaqomni notaga olish va nota orqali musiqa ta'limini rivojlantirishga katta e'tibor qaratishdi. "Shashmaqomni ilk bor V.A.Uspenskiy Ota Jalol va Ota G'iyos ijrolaridan hozirgi nota yozuviga olib nashr ettirdi ("Шашмаком,

Шест музыкальных поэм”, М. — Бухоро, 1924)» [4.1]. Keyinchalik Yunus Rajabiy tomonidan Shashmaqomning olti jildi, o‘zbek xalq musiqasining ko‘plab asarlari notaga olinishi ushbu jarayonga juda katta ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

“1972 yili Toshkent davlat konservatorivasi (hozirgi O‘zbekiston davlat konservatorivasi) da “Sharq musiqasi” kafedrasini tashkil etilgan. Keyinchalik, kafedra asosida “Musiqiy sharqshunoslik”, “An’anaviy ijrochilik” (1992 yildan) kafedralari tuzilgan” [4.1]. Milliy musiqamiz tarixidagi eng muhim yangiliklardan biri O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 maydagi “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-6000-son Farmoni [3] hamda 2020 yil 2 sentyabrdagi “Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiga san’ati instituti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 536-sonli qaroriga [3] muvofiq institutimizning tashkil etilganligi bo‘ldi. Bilim yurtimizning asosiy maqsadlaridan biri sifatida ta’lim jarayoniga o‘qitishning innovatsion shakl va metodlari hamda zamonaviy pedagogik usullarni joriy etish belgilandi.

Yuqorida sanab o‘tganimiz tarixiy jarayonlarida aksariyat asosiy maqsad milliy kuylarimizni aniq nota yozuvlari asosida olib borish ekanligini ko‘rish mumkin. Endi masalaning asosiy jihatiga e’tibor qaratsak. Ma’lumki, cholg‘u ijrochiligi tarixi rivojida ustoz – shogird an’anasi asosiy o‘rinni egallagan. Bunda ustoz ijro etgan kuylarni shogird eshitish orqali o‘rgangan. Hozirda ham cholg‘u kuylarini o‘rganishda bu usul asosiy o‘rinlardan birini egallaydi, o‘quvchilarning asosiy qismi audio yozuvlar orqali asarlarni o‘zlashtirishadi. Bu esa ularni nota yozuvlaridan uzoqlashib asosiy e’tiborni eshitib o‘rganish usuliga qaratishlariga turtki bo‘ladi. Ammo jahon tajribasi hamda o‘zbek musiqasi fidokorlarining tavsiyasiga e’tibor qaratsak kuylarni nota orqali o‘rganish bir muncha afzalliklar taqdim etadi. Bundan tashqari an’anaviy cholg‘u yo‘nalishida taxsil oladigan o‘quvchilar musiqa maktabidan toki institut ta’lim jarayonlarida ham faqatgina milliy musiqa asarlari asosida o‘qitiladi. Bu holat o‘rganuvchilarni milliy musiqamiz bilan chegaralanib qolishlariga sabab bo‘ladi. Shu o‘rinda milliy musiqa ta’limi yo‘nalishida taxsil olayotgan o‘quvchi va talabalarning ta’lim olish jarayonidagi ijro dasturiga bir oq‘uv yili davomida 2 ta jahon va o‘zbek kompozitorlari

ijodiga mansub bo'lgan asarlarni kiritish taklifini ilgari surishni lozim topdik. Shu o'rinda "bu asarlar xalq cholg'ularida ijrochilik yo'nalishlari talabalari ijro dasturidan o'rin olgan-ku" degan xaqli savol tug'ilishi mumkin. Shuni ta'kidlash lozimki, aynan akademik ijro usulida taxsil oladigan talabalar ijro dasturida milliy kuylarni ijro etish talabi mavjud. Shunday ekan an'anaviy musiqa cholg'ularini ijro etadigan talabalar (maktab o'quvchilarining ham) dasturiga ham kompozitorlik asarlarining kiritilishi manashu kabi savollarga o'rin qoldirmaydi.

Kompozitorlik asarlarini o'rganishda eng avvalo talabalarning nota bilan ishlash maxorati ortadi. Ma'lumki akademik ijro uchun mo'ljallangan asarlarning nota yozuvlari aniq, undagi talab etiladigan talablar jahon standartlariga mos darajada bo'ladi. Ushbu asarlarni o'rgangan talabada nota bilan ishlash ko'nikmasi o'z – o'zidan shakllanib rivojlanib boradi. Bu amaliyot maktab davridan boshlansa yanada yuqori natijalar beradi.

Bundan tashqari musiqiy nazariy fanlarda o'zlashtirilgan bilimlar amaliyotda qo'llash yanada kengayadi. Bu esa talabalarda ushbu fanlarga bo'lgan qiziqishni yanada orttiradi. Notalarni kuylash, ovozlarni o'zaro sadolanish jihatlari, akkordlar tuzilishi kabi muhim ma'lumotlarni o'rganishlarida ushbu amaliyotning o'rni ortib boradi. Jahon va o'zbek kompozitorlarining ijodiga qiziqish, ularning asarlari, ijod yo'lidan ilxomlanish kabi ijobiy natijalar yuzaga keladi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan xolda kompozitorlik asarlarining ta'lim jarayonlariga kiritilishi natijasida yuzaga keladigan ijobiy jihatlarni xususida quyidagicha xulosaga keldik:

- a) Talabalarning nota bilan ishlash maxorati ortadi;
- b) Solfedjio, musiqa nazariyasi hamda garmoniya fanlarida olingan bilimlar amaliyotda qo'llash yanada kengayadi;
- c) Kompozitorlar ijodiga bo'lgan qiziqish yanada ortadi;
- d) Asarlarni mustaqil taxlil qilishda jahon musiqasi janrlari bilan qiyoslash imkoniyatlari kengayadi;
- e) Ustoz va shogird uchun ijro dasturida yangi asarlardan keng foydalanish imkoni ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Fitrat A. “O‘zbek klassik musiqasi”. T.1993 y.
2. Rajabov I. “Maqomlar masalasiga doir”. Toshkent, 1963 y.
3. <https://lex.uz/uz/>
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Shashmaqom>

CHANG CHOLG‘USINING REKONSTRUKSIYA QILINISHI HAQIDA

Samandar ALIJONOV,
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMMSI
Professional ta’lim: (cholg‘u ijrochiligi)
ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi.
Ilmiy rahbar: Dilshod AKMALOV
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMMSI
katta o‘qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek milliy cholg‘u sozlaridan bo‘lgan changning tarixi va tadrijiy rivojlanishi hamda ustoz-san’atkorlar tomonidan qayta rekonstruksiya qilinishi haqida ma’lumotlar berilib, uning o‘ziga xosligi ilmiy tahliliy jihatdan yoritildi.

Kalit so‘zlar: tarix, musiqa, yog‘och, cholg‘u, chang, rekonstruksiya, lad, maqom, ustoz, mamlakat.

“Musiqiy cholg‘ular dunyosi taraqqiyotning boshqa sohalari kabi oddiydan murakkab sari takomillashib va rivojlanib, yaratilish mezonlari hamisha izlanishda bo‘lgan. Ko‘p yillik izlanishlardan so‘ng cholg‘ular va ulaming torlarini jarangdor sadolanishi uchun eng yaxshi va qulay homashyo daraxt yog‘ochi ekanligi amaliyotda o‘z isbotini topdi va tebranish mezonini jonlantiruvchi ashyolar mol, baliq, ilon va boshqa terilar uyg‘unlashtirildi. O‘tmishda musiqiy cholg‘ularning barcha qismlari yaxlit daraxt yog‘ochidan, kosasi esa o‘yib yasalgan. Inson tafakkuri, dunyoqarashi rivojlanishi natijasida cholg‘ularning yasaliş jarayoni ham o‘zgaradi, ya’ni musiqiy sozlardagi qismlari (dasta, quloqlar, kosa, xarrak) uchun turli daraxt yog‘ochlar xususiyatiga ko‘ra tanlanadi. Cholg‘u torlari ham o‘zining tadrijiy rivojlanish jarayonini bosib o‘tadi. Avvaliga ichak torlar taqilib, so‘ngra ular o‘rnini ipak,

kumush, mis, po‘lat simlar egallaydi”[1, B.19-20]. Ming afsuslar bilan ta’kidlashimiz joizki, asl hujjat va manbalarda musiqiy sozlarning tarixi qisqa satrlarda, ayrim lavhalardagina yoritilgan. Boz ustiga musiqani yozib oluvchi vositalar bo‘lmaganligi sababli, biz o‘tmish musiqa cholg‘ularining sadolanish xususiyatlari haqida aniq tasavvurga ega emasmiz.

O‘rta asr Sharq allomalarining musiqaga oid ilmiy risolalarida. shoirlar tomonidan yaratilgan badiiy asarlarida musiqiy cholg‘ularning nomlanishi va ular yaratgan muhit haqida so‘z yuritilsada, ularning yaratilish jarayoni, badiiy imkoniyatlari haqida ma’lumotlar juda oz. “Shunga qaramay tasviriy san’at va toshga o‘yilgan rasmlar orqali musiqa asboblarni ko‘rsak bo‘ladi. Ular asosan saroyda bo‘ladigan bazimlar, ovlar va to‘y marosimlarda chizilgan turli qadimiy cholg‘ular (nay, barbad chang, <arfa> qonun va bir qancha) musiqa asboblarni ko‘rsak bo‘ladi.”[2, B.335] Musiqiy sozlar tadrijiyotini kuzatish natijasida shu narsa aniqlandiki, xalq orasida qo‘llanilgan cholg‘ular katta o‘zgarishlarga duch kelmagan, bazilari esa turli sabablarga ko‘ra iste’moldan chiqib ketgan. Aynan shu cholg‘ular manbalarda tilga olinmay o‘z ochilishini kutayotgan bo‘lsa, ajab emas. Musiqiy cholg‘ularning ikkinchi omadli qismi, saroy sozandalari qo‘lida turli o‘zgarishlarga duch kelib, zamon talabiga ko‘ra rivojlanib, dunyo bo‘ylab tarqala boshlagan. Ana shunday musiqiy sozlardan biri – chang cholg‘usidir.



Musiqachilar. Ayritom peshtoqlari. I-II asrlar

“Chang” - fors tilida “ham” , “egik”, “ilgak” ma’nolarini anglatadi. She’riyat mulkining sultoni Alisher Navoiyning “Sabbayi sayyor” dostonidagi bayti bu fikrimizning isbotidir:

“Demagil chang, soliki xam qad,
Chang qadlar bila bo‘lub hamqad.
Bo‘libon ul suliqdin muxbir,
Bosh qo‘yiliqda bo‘lmog‘i zokir”. [2. b-88]

Darvesh Ali Changiy changning qadimiy o‘tmishi haqida ma’lumot beradi. Uning aytishicha changda 26 ta tor va 7 ta lad bo‘lgan. Bu changning 7 ladida 7 maqomni ijro etishgan:

1-laddan “Rost” maqomi boshlangan.

2-laddan “Navo” maqomi boshlangan.

3-laddan “Xijoz” maqomi boshlangan.

4-laddan “Zangura” maqomi boshlangan.

5-laddan “Xusayni” maqomi boshlangan.

6-laddan “Kuchek” maqomi boshlangan.

7-laddan “Iroq” maqomi boshlangan.

Lekin usta changchilar ushbu changda 12 maqomni chalishga muvaffaq bo‘lganlar. Darvesh Ali ibn Mirzo Ali ibn Xo‘ja Maxmud Marvariz shu



cholg‘uning mohir ijrochisi bo‘lgan. U yoshligidan changga mehr qo‘ydi va keyinchalik shuhrat qozondi. Shu davrning yana bir mohir changchisi Mavlono Zaynuliddin Rumi edi.

Navoiy “Sab’ ai sayyor”

XIX-XX asrlarda ham mohir ustoz va bastakorlar bo‘lgan ular chang yanada takomlashtirib rivojlantirgan. Matyusuf va Fozil Xaratovlar, Ro‘zimatxon Isaboyev, Faxriddin Sodiqov va boshqa buyuk ustozlar chang uchun ko‘p ishlar qilganlar. Qaysi biri chang uchun asar va yangilik qilgan bo‘lsa qolganlar esa chang yanada rivojlantirish uchun o‘z hisalarini qo‘shgan. Xozirgi kunda eng kotta chang ustoz Abdurahmon Xoltojiyev o‘zini chang sohasidagi barcha erishgan yutuqlari ma’lumdir.

Torli urma zarbli cholg‘u bizdan tashqari bir qancha davlatlardan ham tarqalgan. Ularni nomi, ko‘rinishi va ijro etish uslubiga egadur. Changning “Chang tenor”, “Chang bas”. Turli mamalakatlarda uchraydigan changsimon cholg‘ular ham bor. Internet axborot resurslarida berilgan ma’lumotlarga ko‘ra, mazkur cholg‘ulardan “...Belgiya-hakkebord, Belarus va Ukraina-tsimbali, Eron va Turkiyada-santur, Ruminiya-tambal va boshqa xalqlardayam o‘ziga xos bo‘lgan musiqa asbob bor. Undan tashqari har bir mamlakatning o‘ziga xos musiqa madaniyati va tarixiga ega. Ularning torli urma musiqa asboblari o‘z chalish uslubi mavjud. Osiyo xalqlari bir-birining musiqa cholg‘u o‘rganishi bilan bir-birining musiqa tarixi va madaniyatini o‘rganib kelmoqda” [4]

Zamondosh ijrochi Sirojiddin Usmonovning chang cholg‘usiga bag‘ishlab yozgan magistrlik dissertatsiyasida keltirilgan fikrlarga ko‘ra, “...1938-yil S.Didenko, A.Kevxayants, A.Petroxyans va V.Romanchenko ustalar Toshkent Davlat bilim yurti ustaxonasida chang cholgusini to‘liq xromatik tovushqatori “do” birinchi oktavadan to “re” diyez 3 oktavagacha takomillashtirilgan. Shu tariqa birinchi xromatik chang paydo bo‘ladi. Tuzuvchi A.Petroxyans bilan mohir zamonaviy va an‘naviy ustoz ijrochilar Usta Olim Komilov, Fozil Xarratov, F.Sodiqovlar birgalikda hamkorlik qilishadi. Changni mukammal takomillashtirishdagi izlanishlar davom etadi. 1943-yil Toshkent Davlat konservatoriyasi qoshidagi O‘zbek musiqa cholg‘ularini takomillashtirish uchun tajriba laboratoriyasi ochiladi.”[1, B 45]

Chang – trapetsiya shaklidagi korpusdan va unga o‘rnatilgan yog‘och dekadani iborat. Uning temir simlari dekadagi xarraklar ustidan tortilgan bo‘lib, chap tomoni temir ilmoqlarga, o‘ng tomoni esa temir quloqlarga birlashtirilib, sozlash uchun maxsus kalitdan foydalaniladi. Ijrochining o‘tirib chalishiga qulay bo‘lishi uchun changda oyoqlar o‘rnatilgan. Chang cho‘plari bambuk daraxtidan yasalgan va uning uchiga rezina yoki qattik paxta (filts) kiygizilgan maxsus cho‘p bilan chalinadi. U yetarli, baland va uzoq cho‘zilib turadigan ovoz beradi. Uning dinamik qulayliklari va texnik jihatdan imkoniyatlari juda keng. Takomillashgan changning tovush ko‘lami kengaytirilib tovushqatori “sol” kichkina oktavadan to “sol” diyez 3 chi oktavagacha bo‘ldi. Unga maxsus ovoz o‘chiradigan moslama o‘rnatildi. Ustoz Faxriddin Sodiqov changni

xromatik tuzilishiga keltirdi. Shu asosida A.I.Petrosyans changni rekonstruksiya qildi. An'anaviy ijrochilik uslubidagi mohir usta F.Sodiqov chang tovushqatoriga o'zgartirishlar kiritgan. 1-qator: bas kichik oktavada ikkita tori bor. Biri kichik oktava, ikkinchisi katta oktava. Ular "sol" kichik oktavadan, "fa" diez birinchi oktavagacha joylashgan. 2-qator: "Sol" birinchi oktavadan to "mi" ikkinchi oktavagacha joylashgan. 3-qator: "re" ikkinchi oktavadan to "do" uchinchi oktavagacha, keyingi tomoni "re"dan "mi" uchinchi oktavagacha joylashgan.

Shunday qilib, ustozning changida "re" va "mi" ikkinchi oktava simlari ikkitadan iborat. Bu esa an'anaviy changda ba'zi ornamental bezaklarni chalishni osonlashtiradi. Ko'rinib turibdiki, chang cholgusini an'anaviy ijrochilikka moslashda F.Sodiqovning xizmatlari juda katta bo'ldi. Ustoz bu harakati orqali orkestr va ansamblarda chang o'rni juda ham kottakon ahamiyatga ega boldi. Chang ansambl va orkestrlarda juda kotta rol o'ynay boshladi. Hozir kunda ham chang o'rni.

Xulosa qilib aytganda, Chang musiqa asbobi o'zining tashqi ko'rinishi va ijro uslubi bilan tubdan ajralib turadi. Buni o'qib o'rganish uchun ko'p vaqt va sabr kerak bo'ladi. Bunga erishish uchun qunt bilan o'rganib olish balki boshqa cholg'ularni ham qunt bilan egallab olish lozim. Hozirgi kunda chang cholg'usi har bir musiqa maktabda ijro etilib kelinmoqda. Chang mohir ustozlar tufayli yangi musiqa va hayot baxsh etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Usmonov S. Chang cholg'usining rekonstruksiyasi, maqom pardalariga moslashtirish. Magistrlik akademik darajasini olish uchun yozilgan diss.//UDK: 780.614.1:781.7 Toshkent – 2023.

2. Эргашева Г.Т. “Шарқ чанг (арфа)сининг миниатюралардаги акси.”//“Халқ чолғулари ижрочилигининг замонавий омиллари” мавзусидаги Республика илмий-амалий конференциясининг мақолалар тўплами. Тошкент -2015.

3. Алишер Навоий Сабъаи Сайёр. Гафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси. Т., 1991.

4.<https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Chang>

MUNDARIJA

I SHO‘BA

MUMTOZ MUSIQA TARIXI YOSHLAR NIGOHIDA

1. <i>Go‘zal RAXIMBOYEVA</i> . XORAZM MUMTOZ MUSIQA SAN‘ATIDA XARRATOVTLAR SULOLASI.....	7
2. <i>Лейла ХАН</i> . ТРАДИЦИОННАЯ МУЗЫКА В ВОСПРИЯТИИ МОЛОДЕЖИ.....	12
3. <i>Мафтуда O‘RALOVA</i> . KARIMA OLIMBOYEVA (AXMEDOVA) VA O‘ZBEK FOLKLORSHUNOSLIGI.....	17
4. <i>Sadoqat ZAYNIDDINOVA</i> . ZAYNIDDIN VOSIFIY “BADOYE‘UL VAQOE” (NODIR VOQEALAR) ASARIDAN MUSIQIY LAVHALAR.....	23
5. <i>Durdona EGAMBERDIYEVA</i> . XXI ASR MAQOMSHUNOSLIGIDA YANGI QADAMLAR.....	29
6. <i>Shohruxbek G‘ULOMOV</i> . XORAZM MAQOMLARI NOTA YOZUVI XUSUSIDA (Xorazm klassik muzikasi, Xorazm maqomlari to‘plamlari misolida).....	36
7. <i>Toxirjon SAIDXO‘JAYEV</i> . BASTAKORLIK SAN‘ATI, O‘ZBEK MILLIY MUSIQA SAN‘ATIDA SAIDXO‘JA XOLDORXO‘JAYEVNI TUTGAN O‘RNI.....	44
8. <i>Amangul DAVLETMURATOVA</i> . GENJEBAY TILEUMURATOVNING QORAQALPOQ BAXSHICHILIGIDA TUTGAN O‘RNI.....	50
9. <i>Odina KUYDIMUROTOVA</i> . “MUG‘OM OLAMI” FESTIVALI VA O‘ZBEKISTONLIK IQTIDORLI XONANDALAR.....	56
10. <i>Nazokat SAIDIKROMOVA</i> . BASTAKORLAR IJODIDA RIVOJ TOPGAN BIR KUY TARIXI.....	63
11. <i>Kamola ERGASHEVA</i> . O‘ZBEK MUMTOZ MUSIQASIDA FITRAT SIYMOSI (ABDURAUFI FITRATNING O‘ZBEK KLASSIK MUSIQASI VA UNING TARIXI RISOLASI XUSUSIDA).....	68
12. <i>Gulyuz YOQUBJONO</i> . MUMTOZ MUSIQA TARIXI VA UNING YOSHLAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI.....	74
13. <i>Jasmina MAHAMMADJONOVA</i> . O‘ZBEK MUSIQIY MANBASHUNOSLIGI YORITILISHIDA ZOKIRJON ORIPOVNING O‘RNI.....	81

14. <i>Aynura</i> TOSHBOLTAYEVA. FOLKLOR JANRINING ZAMONAVIY BASTAKORLIKDAGI O‘RNI.....	86
15. <i>Quvonchbek</i> ORTIQBOYEV. BOLALAR FOLKLOR QO‘SHIQLARI: AN‘ANA VA ZAMONAVIYLIK.....	92

II SHO‘BA

MAQOM SAN‘ATINING ILMIY-NAZARIY MASALALARI

16. <i>Madinaxon</i> DJAMIYATOVA. ATOQLI KOMPOZITOR MUSTAFO BAFOYEV IJODIDA MILLIY MEROS O‘RNI VA AHAMIYATI (“Yetti pir” oratoriyasi misolida).....	99
17. <i>Mahliyo</i> AZIZOVA. O‘ZBEK BASTAKORLIK IJODIYOTIDA SAIDJON KALONOVNING O‘RNI.....	107
18. <i>Asilaxon</i> AXMADJONOVA. MAHMUDJON TOJIBOYEV “SARAXBORI USHSHOQ”.....	113
19. <i>Sevara</i> BAHRIDDINOVA. RIDAGI RITMIK MASHQLAR (fortepiano ijrochiligi misolida).....	119
20. <i>Hadicha</i> MAMADALIYEVA. ADVORI MEZON VA AVZONI RUKNLARI (Talqini Uzzol sho‘basi misolida).....	126
21. <i>Nozimaxon</i> QOBULOVA. FARG‘ONA-TOSHKENT MAQOM CHOLG‘U YO‘LLARINING TURKUMLANISH MASALASIGA DOIR Mushkiloti Dugoh turkumi misolida.....	132
22. <i>Marjona</i> SULTONOVA. KOMPOZITOR SHERZOD SOBIROVNING UVERTYURASI HAQIDA.....	141
23. <i>Marjona</i> BAXTIYOROVA. TASNIFI BUZRUK SHAKL JIXATLARNING TA‘SNIFOTI.....	148
24. <i>Azizbek</i> IBODULLAYEV. MUSIQIY ASARLARDA “JALOLIDDIN MANGUBERDI” QIYOFASI.....	155

III SHO‘BA

MAQOM SAN‘ATINING IJROCHILIK AN‘ANALARI


25. <i>Odinaxon</i> OMONJONOVA. O‘ZBEK KOMPOZITORLARI IJODIDA MAQOMLARNING ZAMONAVIY TALQINI (yosh kompozitor Alim Mullayev asari misolida).....	161
26. <i>Sevinch</i> XOLMURODOVA. O‘ZBEK AN‘ANAVIY MUSIQASI VA UNING ASOSIY XUSUSIYATLARI.....	169

27. <i>Navro‘za</i> TURSUNALIYEVA . ATOQLI BASTAKOR NABIJON HASANOV IJODIY MEROSIDA MUMTOZ YALLA JANRI.....	176
28. <i>Muslima</i> BAXTIYOROVA . FARRUX AKRAMOV FORTEPIANO IJODIGA CHIZGILAR.....	180
29. <i>Marjona</i> AXMEDOVA . BUXORO IXTISOSLASHTIRILGAN MAQOM MAKTAB-INTERNATI FAOLIYATI.....	188
30. <i>Raushan</i> SAPARBAYEVA . QARAQALPAQ ”MUXALLES” DUWTARSHILAR ANSAMBLINE BIR NA‘ZER.....	193
31. <i>Dilnoza</i> ISKANDAROVA . FAXRIDDIN SODIQOV IJRO MAKTABI.....	198
32. <i>Axror</i> XALIMOV . KOMPOZITOR ASADBEEK TURG‘UNOVNING “DUKCHI ESHON QO‘ZG‘OLONI” SIMFONIK-POEMASI HAQIDA.....	204
33. <i>Oybek</i> ERKINOV . AN’ANAVIY CHOLG‘ULAR IJROCHILIGINI O‘QITISHDA NOTA YOZUVLARI BILAN ISHLASHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH XUSUSIDA.....	210
34. <i>Samandar</i> ALIJONOV . CHANG CHOLG‘USINING REKONSTRUKTSIYA QILINISHI XAQIDA.....	213

“YOSH MAQOMSHUNOSLAR MINBARI” Respublika talabalar ilmiy-amaliy konferensiyasidan FOTO LAVHALAR









**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
YUNUS RAJABIY NOMIDAGI
O‘ZBEK MILLIY MUSIQA SAN’ATI INSTITUTI**

“YOSH MAQOMSHUNOSLAR MINBARI”
Respublika talabalar ilmiy-amaliy konferensiyasi

Adadi 50 nusxa. Bichimi 60x84 1/16.
Bosma tabog‘i 12,25. «TimesNewRoman» garniturasini.
“BOOKMANY PRINT” MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

